# IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**N.F.Ishonqulov, M.Q.Pardayev, A.T.Ibrohimov,
K.M.Misirov, U.A.Nurmanov**

# IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit” (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

«Sano-standart» nashriyoti
Toshkent – 2014

**UO'K:** 338:657.1(075)
**KBK:** 65.053
**I-98**

**Taqrizchilar:**

Xasanov Baxodir Akramovich,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

Qurbonov Ziyat Niyazovich,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

Ushbu darslik 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» fanining nazariy va uslubiy asoslari bayon qilingan. Ushbu darslikda moliya-xo'jalik faoliyatini yurituvchi xo'jalik subyektlarida iqtisodiy tahlilning tashkiliy va huquqiy asoslari, iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari, iqtisodiy tahlilning predmeti va uning oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar, iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, tahlil jarayonida qo'llaniladigan usullar va ularning tasniflanishi, iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborotlar va ularga qo'yiladigan talablar, fan-texnika rivojlanayotgan davrda iqtisodiy tahlil jarayoniga axborot texnologiyalarini qo'llashning samarali yo'nalishlari hamda boshqa shu kabi masalalar chuqur yoritib berilgan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining ilmiy-texnik dasturlari doirasida Toshkent moliya institutida bajarilayotgan F-1-93-raqamli «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov fundamental asarlari negizida iqtisodiy sistemologiyaning nazariy-metodologik asoslari va qo'llanilishi tamoyillarini rivojlantirish» mavzusidagi fundamental grantining ilmiy-tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan.

**Iqtisodiy tahlil nazariyasi** / darslik: N.F.Ishonqulov va boshq. -T.: «Sano-standart», 2014-yil. 336 b.

X/R 2732.
...M kutubxonasi

**UO'K:** 338:657.1(075)
**KBK:** 65.053

ISBN 978-9943-4365-9-6

© «Sano-standart» nashriyoti, 2014-y.

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida, eng avvalo iqtisodiy sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish borasida aniq dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturning joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - O‘zbekistonning demokratik va bozor islohotlarini amalga oshirish, jahon hamjamiyatiga keng integratsiyalashuvi va barqaror olg‘a borishi uchun mustahkam zamin yaratishdir.

Prezidentimiz I. Karimov: «Oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa - bu izchil iqtisodiy o‘sish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va ilg‘or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo‘lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish muammosidir» deb ta’kidlagan. Bu, Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha soha korxonalarining foyda ko‘rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko‘rsatishini talab etadi.

Respublikaning iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida muhim omillar bo‘lib, ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, pul qadrsizlanishini pasaytirish, eksport hajmini oshirish va boshqa shu kabi makroiqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga mamlakatda faoliyat yuritayotgan har bir korxona, firma, kompaniyalarning xo‘jalik subyektlari sifatida rivojlantirishni taqozo etadi.

Korxona, firma va kompaniyalarning iqtisodiy mustaqil hamda moliyaviy barqaror faoliyat ko‘rsatishlarida ularni oqilona boshqarish, hisob-kitob yuritilishini bozor iqtisodiyoti talablariga moslash, moliyaviy menejment ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bor moddiy, moliyaviy va mehnat boyliklaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, natijada yuqori foyda olib, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish, rezervlar tashkil etish eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shu bois, bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish har birimizdan buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit haqida ma’lum

bilimga ega bo‘lishimizni talab etadi. Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati hisob-kitoblarning puxtaligiga, pul oqimlarini oqilona boshqarishligiga, moliyaviy masalalardagi qarorlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilinishligiga hamda moliyaviy tahlilning sifatli tashkil etilishiga uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, bozorni to‘g‘ri o‘rganishda, hamkorlarni moliyaviy ishonchliligini bila olishda, o‘zaro hisob-kitob ishlarida yutqazib qo‘ymaslik va boyliklardan o‘rinli foydalana olishda kompleks iqtisodiy tahlilning natijalariga asoslanib boshqaruv qarorlarini belgilash, foyda olishning zaruriy sharti ekanligi tajribada bir necha bor isbotlangan. Bu esa, xo‘jalik subyektlarida iqtisodiy tahlilni to‘g‘ri tashkil etish va samarali o‘tkazilishi bilan bog‘liq. Bunda iqtisodiy tahlilning fundamenti hisoblangan nazariy va uslubiy jihatlarini puxta o‘rganish, tahlilni samarali tashkil etilishiga olib keladi.

E’tiboringizga havola etilayotgan «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligida iqtisodiy tahlilning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, fan sifatida tan olinishi, O‘zbekiston Respublikasida tahlil fanining rivojlanish jarayoni, iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari, fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning tutgan o‘rni, tahlilning eng asosiy prinsiplari, iqtisodiy tahlil jarayonida qo‘llaniladigan usullar va ularning mohiyati, iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari, iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etishning nazariy va uslubiy tomonlari, kompleks iqtisodiy tahlil tizimi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash uslubiyoti, iqtisodiy tahlilda informatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriyati va ularni o‘rganishning uslubiy asoslari atroflicha keng yoritib berilgan.

Shuningdek, «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligini to‘liq o‘rgangan talaba “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanini ham chuqur o‘zlashtirishiga zamin yaratgan bo‘ladi hamda kelgusida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini iqtisodiy tahlil etish uchun muhim dastak bo‘ladi.

Oliy o‘quv yurtlarining «Biznes va boshqaruv» ta’lim sohasidagi 5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit” (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishida bilim olayotgan talabalar, ya’ni

bo'lg'usi buxgalter-auditorlar hamda magistraturaning «Soliq va soliqqa tortish», «Buxgalteriya hisobi», «Audit», «Bank auditi», «Investitsiyalarni boshqarish» kabi mutaxassisliklari uchun ham «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» darsligidan foydalanish, o'z kasbini chuqur egallashiga yordam beradi.

«Iqtisodiy tahlil nazariyasi» nomli darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi buyurtmasi asosida tayyorlandi va uslubiy kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarida foydalanishga tavsiya etildi.

Kitobxonlarni iqtisodiy tahlil uslubiyati bilan chuqur tanishtirish maqsadida har bir yoritilgan mavzudan so'ng takrorlash uchun savollar va test variantlari berilgan.

Darslikda keltirilgan analitik jadval ma'lumotlari va raqamlar respublikamizda faoliyat olib borayotgan aniq bir aksionerlik jamiyatining 2013-yillik ma'lumotlariga asoslangan holda olindi.

Ushbu darslik Toshkent moliya institutining ilmiy-uslubiy Kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

Mualliflar jamoasi mazkur darslikni tayyorlashda o'zlarining qimmatli maslahatlari bilan yaqindan yordam bergan Toshkent moliya institutining «Moliyaviy tahlil» kafedrasi mudiri, dotsent Hakimov Bunyodjon Jo'rayevichga, kafedra dotsenti Shog'iyosov Tal'at Shaxabovichga hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining «Iqtisodiy tahlil va audit» kafedrasi mudiri, professor Hasanov Bahodir Akramovichlarga chuqur minnatdorchilik bildiradi.

# I bob. IQTISODIY TAHLILNING RIVOJLANISH TARIXI VA FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

## 1.1. Bilish nazariyasi va iqtisodiy tahlil

**Bilish** – falsafa fanining fundamental uslubiy bo'limi bo'lib, u obyektiv borliqni inson ongida aks etishining o'rganilishini o'rgatadi.

Avvalo, mazkur nazariyada bilishning obyekti va subyekti tushunchasi aniqlanadi.

Birinchi tushuncha mazmunini bevosita obyektiv xatti-harakat, amaliyot, insonning moddiy faoliyati, ya'ni jamiyat rivojlanishining asosini tashkil etuvchi shaxslar tashkil etadi.

Ikkinchi tushuncha esa insonning o'zi, jamiyat, insoniyat ya'ni bilish obyektiga ijodiy yondashuvchi shaxslarni bildiradi.

Bilish obyekti va subyektining dialektik birligi uning ishonchliligini va haqqoniyligini ta'minlaydi.

Amaliyot va uning seziluvchi predmetlari - moddiy buyumlashgan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mazmundagi tomonlari bilishning obyekti hisoblanadi.

Zamonaviy fanlarning usul va uslublarini umumlashtirib aytish mumkinki, bilish jarayonida quyidagi vositalardan keng foydalaniladi: analiz va sintez, eksprement, modellashtirish. Ta'kidlash kerakki, bularning barchasini asoslaydigan hamda amalga oshiradigan shaxslardir, ya'ni mutaxassislardir. Ular mohiyatiga ko'ra barcha holatlarni yuqori darajada analiz-sintez etadigan insonning fikrlash qobiliyatidir.

Fikrlash, ijodiy jarayon sifatida tushuncha, hukm, xulosalarni o'z ichiga oladi.

Obyektiv reallik: hodisalar, buyumlar, munosabatlar, ko'rsatkichlar o'z shakli va mazmuniga hamda xususiyatlariga ko'ra farqlanadi, guruhlarga ajratiladi hamda fikrlash vositasida muayyan tushunchani hosil qiladi.

Hukm orqali nimadir tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Tahlil etilgan jarayonlar sintez etilib, xulosa chiqariladi.

Aytilganlardan ma'lum bo'lmoqdaki, bilish nazariyasi orqali o'rganilayotgan borliqni muayyan obyekti to'g'risida ishonchli va haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Barcha tarmoq fanlarning uslubiy asosi sifatida bilish nazariyasi iqtisodiy tahlilning ham mohiyati, zaruriyligi va natijasini aniqlab beradi.

Iqtisodiy tahlil - amaliy fandir. Agar u bilish nazariyasiga tayanib rivojlansa, insonning amaliy faoliyatida naflilik va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Bu esa fanning amaliy hayotda o'z o'rnini topganidan dalolat beradi.

"Tahlil" so'zi grekcha "analyzis" so'zining o'zbek tilidagi tarjimasi bo'lib, u "bo'laman" yoki "ajrataman" degan ma'noni bildiradi. Demak, tahlil deganda, tor ma'noda butunni qismlarga (unsurlarga) ajratish, bo'laklarga bo'lish yo'li bilan uning tarkibiy qisimini o'rganish tushiniladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, real voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o'rganishda faqat tahlilning o'zi yetarli bo'lmaydi. Inson tafakkuriga mos keluvchi boshqa usullardan foydalanishga ham juda ko'p hollarda katta zarurat tug'iladi. Ushbu ma'noda tahlilga juda yaqin keluvchi "sintez" usuli bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan to'plamning ayrim birliklari orasidagi aloqalar va o'zoro bog'liqliklar aniqlanadi.

"Sintez" atamasi grekcha "syntezis" so'zidan olingan bo'lib, "birlashtiraman", "qo'shaman" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi zamon dialektikasi, sintez va tahlilga real voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o'rganishning ilmiy metodlari sifatida qaraydi. Faqat tahlil va sintez birgalikdagina hodisalarni har tomonlama dialektik bog'liqlikda ilmiy o'rganish imkonini beradi.

**Analiz va sintez** (tahlil va umumlashtirish) kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo'laklarga bo'lib o'rganish tushuniladi. Umumlashtirish (sintez) esa o'rganilayotgan obyekt to'g'risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi. Unda obyektning barcha bo'laklari bo'yicha qilingan xulosa umumlashtiriladi.

O‘rganilayotgan obyekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelish uchun u tahlil qilinadi va barcha xulosalar umumlashtiriladi. Tahlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda qaraladi.

Ammo shuni e’tirof etish lozimki, tahlilning turi juda ko‘p. U tabiatda, jamiyatda va inson tafakkurida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganadi. Biz o‘rganadigan tahlil iqtisodiy tahlilning faqat mikroiqtisod darajasiga mansub xolos. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil, tahlillar tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Tahlil bilan umumlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikning iqtisodiy tahlilga tegishli qismini quyidagicha ifoda etish mumkin:

| Tahlil (analiz) | Umumlashtirish (sintez) |
|---|---|
| Hisobot yilining natijasi choraklari, oylari bo‘yicha o‘rganiladi | Hisobot yilining umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi |
| Korxona faoliyati alohida bo‘linmalari bo‘yicha o‘rganiladi | Korxonaning umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi |

Real voqelikda – tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni tahlilsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Eslab ko‘ring-a, Sizga yoshlik chog‘ingizda ota-onalaringiz muruvvatini burab qo‘ysa harakatlanuvchi o‘yinchoq mashina yoki yotqizib - turg‘izsangiz tovush chiqarib “yig‘laydigan qo‘g‘irchoq” sovg‘a qilganlarida, albatta Siz uni nima harakatga keltirayotganligini yoki nima yordamida tovush chiqarilayotganligini bilmoqchi bo‘lib uni pachoqlab “bo‘laklarga bo‘lib”, “qismlarga ajratib” ko‘rgansiz. Ko‘rinib turibdiki, insonning analitik qobiliyati uning aqlini tanigan dastlabki kunlardanoq boshlanar va bunda u hodisa va jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaydigan dastlabki usullardan biri ham tahlil bo‘lar ekan. Tahlilning vujudga kelishining tarixiy chegaralarini tavsiflashib “Yong‘oqni bo‘lishni o‘ziyoq - tahlilning boshlanishidir” deb aytishadi.

Shunday qilib, tahlil deganda, keng ma’noda butunni tarkibiy qismlarga ajratish va ularni barcha o‘zaro aloqalari hamda

bog'liqliklarini o'rganishga asoslangan atrof muhitdagi hodisa va predmetlarni bilish usuli tushiniladi.

Ma'lumki, tahlil tushinchasi juda keng ma'noga ega bo'lib, u turli soha va yo'nalishlarda qo'llanadi. Fan va amaliyotda tahlilni juda ko'p turlarini uchratish mumkin: kimyoviy, fizik, matematik, statistik, iqtisodiy va h.k. Ular albatta bir-biridan o'rganayotgan obyektlari, maqsadlari va o'rganish uslublari bilan farq qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanadigan bo'lsak, iqtisodiy tahlil o'z faoliyatida dialektikaning asosiy tamoyillariga asoslanadi. Ular quyidagilardan iborat:

-doimo harakat;
-o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik;
-sabab-oqibat;
-koordinatsiya va subkoordinatsiya;
-qarama-qarshilik;
-miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishi;
-inkorni-inkor va boshqalar.

Tahlilning xususiyati, zaruriyligi va qimmatli tomoni, u voqea-hodisalarni dinamikasini o'rganadi.

Bu jarayonda mazkur fan tadqiq qilish mumkin bo'lgan obyektiv reallik; predmet va hodisalar u yoki bu tomon hamda jihatlarga ko'ra boshqalar bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan holda, doimo harakatda, o'zgarishda deb o'rganiladi.

Iqtisodiy hodisalarni bir-birlariga bog'liqligini, o'zaro harakatlarini, alohida yuzaga chiqishini va boshqa tomonlarini o'rganmasdan turib, ularning tuzilishi, harakat qonunlari, xususiyatlarini o'rganib bo'lmaydi. Bu esa muayyan iqtisodiy obyektni muhim belgilarga ko'ra bo'laklarga bo'lib, so'ngra ularni umumiyligini ta'minlovchi jihatlarini tahlil yordamida aniqlab tegishli xulosalar olishda hamda ulardan amaliyotda foydalanishda juda muhimdir.

Inson tomonidan iqtisodiy faoliyatdagi turli voqealar kuzatilib ularning natijalari to'g'risida ma'lumotlar olinadi ya'ni faktlar to'planadi.

Ma'lumki fanda voqealar bevosita o'zi tahlil etilmaydi, balki ular qayd etilgan faktlar bo'yicha o'rganiladi.

Emperik bilishlar bo'yicha qayd etilgan faktlar fanga kiradi, qayta ishlanadi va saqlanadi. Lekin inson tomonidan qayd etilgan faktlar bir butun voqea yoki predmetni o'rganish uchun yetarli hisoblanmaydi. Buning uchun o'rganilayotgan obyekt muayyan belgilar bo'yicha guruhlar va yoki bo'laklarga ajratilishi zarur. Bulardan ma'lum bo'lmoqdaki aniq obyekt to'g'risida ilmiy faktlar to'plash, ularni tahlil qilishdan boshlanar ekan. Yuqorida aytilganlardan shu xulosaga kelish mumkinki tahlil, jamiyat yoki tabiatdagi voqea va hodisalarni o'rganish usuli bo'lib yuzaga chiqadi.

Bir butun obyektni fikran bo'laklarga bo'lib o'rganish tahlilda o'ta ahamiyatli tadqiqot usuli bo'lib hisoblanadi. Mazkur usul o'rganilayotgan hodisani ichki mohiyatini ochishda va uni turli omillarga bog'liqligini aniqlashda juda muhimdir. Bunday fikrlashda falsafaning abstrakt usul-uslublaridan keng foydalaniladi.

Tahlilda bir butun hodisa yoki predmet bo'laklarga bo'linib, uning har bir alohida tomonlari o'rganiladi. Lekin, bu bilan o'rganilayotgan obyektni to'la ma'noda tavsiflab bo'lmaydi. Buning uchun, obyektni o'rganilayotgan tomonlarini umumlashtirib, umumiy jihatlarni xosil qilish kerak. Mazkur masala sintez usuli bilan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash kerakki, hodisa yoki jarayonlar o'rganilib ilmiy xulosalar chiqarilishida tahlil va sintez usuli birgalikda harakat qiladi. Mazkur tartib obyektning dialektik birligini ta'minlaydi. Bu bilan tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisalarning dialektik birligini har tomonlama bilish mumkin.

Faktlar tahlilidan nazariy sintezga o'tish induksiya va deduksiya metodlari yordamida amalga oshiriladi.

**Induksiya** – alohida faktlar bilimidan umum bilimlarga (ya'ni qonunlar yoki boshqa amaliy va zaruriy aloqalarni aks ettiradigan) o'tish usulidir.

**Deduksiya** – fikrlarni umumiylikdan xususiylikka tatbiq etish usulidir. Bunda, umumiy tasnifdagi qonunlar, bog'likliklar xususiy tasnifga o'tkaziladi.

**Induksiya va deduksiya** kategoriyalari iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kategoriyalar iqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta'minlaydi.

Masalan, induksiya deganda o'rganilayotgan obyektning xususiylikdan umumiylikka qarab o'rganilishi tushuniladi. Bunga misol qilib mehnat unumdorligi tahlilini olish mumkin. Unga vaqt nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, uni bir soatlik mehnat unumdoligi, bir kunlik, o'n kunlik, bir oylik, bir choraklik, yarim yillik, to'qqiz oylik, bir yillik mehnat unumdorlign darajasigacha umumlashtirish mumkin. Yoki aynan ushbu ko'rsatkichni makon nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, oldin bir kishining mehnat unumdorligi, bir bo'linmaning mehnat unumdorligi va butun mehnat jamoasining umumiy mehnat unumdorligi darajasigacha o'rganish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan obyekt umumiylikdan xususiylik sari, ya'ni umumiy ko'rsatkichlardan xususiy (kichik) ko'rsatkichlarga qarab o'rganish tushuniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada foyda rejasining bajarilishini olish mumkin. Ushbu ko'rsatkich oldin butun birlashma bo'yicha o'rganiladi, so'ngra uning alohida korxonalari (firmalari) bo'yicha, ularning alohida bo'linmalari bo'yicha ketma-ketlikda o'rganilib, umumiy natijaga qaysi bo'g'in va bo'linmalarning ijobiy yoki salbiy ta'sir qilinganligi to'g'risida xulosa qilinadi.

Induksiya va deduksiya usullarining bir-biri va amaliyot bilan bog'liqligini quyidagi chizmada ifodalash mumkin:

| **Induksiya** | **Deduksiya** |
|---|---|
| Xususiylikdan umumiylik sari o'rganish | Umumiylikdan xususiy sari o'rganish |

**Makon va zamon** kategoriyalari ham iqtisodiy tahahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo'jalik yurituvchi subyektda) ma'lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bo'ladi. Shu tufayli zamonning o'tishi bilan makondagi natija o'zgaradi va uning teskarisi, ya'ni makonning o'zgarishi bilan zamon o'tgandan keyin natnja boshqacha bo'lishi mumkin.

Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo'jalik yurituvchi subyektlarni misol keltirish mumkin. Bular

tahlilning obyekti. Zamon deganda esa ularning ma'lum bir hisobot davri tushuniladi. Makonda sodir bo'lgan jarayonlar ma'lum bir hisobot davri (zamon) o'tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma'lumot manbai bo'lib hisoblanadi.

Makon va zamon o'rtasidagi hamda ularning amaliyot bilan bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

| MAKON | ZAMON |
|---|---|
| Korxona, firma kabi xo'jalik yurituvchi subyektlar | Hisobot davri (oy, chorak, yarim yillik va yillik) |

**Sabab va oqibat** kategoriyasi ham bevosita iqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko'rsatkich natija ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak - oqibatdir. Ammo shu oqibat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Uning zamirida bir qancha sabablar bor. Bu sabablarni iqtisodiy tahlilda omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi (oqibat) bir qancha omillarga, ya'ni xodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unumdorligi, qo'llanilayotgan texnologik jarayon, xom ashyoning o'z vaqtida sifatli ta'minoti kabi omillarga (sabablarga) bog'liq.

Iqtisodiy tahlilda natija o'zgarishiga omillar ta'siri aniq malumotlar asosida aniqlanadi. Demak, sababning oqibatga ta'siri o'rganiladi. Bular o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

| SABAB | OQIBAT |
|---|---|
| OMILLAR | NATIJA |
| Xodimlar soni, mehnat unimdorligi va h.k | Mahsulot hajmi |

Sabab oqibatga olib kelganidek, omillar tasiri ham biror natijaga olib keladi. (Ijobiy sabab yaxshi oqibat, ijobiy omil yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta'siri natijaning pasayishiga olib keladi.

**Shakl va mazmun** kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, iqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o'zgarishi mazmun o'zgarishiga, mazmunning o'zgarishi shakl o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog'liqlik juda yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroylik va chidamlik bo'lishi uchun unga qimmatbaho materiallar, turli bezaklar ishlatiladi. Natijada uning mazmuni chidamliligi, narxining nisbatan qiimatligi bilan o'zgaradi. Yoki oddiy material o'rniga sifatli material ishlatib uning mazmunini boyitish kerak bo'lsa, albatta shakli ham o'zgaradi.

Shu jihatdan iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun bir-biriga uzviy dialektik aloqada bo'lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo'llaniladi. Masalan, biror birlashma tarkibida korxonalar soni uning shaklini tashkil qilsa, ularning nima bilan shug'ullanishi, qanday, texnologiya ishlatilishi, qanaqa kadrlar bilan ta'minlanganligi kabi jihatlar uning mazmunini tashkil qiladi. Bular o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

| Shakl | Mazmun |
|---|---|
| Mahsulot turi | Uning sifati, tarkibi va h.k |

**Miqdor va sifat** kategoriyasi, ham iqtisodiy tahlilda, ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko'rsatkichlarda ifodalashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Masalan, korxonada band bo'lgan xodimlar soni miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, ularning mehnat unumdorligi sifat ko'rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko'rsatkich. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko'rsatkichidir. Yana boshqa bir misol. Jamoa xo'jaligining bir yilda yetishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdor ko'rsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi to'rtinchi navga topshirildi. Bular paxtaning sifat ko'rsatkichlari. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat ko'rsatkichlariga misol bo'ladi.

Ular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

| Miqdor | Sifat |
|---|---|
| Foyda | Rentabellik |
| Paxta hajmi | Tolaning chiqishi |

Ushbu bobda iqtisodiy tahlilning ayrim metodologik asoslariga to'xtaldik. Falsafiy kategoriyalar hayot inikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ijtimoiy hayotning bir bo'lagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan iqtisodiy tahlil shu falsafiy katetoriyalarga asoslanadi.

Mazkur usullar yordamida iqtisodiy hodisalarni ham xususiy, ham umumiy jihatlari o'rganilib, tegishli xulosalar olinib, amaliyotga tatbiq etiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan bilishning elementlari, usullari (dialektika, analiz, sintez, induksiya va deduksiya) iqtisodiy-tahlil fanida ham iqtisodiy voqea va jarayonlarning o'rganishni asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlil aytib o'tilgan umumiy usullar va xususiy jihatlar bilan birgalikda alohida fan sifatida yuzaga chiqib, korxonalarni tadqiq qilish tizimiga ega bo'ladi.

## 1.2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan insoniyat ongi rivojlanib va takomillashib borgan. Insoniyat ongi rivojlanishi natijasida borliqni o'rganish borasida turli fikr va qarashlar paydo bo'la boshlagan. Fikrlarning shakllanib, takomillashib borishi natijasida ma'lum bir fanlarga asos solingan.

Har qanday fanning vujudga kelishi uchun hayotiy zaruriyat tug'ilishi lozim. Shu tufayli fanning shakllanishi biror shaxsning ijod mahsuli bo'lib qolmasdan, balki obyektiv jarayonga tayanadi.

Xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish fani ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan buxgalteriya uchyoti va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan. Bu uchun esa obyektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi asar XV asrda Reguzda paydo bo'ldi. Bunga misol qilib Vendrikt Katrulinning 1458-yilda

nashr qilingan «Savdo va xususiy savdogar» nomli kitobini keltirish mumkin. Buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan ikkinchi asar 1494-yilda Venetsiyada nashr qilingan Luka Pacholining «Schyotlar va yozuvlar haqida»gi kitobidir. Ushbu kitoblarda buxgalteriya hisobining savdo va kredit operatsiyalari yoritilgan. Shunday qilib, hozirgi buxgalteriya hisobi faniga o'sha paytlarda asos solingan. Bu fan xo'jalik yuritishda asosiy dastak sifatida hamon takomillashib va zamonaviylashib kelmoqda.

Barcha fanlar qatori buxgalteriya hisobi ham o'z tarixi davomida takomillashib, bir qancha boshqa fanlarning vujudga kelishi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki, ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, korxonalarning yiriklashuvi, xo'jalik faoliyatining kengayishi iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hisob ishlarini takomillashtirish zaruratini tug'dirdi. Shu bois, XVI–XVII asrlarda buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan kitoblar Gollandiya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda chop etildi. Natijada buxgalteriya yer kurrasining bir qismida emas, balki, barcha mamlakatlarda keng yoyila boshladi.

Rossiyada buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlar XVIII asrda paydo bo'la boshlagan. Oldin chet el adabiyotlari rus tiliga tarjima qilingan bo'lsa, so'ngra rus olimlari ham bu fanga bag'ishlangan asarlarni chop etishga kirishganlar.

Rus olimlarining buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlari XIX asrda paydo bo'la boshlagan. Bunga V. S. Nemchinovning 1840-yilda nashr qilingan ikki qismdan iborat «Hisob fani» asarini misol keltirish mumkin. Bu kitobda savdo korxonalari hisobi tizimi batafsil yoritilgan. Asta-sekinlik bilan buxgalteriya hisobining prinsiplari boshqa tarmoqlar bo'yicha ham yozila boshlagan. 1861-yilda Klinchening «Qishloq xo'jaligi buxgalteriyasi», 1863-yilda «Idora bo'limi yo'riqnomasi» kitoblari dunyoga kelgan. Bu asarlar safini F.V.Ezerskiy o'zining «Uch tizimli buxgalteriya» (1870-y.), P.I.Reynbot «Fabrika schyotchiligi» (1875-y.), A.V.Prokofev «Ikkiyoqlama buxgalteriya kursi» (1884-y.) kitoblari bilan kengaytirgan.

Shu davrdagi ishlab chiqarish taraqqiyoti iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri va to'liq hisobga olishni talab qiladi. Ammo ishlab

chiqarishning takomillashib borishi, korxonalar o'rtasida erknn raqobatning vujudga kelishi buxgalteriya ma'lumotlarini chuqurroq o'rganishni va uni to'g'ri tushuntirish zaruratini tug'diradi. Bu esa o'z navbatida tahlil elementlarining vujudga kelishini taqozo qildi, chunki «tijorat sirini» takomillashtirish borasidagi juda ko'p savollarga buxgalteriya hisobi va statistika fani javob berishga qiynalib qoladi.

Korxonalarni to'g'ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatini chuqurroq o'rganishni talab qildi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba'zi ko'rsatkichlarga izoh berishni talab qildi. Bular esa o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun obyektiv asos bo'lgan.

Bular esa o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun obyektiv asos bo'lgan.

Tahlilning elementlari birinchi marta 1880-yillarga chiqa boshlagan «Schyotovodstvo» jurnalida paydo bo'la boshlagan. Shunday qilib, tahlilning ba'zi elementlari mavjud bo'lgan fan – «Balansshunoslik» fani paydo bo'lgan.

Fanning «Balansshunoslik» deb nomlanishiga asos bo'lgan, chunki o'sha paytlarda xo'jalik faoliyatining natijasi asosan buxgalteriya balansida ifoda etilgan. Balans ma'lumotlariga asosan korxonaning mablag'i yoki ular manbaining ma'lum muddatda o'zgarishi aniqlanadi. Lekin shu o'zgarishlar nima evaziga sodir bo'layotganligi, ularga qaysi omillar ta'sir ko'rsatayotganligi korxona egalari uchun muhim bo'lib bordi. Bu esa balansdagi ko'rsatkichlarni batafsil tahlil qilish zaruratini vujudga keltirdi.

Jamiyatda ishlab chiqarishning rivojlanishi iqtisodiy krizislar va raqobatni ham vujudga keltirdi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov quyidagi fikrlarini bayon etgan: "...davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini e'tiborga olgan holda, bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash muhim ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

2010-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish

va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir"[1].

Bunday sharoitda har bir korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi «tijorat siri» muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda buxgalteriya balansi ma'lumotlari yetarli bo'lmasdan qoladi. Buxgalteriya balansi bilan birgalikda boshqa ko'rsatkichlarning ifodalaydigan hisobotlar ham vujudga kela boshladi va tahlil ko'lami kengaydi. Bu vaqtgacha faqat buxgalteriya balansi tahlil qilingan bo'lsa, endi unga boshqa hisobotlar tahlili ham qo'shilib «hisobot tahlili» vujudga keldi. Shu tarzda tahlil shakllanib, rivojlanib bordi va mustaqil fan sifatida shakl topa bordi.

Iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o'ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo'ldi. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelishi tarixi, bu bo'yicha nashr qilingan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nomining ham takomillashib borganligidan dalolat beradi. Shu yo'l bilan iqtisodiy tahlil shakllandi va mustaqil fanga aylandi. Shunday qilib tahlil fani rivojlanguncha bir qancha evolyutsion yo'llni bosib o'tdi. Mazkur evolyutsion yo'l orqali tahlil fani rivojlandi va takomillashib bugungi kungi holatga keldi. Ushbu fan o'zining evolyutsion rivojlanish yo'li davomida bir qancha nomlar bilan atalgan. Dastavval, xo'jalik subyektlarining asosan balans ma'lumotlarini tahlil etish maqsadiga qaratilganligi bois sobiq ittifoq davrida tahlil fani "Balansshunoslik" deb yuritila boshlangan, ya'ni balansni o'rganuvchi, tahlil etuvchi fan deb qaralgan. Bu evolyutsion rivojlanish yo'lini quyidagi chizmada ham ko'rsatib o'tishimiz mumkin bo'ladi (1.1-chizma).

Iqtisodiy tahlilning vujudga kelish tarixini ko'z oldimizga yaqqolroq keltirish uchun shu sohaga bag'ishlangan adabiyotlarni xronologik jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

---

[1] Karimov I. "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". T.: "O'zbekiston", 2010-y. 55-56 b.

2732

Kishilik jamiyati rivojlanishi davomida bir qancha tuzimlarni o‘z boshidan o‘tkazdi. Jumladan, jamiyat taraqqiyotida sotsialistik tuzum vujudga kelgandan so‘ng tahlil fani rejali iqtisodiyotga asoslangan ko‘rsatkichlarni va buxgalteriya balansidagi moddalarni batafsilroq o‘rganishga kirishdi. Bu esa tahlil fanining ahamiyatini oshirmadi.

Sobiq ittifoqda 1920-yillarga kelib, ittifoq iqtisodchi olimlaridan R.N.Xudyakov «Анализ баланса» va «Регулярные очерки балансоведения» asarlarini, N.A. Kirarisov «Основы балансоведения» va «Ростроение балансов и анализ» asarlarini chop ettirdi. Bu kitoblarda asosan iqtisodiy tahlil bir yoqlama bo‘lib, faqat buxgalteriya balansi moddalarini tahlil qilish usullari to‘g‘risida fikr yuritilgan.




*1.1-chizma. Iqtisodiy tahlil fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonida atalgan nomlari*

30-yillarga kelib tahlilning ko‘lami kengaya bordi. Tahlil qilish uchun faqat buxgalteriya balansi moddalari emas, balki

xo'jalik faoliyatining boshqa ko'rsatkichlari ham tahlil etila boshlandi. Natijada tematik tahlil vujudga keldi va ba'zi mavzularga bag'ishlangan adabiyotlar nashrdan chiqa boshladi. Bunga misol qilib N.E.Kolosovning «Основы экономического анализа себестоимости в предприятиях» (1931-y), A.R.Aleksandrovskiyning «Калкуляция и анализ работы предприятий» (1932-y), A.F.Masanovning «Баланс и анализ хозяйсвенной деятельности предприятий» (1934-y), A.A.Afanasevning «Анализ отчета промышленных предприятий» (1938-y) kitoblarini keltirishimiz mumkin.

1940-yillarga kelib sobiq ittifoqda «Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» fani fan sifatida to'liq shakllandi. Bu davrga kelib ushbu fan bo'yicha darsliklar yaratildi va oliy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'tila boshlandi.

60-70 yillardan boshlab esa iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlil fani ixtisoslashib bordi va tahlil fanining bir qancha turlari vujudga keldi. Keyingi yillarda esa iqtisodiy tahlil fanining nazariyasi ustida ko'p ishlar olib borildi va tahlil nazariyasi fan sifatida shakllandi.

80-yillarning xususiyati shundaki, bu davrda iqtisodiy tahlil fanining nazariyasini yaratish bo'yicha hududiy maktablar vujudga keldi. Jumladan, Moskvada M.I.Bakanov va A.D.Sheremet rahbarligidagi maktab. Bular «Теория экономического анализа» kitobini 1987, 1990, 1995 va 1997-yillarda qayta nashrdan chiqardilar. Minsk olimlaridan V.V.Osmolovskiy, V.I.Strajev, L.I.Kravchenko, N.A.Rusak hamkorlikda 1989-yilda «Теория анализа хозяйственной деятельности» darsligini yaratdi. Kiyevlik olimlardan I.I.Karakoz va V.I.Samborskiy hamkorligida 1989-yilda «Теория экономического анализа» degan darslik yozildi. O'zbekistonlik olimlardan I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, M.M.To'laxo'jaeva, A.T.Ibragimov, A.Shoalimovlar hamkorlikda tahlil fanining o'zbek maktabiga asos soldilar. Endilikda barcha MDH davlatlarida «Iqtisodiy tahlil» mustaqil fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitilib kelinmoqda. Bu albatta korxonalar faoliyatini boshqarishda, uning moliyaviy barqarorligini

va raqobatbardoshliligini ta'minlashda eng muhim tadbirlardan biri bo'lib hisoblanadi.

***Fanning yuqorida ta'riflangan tadrijiy rivojlanish yo'ilidan ham ko'rinadiki, bugungi kunda iqtisodiy tahlil muhim ikkita qismga ajratilgan. Ya'ni boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlil qismlariga. Boshqaruv va moliyaviy tahlil birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy tahlilini tashkil etadi.***

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, iqtisodiy tahlil (moliyaviy va boshqaruv tahlili) ham yangilanish davrini boshdan kechirmoqda. Uning mazmuni rejaning bajarilishini tahlil qilishdan jahon andozalari talablariga javob beradigan ko'rsatkichlarni o'rganishga qaratilmoqda. Bu borada ijtimoiy mahsulotdan yalpi ichki mahsulot va shundan kelib chiqadigan ko'rsatkichlar tizimiga o'tish ko'zda tutilmoqda.

## 1.3. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilni tashkil topishi va rivojlanishi

Tabiat va jamiyatdagi hodisalar singari iqtisodiy hodisalarning ham tarkibiy qismlarini bilmay turib, ya'ni tahlil qilmay turib, ularni ilmiy jihatdan o'rganib bo'lmaydi.

Analiz iborasi «analisys» so'zidan olingan bo'lib, «bo'laman», «hal etaman» degan ma'noni bildiradi. Binobarin, tahlil murakkab hodisa va predmetlarni tarkibiy qismlarga bo'lish, ajratib qo'yish asosida ko'rsatkichlarni taqqoslash va o'rganish demakdir. Ma'lumki, korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, faoliyatning sifat va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha muvaffaqiyatlarni o'rganish va uni takomillashtirishning qulay yo'llarini belgilash – iqtisodiy tahlilni tashkil qilishning zaruriy shartlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilning roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldingi tahlil asosan, reja ko'rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, har bir xo'jalik subyekti o'z faoliyatini mustaqil ravishda boshqaradi. Bu o'z navbatida

tahlilning rolini oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy tahlil orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi hamda mamlakatning iqtisodiy salohiyati aniqlanadi. Bunda, tahlil uchun manba bo'lib, yig'ma statistik ma'lumot asos bo'la oladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan maqsad korxona va birlashmalarning ish faoliyatiga obyektiv baho berish va xo'jalik yuritishning samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir. Bunday tahlil natijalari korxonaning xo'jalik faoliyatini doimo nazorat qilib turishni, unga rahbarlik qilishda xatoga yo'l qo'ymaslikning oldini olishga xizmat qiladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish quyidagi tamoyillarga amal qilgan holda amalga oshiriladi:

- Ilmiy asoslangan tamoyil;
- Obyektivlik tamoyili;
- Tizimli va komplekslik tamoyili;
- Operativlik tamoyili;
- Umumiylik tamoyili.

Iqtisodiy tahlilning vazifasi – ushbu bandlarda keltirilgan vazifalar bilan cheklanmaydi. Korxona faoliyati shu darajada serqirraki, tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o'rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasi ham ko'p qirralidir.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo'jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va samaradorligi oshib borishi ta'minlanadi.

Iqtisodiy tahlilining asosiy vazifasi - bu korxonalar faoliyatida foyda miqdorini ko'paytirishning to'g'ri va optimal yo'llarini aniqlab berishdir. Agar korxona faoliyatida foyda miqdorining oshishiga narx-navoning ko'tarilishi yoki atrof muhitga zarar yetkazish evaziga erishilsa, buni hech qachon korxona muvaffaqiyati deb bo'lmaydi.

Iqtisodiy tahlil oldida turgan muhim vazifalardan yana biri - bu korxona mehnat jamoasi faoliyatining iqtisodiy natijasini

aniqlashdir. Tahlil qilish jarayonida tashqi va mehnat jamoasiga bog'lik omillar ahamiyatini o'rganish lozim. Bunda faqatgina erishilgan natijalarni me'yoriy yoki hisobot davri natijalari bilan taqqoslash bilan chegaralanib qolish kerak emas. Eng muhimi - mamlakat erishgan yutuqlari, raqobatbardosh mahsulot ko'rsatkichlari va dunyo ilmiy-texnika darajasi bilan solishtirish muvaffaqiyatlar garovi ekanligini unutmaslikdir.

Masalan, tahlilni quyidagi masshtablarda amalga oshirish mumkin:

- xalq xo'jalik tahlili;
- korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili.

Xalq xo'jaligi tahlilida iqtisodiyotning butun tarmog'i, ayrim regionlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi, o'sish darajasi va ularning rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari o'rganiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob va hisobotni ikki qismga bo'lish qabul qilingan:

1. Boshqaruv hisobi:
2. Moliyaviy hisob (umum buxgalteriya hisobi, xususan, soliq hisobi).

Shunga muvofiq iqtisodiy tahlil ham ikki qismga: moliyaviy va boshqaruv tahliliga bo'linadi. O'z navbatida moliyaviy tahlil tashqi va ichki moliyaviy tahlilga, boshqaruv tahlili esa ichki boshqaruv tahlilga bo'linadi.

Tashqi moliyaviy tahlil buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida, ichki moliyaviy tahlil buxgalteriya hisobi va hisoboti va tezkor hisobotlar asosida olib boriladi.

Ichki boshqaruv tahlili esa tezkor hisobotlar va boshqaruv hisoboti asosida olib boriladi.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi bu korxonani hisobotlar orqali o'tgan davrda, tahlil qilinayotgan vaqtda va kelajakda erishilgan va erishiladigan moliyaviy natijalari va moliyaviy holatiga baho berish hamda iqtisodiy tashxis quyidagidan iboratdir.

Iqtisodiy tahlilning asosiy bosqichlari:

Tahlilning maqsadini aniqlash va unga yondoshish yo'llarini belgilash. Bu bosqichda korxonani ko'rsatkichlari ularning xalq

xo'jaligi, tarmoq bo'yicha miqdorlariga, o'tgan davr va rejadagi hajmlariga. Boshqa turdagi korxonalar ko'rsatkichlariga solishtirish.

Tahlil uchun qilingan axborotlar sifatiga baho berish. Bu bosqichda axborotlarning to'g'riligini hisobotlardagi ko'rsatkichlarning tahlil talablariga javob bera olishligi tekshiriladi.

Tahlilning usullaridan foydalangan holda tahlil o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish. Ushbu bosqichda bevosita tahlil o'tkaziladi va unda uning usullari majmuasidan foydalaniladi, tegishli xulosa chiqariladi.

**1.1-jadval**

**Korxonaning iqtisodiy tahlilini o'tkazuvchilar va ularni maqsadi va manfaatlari**

| № | Tahlil qiluvchilar | Maqsadi va manfaatlari |
|---|---|---|
| 1. | Korxonani boshqaruvchilar (menenjerlar) | Moliyaviy-xo'jalik faoliyati samardorligiga baho berish, ichki imkoniyatlarni topish va ulardan foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish evaziga koxonaning moliyaviy barqarorligini, raqobatbardoshligini ta'minlash. |
| 2. | Aksiyadorlar va boshqa investorlar | O'zlari oladigan dividendlarini, aksiyaning bozor bahosini aniqlash. Korxonaning kelgusi istiqbolini bilish. |
| 3. | Soliq idoralari | Soliqlarning o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq to'laganligini tekshirish. |
| 4. | Bank muassasalari, kreditorlar | Pul mablag'lari va boshqa kredit resurslarini aniqlash, olingan kreditni va boshqa majburiyatlarni tegishli foizi bilan to'lovga qodirligi darajasini tekshirish. |
| 5. | Statistika va istiqbolni belgilash idoralari | Statistik jihatdan hisobga olish va umumlashtirish |
| 6 | Tovar jo'natuvchilar | Jo'natiladigan tovarlar uchun to'laydigan mablag'i bor yoki yo'qligini bilish. |
| 7. | Tovar oluvchilar | Mahsulot bahosining asosliligi, sifati andozaga to'g'rililigi, vaqtida etkazib bera olishini berish. |

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatichlar tizimi quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy potensialni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy potensialni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- davlat byudjeti bilan aloqalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- to'lov qobiliyati va to'lovga qodirlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Yuqorida jahon amaliyotida bir qator iqtisodiy fanlar bilan bir qatorda tahlil fanining ham shakllanishi, rivojlanishi va mustaqil fan sifatida tashkil topishining tarixiy bosqichlari haqida fikr yuritildi. Buxgalteriya hisobi fanining yaratilganligiga 500 yildan oshdi. Shu fan negizida «Iqtisodiy tahlil» fani vujudga kelganligiga ham 100 yilga yaqinlashdi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishda bu fanning roli juda katta, chunki amaliyotda iqtisodiy dastaklarning biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

90-yillarning boshlariga kelib O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach barcha sohalarda bo'lgani singari ilm-fan sohasida ham o'zining mustaqil yo'lini tanlab oldi. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy tahlilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgara boshladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishda bu fanning roli juda katta, chunki amaliyotda iqtisodiy dastaklarning biri sifatida tahlil namoyon bo'lmoqda.

Albatta, iqtisodiy tahlil ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud bo'lgan. Ammo uning maqsadi va mohiyati rejali iqtisodiyotga moslashtirilgan bo'lib, bevosita rejaning shakllanishi va bajarilishiga xizmat qilishga qaratilgan edi. Uning mazmuni esa, ma'lum darajada, mafkuraviy bo'lib, avvalo, davlat manfaatini ifodalab kelgan. Chunki, barcha mulk, uni tasarruf etish bevosita davlatning ixtiyorida edi. Endilikda iqtisodiy vaziyat tubdan o'zgardi.

Davlatning mulkka va barcha iqtisodiy jarayonlarga egaligi barham topib, ko'p mulkchilikka asoslangan, bozor munosabatlarini o'zida ifoda etadigan, mazmun jihatidan yangi iqtisodiyot

shakllanmoqda. Bu esa, shunga mos ravishda mazmunan yangi «Iqtisodiy tahlil» fanini shakllantirilishini taqozo qiladi.

Endigi «Iqtisodiy tahlil» fani, eng avvalo, hech qanday mafkuraga tobe emasligi, davlat manfaatini inkor etmagan holda, turli mulk egalarining manfaatlarini o'zida aks ettirishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu holat mazkur fanning maqsadi, vazifalari, tarkibi, unda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimini o'zgartirishni taqozo qiladi.

**Iqtisodiy tahlil** – bu iqtisodiy hodisa va jarayonlar mohiyatini anglash, tarkibiy qismlarga bo'lishga asoslangan. Ularni ko'p qirrali aloqa va bog'liqligini o'rganishdir. Tahlil fanining paydo bo'lishi har qanday yangi bilimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan obyektiv sharoit va talablarni vujudga kelishidir.

Birinchi navbatda – kompleks va tizimli tahlil bo'lgan amaliy talabning vujudga kelishi sababi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuvi, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishidir. Bunday sharoitda rivojlanmagan oddiy korxonalarda qo'llanilib kelingan tahliliy hisob – kitoblar, faraz qilishlarni qo'llanilishi rivojlangan katta korxonalar sharoitiga yetarli bo'lmay qolishi, korxona faoliyatini har tomonlama qamrab olgan kompleks iqtisodiy tahlilsiz murakkab iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va optimal qarorlar qabul qilish mushkul bo'lib qoladi.

Tahlil fanining O'zbekistonda yaratilish tarixini taxminan 5 bosqichga bo'lish mumkin (1.2-chizma).




*1.2-chizma. O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining yaratilish davrlari*

Sobiq ittifoq olimlari ichida xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo'yicha O'zbekistonlik olimlarning mavqei uzluksiz oshib bordi. Shu fanga bag'ishlangan qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi.

Respublikamizda 60-70-yillarda tahlil fanining tashkil topishi va shakllanishida asosiy mavqeini samarqandlik olimlar egallaganini e'tirof etgan holda, 80-yillarga kelib poytaxtimiz Toshkent shahrida va respublikaning boshqa hududlarida ham tahlil fani sekin asta shakllandi va rivoj topa boshladi. Bu davrga

kelib tahlil fanining rivojlanishiga mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan R.Radjapov, A.S.Sotivoldiev, Yo.Abdullaev, O.Maxmudov, X.Shodiev, N.Xan, A.Shoalimov, A.T.Ibragimov, A.Usanov, A.K.Ibragimov, B.Hasanov va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

80-yillarda Respublikaning Samarqandda yaratilgan tahlil maktabi a'zolari ham o'z an'analarini davom ettirib, yuqori va sermahsul ijod qildilar. Bu davrga kelib samarqandlik olimlardan I.T.Abdukarimov, M.Pardaev va A.A.Abdievlar hamkorlikda «Xo'jalik faoliyatining tahlili»ga bag'ishlangan to'rt tomlik albom yaratdilar.

1984-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darslik Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. Bu darslik Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlariga va «Buxgalteriya hisobi, nazorat va xo'jalik faoliyatining tahlili» bo'yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliy o'quv yurtlariga tavsiya qilindi. Bu darslikni keng jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi. Natijada 1989-yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to'ldirilgan variantida yangidan nashr qilingan.

1990-yillarning boshlariga kelib respublikamizda «Iqtisodiy tahlil» faniga oid dastlabki o'zbek tilidagi adabiyotlar nashr etila boshlandi. Ayniqsa, bu davrga kelib buxgalteriya hisobidagi axborotlarni avtomatlashtirish masalalariga keng e'tibor qaratildi. Shu yillari hisob, tahlil, statistika va reja ma'lumotlarini avtomatlashtirish bo'yicha bir qancha adabiyotlarni R.A.Abdullayev, R.I.Abdukarimov, N.A.Ibrohimov, K.U.Urazov, M.B.Abbosovlar turli nashriyotlarda chop ettirib keldilar.

90-yillarning boshlariga kelib tahlil fanining rivojlanish sohasiga yangi-yangi iqtisodchi olimlar kirib kela boshladilar. Bunday iqtisodchi olimlardan A.T.Ibrohimov, B.A.Hasanov, A.Rizaqulov, O.Bobojonov, M.To'laxo'jaeva, N.Jo'raev, O.Jumanov, M.Rahimov, A.Abduganiev, X.Musaevlar «Iqtisodiy tahlil»ning turli qirralariga bag'ishlangan asarlar yarata boshladilar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi samarqandlik olimlarni o'zbek tilida darslik yozishga da'vat etdi. Bunga rahbarlikni professor I.T.Abdukarimov o'z qo'liga oldi va nihoyat

1989 yilda I.T.Abdukarimov, M.K.Pardaev, A.A.Abdiev va V.I.Abdukarimovlar tomonidan «Matbuot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» mavzusida birinchi marta o'zbek tilida darslik vujudga keldi. U Toshkentdagi «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi. Bu darslikdagi ko'p iqtisodiy atamalar o'zbek tilida yozildi. Ammo maxsus fanlarni faqat rus tilida o'qib yurgan talabalar va o'z ishini rus tilida yuritadigan mutaxassislar uchun o'zbek tilidagi atamalarni tushunish ancha qiyin kechdi. Shu sababli bu qiyinchilikni osonlashtirish maqsadida samarqandlik olimlar «Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o'zbekcha lug'ati»ni ishlab chiqdi va 1990-yilda Samarqand kooperativ institutida va 1992-yilda Toshkentda, «O'qituvchi» nashriyotida chop etishga muvaffaq bo'ldilar.

Ushbu kitoblar, maqolalar to'plami va risolalar bozor iqtisodiyotining shakllanayotgan sharoitida tahlil fanini ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

Ma'lumki, O'zbekistonda uzoq yillar mobaynida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahlil fani asosan markaziy shaharlardagi (Moskva, Leningrad, Kiev) olimlar tomonidan tayyorlangan darsliklar asosida o'qitilib kelindi. Ammo bunda o'zimizga xos xususiyatlar aks ettirilmagan edi. Bu esa 60-yillarga kelib o'zbekistonlik olimlarni ham bu fan sohasida ijod qilishga da'vat etdi.

Markazdan chiqadigan darsliklarga muallif sifatida taklif qilinadigan bo'lindi. Jumladan, 1966-yilda Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etilgan «Matlubot kooperatsiyasi korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili» nomli darslikning mualliflari novosibirsklik L.A.Falkovichlar bilan birgalikda samarqandlik olim I.N.Toporovskiy ham taklif qilingan edi. Bu darslikda respublikamizning ba'zi xususiyatlari bnrinchi marta o'z ifodasini topdi.

Shu fan bo'yicha 1970-yilda I.T.Abdukarimov, B.A.Zalesskiy va N.Toporovskiy tomonidan Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida «Matlubot kooperatsiyasi korxona va tashkilotlari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha masalalar to'plami» o'quv qo'llanmasi birinchi marta chop etildi. Bu o'zbekistonlik

olimlarning katta ishonchga sazovor bo'lganligi va ularning tan olinganligidan dalolat edi.

Sobiq ittifoq olimlari ichida xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo'yicha o'zbekistonlik olimlarning mavqei uzluksiz oshib bordi. Shu fanga bag'ishlangan qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi. 1968-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Kooperativ savdoda muomala xarajatlari tahlili» Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida, 1971-yilda «Kooperativ savdoda chakana tovar oboroti tahlili» o'quv qo'llanmasi Moskva kooperativ instituti nashriyotida, 1973-yilda "Kooperativ savdoda foyda va rentabellik" nomli monografiyasi «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. Muallifning bu asarlari sobiq ittifoq olimlari tomonidan yuksak baholanadilar.

Shunday qilib 1970-yillarda Samarqandda prof. I.T.Abdukarimov rahbarligida tahlil maktabi tarkib topdi. Natijada Samarqand kooperativ instituti bazasida shu fanning ravnaqiga, uning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi.

1970-yillarning ikkinchi yarmiga kelib tahlilchilar safi O'zbekiston miqyosida tanila boshlandi va kengaydi. Bu fan bo'yicha o'zbek tilida darsliklar paydo bo'la boshladi. 1973-yilda «O'qituvchi» nashriyotida N.A.Xan tomonidan tayyorlangan «Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining analizi» nomli oliy o'quv yurtlari uchun darslik chop etildi. 1979-yilda O.Mahmudovning «Qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyatini analiz qilish» nomli o'rta maxsus o'quv yurtlariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmasi ham o'zbek tilida chop etildi. Bu darslik va o'quv qo'llanmalar respublikamizda iqtisodiy tahlilning taraqqiyoti va istiqboli uchun qo'yilgan ilk qadamlar edi.

Ammo respublikamizda qishloq xo'jalik institutlaridan tashqari barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarda maxsus fanlar, jumladan, iqtisodiy tahlil fani ham rus tilida o'rganilar edi. Shu tufayli qishloq xo'jaligidan tashqari sohalarda barcha asarlar rus tilida tayyorlandi va chop etildi. 1973-yilda prof. I.T.Abdukarimov va dots. M.K.Pardaevlar tomonidan «Kooperativ savdoda mehnat ko'rsatkichlari tahlili» nomli kitobi Moskvaning «Ekonomika»

nashriyotida chop etildi. Bu bilan o'zbekistonlik olimlar tematik tahlil rivojlanishiga yana bir qutlug' qadam qo'ydi,

1980-yillar O'zbekistonlik olimlar uchun juda sermahsul davr bo'ldi. I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev va A.A.Abdievlar hamkorligida «Xo'jalik faoliyatining tahlili»ga bag'ishlangan to'rt tomlik albom yaratildi. Bu albomning birinchi qismi «Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari»ga bag'ishlangan. Ushbu albomning ikkinchi tomi «Kooperativ savdoda iqtisodiy tahlil» nomi bilan ataladi. Bunda kooperativ savdo korxonalari xo'jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan. Ammo matlubot kooperatsiyasi ko'p tarmoqli soha. Shu tufayli albomning 3-tomi «Matlubot kooperatsiyasi alohida tarmoqlari xo'jalik faoliyatining tahlili» mavzusiga bag'ishlangan. Albomning bir tomi matlubot kooperatsiyasi tashkilotlarida barcha tarmoqlardan hisobot qabul qilingandan keyingi o'tkaziladigan tahlil usullarini o'z ichiga olgan. Bu «Moliyaviy holatining tahlili» deb nomlangan va bunda barcha soha bo'yicha moliyaviy holatning qanday ahvolda ekanligi to'g'risida xulosa qilishga bag'ishlangan. Ushbu tahlil usullari ham aniq chizmalar orqali yoritilgan.

1984-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darslik Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. Bu darslik Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga va «Buxgalteriya uchyoti, nazorat va xo'jalik faoliyatining tahlili» bo'yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliy o'quv yurtlariga tavsiya qilindi. Bu darslikni keng jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi. Natijada 1989-yil yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to'ldirilgan variantida yangidan nashr qilindi.

O'zbekistonlik olimlar tahlilning yangi shakli – kompleks tahlil usullarini ishlab chiqishga kirishdi. Natijada 1983-yilda prof. I.T.Abdukarimov tahririda M.Q.Pardaev va Yu.S.Sattarovlar tomonidan tayyorlangan «Chakana savdoda mehnat samaradorligini kompleks baholash» bo'yicha uslubiy tavsiya yuzaga keldi. Bu tavsiya O'zbekbirlashuv boshqaruvi tomonidan amaliyotga tadbiq qilish uchun qabul qilindi. Kompleks tahlil bo'yicha olimlarning maqolalari ittifoqda chiqadigan jurnallarda chop

etilishi ularning nufuzini yanada oshiradi. Natijada 1986-yilda o'tkazilgan. Butunittifoq ilmiy-amaliy anjumanining asosiy mavzusi ana shu muammoga qaratildi. Ilmiy-amaliy tavsiya sifatida 1986-yilda chop etilgan I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, V.I.Abdukarimov, V.N.Abramovalarning «Matlubot kooperatsiyasida sotsial-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash usuli» risolasi qabul qilindi. Bunda mualliflar samaradorlikni kompleks tahlil qilish va baholash masalalarini ko'tarib chiqdi.

Xo'jalik faoliyatini kompleks baholash borasida ilmiy izlanishlar davom etadi. Endi bir tarmoqda emas, balki ko'p tarmoqda qanday usul bilan kompleks baholash mumkinligi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va nihoyat 1990-yilda V.I.Abdukarimov tomonidan «Axborotlarni avtotmatlashtirilgan tizimi sharoitida ko'ptarmoqli matlubot kooperatsiyasi samaradorligini kompleks baholash masalalari» nomli monografiya Toshkentdagi «Mehnat» nashriyotida bosmadan chiqdi.

1990-yillarga kelib axborotlarni avtomatlashtirish masalalariga keng to'xtaldi. Shu yillari hisob, tahlil, statistika va rejalar axborotlarini avtomatlashtirish bo'yicha bir qancha adabiyotlarni R.A.Abdullaev, V.I.Abdukarimov, N.A.Ibrohimov, K.U.Urazov, M.B.Abbosovlar turli nashriyotlarda chop ettirdi .

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi O'zbekistonlik olimlarni o'zbek tilida darslik yozishga da'vat etdi. Bunga rahbarlikni yana proffesor I.T.Abdukarimov o'z qo'liga oldi va nihoyat 1989-yilda I.T.Abdukarimov, M.K.Pardaev, A.A.Abdiev va V.I.Abdukarimovlar tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» mavzusida birinchi marta o'zbek tilida darslik vujudga keldi. U Toshkentdagi «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi. Bu darslikdagi ko'p iqtisodiy atamalar o'zbek tilida yozildi. Ammo maxsus fanlarni faqat rus tilida o'qib yurgan talabalar va o'z ishini rus tilida yuritadigan mutaxassislar uchun o'zbek tilidagi atamalarni tushunish ancha qiyin kechdi. Shu sababli bu qiyinchilikni osonlashtirish maqsadida olimlar «Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o'zbekcha lug'atini» ishlab chiqdi va 1990-yilda

Samarqand kooperativ institutida va 1992-yilda Toshkentning «O'qituvchi» nashriyotida chop etishga muvaffaq bo'ldilar"

Tahlilning umumiy masalalari bilan birgalikda uning alohida sohasi bo'yicha ishlar qilindi. Jumladan, prof. D.Q.Kudbiev savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili muammolari, prof. X.A.Shodiev esa tayyorlov savdo sohasida intensivlik va samaradorlikni aniqlash hamda tahlil qilish muammolari bo'yicha ancha ishlar qildilar. Savdo korxonalarida aylanma mablag'lar tahlili bo'yicha bir qancha uslubiy tavsiyalar bilan A.Sh.Sattorov, matlubot kooperatsiyasining ishlab chiqarish korxonalarida asosiy va aylanma mablag'lar tahlili bo'yicha U.X.Xudoyberdievlar ham samarali ijod qilmoqdalar. Tahlik nazariyasi va usullarini takomillashtirishda Yo.Abdullaevning hissasi sezilarli bo'ldi.

1981-yilda D.K.Kudbiev «Savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili» kitobini, 1990-yilda «Kooperativ savdoda asosiy fondlardan foydalanish tahlilining muammolari», 1989-yilda «Kooperativ chakana savdoda asosiy fondlar samaradorligini kompleks baholash va tahlil qilish» kabi monografiya va o'quv qo'llanmalari chop etishga muvoffaq bo'ldi.

So'nggi paytlarda iqtisodiy taraqqiyotda samaradorlik va intensivlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etdi. Buni inobatga olib 1990-yilda M.Q.Pardaev va Z.N.Qurbonovlar hamkorligida «O'qituvchi», nashriyotida «Kooperativ savdoda samaradorlik va inteksivlik ko'rsatkichlari tahlil» mavzusida monografiyasi. M.K.Pardayev va Sh.U.Haydarov hamkorligida «Kooperativ savdo korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish» mavzusidagi o'quv qo'llanmalar chop etildi. Bu sohaning rivojlanyashiga X.A.Shodiyev ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qildi. 1991-yilda I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev va Sh.U.Haydarovlar hamkorlikda «Yangi xo'jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar tahlili» risolasini chop etdi. 1993-yilda Z.N.Qurbonovning «Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoda buxgalteriya uchyoti va iqtisodiy

tahlil» monografiyasi «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi. Shu yili «Zarafshon» nashriyotida muallifning «Savdoda intensivlik: mohiyati, ko'rsatkichlari va ularning oshirish yo'llari» mavzusidagi kitoblari chop etildi. Olimlar 1994–1999-yillarda tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolariga bag'ishlangan bir qancha to'plam va risolalar chop etishga muvaffaq bo'ldilar. Ushbu kitoblar, maqolalar to'plami va risolalar bozor iqtisodiyotining shakllanayotgan sharoitida tahlil fanini ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

1995–1999-yillarda O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining asosiy sohasi bo'lgan moliyaviy tahlilga bag'ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. Bular jumlasiga M.Q.Pardaevning «Moliyaviy tahlil metodologiyasi», A.Ibrohimovning «Moliyaviy tahlil» (T.: Mehnat, 1995) I.T.Abdukarimovning «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998, ikkinchi nashri 1999-yilda), I.O.Voljin va V.V.Ergashboevlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998), M. Q.Pardaev va B.I.Isroilovlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999) kabi kitoblarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, respublikamizda iqtisodiy tahlil fanining ravnaqi o'ziga xos tarixga ega. Bu fan borasida tegishli maktab shakllangan. Biroq, bu fanning ravnaqi, uning kelajagi oldinda. Bizning respublikamizda savdo va qishloq xo'jaligi sohalari bo'yicha har holda darsliklar yaratilgan, ancha ishdar qilingan. Ammo xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan bo'lgan sanoat, qurilish, transport, xizmat sohasidagi korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha hali ancha ishlar qilishi lozim. Bu sohalar bo'yicha hali darsliklar va tegishli adabiyotlar deyarli yaralatilmagan. Bu respublikamizning ravnaqi uchun, uning kelajakdagi taraqqiyoti uchun keng yo'l ochib berishiga to'sqinlik qilishi muqarrar, chunki sanoat va boshqa iqtisodiyotning taraqqiyoti o'zimizga xos bo'lmog'i lozim. Bu esa ushbu sohalar bo'yicha o'zimizga xos iqtisodiy tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Ushbu tadbirlarning amalga oshishi mustaqil davlatimizning mustaqil fani – xo'jalik faoliyati tahlilining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Bu fanning kelajakda ahamiyati keskin oshadi, chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har xil korxonalarning xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganishni, tahlil qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Resrublikasi mustaqillikka erishgach o'ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bu esa iqtisodchi olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qiladi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda «Iqtisodiy tahlil»ga oid bir necha o'nlab darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar chop ettirildi. Mustaqillik yillari tahlil fanining yuksak rivojlanish davri bo'lib qoldi. Mustaqillik yillarida oliy ta'lim standartlari hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat standartlariga asosan «Iqtisodiy tahlil» fanining yangi o'quv dasturlari yaratildi.

***O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlil quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi lozim deb hisoblaymiz:***

- raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini moliyaviy va boshqaruv jihatidan tahlil etishni takomillashtirish lozim;
- hozir respublikamizda ko'p mulkchilikka asoslangan bozor tizimidagi korxonalar vujudga keldi. Iqtisodiy tahlil ham ana shu sohaga mos rivojlanishi lozim;
- O'zbekistonda barcha sohalar bo'yicha, ayniqsa, buxgalteriya hisobining jahon andozalariga mos tizimi qabul qilinmoqda. Bu esa xalqaro andozaga mos moliyaviy va boshqaruv tahlili tizimini ham yaratishni taqozo qiladi;
- Bu fanning nazariyasini o'zimizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratish lozim;
- O'zbekistonda makroiqtisodiy tahlil amaliy jihatdan obyektiv zaruriyatga aylandi. Ammo, uning nazariyasi va metodologiyasi yaratilgan emas, shu tufayli kelajakda makroiqtisodiy tahlilni nazariy va metodologik asosi ishlab chiqilishi lozim;

• Olimlar sanoat, qurilish, transport, xizmat va boshqa iqtisodiyotning muhim sohalari bo'yicha darslik va o'quv qo'lanmalarini yaratishlari kerak;

• Iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda bu fanga tegishli ahamiyat berish va davlat ta'lim standartlariga va o'quv rejalariga kiritish lozim, deb hisoblaymiz.

Ushbu tadbirlarning amalga oshishi mustaqil davlatimizning mustaqil fani – iqtisodiy tahlilning yanada rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Bu fanning kelajakda ahamiyati keskin oshadi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoiti har xil korxonalarning xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganishni, tahlil qilishni taqozo etadi.

## 1.4. Turli mulkchilik shaklida iqtisodiyot subyektlarini to'g'ri boshqarishda tahlilning roli

Fan sifatida iqtisodiy tahlilning mazmuni eng avvalo uning boshqa amaliy fanlar tizimida bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Ana shunday funksiyalaridan biri iqtisodiy qonunlarni ta'siri xarakterini o'rganish, aniq korxona sharoitida iqtisodiy hodisa va jarayonlar qonuniyatlari va tendensiyalarini belgilash hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning yana bir funksiyasi – bu joriy va perspektiv biznes rejalarni ilmiy jihatdan asoslashdir. Boshqaruv qarorlarini va biznes rejalarni bajarilishi hamda resurslardan foydalanish ustidan nazorat qilish ham iqtisodiy tahlilning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning markaziy funksiyalaridan biri - bu ilg'or tajribalarni, fan va amaliyot yutuqlarini o'rganish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (rezervlari)ni qidirib topishdir.

Iqtisodiy tahlilning navbatdagi funksiyalari jumlasiga biznes rejalarni bajarishi, iqtisodiyotni rivojlantirishidagi erishgan darajasini va mavjud imkoniyatlardan foydalanishi bo'yicha korxona faoliyati natijalarini baholashni kiritish mumkin.

Shuningdek, iqtisodiy tahlilning eng muhim funksiyalari jumlasiga yana aniqlangan rezervlardan foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishni ham kiritish mumkin.

Shunday qilib iqtisodiy tahlilning mazmunini, iqtisodiy qonunlar ta'siri xarakterini, iqtisodiy jarayonlar qonuniyatlarini va tendensiyalarini o'rganish, joriy va perspektiv rejalarni, hamda boshqarish karorlarini ilmiy asoslanganligini tekshirish va ularni bajarilishini nazorat qilish, erishilgan darajani baholash, foydalanmayotgan imkoniyatlarni qidirib topish va ulardan foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish tashkil qiladi.

Turli mulkchilikka asoslangan iqtisodiyot bozor munosabatlarining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning subyektlari bo'lgan korxonalar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa shaxslar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida mablag'lardan to'g'ri foydalanishdan manfaatdordirlar. Bu esa sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni hamda ularni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Shu jihatdan korxona faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Korxonada boshqaruv tizimi o'z obyekti va subyektidan iborat bo'ladi.

**Boshqaruv obyekti** – bu ishlab chiqarish, subyekti esa boshqaruv tarkibidir.

Korxona faoliyatini yoki ishlab chiqarishni boshqarishda obyekt va subyekt boshqariladigan va boshqaruvchi kichik tizimni tashkil etadi.

Ularni har biri o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajaradi. Ammo, mazkur kichik tizimlar bir-birlari bilan uzluksiz va chambarchas aloqada bo'lib ayni holatda yagona tizimni tashkil qiladi.

**Boshqaruv subyekti** – boshqaruv obyektining katta-kichikligi va o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi.

Lekin, boshqaruv subyekti har doim ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlarini o'zgarishiga ko'ra obyekt shakli va unga ta'sir etuvchi usullarni belgilaydi hamda takomillashtirib boradi. Boshqaruvchi kichik tizim boshqaruv obyektni tartibga soladi,

maqsad va dasturlarni boshqaruv funksiyasiga ko'ra ishlab chiqadi va ularni nazorat etadi. Demak, boshqaruv subyekti korxona tizimida faol rol bajarar ekan.

Yana, boshqaruv subyekti boshqaruvning yetakchi funksiyalarini: marketing, rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, tartibga solish hamda nazorat va auditlarni amalga oshiradi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda korxona faoliyatining tashkil etish va yuritishni marketing qonunlari, tartiblari va tamoyillarini bilmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Chunki, marketing ilmi asosida eng maqbul dasturlar yoki rejalar ishlab chiqiladi.

Boshqaruv tizimi sifatida marketing faoliyatini asosiy tamoyillari mazmuni quyidagi ko'rinishni oladi:

- ishlab chiqarishni bozordagi talabga mos tushishi;
- bozordagi holat va korxonani haqiqiy ishlab chiqarish imkoniyati;
- xaridor va buyurtmachilar talabini yanada to'laroq qondirish;
- aniq bozorlarda mahsulot va xizmatlarni ko'zda tutilgan hajmda va belgilangan muddatda sotish;
- ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini uzoq muddatli rentabelli ishlashini ta'minlash;
- tanlab olingan marketing strategiyasi va taktikasiga qat'iy amal qilish (bozor holatini e'tiborga olgan holda);
- doimo o'zgarib turuvchi bozor holatiga va xaridor talabiga moslashish.

Mazkur sanab o'tilgan tamoyillarga amal qilish va marketing dasturini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish bevosita analitik hisob-kitoblar bilan chambarchas bog'langan. Bu jarayonlar asosida juda ko'plab iqtisodiy tahlil ishlari bajariladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- korxona iqtisodiga tashqi va ichki muhitni ko'rsatadigan ta'siri tahlili;
- bozor holati tahlili (keng ko'lamda, tovar guruhlari va alohida tovarlar bo'yicha);
- iste'mochilar va sotib oluvchilar tahlili;
- raqobat holati tahlili;

- bozordagi baho hamda o‘z baxosini belgilash taktikasi tahlili;
- moliyaviy natijalar tahlili;

O‘rganilgan tashqi va ichki muhit hamda holat, mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib korxona ishlab chiqarish faoliyati uchun joriy biznes rejasi tuziladi

Biznes rejada har bir element puxta tahlil qilish asosida belgilanadi. Chunki, ular real istiqbolli hamda eng asosiysi samarali bo‘lishi shart.

Korxonada biznes reja quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi:

1. Kirish–rezyum.
2. Ishlab chiqarish maqsadi–ishlab chiqariladigan mahsulotlar ro‘yxati (ularning afzalligi yoki farqi boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan taqqoslanadi).
3. Mahsulot sotiladigan bozor holatini belgilash (zaruriy ma’lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilish).
4. Asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha raqobatbardoshlikni aniqlash (ishlab chiqarish hajmi, sotish hajmi, mahsulot sifati, baho darajasi, o‘rtacha foyda).
5. Marketing strategiyasi.
6. Ishlab chiqarish rejasi (ishlab chiqarish quvvati, hom-ashyo resurslari, mutaxassislar).
7. Tashkiliy tamoyillar (ishlab chiqarish xizmati, ularni muvofiqlashtirish, o‘zaro harakati va bir-birini nazorat etish tartibi).
8. Tijorat tavakkali va chorasi.
9. Moliyaviy reja.
10. Moliyalashtirish strategiyasi.
11. Tovar-material ta’minoti va shu kabilar.

Albatta biznes rejaning har bir bo‘limi hisob-kitob qilinib, umumlashtirilganda korxona ishlab chiqarish faoliyatidan oladigan foydasi eng quyi ko‘rinishda tarmoqda erishilgan o‘rtacha foyda me’yoridan past bo‘lmasligi kerak.

Ko‘rinib turibdiki rejaning har bir bosqichi hamda uning elementlari tahlil asosida puxta qilib tuziladi.

Demak, ishlab chiqilgan reja vositasida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun boshqariladigan obyektni samarali funksiyasi yo‘nalishi aniq belgilanadi.

Belgilangan rejalarning amalda qanday bajarilayotgani yoki ishlab chiqarishni borishi to'g'risida real ahvolni buxgalteriya hisobi yordamida o'rganiladi. Buxgalteriya hisobida shakllangan ma'lumotlar pirovard natijada boshqaruv ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Boshqaruv qarorlari esa tahlil ma'lumotlariga asoslanadi. Demak, iqtisodiy tahlil reja, bozordagi ahvol va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida obyektdagi o'zgarishni miqdor va sifat jihatdan o'rganadi hamda baho beradi. Uning yordamida yo'l qo'yilgan kamchiliklar topiladi hamda tugatiladi, obyektni yanada rivojlantirish yo'llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta'minlaydigan yo'nalishga o'tkaziladi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini nechog'lik real qabul qilinishiga asos bo'ladi.

Demak, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlar ham iqtisodiy tahlil vositasida qayta ishlanar ekan. Bu bilan iqtisodiy tahlilning boshqaruv faoliyatidagi o'rni yanada yaqqolroq ko'rinadi.

Boshqaruv jarayonida tartibga solish funksiyasi – boshqaruvchi subyektning eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'ta muhim hisoblanadi. Bu bilan, o'rganilayotgan obyektga kompleks yondashilib, butun bir tizimni ijobiy va salbiy jihatlari nazarda tutilgan holda eng maqbul choralar yoki tadbirlar belgilanadi. Natijada, boshqaruv obyekti faoliyati yoki dasturidagi salbiy holatlar tugatiladi va boshqaruv dasturlariga aniqlik kiritiladi. Mazkur ishlar bevosita iqtisodiy tahlil yordamida amalga oshiriladi. Chunki, tartibga solinayotgan har bir obyekt har tomonlama chuqur o'rganiladi.

Boshqaruvda asosiy faoliyatni ishonchliligini ta'minlashda nazorat etishning ham roli kattadir. Uning yordamida faoliyatning borishi, ularning nechog'lik haqqoniyligi tekshiriladi. Tekshirish jarayonini sifati, ishonchliligi oshirish uchun tahlilning usullari, tamoyillaridan foydalaniladi va shu asosda kerakli xulosalar yoziladi.

Misol uchun, korxonada audit tekshirishlarida moliyaviy holat; moliyaviy barqarorlik; moliyaviy natijalar va shu kabilarni o'rganadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan boshqaruvning barcha funksiyalari korxonani iqtisodiy rivojlanishi uchun tayinlangan. Biroq, korxonani faqatgina iqtisodiy tizim deb qarash ham, unga bir

tomonlama yondashishini keltirib chiqaradi. Chunki, uning o'ziga xos moddiy-texnik, ijtimoiy, ekologik va boshqa shu kabi jihatlari ham mavjud.

Demak, korxona tizimida moddiy-texnik, ijtimoiy, ekologik jarayonlarni ham tahlil etish undagi mazkur yo'nalishdagi haqiqiy ahvol va uning takomillashtirish masalalarini o'rganadi va ularga ta'sir etadi.

Bularning natijasi esa, iqtisodiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri bilan aniqlanadi.

Fikrimizni umumlashtirib, shu narsalarni aytish mumkinki, iqtisodiy tahlil korxonani boshqarishni muhim funksiyalaridan biridir.

Uning yordamida:

a) boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslanishi ta'minlanadi;

b) mulk va mablag'lardan foydalanishning muqobillik shartlarini belgilaydi va boshqaruvchi ular qatoridan o'zi uchun maqbul bo'lgan optimal variantlarni tanlaydi;

v) istiqbolli boshqarish uchun zamin tayyorlaydi.

Bozor iqtisodiyoti – bozorning o'ziga xos qonunlari, funksiyalari va vazifalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni alohida shaklidir. Bu jarayonda bozor munosabatlarining barcha jihatlari, xususiyatlari amal qiladi.

Bozor subyektlari ya'ni ishlab chiqaruvchilar yoki xaridorlar, mavjud tarkib topgan tizimda talab va taklif, pul muomalasi, raqobat, inqiroz va shu kabi tomonlarga moslashib, o'z faoliyatini amalga oshirishi shart. Bu esa ularni mazkur sharoitda yashab qolish yoki rivojlanishini ta'minlaydi. Aks holda, ular o'zlari oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmay bozor munosabatlarida o'rinlarini yo'qotadilar.

Demak, korxonalar bozordagi mavjud holatni va o'zlaridagi ichki imkoniyatlarni chuqur o'rganmay turib faoliyatlarini amalga oshira olmaydilar yoki qo'yilgan maqsadga erisha olmaydilar.

Bozor munosabatlarida korxonalar faoliyatini boshlashi yoki davom ettirishidan oldin, dastavval uning va o'zining barcha holat va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga majbur. Natijada, tavakkalchilikka asoslangan, lekin ayni paytda ilmiy asosiga ega

bo‘lgan faoliyat dasturi ishlab chiqiladi. Dasturga amal qilish esa mablag‘lardan to‘g‘ri va samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Bozor munosabatlarini rivojlanib, tobora takomillashib borishi korxonalarda tahlil qilinadigan, o‘rganiladigan obyektlar sonini ham ko‘payitirib, murakkablashtirib bormoqda. Jumladan, bozordagi infrastruktura xizmatidan boshlab to korxonadagi ta’minot, ishlab chiqarish, sotish va boshqa hisob-kitoblar hamda moliyaviy munosa-batlargacha, qiymat yaratilishi va erishilishining barcha bosqichlari va shu kabilar ular uchun tahlil obyekti bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, 2009-yildan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi iqtisodiy tahlil ishlarida ham jiddiy kamchiliklar mavjudligini va bu borada ko‘plab ishlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Ma’lumki, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot o‘zgaruvchanlik tavsifiga ega. Korxonalar o‘z faoliyatini har doim uzluksiz uning talablarga moslashtirib boradi. Bu jarayon korxonada marketing tadqiqotlarini ishlab chiqish va unga amal qilishni talab etadi.

Demak, tashqi va ichki muhit ta’siridan kelib chiqqan holda korxonalar o‘z faoliyatini marketing yo‘nalishida olib borishga majbur. Natija esa, strategiya va taktikani hamda unga muvofiq keluvchi dasturlar va rejalarni ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Bozor sharoitida ilmiy asosda ishlab chiqilgan biznes-rejalar harakat uchun ko‘llanmadir. Rejani ilmiy asosda bo‘lishi bevosita iqtisodiy tahlil ishlari bilan bog‘langandir. Chunki, reja ko‘rsatkichlari bozordagi holat, o‘tgan yillar tajribasi, belgilangan me’yorlar, yetakchi korxonalar hamda ichki imkoniyatlar ahvolidan kelib chiqib belgilanadi.

Mazkur tadbir mulk egalari uchun o‘ta muhim hisoblanib, mablag‘lardan foydalanishda eng yaxshi deb tanlangan samarali yo‘nalishning har bir bosqichida amalga oshiriladigan xatti-harakat aniq belgilanib olinadi. Undan kutiladigan natijalar esa ilmiy asosda hisob-kitob qilinadi. Demak, rejalashtirish ishlarining har bir elementi dastavval turli usullar bilan muqobillik asosda tahlil etiladi. Natijada esa, eng maqbul faoliyat deb tanlab olingan

yo‘nalish uchun mablag‘lardan foydalanishda imkon qadar samarali chora-tadbirlar ilmiy asosda ishlab chiqiladi.

Korxonalar ishlab chiqarish va tijorat ishlarini amalga oshira boshlaganida haqiqiy ma’lumotlar olinib uni reja ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib ko‘riladi. Bu bilan rejaning naqadar realligiga baho beriladi, yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy holatlar aniqlanadi hamda qay darajada imkoniyatlar ko‘zda tutilgani o‘rganiladi. Haqiqiy ma’lumotlar bevosita bozordagi holat bilan ham bog‘lanadi. Bozordagi o‘zgarishlar va ularning korxona faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sirini tezkorlik bilan tahlil qilinadi. Shu asosda tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

Demak, bozor sharoitida iqtisodiy tahlil vositasida barcha jarayonlar aniq faktlar bilan analitik usulda tahlil qilinib, ularni sintez yo‘li bilan umumlashtirib tegishli qarorlar qabul qilinadi hamda korxona faoliyatiga ta’sir o‘tkaziladi.

Albatta, iqtisodiy tahlil bozor sharoitida faqatgina haqiqiy holatni o‘rganib uni ijobiy tomonga o‘zgartirish vazifasini bajaribgina qolmaydi. Balki uning vositasida korxona faoliyati bilan qiziquvchi tashqi shaxslar uchun ham zarur bo‘lgan ma’lumotlar tayyorlanadi. Bu bilan korxonani moliyaviy holati hamda iqtisodiy imkoniyati to‘g‘risida ham to‘la tasavvur hosil qilinadi. Natija esa, korxonaga ko‘plab hamkorlar jalb qilinish imkoniyati oshadi.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri boshqarishni ta’minlashi zarur bo‘ladi. Ammo, ko‘pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqilliq hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo‘lga kiritganlaridan so‘ng xo‘jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo‘lib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruv subyektlariga faqat axborotga ega bo‘lishning o‘zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishlash, to‘g‘ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo‘ladi.

Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlilning ikki xil yo'nalishini ko'rsatish mumkin:

1. Sanoat korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
2. Iqtisodiyot tarmoqlarining boshqa tarmoqlarini tahlil qilish.

Bunda iqtisodiy rayonlar, hududlar va butun iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish tushuniladi. Shuni aytish kerakki, iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish iqtisodiy fanlar majmuasida mustaqil o'rin olmagan bo'lib, u siyosiy iqtisod va tarmoqlar iqtisodiyoti kurslarida o'rganiladi. Holbuki, korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy fanlar qatoridan o'ziga xos mustaqil o'rin olgan.

Hozirgi sharoitda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda, iqtisodiyotdagi noqulay yo'nalishlarni tez bartaraf etishda iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta isloh qilishni jadallashtirish birinchi navbatdagi vazifadir. Iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari iqtisodiyotni boshqarishni qayta qurishning mohiyati va uni amalga oshirish tamoyillari bilan bevosita belgilanadi. Iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta qurishning mohiyati – barcha darajalarda asosan ma'muriy rahbarlik usullaridan iqtisodiy usullarga, manfaatlar orqali boshqarishga, boshqarishni keng demokratiyalashga, inson omilini butun choralar bilan kuchaytirishga o'tishdir. Hozirgi bosqichda tub islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti afzalliklarini mumkin qadar to'laroq ro'yobga chiqarish imkonini beradigan yaxlit, samarali va epchil boshqarish sistemasini vujudga keltirishni taqozo qiladi.

Xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish ko'pgina ta'sir etuvchi omillarga, shartlarga va holatlarga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, korxonalar faoliyatini boshqarishda boshqaruv funksiyasi asosiy mavqeini egallaydi, shu bilan birga tahlil ham. Ushbu funksiyalarning to'liq faoliyati va darajasi ko'p

jihatdan ularning uslubiyatiga bog'liqligi bilan, bundan tashqari boshqaruv obyektida fanning predmetini o'z vaqtida aniq tushunishi bilan ajralib turadi.

Bizga ma'lumki, odatda har qanday fan o'z predmeti orqali obyektiv borliqning qaysidir tomonlari va qismlarini tushuna oladi. Aynan bitta obyektni turli xil fanlar o'zining ixtisoslik tomonlaridan yoki aloqalaridan kelib chiqib turlicha qarashi mumkin. Ko'rinib turganidek, xo'jalik faoliyati o'zining mazmuni va strukturasi jihatidan murakkab obyekt ekanligi bilan ajralib turadi.

Shu sababli korxonalarning xo'jalik faoliyatini ko'pgina iqtisodiy fanlar hamda boshqa fanlar o'rganishi mumkin.

Har bir fan jamiyat, tabiat va idroklash, taraqqiyot haqida ma'lum bir bilim beradi. Bunday bilim berishda yoki o'rganishda tabiat va jamiyatni rivojlantirishdagi umumiy qonuniyatlariga, tamoyillariga amal qiladi.

***Iqtisodiy tahlil ham aniq fan sifatida quyidagilar haqida maxsus bilim beradi:***

- Iqtisodiy jarayon, hodisa va voqealarni rivojlanishini, o'zgarishini obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) ta'sir etuvchi omillar bilan umumiy bog'liq holda o'rganish;
- O'rganilayotgan firma, tashkilot, muassasa va uyushmalarning faoliyatini to'liq va keng o'rgangan holda aniq va xolisona baho berish;
- Ijobiy va salbiy ta'sir etgan omillarni aniqlash, raqamlarda ko'rsatish va hisoblash;
- Bor bo'lgan imkoniyatlar, samaradorlikni oshirishni yo'l-yo'riqlarini ko'rsata olish;
- Ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan jarayonga qo'llash yo'nalishlarini belgilash.

Moliyaviy va boshqaruv tahlilida o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan murakkabga yoki aksincha o'rganiladi, hamda umumiy birligi va bir-biri bilan uzviy bog'lanishi e'tiborga olinadi. Demak, xo'jalik faoliyatini tahlili firmalarning iqtisodiy faoliyatini obyektiv va subyektiv omillarni e'tiborga olib o'rganadi.

Turli mulkchilik tizimiga asoslangan iqtisod bozor mexanizmining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning subyektlari

bo'lgan korxona va tashkilotlar, alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordirlar, bu esa, albatta, sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Shu jihatdan korxona (firma) faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

### 1.5. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari (prinsiplari)

Ma'lumki, analitik tadqiqotlar,uning natijalari va ulardan ishlab chiqarishni boshqarishda foydalanish ma'lum talablarga javob berishi kerak. Bu talablar analitik tadqiqotlarni o'tkazishga o'z ta'sirini ko'rsatadi albatta. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish, o'tkazish va uning natijalarini amalda foydalanishda ularga qat'iy rioya qilinishi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko'zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun ham rejalashtirish bilan tahlil o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinib turadi. Biznes reja tuzish korxona faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi. Biznes rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarning iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o'rganuvchi va ularning tadqiq. qilish obyekti deb qarovchi alohida fanning o'zi amal

qiladigan tamoyillari mavjud bo'ladi. Tamoyillar o'rganiladigan obyektni bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi.

Shu jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari bor. Mazkur tamoyillar tahlil fani obyektlarni obyektivligini, mantiqliligini, shakl-mazmunini, miqdor-sifatini va shu kabi jihatlarni tavsiflab real voqelikni yagona tushunchasini hosil qiladi.

Bu tamoyillarning xalqaro va milliy hisob andozalari asosida quyidagi shakllarini aytib o'tish mumkin (1.2-jadval).

**1.2-jadval**

**Iqtisodiy tahlil fanining tamoyillari**

| Tamoyillar | Mazmuni |
|---|---|
| 1 | 2 |
| **Tizilmalilik** | Tahlil etilayotgan obyekt alohida bir butun tizilma yoki tizilmaning elementi deb qaraladi. |
| **Ishonchlilik** | Olingan ma'lumotlarda xato yo'qligi va haqqoniy ekanligi, realligi |
| **Taqqoslanuv-chanlik** | Ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligi, ularning bir asosli tarzda turli davrlar va boshqa korxonalar faoliyati to'g'risidagi xuddi shunday ma'lumotlar bilan qiyosiy o'rganish |
| **Betaraflilik** | Axborot foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa guruhlar manfaatlarining qondirishning o'rinsizligi |
| **Davriylik** | Olingan ma'lumotlarning davriy oralig'i, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan vaqti bilan ta'minlab turish |
| **Pulli baholash** | Barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarninng so'mda ifoda etilishi |
| **Hisobga olish** | Daromad va harajatlarning yuzaga chiqish vaqti, o'rni va markazlari bo'yicha hisobga olinishi |

| | |
|---|---|
| **Mazmunning shakldan ustunligi** | Ma'lumotlarning hisob va hisobotdagi huquqiy shaklida uning mohiyati va iqtisodiy voqeligi bo'yicha hisobga olishdagi ifodasini ustunligi |
| **Aniq baholash** | Aktivlar va foydaning joriy davr bozor narxlarida qayta ifodalanishi |
| **Uzluksizlik** | Korxona xo'jalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlarni o'z yakuniga qadar hisobda uzluksiz aks ettirilishi |
| **Iqtisodiy tahlilga davlat manfaati nuqtai nazaridan yondoshish** | Iqtisodiy hodisalarni, xo'jalik jarayonlari natijalarini baholashda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va xalqaro siyosatlarini va qonunchiliklarini inobatga olishi |
| **Ilmiylik** | Dialektik bilish nazariyasiga asoslanishi, ishlab chiqarishni rivojlantirishning iqtisodiy qonunlari talablarini hisobga olishi, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini, ilg'or tajribalarni va iqtisodiy tadqiqotning eng yangi usullarini hisobga olishi |
| **Komplekslilik** | Tahlil qilinayotgan obyektning barcha birliklari, zvenolari va tomonlarini hisobga olish hamda ularning o'zaro bog'liqliklarini atroflicha o'rganilishi |
| **Ta'sirchanlik** | Ishlab chiqarish jarayonlarining borishiga, uning natijalariga bevosita aralashishi, rezervlarni, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni qidirib topishga bevosita ta'sir ko'rsatishi |
| **Operativlik (tezkorlik)** | Iqtisodiy tahlilni o'tkazish, qarorlar qabul qilish va ularni amaliyotga joriy qilishda aniq va tezkorlikni taqozo qilinishi |
| **Samaradorligi** | Tahlilni o'tkazish uchun ketgan sarf-xarajatlar bir necha barobar qoplanishi kerakligi (o'zini oqlashi) |
| **Boshqa tamoyillar** | ..... |

## Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:

- fanning shakllanishi;
- fanning rivojlanish tarixi;
- O‘zbekistonda fanning rivojlanishi;
- tahlil so‘zining mazmuni;
- iqtisodiy tahlilining asosiy tamoyillari (prinsiplari).

## Takrorlash uchun savollar:

1. Tahlilning fan sifatida shakllanish tarixi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
2. Fanning rivojlanishiga respublikamiz olimlaridan kimlar o‘z hissasini qo‘shgan?
3. Tahlil so‘zining iqtisodiy mazmuni nimadan iborat?
4. Iqtisodiy tahlilning obyektiga nimalar kiradi?
5. Iqtisodiy tahlilning subyektlari kimlar?
6. Fanning asosiy prinsiplari (tamoyillari)ni sanab o‘ting?

## Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

**1-topshiriq**

Bilish nazariyasi va iqtisodiy tahlil to‘g‘risidagi xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlarining qarashlarini mustaqil ravishda o‘rganib chiqing va fikrlaringizni bildiring.

**2-topshiriq**

Iqtisodiy tahlilning makro va mikro darajaga bo‘linishi va tahlil obyektlarini ham ushbu darajalarga bo‘lib o‘rganishning sabablarini izohlab bering.

**3-topshiriq**

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilni rivojlantirish istiqbollarini ko‘rsatib bering.

## Test savollari:

**1.Tahlil so‘zining lug‘aviy mazmuni nimani anglatadi?**

A) “tahlil” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi;

B) “tahlil” fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi;

C) “tahlil” grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi;

D) “tahlil” inglizcha so‘zdan olinib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi.

**2.O‘zbekiston Respublikasida xo‘jalik subyektlarining yillik moliyaviy hisobot shakllariga qaysi shakllar kiritilgan?**

A) Buxgalteriya balansi, Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, ishlab chiqarish qarorlari to‘g‘risidagi hisobot;

B) Buxgalteriya balansi, Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, Debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot;

C) Buxgalteriya balansi, Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, Debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot;

D) Buxgalteriya balansi, Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, Mehnat hisoboti.

**3.Iqtisodiy tahlil .... ga bo‘linadi.**

A) Moliyaviy va boshqaruv;

B) Maxsus va iqtisodiy;

C) Umumiy va iqtisodiy;

D) Ijtimoiy va iqtisodiy.

**4. Moliyaviy tahlil ... ga bo‘linadi.**

A) Ichki va tashqi;

B) Umumiy va ichki;

C) Tarmoqlararo va tarmoq ichidagi;

D) Asosli va asossiz.

**5. Iqtisodiy tahlil fani obyekti bo‘lib nima hisoblanadi?**

A) Korxonalar, ishlab chiqarish birlashmalari, sexlar, uchastkalar;

B) Iqtisodiy tumanlar;

C) Xalq xo‘jaligi;

D) Tarmoqlar.

**6. Iqtisodiy tahlil fanini pirovard maqsadi nima?**

A) Xo‘jalik rezervini topish va ulardan to‘la-to‘kis foydalanish;

B) Mahsulot tannarxini hisoblash;

C) Mehnat unumdorligini aniqlash;

D) Asosiy vositalardan samarali foydalanish.

**7. Tahlilning eng asosiy tamoyillari qaysi javobda to‘liq aks ettirilgan?**

A) Ishonchlilik, Betaraflilik, Davriylik, Taqqoslanuvchanlik, Pulli baholash, Hisobga olish, Aniq baholash;

B) Tizilmalilik, Ishonchlilik, Betaraflilik, Davriylik, Taqqoslanuvchanlik, Pulli baholash, Hisobga olish, Mazmunning shakldan ustunligi, Aniq baholash, Uzluksizlik;

C) Tahlil dasturini tuzib olishlik, Tizilmalilik, Ishonchlilik, Betaraflilik, Davriylik, Taqqoslanuvchanlik;

D) Tizilmalilik, Ishonchlilik, Betaraflilik, Davriylik, Taqqoslanuvchanlik, Mazmunning shakldan ustunligi, Aniq baholash, Uzluksizlik.

# II bob. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

## 2.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy tahlilning mazmuni

Bozor iqtisodiyoti – bozorning o'ziga xos qonunlari, funksiyalari va vazifalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarning alohida shaklidir. Bu jarayonda bozor munosabatlarining barcha jihatlari, xususiyatlari amal qiladi.

Bozor subyektlari ya'ni ishlab chiqaruvchilar yoki xaridorlar, mavjud tarkib topgan tizimda talab va taklif, pul muomalasi, raqobat, inqiroz va shu kabi tomonlarga moslashib, o'z faoliyatini amalga oshirishi shart. Bu esa ularni mazkur sharoitda yashab qolish yoki rivojlanishini ta'minlaydi. Aks holda, ular o'zlari oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmay bozor munosabatlarida o'rinlarini yo'qotadilar.

Demak, korxonalar bozordagi mavjud holatni va o'zlaridagi ichki imkoniyatlarni chuqur o'rganmay turib faoliyatlarini amalga oshira olmaydilar yoki qo'yilgan maqsadga erisha olmaydilar.

Bozor munosabatlarida korxonalar faoliyatini boshlashi yoki davom ettirishidan oldin, dastavval uning va o'zining barcha holat va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga majbur. Natijada, tavakkalchilikka asoslangan, lekin ayni paytda ilmiy asosiga ega bo'lgan faoliyat dasturi ishlab chiqiladi. Dasturga amal qilish esa mablag'lardan to'g'ri va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Bozor munosabatlarini rivojlanib, tobora takomillashib borishi korxonalarda tahlil qilinadigan, o'rganiladigan obyektlar sonini ham ko'payitirib, murakkablashtirib bormoqda. Jumladan, bozordagi infrastruktura xizmatidan boshlab to korxonadagi ta'minot, ishlab chiqarish, sotish va boshqa hisob-kitoblar hamda moliyaviy munosa-batlargacha, qiymat yaratilishi va erishilishining barcha bosqichlari va shu kabilar ular uchun tahlil obyekti bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, 2009-yildan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi iqtisodiy tahlil ishlarida ham jiddiy kamchiliklar

mavjudligini va bu borada ko‘plab ishlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Ma’lumki, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot o‘zgaruvchanlik tavsifiga ega. Korxonalar o‘z faoliyatini har doim uzluksiz uning talablariga moslashtirib boradi. Bu jarayon korxonada marketing tadqiqotlarini ishlab chiqish va unga amal qilishni talab etadi.

Demak, tashqi va ichki muhit ta’siridan kelib chiqqan holda korxonalar o‘z faoliyatini marketing yo‘nalishida olib borishga majbur. Natija esa, strategiya va taktikani hamda unga muvofiq keluvchi dasturlar va rejalarni ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Bozor sharoitida ilmiy asosda ishlab chiqilgan biznes-rejalar harakat uchun ko‘llanmadir. Rejani ilmiy asosda bo‘lishi bevosita iqtisodiy tahlil ishlari bilan bog‘langandir. Chunki, reja ko‘rsatkichlari bozordagi holat, o‘tgan yillar tajribasi, belgilangan me’yorlar, yetakchi korxonalar hamda ichki imkoniyatlar ahvolidan kelib chiqib belgilanadi.

Mazkur tadbir mulk egalari uchun o‘ta muhim hisoblanib, mablag‘lardan foydalanishda eng yaxshi deb tanlangan samarali yo‘nalishning har bir bosqichida amalga oshiriladigan xatti-harakat aniq belgilanib olinadi. Undan kutiladigan natijalar esa ilmiy asosda hisob-kitob qilinadi. Demak, rejalashtirish ishlarining har bir elementi dastavval turli usullar bilan muqobillik asosda tahlil etiladi. Natijada esa, eng maqbul faoliyat deb tanlab olingan yo‘nalish uchun mablag‘lardan foydalanishda imkon qadar samarali chora-tadbirlar ilmiy asosda ishlab chiqiladi.

Korxonalar ishlab chiqarish va tijorat ishlarini amalga oshira boshlaganida haqiqiy ma’lumotlar olinib uni reja ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib ko‘riladi. Bu bilan rejaning naqadar realligiga baho beriladi, yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy holatlar aniqlanadi hamda qay darajada imkoniyatlar ko‘zda tutilgani o‘rganiladi. Haqiqiy ma’lumotlar bevosita bozordagi holat bilan ham bog‘lanadi. Bozordagi o‘zgarishlar va ularning korxona faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sirini tezkorlik bilan tahlil qilinadi. Shu asosda tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

Demak, bozor sharoitida iqtisodiy tahlil vositasida barcha jarayonlar aniq faktlar bilan analitik usulda tahlil qilinib, ularni sintez yo'li bilan umumlashtirib tegishli qarorlar qabul qilinadi hamda korxona faoliyatiga ta'sir o'tkaziladi.

Albatta, iqtisodiy tahlil bozor sharoitida faqatgina haqiqiy holatni o'rganib uni ijobiy tomonga o'zgartirish vazifasini bajaribgina qolmaydi, balki uning vositasida korxona faoliyati bilan qiziquvchi tashqi shaxslar uchun ham zarur bo'lgan ma'lumotlar tayyorlanadi. Bu bilan korxonani moliyaviy holati hamda iqtisodiy imkoniyati to'g'risida ham to'la tasavvur hosil qilinadi. Natija esa, korxonaga ko'plab hamkorlar jalb qilinish imkoniyati oshadi.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ammo, ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqilliq hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo'lib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruv subyektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishlash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'ladi. Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlilning ikki xil yo'nalishini ko'rsatish mumkin:

1. Sanoat korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
2. Iqtisodiyot tarmoqlarining boshqa tarmoqlarini tahlil qilish.

Bunda iqtisodiy rayonlar, hududlar va butun iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish tushuniladi. Shuni aytish kerakki, iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish iqtisodiy fanlar majmuasida

mustaqil o‘rin olmagan bo‘lib, u siyosiy iqtisod va tarmoqlar iqtisodiyoti kurslarida o‘rganiladi. Holbuki, korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy fanlar qatoridan o‘ziga xos mustaqil o‘rin olgan.

Hozirgi sharoitda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda, iqtisodiyotdagi noqulay yo‘nalishlarni tez bartaraf etishda iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta isloh qilishni jadallashtirish birinchi navbatdagi vazifadir. Iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari iqtisodiyotni boshqarishni qayta qurishning mohiyati va uni amalga oshirish tamoyillari bilan bevosita belgilanadi. Iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta qurishning mohiyati – barcha darajalarda asosan ma’muriy rahbarlik usullaridan iqtisodiy usullarga, manfaatlar orqali boshqarishga, boshqarishni keng demokratiyalashga, inson omilini butun choralar bilan kuchaytirishga o‘tishdir. Hozirgi bosqichda tub islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti afzalliklarini mumkin qadar to‘laroq ro‘yobga chiqarish imkonini beradigan yaxlit, samarali va epchil boshqarish sistemasini vujudga keltirishni taqozo qiladi.

Xo‘jalik faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish ko‘pgina ta’sir etuvchi omillarga, shartlarga va holatlarga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, korxonalar faoliyatini boshqarishda boshqaruv funksiyasi asosiy mavqeini egallaydi, shu bilan birga tahlil ham. Ushbu funksiyalarning to‘liq faoliyati va darajasi ko‘p jihatdan ularning uslubiyatiga bog‘liqligi bilan, bundan tashqari boshqaruv obyektida fanning predmetini o‘z vaqtida aniq tushunishi bilan ajralib turadi.

Bizga ma’lumki, odatda har qanday fan o‘z predmeti orqali obyektiv borliqning qaysidir tomonlari va qismlarini tushuna oladi. Aynan bitta obyektni turli xil fanlar o‘zining ixtisoslik tomonlaridan yoki aloqalaridan kelib chiqib turlicha qarashi mumkin. Ko‘rinib turganidek, xo‘jalik faoliyati o‘zining mazmuni va strukturasi jihatidan murakkab obyekt ekanligi bilan ajralib turadi.

Shu sababli korxonalarning xo‘jalik faoliyatini ko‘pgina iqtisodiy fanlar hamda boshqa fanlar o‘rganishi mumkin.

Har bir fan jamiyat, tabiat va idroklash, taraqqiyot haqida ma'lum bir bilim beradi. Bunday bilim berishda yoki o'rganishda tabiat va jamiyatni rivojlantirishdagi umumiy qonuniyatlariga, tamoyillariga amal qiladi.

***Iqtisodiy tahlil ham aniq fan sifatida quyidagilar haqida maxsus bilim beradi:***

- Iqtisodiy jarayon, hodisa va voqealarni rivojlanishini, o'zgarishini obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) ta'sir etuvchi omillar bilan umumiy bog'liq holda o'rganish;
- O'rganilayotgan firma, tashkilot, muassasa va uyushmalarning faoliyatini to'liq va keng o'rgangan holda aniq va xolisona baho berish;
- Ijobiy va salbiy ta'sir etgan omillarni aniqlash, raqamlarda ko'rsatish va hisoblash;
- Bor bo'lgan imkoniyatlar, samaradorlikni oshirishni yo'l-yo'riqlarini ko'rsata olish;
- Ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan jarayonga qo'llash yo'nalishlarini belgilash.

Moliyaviy va boshqaruv tahlilida o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan-murakkabga yoki aksincha o'rganiladi, hamda umumiy birligi va bir-biri bilan uzviy bog'lanishi e'tiborga olinadi. Demak, xo'jalik faoliyatini tahlili firmalarning iqtisodiy faoliyatini obyektiv va subyektiv omillarni e'tiborga olib o'rganadi.

Turli mulkchilik tizimiga asoslangan iqtisod bozor mexanizmining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning subyektlari bo'lgan korxona va tashkilotlar, alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordirlar, bu esa, albatta, sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Shu jihatdan korxona (firma) faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Belgilangan rejalarning amalda qanday bajarilayotgani yoki ishlab chiqarishni borishi to'g'risida real ahvolni buxgalteriya

hisobi yordamida o‘rganiladi. Buxgalteriya hisobida shakllangan ma’lumotlar pirovard natijada boshqaruv ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Boshqaruv qarorlari esa tahlil ma’lumotlariga asoslanadi. Demak, iqtisodiy tahlil reja, bozordagi ahvol va buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida obyektdagi o‘zgarishni miqdor va sifat jihatdan o‘rganadi hamda baho beradi. Uning yordamida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar topiladi hamda tugatiladi, obyektni yanada rivojlantirish yo‘llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta’minlaydigan yo‘nalishga o‘tkaziladi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini nechog‘lik real qabul qilinishiga asos bo‘ladi.

Demak, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlar ham iqtisodiy-tahlil vositasida qayta ishlanar ekan. Bu bilan tahlilning boshqaruv faoliyatini to‘g‘ri ekanligi va uning mohiyati yanada yaqqolroq ko‘rinadi.

Boshqaruv jarayonida tartibga solish funksiyasi – boshqaruvchi subyektning eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o‘ta muhim hisoblanadi. Bu bilan, o‘rganilayotgan obyektga kompleks yondashilib, butun bir tuzilmani ijobiy va salbiy jihatlari nazarda tutilgan holda eng maqbul choralar yoki tadbirlar belgilinadi. Natijada, boshqaruv obyekti faoliyati yoki dasturidagi salbiy holatlar tugatiladi va boshqaruv dasturlariga aniqlik kiritiladi. Mazkur ishlar bevosita iqtisodiy tahlil yordamida amalga oshiriladi. Chunki, tartibga solinayotgan har bir obyekt har tomonlama chuqur o‘rganiladi.

Boshqaruvda asosiy faoliyatni ishonchliligini ta’minlashda nazorat etishning ham roli kattadir. Uning yordamida faoliyatning borishi, ularning nechog‘lik haqqoniyligi tekshiriladi. Tekshirish jarayonini sifati, ishonchliligi oshirish uchun tahlilning usullari, tamoyillaridan foydalaniladi va shu asosda kerakli xulosalar yoziladi.

Misol uchun, korxonada audit tekshirishlarida moliyaviy holat; barqarorlik; natijalar va shu kabilarni o‘rganadi.

Aytib o‘tilgan barcha boshqaruv funksiyalari korxonani iqtisodiy rivojlanishi uchun tayinlangan. Biroq, korxonani faqatgina iqtisodiy tuzilma deb qarash ham, unga bir tomonlama

yondoshishni keltirib chiqaradi. Chunki, uning o'ziga hos ijtimoiy, ekologik va boshqa shu kabi jihatlari ham mavjud.

Demak, korxona tuzilmasida ijtimoiy, ekologik jarayonlarni ham tahlil etish undagi mazkur yo'nalishdagi haqiqiy ahvol va uning takomillashtirish masalalarini o'rganadi va ularga ta'sir etadi.

Bularning natijasi esa, iqtisodiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri bilan aniqlanadi.

Fikrimizni umumlashtirib, shu narsalarni aytish mumkinki iqtisodiy tahlil korxonani boshqarishning muhim funksiyalaridan biridir.

Uning yordamida:

a) boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslanishi ta'minlanadi;

b) mulk va mablag'lardan foydalanishning muqobillik shartlarini belgilaydi va boshqaruvchi ular qatoridan o'zi uchun maqbul bo'lgan optimal variantlarni tanlaydi;

v) istiqbolli boshqarish uchun zamin tayyorlaydi.

## 2.2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti

Respublikamizda raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida korxonalarning yanada rivojlanishi bevosita ularni boshqarish tizimiga bog'liqdir. Iqtisodiyotida korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun esa ular faoliyatini muttasil o'rganib, tahlil qilib turish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha boshqaruv bo'g'inlarida iqtisodiy tahlil muhim ahamiyatga egadir. Chunki, iqtisodiy tahlil vositasida axborotlar hamda ma'lumotlar o'rganilib, qayta ishlanib jamiyat hamda alohida olingan korxonalarning faoliyati tezkorlik bilan yo'lga solib turiladi.

Fan - texnika yangliklari asosida ishlab chiqarishni yangi texnika hamda texnologiya bilan ta'minlash, modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini, xo'jalik mexanizmini zamonaviy usullar hamda yangi innavatsion g'oyalar bilan takomillashtirish negizida iqtisodiyotni rivojlantirish hamda shu asosda xalqimizning farovonligini yanada yuksaltirish hozirgi davrda oldimizda turgan dolzarb vazifalardir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun

sanoat korxonalarining faoliyatini har tomonlama hamda muntazam tarzda iqtisodiy tahlil qilish darkor.

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida iqtisodiy tahlil jarayonida o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan-murakkabga yoki aksincha, umumiylikdan eng kichik omilga qadar o'rganadi hamda umumiy birligi va bir-biri bilan uzviy bog'lanishi e'tiborga olinadi. Demak, iqtisodiy tahlil fani firma va korxonalarning iqtisodiy – ijtimoiy faoliyatini obyektiv va subyektiv omillarni e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Fanning predmeti deyilganda, shu fan nimani o'rgatadi degan savolga javob berishi lozim bo'ladi. Har qanday mustaqil fan o'zining predmetiga ega. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmetiga keng ma'noda qaraydigan bo'lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan obyekt xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Lekin har bir iqtisodiy fan o'ziga xos xususiyatga, o'zi o'rganadigan predmetiga ega. Bu faqat shu fanga xos bo'lib, imkoni boricha boshqa fanlarda takrorlanmasligi lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti tom ma'noda tahlil qilinayotgan obyektning xo'jalik faoliyatidir. Ammo, «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy hisob», «Statistika», «Moliya», «Audit», «Marketing», «Menejment» kabi fanlarning ham predmeti keng ma'noda xo'jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o'rgatadi. Demak, har bir fanning, shu jumladan, «Iqtisodiy tahlil» fanining o'ziga xos va mos jihatini, unga tegishli predmetini aniqlab olish lozim.

Tahlil fani xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ammo, bu jarayonlarning sodir bo'lish paytini emas, balki uning natijasini o'rganadi, obyektda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar uning biznes rejasida ko'zda tutilgan ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo'lishini qonuniy jihatdan hujjatlashtirish bilan «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy hisob» va «Statistika» kabi fanlar shug'ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda (oy, chorak,

yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o'z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan hujjatlarga asoslanadi.

«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti haqida turli iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlarning qarashlari turlicha talqin etilgan. Masalan, iqtisodchi olim M.Q.Pardaev tahlilning predmetiga quyidagicha ta'rif bergan: «Tahlil fanining predmeti, xo'jalik faoliyatida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta'sirida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar manbaida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimi orqali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishni o'rganishdan iboratdir».

Ushbu olimning fikrlariga qo'shilgan holda, biz hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida «Iqtisodiy tahlil» fanining predmetiga quyidagicha ta'rif berishni lozim deb topdik.

***«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti deb – turli mulk shaklidagi firma, uyushma, birlashmalarda moliyaviy-xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, raqobatga chidamli bo'lib faoliyat ko'rsatishi uchun zarur texnik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, innovatsion boyliklaridan oqilona foydalanayotganligiga baho berishga aytiladi.*** Bunday o'rganishda jamiyatda amal qilayotgan obyektiv va subyektiv qonunlarga tayanadi hamda ko'pgina axborot manbalaridan foydalanadi».

Boshqacha aytganda tahlil obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarning holati va haraktini hamda ularning natijalarini o'zaro bog'liqlikda o'rganadi.

Iqtisodiy tahlilning predmetida omillar asosiy o'rinni egallaydi, chunki korxonalarning xo'jalik faoliyatida yuzaga kelgan va kelayotgan hodisa va jarayonlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, ular qandaydir obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Obyektiv va subyektiv omillarning ta'sirini boshqa fanlar o'rganmaydi, faqat bularning ta'siri iqtisodiy tahlilda o'rganiladi, shuning uchun ham iqtisodiy tahlil fani predmetining

negizida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar va ularning ta'sirini o'rganish bejiz qayd qilingan emas.

Fanning predmeti ta'rifidan shu narsa ko'rinadiki, iqtisodiy tahlil korxonalarning xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyatlari hamda ularning yakuniy moliyaviy natijalarini o'rganadi. Korxonalardagi xo'jalik jarayonlari asosiy faoliyat, ularni tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Korxonaning boshqa faoliyatlarini xo'jalik jarayonlari bilan birgalikda amalga oshiriladigan moliyaviy hamada investitsiya faoliyati, soliq to'lovlari kabi munosabatlar tashkil etadi. Iqtisodiy tahlilda korxona iqtisodi faqat dinamik holatda emas, balki statik tarzda ham o'rganiladi.

Korxona faoliyatida obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida yuzaga kelgan xo'jalik jarayonlari mazmuni quyidagicha izohlanadi.

Tahlilning predmetini o'rganishda faqat sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo etarli bo'lmas edi. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan obyektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir.

Korxonalar faoliyatiga baho berishda o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarga bog'liq bo'lgan subyektiv omillarni ham e'tiborga olib tahlil qilinadi. Subyektiv (ichki) omil deyilganda korxonalarning amaliy faoliyati bilan yuqori samaradorlikka erishish, ya'ni mehnat, moddiy va asosiy fondlardan oqilona foydalanish hisobiga ko'proq mahsulotlar ishlab chiqarishda hamda yuqori foyda olish evaziga korxonalar faoliyatini yaxshilash mumkinligini ham o'rganadi.

Obyektiv (tashqi) omillar deyilganda, korxona faoliyatiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan omillar tushuniladi, ya'ni davlat siyosatining o'zgarib turishi, bozordagi talab va taklifning o'zgarishi, baho, tabiiy omillar va hokazolar.

Iqtisodiy manbaalardan foydalanib o'rganish deyilganda esa buxgalteriya, statistik, tezkor hisob ma'lumotlaridan foydalangan holda korxona va firma faoliyati aniq raqamlar bilan o'rganiladi va

umumlashtiriladi. Chunki, iqtisodiy manbaalar korxonalarda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni aniq o'lchaydi, aks ettiradi va baho beradi.

Har qanday fanning obyekti bo'lishi lozim. Ammo, «Iqtisodiy tahlil» fanining nazariyasiga bag'ishlangan eng so'nggi adabiyotlarda ham bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu tufayli fanning predmeti bilan obyektini ko'p hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa o'z navbatida nazariy jihatdan asossiz, chalkash xulosalarga olib kelishi mumkin.

Har qanday fanning obyekti uning predmeti qayerlarda amalga oshishini ko'rsatib beradi. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda ko'p mulkchilikka asoslangan barcha yuridik va jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyatida mujassam. Shu tufayli, tahlil fanining obyektiga davlat, jamiyat tashkilotlari, uyushmalar, trestlar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik jarayonlari kiradi. Bu obyektlar iqtisodiy asosi jihatidan davlat, jamoa, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko'rsatadigan obyektlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos va mos iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanladi. Bu mustaqil yo'l bilan hamma sohada, xususan, milliy hisoblar tizimida ham jahon andozalariga bosqichma-bosqich o'tish ko'zda tutilgan. Bu esa o'z navbatida, mulk shaklidan qat'i nazar, tahlilning bir xil metodologik usulini yoritishni taqozo qiladi.

Obyektning va davrning qanday bo'lishidan qat'i nazar ushbu fan predmetining mohiyati o'zgarmasligi, obyekt esa tahlilning qaysi makonda o'tkazilishiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Shu jihatdan uning predmeti obyektidan mazmun va mohiyati jihatidan tubdan farq qiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida «Iqtisodiy tahlil»ning subyektlari bo'lib, tahlil obyektini kim tomonidan o'rganilishiga qarab belgilanadi, ya'ni hozirgi vaqtda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini juda ko'p mutaxassislar, mulkdorlar, davlat idoralari xodimlari tahlil qiladilar.

Tahlil ishlarini amalga oshiruvchi tahlil subyektlari tarkibiga korxona (firma), tashkilot va uyushmalarning oddiy xodimidan rahbar xodimigacha bo'lgan barcha xodimlari, buxgalterlar, iqtisodchilar, menejerlar, boshqaruv idorasi xodimlari, statistika idorlarari xodimlari, auditorlar, moliya tashkilotlari xodimlari, texnik xizmati xodimlari, mehnat birjasi xodimlari, atrofni muhofaza qilish tashkiloti xodimlari, marketing xizmati xodimlari, bank va birjalar xodimlari kabilar kiradi.

## 2.3. Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni boshqarishda iqtisodiy tahlilning roli keskin oshmoqda, chunki, boshqaruv tizimida oldingi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib, yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanmoqda. Rejali iqtisodiyotda tahlil asosan reja ko'rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, bozor iqtisodiyotida esa har bir xo'jalik subyekti, mulk shaklidan qat'iy nazar o'z faoliyatini yuqoridan berilgan buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki, mustaqil ravishda o'zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy tahlilning rolini yanada oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Har bir fanning vazifasi iqtisodiy shart sharoitga qarab belgilanib boriladi, lekin u oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq va keng hal etish uchun qator uslublarni qo'llaydi.

***Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini tahlil etishda iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:***

- *O'rganilayotgan obyektga (hodisaga) to'g'ri va xolisona baho berish;*
- *Korxonaning biznes rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;*
- *Tuzilgan biznes rejalarning to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish;*

- *Har bir yo'nalishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish;*
- *Biznes rejaning bajarilishi natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishi, uning iqtisodiy qudratini yaxshilanishi, har bir xo'jalik subyektining raqobatbardoshliligini oshirilishi uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o'rganish;*
- *Moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan samarali va oqilona foydalanganlikka baho berish;*
- *Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to'lovga qobiliyatliligiga baho berish hamda bu natijaga tezkor chora-tadbirlarni qo'llash yo'llarini ishlab chiqish;*
- *Xo'jalik hisobi tamoyillariga, tijorat hisob-kitoblariga amal qilishlikni muntazam tekshirib turish;*
- *Korxonalarda mavjud bo'lgan samaradorlikni oshirish yo'lida ularning imkoniyatlarini aniqlash;*
- *Korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko'rsata bilish va tashqi investorlarni korxona faoliyatini yaxshilashga jalb qilish;*
- *Korxonani boshqarishning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish, ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan hodisaga qo'llash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib berish, tegishli axborotlar manbaini yetkazib berish;*
- *Eng to'g'ri va oqilona, kelgusida ish yuritish va korxonalarni boshqarish bo'yicha xulosalar berish;*
- *Korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash;*
- *Rejaning bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash;*
- *Korxonalarning xo'jalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan aniqlash;*
- *Korxonalarni rivojlantirishga asos bo'ladigan innavatsion g'oyalarni iqtisodiy jihatdan asoslash;*
- *Korxonaning istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash;*

- *Qabul qilingan boshqaruv qarorlarini maqbulligini o'rganish (Boshqaruvning ierarxik tuzilishidagi barcha bosqichlar bo'yicha).*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida «Iqtisodiy tahlil»ning vazifasi ushbu yuqorida ta'kidlangan vazifalar bilan cheklanmaydi. Bozor sharoitida korxonalar faoliyati shu darajada serqirraki, tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o'rganish lozim bo'ladi. Shu sababli ham, iqtisodiy tahlilning vazifasi ham ko'p qirralidir. Biz esa shu kabi vazifalarning ayrimlarini sanab o'tdik xolos.

Endi esa, yuqoridagi tahlil vazifalarining ayrimlariga chuqurroq nazar tashlasak. Ya'ni iqtisodiy tahlilning eng asosiy vazifalaridan biri uning biznes-reja bilan bog'liqligidan kelib chiqadi. Tahlil jarayonida birinchi tomondan biznes-rejani amalga oshganligini o'rgansa, ikkinchidan, xo'jalik faoliyatini batafsil o'rganib, kelgusi davr uchun biznes-rejani tuzishda tegishli axborotlarni to'plab boradi. Rejali iqtisodiyot sharoitida xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari davlat tomonidan belgilangan va shu sababli tahlil ishlarini ham yuqori davlat tashkilotlari amalga oshirgan. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida esa har bir korxona o'z faoliyatini o'zi mustaqil belgilaydi, o'zi biznes-reja tuzadi, uning natijalarini hisobotlarda aks ettiradi va nazorat qiladi. Shu tufayli ham tahlilning roli va vazifasi kundan-kunga oshib bormoqda. Chunki, biznes-rejaning har bir ko'rsatkichi iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Bu esa tahlil orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda biznes-rejani tuzish, unga kiritiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha qat'iy belgilangan andoza yo'q. Bunga zaruriyat ham bo'lmasa kerak. Chunki, bir qancha korxona bir soha bilan shug'ullansa ham, ularning ish uslubi har xil, o'ziga xos bo'lishi tabiiy. Ammo, umumiy yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi bir-biriga o'xshash va bog'liq bo'lishi mumkin. Shu tufayli tahlil jarayonida biznes-rejaning bajarilishi darajasini chuqur o'rganish, shu orqali uning faoliyatiga obyektiv baho berishdek muhim vazifa ham ushbu fan zimmasiga yuklatilgan.

Biznes-rejani bajarish jarayonida ma'lum qonuniyatga ega omillar bilan birga ko'zda tutilmagan tasodifiy omillar ta'sir qilishi ham mumkin.

Iqtisodiy tahlilning navbatdagi vazifalaridan biri shu omillarni aniqlash va har birining ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Bu esa bozor munosabatlarining shakllanishi jarayonida vujudga kelgan ko'pgina yangi ko'rsatkichlar va omillar ta'sirini aniqlaydigan tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Omilli tahlil natija ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash yo'li bilan tahlil qilinayotgan ko'rsatkichni yaxshilashning ichki va tashqi imkoniyatlarini aniqlash va uni kelgusi davr uchun safarbar qilish yo'llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi turli mulk shaklidagi ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan moliyalashtirish butunlay barham topgan bir paytda, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va uni xo'jalik faoliyatiga safarbar qilish muhim omillarni aniqlash va ular ta'sirini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tahlilning asosiy vazifalaridan biri natijaga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va ularni xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga safarbar qilishdan iboratdir.

Tahlilning navbatdagi muhim vazifalaridan biri iqtisodiy jarayonlarning dialektik bog'liqligidan kelib chiqadi. Qaysi soha bo'lmasin, iqtisodiy jarayon sodir bo'lishi uchun mehnat vositasi, mehnat predmeti va jonli mehnatning mujassamligi lozim bo'ladi. Iqtisodiyotning bu elementlari samaradorligini oshirmay turib boshqa ko'rsatkichlar miqdorining yuqori bo'lishiga erishib bo'lmaydi. Shu tufayli tahlil jarayonida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda moddiy-texnika bazasining boshqa elementlarga to'g'ri kelishini ta'minlashga katta e'tibor bermoq lozim. Masalan, yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'lgan, ilg'or texnologiyaga asoslangan uskuna mavjud. Lekin shu uskunani ishlata oladigan, shunga malakasi yetarli bo'lgan mutaxassis kerak bo'ladi. Agar korxonaga reja bo'yicha 100 nafar xodim kerak bo'lsa, uning shtatida shuncha xodim band bo'lsa, ammo, tegishli mutaxassis bo'lmasa bunday holatda korxonaning moddiy-texnika bazasi ham, mehnat resurslari ham samarasiz bo'ladi.

Texnika va texnologiya takomillashdimi, demak xodimlarning malakasi ham shunga mos ravishda oshib borishi lozim. Shundagina tegishli, ko'zda tutilgan natijaga erishish mumkin. Aks holda, qilingan tadbirlar, sarflangan xarajatlar tegishli samara bermasligi tabiiy. Bu holatlarning hammasi tahlil orqali aniqlanadi va aniqlangan vaziyatdan tegishli xulosa qilinadi.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tariqa kamchiliklar brtraf qilinib, xo'jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va samaradorligi oshib borishi ta'minlanadi.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlilning vazifasi bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz yaxshilab borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

## 2.4. Iqtisodiy tahlil fanining fanlar tizimida tutgan o'rni va ular bilan bog'liqligi

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil fanining boshqaruvdagi o'rni ortib bormoqda. Iqtisodiy tahlil fani boshqa fanlar zamirida vujudga keldi va ko'pgina fanlarga nisbatan yangidir. Iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlanmoqda.

Shunga qaramay, respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin iqtisodiy tahlil fani mazmuni va tarkibi jihatidan tubdan o'zgardi. Rejali iqtisodiyot sharoitida barcha fanlar singari iqtisodiy tahlil fani ham rejaning bajarilishini nazorat qilish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, yuqoridan ko'r-ko'rona tushirilgan rejani asoslashga qaratilgan edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil haqiqatdan ham amaliyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarga, mulk va ish egalariga xizmat qiladigan bo'ldi. Oldinlari korxonalarning xo'jalik faoliyati yuqori tashkilot va davlat nuqtai-nazaridan tahlil qilingan bo'lsa, endilikda bevosita shu korxona, uning mehnat jamoasi va mulk egasi nuqtai-nazaridan tahlil qilinadigan bo'ldi. Biroq, barcha holda ham

davlatning manfaati hisobga olinadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ham korxona bilan davlat o'rtasidagi aloqalar erkin ravishda o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy jarayonlar va munosabatlardagi bunday o'zgarishlar har bir fan va iqtisodiy mexanizmlar mazmunini sifat jihatidan yangilashni, tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda.

Iqtisodiy tahlil xo'jalik munosabatlardagi obyektiv zarurat talabidan kelib chiqqan aniq fan bo'lishiga qaramasdan boshqa fanlardagi umumiy qonuniyatlar, usul-uslublar, tamoyillar kabilarga rioya qiladi. Ya'ni, ko'pgina fanlar bilan o'zaro bog'liq. Jumladan, iqtisodiy tahlil umumiqtisodiy nazariya fani bilan bevosita aloqadordir. Chunki, obyektlarni iqtisodiy tahlil qilish umum iqtisodiy qonunlarga asoslanadi va umum qabul qilingan kategoriyalardan foydalaniladi. Umum iqtisodiy nazariya fanida kategoriyalar va atamalarning mohiyati hamda mazmunini ochib beriladigan bo'lsa, iqtisodiy tahlilda esa ushbu kategoriyalar va atamalar fanning usul-uslublaridan foydalangan holda turli tomondan o'rganiladi. Misol uchun, mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi kategoriyasini oladigan bo'lsak, umum iqtisodiy nazariya fanida ushbu kategoriyani mohiyati va mazmunni nimadan iborat ekanligi, qanday aniqlanishi, tarkibi nimalardan iborat bo'lishini bilib olishimiz mumkin. Iqtisodiy tahlil fanida esa mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichini davrlar, ularning tarkibidagi o'zgarishlar hamda o'zgarishlarga ta'sir etgan omillar va shu kabilar bo'yicha tahlil qilishimiz mumkin.

Tabiat, jamiyat va tafakkurni rivojlanishi haqidagi falsafiy ta'limotlar ham tahlilda foydalaniladi, ya'ni umumiy rivojlanish, o'rganilayotgan jarayonga dialektik qarash va hokazolar.

***Iqtisodiy tahlil fani quyidagi fanlar bilan o'zaro aloqadordir:***

- Buxgalteriya hisobi va audit;
- Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- Mikro va makroiqtisod;
- Rejalashtirish (biznes reja tuzish);
- Statistika va informatika;
- Moliya, bank, soliq masalalariga taaluqli fanlar bilan;
- Iqtisodiy matematika va kompyuter asoslari fani bilan;

- Huquqiy fanlar bilan;
- Tabiiy fanlar bilan va hokazolar.

Buxgalteriya hisobi mulkchilikning va xo'jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalar faoliyatini yalpi, uzluksiz va hujjatlarga asoslangan holda aks ettirish tizimidir. Tahlilda ushbu tizimda shakllantirilgan ma'lumotlardan keng ko'lamda foydalaniladi. Demak, mazkur fan iqtisodiy tahlilni eng asosiy axborot bazasi bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning **"Buxgalteriya hisobi"** fani bilan ikki tomonlama aloqasi borligi hammaga ma'lum. *Bir tomondan,* xo'jaliklar faoliyatini iqtisodiy tahlili ana shu fanni rivojlanishi natijasida ajralib chiqqanligi va eng muhimi buxgalterlar birinchi bo'lib iqtisodiy tahlilni qo'llagan bo'lsa, *ikkinchi tomondan,* iqtisodiy tahlil jarayonida qo'llanadigan axborotlarning ko'pchiligi asosoan buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridir. Buxgalteriya hisobini rivojlantirishda o'z navbatida iqtisodiy tahlil ham katta yordam ko'rsatmoqda: buxgalteriya ucheti tizimi, registrlarning shakli va mazmuni, hujjat aylanish tartibi va boshqa shunga o'xshash masalalar tobora takomillashib bormoqda.

Moliya, bank, soliq, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, birja ishi sohasidagi fanlar bilan iqtisodiy tahlil bevosita bog'liq. Chunki, korxonalar faoliyati davlat byudjeti bilan majburiy hisob-kitoblar, kredit olish va ularni to'lash, investitsiyalarni jalb qilish yoki ularni sotish, qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etish, birja va bozordagi holatni uzluksiz o'rganish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu faoliyatlarni iqtisodiy tahlil qilish ularning o'ziga xos jihatlarini bilishni talab qiladi. Bu esa, iqtisodiy tahlilning samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari va informatika fanlari asosida iqtisodiy tahlil ishlari dasturlanib, kompyuter vositalarida ular amalga oshiriladi. Bunda iqtisodiy tahlil fanining usul va uslublari, belgilangan maqsad va vazifalar axborot texnologiyalari va informatika fanlari talablari asosida dasturlanadi. Kompyuterlar yordamida amalga oshirilgan tahlil ishlari o'ta tez va aniq bajariladi hamda mutaxassislar mehnatini yengillashtirib beradi.

Yuqorida qayd etilgan boshqa fanlar ham iqtisodiy tahlil fani bilan bevosita bog'langan.

Korxonalarning faoliyatini tahlil qilish bevosita yuqori tashkilotlarning vazifasi ham bo'lib, ular korxonalarning hisobotini tasdiqlaydilar hamda ularning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini baholab, tegishli qarorlar qabul qiladilar.

## 2.5. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar, ularning turlari va tavsifi

Iqtisodiyotning ko'zgusi – bu uni ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotda erishilgan yutuqlar, kamchiliklar, uning yaxshilanayotgani yoki yomonlashayotgani haqida to'liq malumot beradi. Ushbu ma'lumotlar asosida iqtisodiyot boshqariladi. Uni yaxshilash yo'llari ishlab chiqiladi. Ko'rinib turibdiki, ko'rsatkichlar iqtisodiy jarayonlarni baholashda, uni o'rganishda, ayniqsa tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega ekan.




*2.1-chizma. Ko'rsatkichlarning tasniflanishi.*

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni mazmuni bo'yicha tasniflash muhim ahamiyatga ega. Ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha ikki guruhga: ***miqdor va sifat ko'rsatkichlari***ga bo'linadi.

Miqdor ko'rsatkichlariga bevosita amaliyotda yaxlit holda mavjud bo'lgan umumiy ko'rsatkichlar kirsa, sifat ko'rsatkichlariga, aksariyat holda, nisbiy, ishning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bularning tizimi 2.1-chizmada keltirilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimini tahlilning maqsadi va mazmuniga, qaysi sohada amalga oshirilayotganligiga qarab turli tomonga o'zgartirishi, ya'ni sonini ko'paytirishi yoki kamaytirishi, nomini esa iqtisodiy vaziyatga, jarayonga qarab o'zgartirishi mumkun.

Iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ***ko'rsatkichlar tizimi foydalanish doirasi bo'yicha*** ikki guruhga: umumiy va maxsus ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Umumiy ko'rsatkichlar iqtisodiyotning barcha soha bo'g'inlarida foydaliniladi. Masalan, mehnat unumdorligi yoki rentabellik ko'rsatkichlari sanoatda ham, qishloq xo'jaligida yoki qurilishda ham foydalanilishi mumkin. Ammo mahsus ko'rsatkichlar iqtisodiyotning faqat bitta yoki ikkita sohasiga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, savdoning muomala xarakatlari faqat savdoga tegishli, uni chorvachilikda yoki qurilishda qo'llab bo'lmaydi. Yoki chorva mollarining mahsuldorligi ko'rsatkichini sanoatda qo'llab bo'lmaydi.




*2.2-chizma. Ko'rsatkichlarning mazmuni bo'yicha tasniflanishi.*

Shu tufayli ushbu ko'rsatkichlar maxsus ko'rsatkichlar tizimiga kiradi. Odatda ko'rsatkichlarni adashtirmasdan to'g'ri qo'llash xo'jalikni boshqarishda unga odilona yondashish imkonini beradi. Shu tufayli har bir tahlil bilan shug'ullanuvchi mas'ul xodim ko'rsatkichlar va ularning tasnifi haqida to'g'ri va aniq malumotga ega bo'lishi lozim.

Ko'rsatkichlarning ushbu belgisi bo'yicha tizimi yuqoridagi chizmada keltirilgan.




*2.3-chizma. Ko'rsatkichlarning foydalanish doirasi bo'yicha tasniflanishi.*

***Ko'rsatkichlar ifodalanish shakli bo'yicha*** ham ikki guruhga: mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Mutlaq ko'rsatkichlar ham o'z navbatida qaysi o'lchamda ifodalanishiga qarab ikki guruhga: natural (miqdor) va qiymat ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Natural ko'rsatkichlar asosan tabiiy holda mavjud bo'lgan jismoniy birlikda ifoda etiladigan ko'rsatkichlardir. Ushbu guruh ko'rsatkichlariga biror bir predmetinng uzunligi, og'irligi, maydoni yoki kengligi kabi o'lchamlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni misol keltirish mumkin.

Qiymat ko'rsatkichlar ham turli o'lchamlarda bo'ladi. Masalan, biror tovarning bahosi, umumiy summasi, biror xizmatning tarifi, xodimlarga to'lanadigan ish haqi kabilarni misol keltirish mumkin.

Nisbiy ko'rsatkichlar aksariyat hollarda turli mutlaq ko'rsatkichlarning bir-biriga yoki bir xil mutlaq ko'rsatkichlarning turli davrlardagi hajmini bir-biriga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Masalan, bir ko'rsatkichni ikkinchi boshqa bir ko'rsatkichga solishtirib darajani aniqlash mumkin, bir xil ko'rsatkichlarning turli

vaqtlardagi hajmini solishtirib indeks, foiz kabi ko'rsatkichlarni hisoblasa bo'ladi. Ularning chizmasi keltirilgan.




*2.4-chizma. Ko'rsatkichlarni ifodalanish shakli bo'yicha tasniflanishi.*

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi ham tahlil uchun metodologik asos sifatida keltirildi: Amaliyotda tahlilning maqsadi, obyekti va sohasiga qarab ko'rsatkichlar tizimiga son va sifat jihatidan o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jalik korxonalari faoliyati tahlil qilinayotgan bo'lsa, nisbiy ko'rsatkich sifatida xosildorlik olinishi mumkin. Bu uchun barcha yalpi hosil miqdorini er maydoniga bo'lib, shu, nisbiy ko'rsatkichni topish mumkin. Xuddi shunday boshqa sohalarga ham yondashish lozim.

Ko‘rsatkichlar umumlashtirish darajasi bo‘yicha ham tasniflanadi. Chunki, har qanday ko‘rsatkich iqtisodiyotning u yoki bu jihatini ifodalaydi. Lekin iqtisodiy jarayonlar turli bosqichlarda, turli soha va bo‘g‘inlarda turlicha bo‘ladi. Bularni ifodalash uchun ko‘rsatkichlarga bir xil yondashib bo‘lmaydi. Masalan, korxonaning asosiy vositalari umumiy hajmi mavjud. Bu korxona ko‘chmas mulkining umumiy miqdorini ifodalaydi. Bu, ko‘rsatkich, ko‘rinib turganidek umumlashgan ko‘rsatkichdir. Ammo uning bir qismi binolar va inshoatlardan iborat bo‘lsa, yana bir qismi texnologiya va jihozlardan iboratdir.

Faqat binolarning yoki texnologiyaning qiymati umumlashgan ko‘rsatkichning bir qismini ifodalaydi. O‘z navbatida texnologiyaning holati bugungi kun talabiga javob bo‘lishi, unnng unumdorligi kabi ko‘rsatkichlar shular to‘g‘risida qo‘shimcha xulosalar, beradigan yordamchi ko‘rsatkichlardir.

Shu tufayli ko‘rsatkichlarni umumlashtirish darajasi bo‘yicha ham tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu belgisi bo‘yicha ko‘rsatkichlar uch guruhga: umumlashgan, qisman va yordamchi ko‘rsatkichlarga bo‘linadi (-rasm).

**Umumlashgan k**o‘rsatkichlarga odatda murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasini yaxlit holda ifoda etadigan ko‘rsatkichlar kiradi. Masalan, mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi. Bu umumlashgan ko‘rsatkich korxonada band bo‘lgan barcha xodimlar mehnatining samaradorligini ifoda etadi. Shu sohaga dahldor qisman ko‘rsatkichlarga asosiy xodimlar mehnat unumdorligi, yordamchi xodimlar, boshqaruv xodimlari mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Bulardan tashqari ushbu guruhga yordamchi ko‘rsatkichlar ham kiradi. Bu ko‘rsatkichlar nomiga mos ko‘rsatkichlar bo‘lib, umumlashgan va qisman ko‘rsatkichlarni batafsil va to‘liq tushunish uchun, ularning ichki murakkab tabiatini ifoda etishda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlardir. Bu ko‘rsatkichlar tahlil jarayonida asosiy ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillar sifatida ham qaraladi. Chunki umumlashgan ko‘rsatkichning shakllanishida qisman va yordamchi ko‘rsatkichlar hissasi va ta’siri katta bo‘ladi.




*2.5-chizma. Ko'rsakichlarning umumlashtirish darajasi bo'yicha tasniflanishi.*

Masalan, umumlashgan mehnat unumdorligi (MU) ko'rsatkichini olaylik. Bu o'z navbatida umumiy xodimlar soni (X), ularning tarkibida bevosita ishlovchilarning ulushi (Xul) va shu ishlovchi xodimlar mehnat unumdoligiga (Xmu) bog'liq. Bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi formula orqali ifodalanadi:

MU=X • Xul • Xmu

Bu yerda MU, ya'ni mehnat unumdorligi umumlashgan ko'rsatkich bo'lsa, qolgan uchta ko'rsatkich qisman yoki yordamchi ko'rsatkichlardir. Agar ularning bir-biri bilai funksional bog'liqligini oladigan bo'lsak MU-natija ko'rsatkichi, qolgan uchtasi (X • Xul • Xmu) omillar sifatida ham qaralishi mumkin.

Ko'rsakichlarning umumlashtirish darajasi bo'yicha tasniflanishi keyingi betdagi chizmada keltirilgan.

Ushbu chizmada barcha guruh ko'rsatkichlarga ayrim ko'rsatkichlarni misol tariqasida keltirdik. Amaliyotda tahlilning obyekti, maqsadi va qaysi davrda o'tkazilishiga qarab bu yerga kiruvchi ko'rsatkichlar o'zgarishi mumkin.

***Ko'rsatkichlarni shakllanish usuli bo'yicha*** ham tasniflash muhim ahamiyatga ega, chunki iqtisodiy jarayonlar boshqarilishi uchun ularga turli bosqichlarda turlicha yoidashishni talab qiladi. Masalan, biznes rejadagi ko'zda tutilgan natijaga erishish uchun ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni talab qiladi. Bu mahsulot miqdori rejada o'z ifodasini topadi. Ma'lum davr o'tgandan so'ng, hisobot davri tugagach, shu ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy miqdori hisoblanadi. Oldingi ko'rsatkich biznes rejada ifodalanadi. Agar mazmuni jihatidan olib qaralsa, ikkalasi ifodalangan bo'lsa, bu ko'rsatkich hajmi hisobotda ham bir xil ko'rsatkichni, ya'ni mahsulot hajmini ifodalaydi. Ammo biri rejada, ikkinchisi esa haqiqatda. Shunday qilib, boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ham ko'plab misollar keltirish mumkin, ammo ushbu masalaga metodologik yondoshish uchun shu keltirilgan dalil yetarli, deb o'ylaymiz.

Ko'rsatkichlar shakllanish usuli bo'yicha besh guruhga bo'linadi: meyoriy, reja, hisob, hisobot va tahliliy.

**Me'yoriy ko'rsatkichlarga** ko'p hollarda mamlakat miqyosidagi, davlat manfaatlariga molik ko'rsatkichlar kiradi. Masalan, bir kishining o'rtacha non iste'mol qilish me'yori. Bu ko'rsatkich davlatining o'z aholisini non bilam ta'minlash uchun ma'lum bir

davrga qancha g'alla yoki un zaxirasini hozirlab qo'yishi uchun zarur bo'ladi. Hozirgi paytda me'yoriy ko'rsatkichlar xarajatlarni hisoblashda, biror mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo miqdorini belgilash kabi hollarda ham keng qo'llanilmoqda. Bu ayniqsa foydadan olinadigan soliq miqdorini aniqlashda zarur bo'lmoqda.

Shunday qilib, me'yoriy ko'rsatkichlarga xarajatlar va sarflarning ma'lum birlikka nisbatan me'yorda ifodalangan miqdori kiradi. Bu ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy, biologik jihatdan asoslangan bo'lishi lozim.




*2.6-chizma. Ko'rsatkichlarni shakllanish usuli bo'yicha tasniflanishi.*

**Reja ko'rsatkichlariga** xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanish istiqbolini belgilovchi biznes-rejada ifoda etilgan ko'rsatkichlar kiradi. Masalan, foyda rejasini olaylik. Ushbu ko'rsatkich oldindan beltilanishi va barcha faoliyat shu rejadagi miqdorga erishishga qaralmog'i lozim. Chunki foydaning miqdoridan davlat ham, mulkdor ham, mehnat jamoasi ham, korxona ham manfaatdordir.

Foyda qancha ko'p bo'lsa aksiyadorlar oladigan devidend summasi, davlatga to'lanadigan sodiq miqdori, xodimlar oladigan rag'batlantirish summasi, tashkilotni kengaytirishga qoladigan mablag' miqdori shuncha ko'p bo'ladi. Demak, ko'zda tutilgan

rejadagi ko'rsatkichni bajarishga hammaning harakat qilishi lozim. Chunki, unda barcha manfaatlar muvofiqligi ta'minlanadi.

**Hisob ko'rsatkichi** ham o'ta muhim ko'rsatkichlardan biridir. Unga buxgalteriya, statistika va tezkor hisob malumotlarida ifoda etilgan ko'rsatkichlar kiradi. Iqtisodiy jarayonlar ketma-ket doimiy ravishda sodir bo'lib boradi. Ular uzluksiz hisobga olib borilishi lozim. Bu hisob ma'lumotlari ko'rsatkichlarning haqiqiyligi va qonuniyligini ta'minlaydi, chunki har bir sodir bo'lgan iqtisodiy jarayon tegishli ravishda hujjatlashtiriladi. Hujjatga tegishli mas'ul shaxslar imzo chekib, tashkilot muhri bosiladi. Masalan, birorta korxonadan ikkinchi bir korxonaga ma'lum hajmda tovar jo'natildi. Bu tegishli hujjat orqali amalga oshiriladi, shu orqali hisobga olinadi va hisobdan chiqariladi. Demak, hisobdagi ko'rsatkichlar har bir ko'rsatkichning qonuniyligini ifoda etadi.

Ushbu ko'rsatkichlar jamlanib, ma'lum bir davr tamom bo'lgach hisobotda ifodalanadi. Bu bilan hisobot ko'rsatkichlari shakllanadi.

Barcha ko'rsatkichlardan tahlil jarayonida foydalaniladi. Shunday qilib, tahliliy ko'rsatkichlar tizimi shakllanadi. Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi oldingi betdagi chizmada keltirilgan.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

- iqtisodiy tahlil fanining mazmuni;
- tahlil boshqaruvning muhim funksiyasi ekanligi;
- iqtisodiy tahlil fani predmetining ta'rifi;
- iqtisodiy tahlilning vazifalari;
- tahlil obyekti;
- tahlil subyekti;
- iqtisodiyot nazariyasi va tahlil fanlarining bog'liqligi;
- buxgalteriya hisobi va tahlil;
- audit va tahlil;
- marketing va tahlil;
- moliya va tahlil;
- soliq va tahlil.

## Takrorlash uchun savollar:

1. Tahlil so‘zining iqtisodiy mazmuni nimadan iborat?
2. Xo‘jalik subyektlarini boshqarishda iqtisodiy tahlil fanining ahamiyati nimadan iborat?
3. Tahlil fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
4. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini nimalarda ko‘ramiz?

## Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

**1-topshiriq.**

Iqtisodiy tahlilning mazmuni to‘g‘risida o‘z fikrlaringizni yozing va ularni izohlang.

| Iqtisodiy tahlil-ning mazmuni to‘g‘risidagi tushunchangizni yozing | Iqtisodiy tahlil maxsus bilimlar tizimi sifatida nimalarni o‘rganadi | Har bir alohida ko‘rsatilgan fikringizga qisqacha sharh yozing |
|---|---|---|
| | A)<br>B)<br>) | A)<br>B)<br>) |

**2-topshiriq.**

Iqtisodiy tahlilning obyekti va subyekti nimalardan iborat?

| Iqtisodiy tahlilning obyekti - | Iqtisodiy tahlilning subyekti - |
|---|---|
| | |

**3-topshiriq.**

Iqtisodiy tahlilning predmeti nima? Ushbu savolga quyidagi jadvalda keltirilgan tartib bo‘yicha javob yozing.

| Iqtisodiy tahlilning predmetiga ilmiy ta'rif bering | Iqtisodiy tahlil predmetidagi har bir tushunchani alohida ko'rsating | Iqtisodiy tahlil predmetidagi har bir alohida ko'rsatilgan tushunchaga sharh yozing |
|---|---|---|
| | A)<br>B)<br>) | A)<br>B)<br>) |

## Test savollari:

**1. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan?**

a) O'rganilayotgan obyektga (hodisaga) to'g'ri va xolisona baho berish; Tuzilgan biznes rejalarning to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish; Moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan samarali va oqilona foydalanganlikka baho berish;

b) Xo'jalik hisobi tamoyillariga, tijorat hisob-kitoblariga amal qilishlikni muntazam tekshirib turish; Korxonalarda mavjud bo'lgan samaradorlikni oshirish yo'lida ularning imkoniyatlarini aniqlash; Eng to'g'ri va oqilona, kelgusida ish yuritish va korxonalarni boshqarish bo'yicha xulosalar berish;

c) Korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash; Rejaning bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash; Korxonalarning xo'jalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan aniqlash;

d) Hammasi to'g'ri;

**2. Tahlil fanining predmeti deb, -**

a) xo'jalik jarayonlarini iqtisodiy manbalardan foydalanib o'rganishga aytiladi;

b) firma, uyushma, birlashmalarda moliyaviy-xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, raqobatga chidamli bo'lib faoliyat ko'rsatishi uchun zarur texnik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, innovatsion boyliklaridan oqilona foydalanayotganligiga baho berishga aytiladi. Bunday o'rganishda jamiyatda amal qilayotgan obyektiv va subyektiv qonunlarga tayanadi hamda ko'pgina axborot manbalaridan foydalanadi.

c) xo'jaliklarning ishlab chiqarish mablag'laridan foydalanishini o'rganishga aytiladi;

d) xo'jalikning barcha jarayonlaridagi o'zgarish va farqlari sababini o'rganishga aytiladi. Bunday o'rganishda jamiyatda amal qilayotgan obyektiv va subyektiv qonunlarga tayanadi hamda ko'pgina axborot manbalaridan foydalanadi.

# III bob. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY USULLAR

## 3.1. Raqobatdosh iqtisodiyotda iqtisodiy tahlilning metodi va uning o'ziga xos muhim xususiyatlari

Har bir fanning metodi obyektiv borliqning, tabiat va jamiyatning rivojlanishini o'rganishga qanday yondoshish lozimligini ko'rsatadi. Fanning o'z obyekti yoki predmetini o'rganish usullari, vositalari uning metodini tavsiflaydi. Iqtisodiy tahlil ham o'zining mustaqil usullariga ega.

**Metod** - grekcha ***«methodos»*** so'zidan olinib nazariya, ta'limot va amaliyotni o'rganishdagi yondashuv yo'llaridir. Keng ma'noda metod tabiat va jamiyatdagi jarayonlar, predmetlar hamda voqeliklarni tadqiq etishning o'zaro bog'langan yalpi usullari, tamoyillari, shuningdek haqiqatni bilishning vositalari, uslublari va yo'llari tushuniladi.

Metod juda keng ma'no va tushunchaga ega. Umuman metod deganda real voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o'rganishga yondashish usuli tushiniladi. Fanning metodi deganda esa, ushbu fanning obyektini tadqiq qilish usuli tushiniladi. Iqtisodiy tahlilning metodini aniqlash ham uning predmetini aniqlashdek juda tortushuvli masalaga aylangan va hozirgacha ham yagona fikrga kelingani yo'q. Keling iqtisodiy tahlil metodiga berilgan ta'riflar tarixiga bir nazar tashlaylik.

Iqtisodiy tahlilning metodiga Veytsman N.R. quyidagicha ta'rif beradi: "Tahlil metodining elementlari..uchet ma'lumotlarini o'qish, keyinchalik ushbu ma'lumotlardan korxona ichki va tashqi xo'jalik bog'lanishlarini ochib berish uchun kompleks foydalanishi ... ana shunday bog'lanishlarni o'lchash, ... tahlilga jalb qilingan raqamli ko'rsatkichlarni o'qish, o'zaro bog'lash va o'lchash chog'ida taqqoslash hisoblanadi". (Вейцман Н.Р. Очерки по бухгалтерскому учёту и анализу. М.: Госфиниздат, 1958, s.112-113).

Boshqa bir muallif M.Rubinov esa, iqtisodiy tahlilning metodiga quyidagicha ta'rif bergan: "Xo'jalik jarayonlarini tekshirishda qo'llanuvchi o'zaro bog'langan usullar to'plami korxonalar ishining iqtisodiy tahlili metodi deb aytiladi". (Рубинов

М. Основы экономического анализа работы предприятий. М.: Госфиниздат, 1962, с.13)

O'zbekistonlik olim N.A.Xan esa o'z quyidagi ta'rifni bergan: "Iqtisodiy analiz metodi deganimizda ishlab chiqaruvchi kuchlardan va iqtisodiy qonunlardan foydalanish yo'llarini o'rganish yoki o'rganishga yondoshishni tushinmoq kerak. Bunga xo'jalik rezervlarini topish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash uchun ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy qonunlarining tarkibiy qismlarini bo'lib ko'rish vositasida erishiladi. (Xan N.A. Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining analizi, Toshkent, O'qituvchi,1978-y. 12-b.)

Boshqa bir muallif - P.I. Savichev bergan ta'rifda esa quyidagilarni uchratish mumkin: "Korxonalar ishining iqtisodiy tahlili metodi xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlarining vazifalari va xususiyatlariga bog'liq holda rivojlantiriluvchi va konkretlashtiriluvchi materialistik dialektika hisoblanadi". (Савичев П.И. Экономический анализ орудие вявления внутрихозяйственных резервов. М.:, Финансы, 1968 с.17)

Boshqa bir guruh olimlarning iqtisodiy tahlil metodiga bergan ta'riflarida quyidagilarni uchratish mumkin: "Bilishning dialektik metodi talablariga muvofiq xo'jalik faoliyati tahlilining metodi deganda iqtisodiyotni boshqarish bo'yicha optimal qarorlar qabul qilish uchun zaruriy axborotlar bilan ta'minlash va ularning ish natijalarini obyektiv baholash, uning samaradorligini oshirish rezervlarini qidirib topish va joriy qilish maqsadida korxonalar, ularning (strukturaviy) bo'limlari, xalq xo'jaligining xo'jalik hisobidagi boshqa zvenolari iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini sistemali, kompleks, tarkibiy (organik) o'zaro bog'liqlikda o'rganish tushiniladi". (Теория АХД под. ред. В.В. Осмоловского, Минск Вышейшая школа,1989, с.49)

"Iqtisodiy tahlilni metodi deganda joriy uchet va hisobotlar ko'rsatkichlari tizimi bazasida korxonalar faoliyati turli tomonlarini kompleks, o'zaro bog'liqlikda o'rganish tushiniladi". (Анализ хозяйственной деятельности под.ред. В.А.Белобородовой М., Финансы и статистика, 1985, с.17).

"Tahlilning metodi – bu maxsus usullar yordamida reja, uchet, hisobot va axborotlarni boshqa manbalarini ishlash yo'li bilan amalga oshiriladigan, xo'jalik rejalarini bajarilishiga va xo'jalikni rivojlanish dinamikasiga ayrim omillar ta'sirini sistemali kompleks o'rganish, o'lchash va umumlashtirish usulidir". (Экономический анализ хозяйственной деятельности предприятий и объеденений. Под.ред. С.Б.Бориголц и Г.М.Тация. М.:, Финансы и статистика,1986 с.21)

Keyingi yillarda ham "Iqtisodiy tahlil metodi"ni aniqlashtirishga urinishlar davom etmokda. Jumladan, Bakanov M.I. va Sheremet A.D. quyidagicha ta'rif beradilar: "Iqtisodiy tahlilning metodi deganda, rivojlanish va shakllanishdagi xo'jalik jarayonlarini o'rganishga dialektik yondoshish tushiniladi. Iqtisodiy tahlilning metodining xarakterlari xususiyatlari: xo'jalik faoliyatini har tomonlama (to'la) xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish; bu ko'rsatkichlarni o'zgarish sabablarini o'rganish; ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida ana shu ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni aniqlash va o'lchash hisoblanadi (Баканов М.И., Шеремет А.Д., Теория экономического анализа. М. Финансы и статистика, 1997, с.44).

Belorussiyalik olima Savitskaya G.V. esa quyidagi ta'rifni beradi: "Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida reja, hisob, hisobot va boshqa ma'lumotlar manba'larining ko'rsatkichlar tizimini maxsus usullar yordamida ishlash yo'li bilan korxonalar faoliyati natijalariga omillar ta'sirini tizmiy, kompleks o'rganish, o'lchash va umumlashtirish xo'jalik faoliyati tahlilining metodi hisoblanadi".

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Soliev B.K. esa "Iqtisodiy tahlil fanining metodi"ga quyidagicha ta'rif beradi: "Iqtisodiy tahlilning metodi – bu rivojlanish va shakllanishdagi xo'jalik jarayonlarini o'rganishga dialektik yondoshgan holda, iqtisodiy axborotlar manbalarida keltirilgan ko'rsatkichlar tizimini maxsus usullar yordamida ishlash yo'li bilan ularni o'zgarish sabablarini aniqlash hamda ular orasidagi o'zaro bog'liqlarni tizmiy, kompleks o'rganish, o'lchash va umumlashtirishdir" .

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil metodini asoslab berishda yagona fikr yo'q. Shunday bo'lsada, "Iqtisodiy tahlil metodi"ga

berilgan ta'riflarning juda katta prinsipial farq yoki qarama-qarshilik yo'q. Agar ana shu berilgan ta'riflarni umumlashtiradigan bo'lsak, u holda iqtisodiy tahlil metodini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin:

**Iqtisodiy tahlilning metodi** – korxonadagi xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyat turlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi hamda rivojlanishini dialektik yondashuv usulida o'rganishdir. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida korxonaning xo'jalik hamda boshqa faoliyat turlarini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish, ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishi sabablarini tadqiq qilish, ularning o'zaro bog'liqliklarini aniqlash hamda hisob-kitob qilish iqtisodiy tahlil fani metodining o'ziga xos jihatlaridir.

Metodining mazmuniga ko'ra tahlil vositasida xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyat turlarini o'rganishda dialektik yondashuv, ya'ni har bir voqelik mavjud va rivojlanishda, deb qaraladi. Bu voqeliklar sondan sifat o'zgarishiga va yangi sifatning paydo bo'lishi, inkorni - inkor qilish, qarama-qarshilik kurashi, eskining tugashi, yangi - ilg'or voqeliklarning paydo bo'lishi kabi xususiyatga ega bo'ladi. Dialektik yondashuv va uning barcha usullari ho'jalik jarayonlarini o'rganishda, tahlil qilishda korxona faoliyatini barcha bosqichlarida qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlil metodining ta'rifida uning e'tiborli jihatlari ham ko'rsatilgan. Jumladan, xo'jalik jarayonlari va iqtisodiy voqealarni tahlil qilishda juda ko'plab ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligi.

Tahlil uchun kerak bo'lgan ko'rsatkichlar, ularning turi hamda miqdori o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning mazmuni, hajmi va davriga bog'liq bo'ladi. Hatto, tahlil natijasida avvaldan mo'ljallanmagan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin. Mazkur holat iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi.

O'rganilayotgan xo'jalik jarayonlarining, ya'ni ko'rsatkichlarning o'zaro farqlanishi hamda o'zgarishi sabablarini aniqlash tahlil ishlarida muhim ahamiyatga ega. Har bir o'zgarishga ta'sir ko'rsatgan sabablarni (omillar) hisoblash iqtisodiy tahlil metodining yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Chunki, tahlil qilinayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar va ulardagi o'zgarishlar doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq, o'zaro aloqa hamda ta'sir natijasida sodir bo'ladi. Tahlil

vositasida mazkur holatlar, ya'ni o'zgarishlar aniq hisoblanadi va o'rganiladi. Ta'kidlash kerakki, ayrim olingan omillar oxirigi yakuniy natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va uni tubdan o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Shuning uchun ham xo'jalik faoliyatidagi o'zgarish sabablari, ularning omillar ko'rinishida yuzaga chiqishi tahlilda jiddiy tarzda o'rganiladi. Demak, ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi asosiy va qo'shimcha omillarni aniqlash ularni tasniflash tahlil metodining muhim xususiyati bo'lib sanaladi. Sabablarni aniqlash va omillarni to'g'ri guruhlash xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning sifatli bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy tahlil metodining yana bir o'ziga xos tomoni o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni bir - biriga o'zaro ta'sirini va bog'liqligini aniq hisoblab ko'rsatib berishdir. Ma'lumki, korxona ishlab chiqaradigan mahsulot hajmi uch guruh omillar ishchi kuchi, mehnat vositalari va mehnat predmetlaridan foydalanishga bog'liq. O'z navbatida har bir guruh omillar ham tarkibiy elementlarga ajraladi. Misol uchun, ishchi kuchidan foydalanish bo'yicha omillar miqdor va sifati bo'yicha guruhlanadi. Bu yerda, miqdor omil ishchilar soni, sifat omili esa ularning mehnat unumdorligidir (bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan o'rtacha mahsulot). Ishchining bir yildagi o'rtacha mehnat unumi - bir yilda ishlangan o'rtacha kishi kunlari, ish kuni davomiyligi va bir ishchining yil davomida ishlagan kishi soatiga bog'liq. Bu sanab o'tilgan har bir ko'rsatkich o'z navbatida boshqa omillarga bevosita bog'liq. Ishchining bir yilda ishlangan o'rtacha kishi kunlari qo'shimcha dam olish, sababsiz ishga kelmaslik, uzoq safarga borish, kasallik tufayli ishga chiqmaslik va korxona aybi bilan bekor turish kabi sabablar ta'sir ko'rsatadi. Aytilganlardan ma'lum bo'lmoqdaki korxona iqtisodiy faoliyatidagi barcha ko'rsatkichlar bir-biri bilan zanjirli bog'lanib ketgan. Bu umumiy zanjir tizimida har bir omilning o'z o'rni bor hamda ular muayyan miqdorda voqeliklarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tahlil jarayonida e'tiborga olinmagan har bir ko'rsatkich yoki omil uning natijalarni noaniq bo'lishiga hatto iqtisodchilarni noto'g'ri xulosalariga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tahlil metodining muhim xususiyati o'rganiladigan muayyan iqtisodiy ko'rsatkich alohida tarzda,

boshqa omillardan ajratilgan holda tahlil qilnmaydi. Ularning o'zaro bog'liqliqligi doimo e'tiborda tutiladi. Faqatgina, ayrim hollarda iqtisodiy jarayonlar bo'yicha hisob-kitoblarni mantiqiy asoslash uchun, ya'ni yakuniy natija ko'rsatkichiga faqat bir omilning ta'siri o'rganilayotgan vaziyatlarda boshqa omillarning o'zgarish sabablari hamda ta'sir etish miqdori shartli o'zgarmas, deb qaralishi mumkin.

Odatda ilmiy usullardan foydalanilganda, har qanday turdagi tahlil muvafaqqiyatli chiqadi. Tahlil qilishning to'g'ri tanlangan usuli ko'pincha uning natijasini oldindan aniqlaydi. Ilmiy usulda fanni tekshirish ko'pincha, dialektik usulga asoslanishi tushuniladi. Tushunishning dialektik usuli, hamma hodisa va jarayonlarni muntazam harakatda, o'zgarishda, rivojlanishda ko'rish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy tahlil usullarining xarakterli jihatlaridan biri – muntazam taqqoslab turishdir. Dialektika har bir jarayonni, har bir hodisani birlik va qarama-qarshiliklar kurashi deb qarash kerakligini o'rgatadi. Bundan har bir hodisa va jarayonlarni ichki qarama-qarshiliklar, ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganib chiqish zarurligi kelib chiqadi. Bu ham tahlilning xarakterli jihatlaridan biridir. Tahlil qilishda dialektik usuldan foydalanish, korxona xo'jalik faoliyatini o'rganib chiqishda barcha bog'liq tomonlarini hisobga olinishini anglatadi. Hech qaysi hodisa, agar u alohida tekshirilsa to'g'ri tushunchaga ega bo'lmaydi. Bu ham tahlilning xarakterli jihatlaridan biridir. Tahlilning muhim uslubiy jihatlaridan biri, u nafaqat sabab-oqibatlarni aniqlabgina qolmay, balki u son jihatdan tavsif beradi, ya'ni har bir omilning faoliyat natijalariga qay miqdorda ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi, bu esa iqtisodiy tahlilning yanada osonroq bo'lishini ta'minlaydi.

Sistemali yondoshish esa o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, ularni o'zaro bog'liq holda tekshirish mufassal detallarda o'rganilishini ko'zda tutadi.

### 3.2. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi haqida tushuncha va uning asosiy elementlari tavsifi

Iqtisodiy islohotlar keng qamrovli jarayon. Respublikamizda amalga oshirilayotgan hozirgi islohotlar faqat iqtisodiy munosabatlarni

takomillashtirib qolmasdan, balki uning barcha mexanizm va dastaklarini tubdan yangilashni talab qiladi.

Respublikamizda iqtisodiy munosabatlar sobiq ittifoq davrida uzoq yillar davomida ma'muriy buyruqbozlik asosida rejani bajarishga qaratilgan, markazdan taqsimlash va moliyalashtirish tamoyiliga asoslangan holda shakllangan edi. Ma'muriy buyruqbozlik yangi bozor iqtisodiyotiga yot tushuncha bo'lib, mamlakatimiz mustaqillikga erishganidan keyin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'ta boshladi va ma'muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechdi.

Bozor iqtisodiyotida har bir korxonaning davlat bilan iqtisodiy munosabati faqat soliqlar va bojlar orqali amalga oshiriladi. Korxonalar davlatga mahsulot etishtirib bermaydi, balki faqat faoliyati natijasidan soliqlar va bojlar to'laydi, xolos. Shu orqali korxonaning ish hajmi, daromadi, foydasi hisob-kitob qilinadi. Davlat xo'jalik hisobidagi birorta korxonani moliyalashtirmaydi. U faqat kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashga, o'z tasarrufidagi sohalarni mablag' bilan ta'minlashga hamda davlat majburiyatlarini va vazifalarini bajarishga mablag' yo'naltiradi. Bu albatta o'ta murakkab, o'ta qiyin jarayon. Shu tufayli islohotlar echimini faqat davlat rahbar kuchlar (olimlar, mutaxassislar, davlat arboblari, partiya va boshqa jamoat tashkilotlari)ni birlashtirish lozim.

***Iqtisodiy tahlilni jahon andozasi darajasiga ko'tarish muammosi.*** Bu hozirgi paytda iqtisodiy tahlilda qo'llanilayotgan ko'rsatkichlarni milliy hisob tizimi ko'rsatkichlariga moslashtirishni talab qiladi. Buning uchun eng muhim muammolardan biri makro va mikro tahlil ko'satkichlarini ishlab chiqish, ularning bog'liqligi va xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Bu o'z navbatida buxgalteriya va statistika hisobotlar ko'rsatkichlarini milliy hisob tizimiga moslashtirishni talab qiladi.

***Moliyaviy va boshqaruv tahlilini shakllantirish muammosi.*** Buning uchun tegishli imkoniyatlar yaratilmoqda. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga o'tishi, bu bo'yicha milliy standartlarning ishlab chiqilishi moliyaviy va boshqaruv hisobining shakllanishini ham talab qildi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy va boshqaruv tahlilining vujudga kelishini taqozo qildi. Shu jihatdan moliyaviy tahlil metodologiyasi shakllanmoqda. Ammo, boshqaruv tahlili hozirgi erkin iqtisodiyotga mos tarzda to'la shakllangan

emas. Tahlil usullarini ham iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda mazmunan yangicha ishlab chiqish lozim.

***Navbatdagi muammo,*** tahlilni erkin raqobat sharoitiga moslashtirish hisoblanadi. Bu sharoit ham iqtisodiy tahlil usullarini tubdan takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi mavjud tahlildan ichki (tijorat sirini saqlay oladigan) va tashqi (korxonaning faoliyatini ko'z-ko'z qila oladigan) tahlilni shakllantirish, ularning ko'rsatkichlarini va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Tahlil usullarini takomillashtirishda faqatgina raqamlarga tayanib qolmasdan, unga mantiqan yondashish usullarini (evristik usul) ham joriy qilish lozim deb o'ylaymiz. Chunki, bozor iqtisodiyoti jarayoni hamisha kutilmagan hodisalarni, ko'zda tutilmagan jarayon va munosabatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Endilikda reja ko'rsatkichi oldingidek ko'r-ko'rona yuqoridan berilmaydi. Har bir korxona o'z rejasini o'zi tuzadi. Buni qanday qilib amalga oshirish mumkinligini aniqlash hozirgi kunda juda muhim bo'lib turibdi. Korxonaning biznes rejasini tuzganda uning realligini ta'minlash lozim. Buning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida mezon ko'rsatkich qilib "foydalilik nuqtasi"ni olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalilik nuqtasini topish korxonaning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarini oldindan bilishni, ularni kamaytirish yo'llarini aniqlashni talab qiladi. Shunga qarab faqatgina mahsulotni ishlab chiqarish emas, balki uni sotishni ham aniqlash lozim. Bu esa korxonadan bozorni o'rganishni talab qiladi, ya'ni uning marketing faoliyatini takomillashtirish zarurati tug'iladi.

***Tahlilda iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlarini joriy qilish muammosi.*** Hozirga qadar iqtisodiyotda rejaning bajarilishi hisoblanib, bu korxona faoliyatiga beriladigan bahoga asos bo'lib kelardi. Endigi vazifa iqtisodiy ahvolni yildan-yilga yaxshilashdan, uning uzluksiz barqaror ravishda oshib borishini ta'minlashdan iboratdir. Shu tufayli korxona faoliyati natijasini baholashda reja bajarilishi o'rniga iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini qabul qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Iqtisodiy o'sishni aniqlash uchun mikroiqtisodiyotda, milliy hisob tizimi shakllanayotgan

sharoitda, qaysi ko'rsatkichlarni olish lozimligini ham belgilash yana bir o'ziga xos muammodir.

Ushbu muammolar respublika miqyosida ijobiy hal bo'lishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

Fan metodologiyasi o'zida predmetini anglashga yo'naltirilgan tamoyillar, usullar va metodlar, qoidalar tizimini aks ettiradi. Bilish faoliyati jarayonini yaxlit tadqiq etuvchi anglash nazariyasidan metodologiya shunisi bilan farq qiladiki, u anglash metodlariga ko'proq diqqatni qaratadi. Agar fan nazariyasi o'zida bilish jarayoni natijasini aks ettirsa, u holda metodologiya ushbu bilimlarga erishish usuli va tadqiqiy faoliyatga yo'naltiruvchi asos sanaladi.

Fan metodologiyasining asosiy tarkibiy qismlari – bu predmetni o'rganish yondashuvining umumiy tamoyillarini va uni tadqiq qilishning aniq metodikasini ishlab chiqishdir.

Turli fanlar uchun o'ziga xos bo'lgan o'z predmetini o'rganishga yondashuv usullari (jumladan, iqtisodiy tahlil ham) bilishning umumiy dialektik metodiga asoslanadi.

Bilishning dialektik metodi barcha hodisa va jarayonlarni uzluksiz harakatda, o'zgarish va taraqqiyotda ko'rib chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Hech narsa o'z o'rnida turmaydi, barchasi oqadi, barchasi o'zgaradi. Har kun, har soat, har daqiqada korxona iqtisodiyotida o'zgarish sodir bo'lib, ular taqqoslash jarayonida anglanadi. Muntazam taqqoslashning zarurati – iqtisodiy tahlil xarakterli jihatlaridan biridir. Taqqoslash iqtisodiy tahlilda juda keng qo'llaniladi: faoliyatning haqiqiy natijalari o'tgan yillar natijalari bilan, boshqa korxonalarning erishgan yutuqlari, maqsadli va prognoz parametrlar, me'yoriy ma'lumotlar va boshqalar bilan taqqoslanadi.

Dialektik metod tamoyillari bilan mutanosiblikda har bir jarayon, har bir hodisa qarama-qarshilik kurashi va birligi sifatida ko'rib chiqilishi zarur. Bu tamoyil har bir jarayon, har bir hodisaning ichki qarama-qarshiligi, ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish zaruratini taqozo etadi. Bu ham iqtisodiy tahlilning tavsifli qirralaridan biridir. Masalan, texnik yangilanishlar mehnat

unumdorligini o'sishi, rentabellik va boshqa ko'rsatkichlar darajasi oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, lekin bunda uning atrof-muhit iqtisodiy tahlilni ifloslantirishi kabi salbiy oqibatlarini ham yodda tutish lozim.

Tahlilda dialektik metoddan foydalanish korxonaning xo'jalik faoiyatini o'rganish barcha o'zaro bog'liqliklarni hisobga olgan holda olib borishi lozimligini anglatadi. Hech bir hodisa agar u boshqalardan ajratilgan holda aloqadorliksizda ko'rib chiqilsa, to'g'ri tushunilishi mumkin emas. Misol uchun, yangi texnikani joriy etishning mahsulot ishlab chiqarish tannarxi darajasiga ta'sirini o'rganishda nafaqat bevosita, balki bilvosita aloqani ham hisobga olish zarur. Ma'lumki, yangi texnika joriy etilishi bilan ishlab chiqarish xarajatlari, demak mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi. Lekin, bu holat mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, ish haqidan tejalishiga va shu omil tufayli mahsulot ishlab chiqarish tannarxi pasayishiga olib keladi. Demak, u yoki bu iqtisodiy hodisani anglash va to'g'ri baholash uchun barcha o'zaro aloqalarni boshqa hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklarni o'rganish zarur. Bu ham iqtisodiy tahlilning metodologik jihatlaridan biridir.

Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri uning nafaqat sabab-oqibat aloqalarini o'rganish, balki ularga miqdoriy tavsif berishi, ya'ni faoliyat natijalariga omillar ta'sirini miqdoran o'lchashni ta'minlash sanaladi. Bu analitik tadqiqotlar darajasini oshiradi.

Tahlilda sabab aloqalarini o'rganish va o'lchashni induksiya va deduksiya metodi bilan amalga oshirish mumkin. Mantiqiy induksiya ko'magida sabab, aloqalarini o'rganish usuli shundan iboratki, tadqiqot xususiydan umumiy tomon, xususiy dalillardan umumlashtirish, sababdan natija tomon olib boriladi. Deduksiya – shunday usulki, bunda tadqiqot umumiy dalillardan xususiyga, natijalardan sababga tomon amalga oshiriladi. Iqtisodiy tahlilda ham u ham bu yondashuvdan foydalaniladi. Induksiya metodlari barcha ko'rsatkichlarning alohida omillarga nisbatan o'zgarishidagi ta'sirchanlikni kompleks baholash uchun qo'llaniladi. Deduksiya

yordamida tadqiq etilayotgan natijaviy ko'rsatkichni shakllantiruvchi butun kompleks omillar tadqiq qilinadi.

Bilishning dialektik metodiga muvofiq har bir jarayon, har bir iqtisodiy hodisani tizim va tizimga o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqish lozim. Bularning har biri uning rivojlanishi uchun munosib hissa qo'shadi. Tizim elementlaridan biriga ichki yoki tashqi tavsifidagi ixtiyoriy ta'sir uning boshqa elementlarida ham o'z aksini topadi. Bundan tahlil obyektlarini o'rganishga tizimli yondashuv zarurati kelib chiqadi, bu tadqiqot metodologiyasining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tizimli yondashuv tahlil obyektini chuqur o'rganishga, u haqda yanada to'liq va yaxlit tasavvur olishga, bu obyektning alohida qismlari o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga imkon beradi.

Tizimli yondashuvning asosiy xususiyati – dinamizm, o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik, tizim elementlarining o'zaro aloqasi, komplekslilik, yaxlitlilik, tobelik, yetakchi bo'g'in ajratilishi kabilardir.

Tizimli yondashuv elementlari o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlarning maksimal detallashtirish (xususiy tahlil) va ularning tizimlashtirilishini ko'zda tutadi. U yoki bu hodisalarni detallashtirish (tarkibiy qismlarga ajratish) o'rganilayotgan obyektda yanada jiddiy va asosiysini aniqlash uchun zarur bo'lgan darajada olib boriladi. U obyekt va tahlil maqsadiga bog'liq. Bu iqtisodiy tahlildagi murakkab vazifa bo'lib, analitikdan iqtisodiy hodisalar mohiyati, shuningdek, ularning rivojlanishini aniqlovchi omil va sabablar haqida aniq bilimlar talab qiladi.

Tahlilda tizimli bilan bir qatorda vaziyatli yondashuv mavjud, unga muvofiq amalga oshirish belgilangan funksiyani inqirozli hodisalardan ogohlantirish maqsadida boshqarilishi lozim bo'lgan vaziyat tashkil etadi. To'g'ri qaror qabul qilish uchun yuzaga kelgan vaziyatni baholash va uning istiqbolda rivojlanishini prognozlash zarur. Vaziyatli yondashuvning o'ziga xosligi shundan iboratki, u tizimli tahlilning asosiy g'oyalarini rivojlantirib, eng ahamiyatli tizim parametrlarini, eng dolzarb omillarni ajratadi, qo'yilgan maqsadlarga yanada samarali usullar bilan erishish mumkin bo'lganlariga ta'sir ko'rsatadi. Vaziyatli yondashuv

hozirgi vaqtda iqtisodiy tahlilni rivojlantirish metodologiya va metodikasining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi.

### Kompleks iqtisodiy tahlil metodikasi

Metodika - analitik tadqiqotni yanada maqsadga muvofiq bajarishning usullari va qoidalari majmuidir. Tahlilda umumiy va xususiy metodika farqlanadi.

Umumiy metodika iqtisodiyotning turli sohalaridagi iqtisodiy tahlilning turli obyektlarni o'rganishda foydalaniladi. Xususiy metodika muayyan iqtisodiyot sohalari, ishlab chiqarish turi, tadqiqot obyektlarida tahlil ko'rinishida umumiy qo'llanilishini aniqlashtiradi.

Tahlilning ixtiyoriy metodikasi analitik tadqiqot o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar yoki metodologik tavsiyalarni o'zida aks ettiradi, aynan:

- analitik tadqiqot o'tkazish ketma-ketligi va davriyligi bo'yicha tavsiyalar;
- o'rganilayotgan obyektlarni tadqiq qilish usul va uslublarini tavsiflash;
- tahlilni tashkil qilish, uni metodik, texnik va informatsion ta'minoti bo'yicha ko'rsatmalar;
- tahlil natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha tavsiyalar.

IT metodikasining ikki elementiga yanada batafsil to'xtalamiz:

1) tahlil texnologiyasi (analitik ishlarni bajarish ketma-ketligi);

2) o'rganilayotgan obyektlarni tadqiq qilish usullari (tahlilning metodik instrumentariysi).

Kompleks iqtisodiy tahlilni bajarishda bir nechta texnologik bosqich ajratiladi:

1) tahlil obyektlari, maqsad va vazifa aniqlanadi, analitik ishlar rejasi tuziladi, chunki maqsad aniq keltirilmasa, tahlil jarayoni o'z ma'nosini yo'qotadi;

2) tahlil obyektini tavsiflashga ko'maklashuvchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqiladi;

3) tahlil uchun zaruriy axborot to'planadi va tayyorlanilib (uning aniqligi, ishonchliligi tekshiriladi, mutanosib ko'rinishga olib kelinadi, tizimlashtiriladi. Iqtisodiy tahlil natijalari axborotlarning sifatiga bog'liq bo'ladi;

4) xo'jalik yuritishning haqiqatdagi natijalarini hisobot davri reja ko'rsatkichi bilan, qabul qilingan me'yorlar va standartlar, o'tgan yillar haqiqatdagi ma'lumotlari bilan, etakchi korxonalar yutuqlari, o'rtacha soha bo'yicha va b. taqqoslash o'tkaziladi; korxona rivojlanishi tendensiyalari va sur'atlari, uning reytingi, moliya va tovar bozoridagi holati o'rnatiladi; echimi bo'yicha muayyan chora-tadbirlar taqozo qiluvchi muammolar topiladi;

5) omillar va korxona faoliyati natijalariga o'tmishda hamda istiqbolda ularning ta'siri aniqlanadi, korxona maqsadlariga erishishda foydalanilmagan imkoniyatlar hisoblanadi va shuning asosida erishilgan natijalarni baholash amalga oshiriladi;

6) yuzaga kelgan vaziyatda korxona rivojlanishining ehtimoliy senariysi ko'rib chiqiladi, fan va amaliyot sohasida yangiliklarni o'rganish negizida korxona mehnat unumdoligini oshirishning mavjud zaxiralari baholanadi;

7) qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan strategik va taktik boshqaruv qarorlari qabul qilish bo'yicha tavsiyalar tayyorlanadi; qabul qilinayotgan qarorlarning ehtimoliy oqibatlari, ishlab chiqarish va moliyaviy risklar darajasi baholanadi; korxonaning operativ, joriy va istiqbolli rejalari aniqlanadi.

Analitik tadqiqotlarni bajarishning bunday ketma-ketligi iqtisodiy tahlil nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan yanada maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Analitik tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladigan tahlilning texnik uslublari va usullari (tahlil instrumentariysi) iqtisodiy tahlil metodikasining eng muhim elementi hisoblanadi (3.1-chizma).

| |
|---|
| Axborotni qayta ishlashning mantiqiy usullari |
| Taqqoslash |
| Nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar |
| Moliyaviy hisoblash |
| Ma'lumotlarni grafik va jadval shaklida berilishi |
| Guruhlash |
| Balansli |
| Evristik metod |

*3.1-chizma. Korxonaning iqtisodiy tahlil usullari*

Ularning orasida va boshqa fanlarda ham axborotlarni qayta ishlash va o'rganish uchun keng qo'llaniladigan (taqqoslash, grafik, balans, o'rtacha va nisbiy miqdorlar, analitik guruhlash, instrumentar moliyaviy hisoblashlar, intuitsiya asosida iqtisodiy vazifani evristik yechish metodlari, o'tmish tajribasi, mutaxassislarning ekspert bahosi, an'anaviy mantiqiy usullarni ajratish mumkin. Hozirgi vaqtda, mutlaqo qandaydir fanga taalluqli uslub va usullarni asoslash juda qiyin, chunki tadqiqotning turli sferalarida ilmiy instrumentariylarning o'zaro kirishib ketishi kuzatiladi.

Omillarning xo'jalik yuritish natijalariga va rezervlar hisobiga ta'sirini o'rganish uchun tahlilda determinatsiyalashgan va stoxastik omilli tahlil usullari, iqtisodiy masalani maqbul yechish metodlari qo'llaniladi.

U yoki bu usulning qo'llanilishi tahlilning maqsadi va chuqurligiga, tadqiqot obyekti, analitik hisoblashlarni bajarish texnik imkoniyatlari va boshqalarga bog'liq.

Iqtisodiy tahlil instrumentariysini takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega va analitik ishlarning asosiy muvaffaqiyati hamda samaradorligi hisoblanadi. Inson o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatiga qanchalik chuqur kirib borsa, unga tadqiqotning shunchalik aniq metodlari talab buladi. Bu barcha fanlar uchun tegishlidir. So'nggi yillarda fan barcha sohalarida tadqiqot metodikasi yanada mukammallashdi. Tadqiqotning matematik metodlaridan foydalanish iqtisodiy fanning muhim yutuqlaridan biri bo'lib, korxonaning faoliyati natijalarini belgilovchi omillarning yanada ko'lamdor kompleksini tadqiq qilishga imkon beradi, hisoblashlar aniqligini oshiradi. Uning sharofati bilan ko'p o'lchamli va maqbul vazifalarni hal qilish, ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asos yaratuvchi imkon paydo bo'ldi.

## Omilli tahlil metodikasi

Korxonalar xo'jalik faoliyatidagi barcha hodisa va jarayonlar o'zaro aloqador, o'zaro bog'liq va o'zaro shartlangandir. Ular bir-birlari bilan o'zaro bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'ladilar. Masalan, operatsion faoliyatdan foyda hajmi mahsulotlar birligi

narxi va tannarxiga, savdo hajmi va strukturasiga bog'liq. Barcha boshqa omillar ushbu ko'rsatkichga bilvosita ta'sir qiladi.

Tahlilda har bir hodisani sabab sifatida ham, natija sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Masalan, mehnat unumdorligini, bir tomondan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi sababi, uning tannarxi darajasi sifatida, boshqa tomondan esa – ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi o'zgarishi natijasi, mehnatni tashkil qilish takomillashtirilishi va boshqalar tarzida ko'rib chiqish mumkin.

Har bir natijaviy ko'rsatkich ko'p sonli omillarga bog'liq. Natijaviy ko'rsatkich kattaligiga omillar ta'siri qanchalik batafsil tadqiq qilinsa, tahlil natijalari va korxonalar mehnat sifatini baholash shunchalik aniq bo'ladi. Shuning uchun xo'jalik faoliyati tahlilida o'rganilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar kattaligiga omillar ta'sirini o'rganish va o'lchash muhim metodologik masala hisoblanadi. Omillarni chuqur va har tomonlama o'rganmasdan faoliyat natijalari haqida asoslangan xulosalar qilish, ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash, reja va boshqaruv qarorlarini asoslash mumkin emas.

Omilli tahlil – bu natijaviy ko'rsatkichlar darajasiga omillar ta'sirini kompleks hamda tizimli tadqiq qilish jarayonidir.

| Omilli tahlil turlari | |
|---|---|
| → | 1. Determinatsiyalangan va stoxastik |
| → | 2. To'g'ri va teskari |
| → | 3. Bir darajali va ko'p darajali |
| → | 4. Statik va dinamik |
| → | 5. Retrospektiv va istiqbolli (prognoz) |

*3.2-chizma. Omilli tahlil turlari.*

Determinatsiyalashgan omilli tahlil-natijaviy ko'rsatkichlar bilan aloqasi funksional tavsif kasb etuvchi omillar tadqiq metodikasini o'zida aks ettiradi. Stoxastik tahlil esa natijaviy

ko‘rsatkich bilan aloqasi, funksionaldan farqli ravishda, noto‘liq, ehtimoliy (korrelyatsion) hisoblanuvchi omillar ta’sirini o‘rganadi. Agar argument o‘zgarishiga funksional (to‘liq) bog‘liqlikda doimo funksiyalarning mutanosiblikda o‘zgarishi sodir bo‘lsa, u holda argument o‘zgarishining stoxastik aloqasida ushbu ko‘rsatkichni aniqlovchi boshqa omillar uyg‘unligiga bog‘liqlikda funksiyalar o‘sishining bir nechta qiymatini berishi mumkin. Masalan, mehnat unumdordorligi ayni bir xil darajali fond bilan qurollangan turli korxonalarda bir xil bo‘lmasligi mumkin. Bu natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir qiluvchi boshqa omillarning maqbul uyg‘unligiga bog‘liq.

Tadqiqot metodikasi bo‘yicha to‘g‘ri va teskari omilli tahlil farqlanadi. To‘g‘ri omilli tahlil deduktiv usulda – umumiydan xususiyga tomon amalga oshiriladi. U o‘rganilayotgan natijaviy ko‘rsatkich kattaligini shakllantiruvchi omillarni kompleks tadqiq qilish maqsadida olib boriladi. Teskari omilli tahlil sabab-oqibat aloqalarini mantiqiy induksiya usuli bilan tadqiq qiladi – xususiy, alohida omillardan umumiyga, sababdan oqibatga olib keladi. Ko‘plab natijaviy ko‘rsatkichlarning o‘rganilayotgan omil o‘zgarishiga tasirchanlik darajasini baholashga imkon beradi.

Omillar detallashtirish darajasiga bog‘liqlikda tahlil bir darajali va ko‘p darajali bo‘lishi mumkin. Birinchi shakli omillarning faqat bir darajasini (bir pog‘onani), ularning tarkibiy qismlar bo‘yicha detallashtirmasdan tadqiq qilish uchun foydalaniladi. Masalan, Y = a*v Ko‘p darajali omilli tahlilda omillarning mohiyatini o‘rganish maqsadida ularlarning a va v tarkibiy elementlariga nisbatan detallashtirishga olib boriladi. Omillarning detallashtirish kelgusida ham davom ettirilishi mumkin. Ushbu holatda tobelanishning turli darajalariga ega omillar ta’siri o‘rganiladi.

O‘rganilayotgan hodisalar holat belgisiga ko‘ra statik va dinamik omilli tahlil farqlanadi. Statik tahlil muayyan sanaga natijaviy ko‘rsatkichlarga omillarning ta’sirini o‘rganishda qo‘llaniladi. Boshqa ko‘rinish sabab-oqibat aloqalarini dinamikada tadqiq qilish metodikasini o‘zida aks ettiradi.

Va nihoyat, vaqt belgisi bo'yicha omilli tahlil retrospektiv bo'lishi mumkin, u o'tgan davr va istiqbol uchun xo'jalik faoliyati natijalaridagi o'zgarishlar sababini o'rganib, istiqbolda natijaviy ko'rsatkichlar darajasiga omillar ta'sirini tadqiq qiladi.

Omilli tahlilning asosiy bosqichlari:

1) o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkichlarning tahlili uchun omillarni saralash;

2) klassifikatsiya va tizimlashtirish omillarini o'rganish;

3) omilli va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasida o'zaro aloqalarni modellashtirish;

4) omillar ta'sirini hisoblash va o'zgarishidagi natijaviy ko'rsatkich kattaliklari har birining ahamiyatini baholash;

5) iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun omilli modeldan amaliy foydalanish.

### 3.3. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar va ularni guruhlarga ajratish

Iqtisodiy tahlil qilish jarayonida turli usullar va metodikalar qo'llaniladi. Bu usul va metodikalardan foydalanish jarayonida tahlil metodining asosiy jihatlarining kompleksligi va tizimlashganligi yaqqol ko'rinadi. Xo'jalik jarayonlarining umumiy birligi, o'ziga xos tuzilish va tarkibga egaligi hamda murakkab tavsifdagi o'zaro bog'liqligi tahlil usullari va metodikalarini qo'llashda asosiy e'tiborda turadi.

Tahlilning usul va metodikalarini qo'llashda korxonaning xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatini bir butun tizim ekanligi, uning umumiy yakuniy natijasi mavjudligi nazarda tutilgan holda faoliyatning turli tomonlari va elementlari ham alohida, ham birgalikda o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi, biri ikkinchisining ta'siridan kelib chiqishi, ya'ni ketma-ketligi aniqlanib, barcha omillar asosiy hamda asosiy bo'lmagan guruhlarga bo'linib, ular o'zaro uyg'unlashtirilgan hamda tizimga solingan holda yakuniy natijaga omillarning birgalikdagi bevosita va bilvosita ta'siri hisoblanadi.

Tahlil usullarini qo'llash o'rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog'liqligi, o'zgarish sababi, ta'sir ko'rsatgan omillar va qo'shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi raqobatdosh iqtisodiyotda aksariyat yetuk iqtisodchi olimlarimiz tahlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarda shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko'rsatishmoqda. Iqtisodiy tahlilning usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhi.
- Iqtisodiy - matematik (omilli tahlil) usullar guruhi.

Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhiga iqtisodiy tahlil paydo bo'lgandan buyon an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo'llanilib kelayotgan usullar kiritiladi. Ularning tarkibiga mutloq va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlashtirish, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, indeks, foizlar va hokazo usullarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy-matematik usullar tarkibiga esa odatda korrelyatsion va regratsion tahlil, integral usuli, matematik yoki chiziqli programmalashtirish usuli, determinantlar usuli, iqtisodiy tashxis qo'yish usuli, logarifmlar usuli, nazariy o'yin usuli va hokazolarni kiritishimiz mumkin.

Fan metodologiyasi o'zida predmetini anglashga yo'naltirilgan tamoyillar, usullar va metodlar, qoidalar tizimini aks ettiradi. Bilish faoliyati jarayonini yaxlit tadqiq etuvchi anglash nazariyasidan metodologiya shunisi bilan farq qiladiki, u anglash metodlariga ko'proq diqqatni qaratadi. Agar fan nazariyasi o'zida bilish jarayoni natijasini aks ettirsa, u holda metodologiya ushbu bilimlarga erishish usuli va tadqiqiy faoliyatga yo'naltiruvchi asos sanaladi.

Fan metodologiyasining asosiy tarkibiy qismlari – bu predmetni o'rganish yondashuvining umumiy tamoyillarini va uni tadqiq qilishning aniq metodikasini ishlab chiqishdir.

Turli fanlar uchun o'ziga xos bo'lgan o'z predmetini o'rganishga yondashuv usullari (jumladan, iqtisodiy tahlil ham) bilishning umumiy dialektik metodiga asoslanadi.

Bilishning dialektik metodi barcha hodisa va jarayonlarni uzluksiz harakatda, o'zgarish va taraqqiyotda ko'rib chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Hech narsa o'z o'rnida turmaydi,

barchasi rivojlanadi, barchasi o'zgaradi. Har kun, har soat, har daqiqada korxona iqtisodiyotida o'zgarish sodir bo'lib, ular taqqoslash jarayonida anglanadi. Muntazam taqqoslashning zarurati – iqtisodiy tahlilning xarakterli jihatlaridan biridir. Taqqoslash iqtisodiy tahlilda juda keng qo'llaniladi: faoliyatning haqiqiy natijalari o'tgan yillar natijalari bilan, boshqa korxonalarning erishgan yutuqlari, maqsadli va prognoz parametrlar, me'yoriy ma'lumotlar va boshqalar bilan taqqoslanadi.

Dialektik metod tamoyillari bilan mutanosiblikda har bir jarayon, har bir hodisa qarama-qarshilik kurashi va birligi sifatida ko'rib chiqilishi zarur. Bu tamoyil har bir jarayon, har bir hodisaning ichki qarama-qarshiligi, ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish zaruratini taqozo etadi. Bu ham iqtisodiy tahlil tavsifli qirralaridan biridir. Masalan, texnik yangilanishlar mehnat unumdorligini o'sishi, rentabellik va boshqa ko'rsatkichlar darajasi oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, lekin bunda uning atrof-muhitni ifloslantirishi kabi salbiy oqibatlarini ham yodda tutish lozim.

Tahlilda dialektik metoddan foydalanish korxonaning xo'jalik faoliyatini o'rganish barcha o'zaro bog'liqliklarni hisobga olgan holda olib borishi lozimligini anglatadi. Hech bir hodisa agar u boshqalardan ajratilgan holda alohida, bog'liqsiz ko'rib chiqilsa, to'g'ri tushunilishi mumkin emas. Misol uchun, yangi texnikani joriy etishning mahsulot ishlab chiqarish tannarxi darajasiga ta'sirini o'rganishda nafaqat bevosita, balki bilvosita aloqani ham hisobga olish zarur. Ma'lumki, yangi texnika joriy etilishi bilan ishlab chiqarish xarajatlari, demak mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi. Lekin, bu holat mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, ish haqidan tejalishiga va shu omil tufayli mahsulot ishlab chiqarish tannarxi pasayishiga olib keladi. Demak, u yoki bu iqtisodiy hodisani anglash va to'g'ri baholash uchun barcha o'zaro aloqalarni boshqa hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklarni o'rganish zarur. Bu ham iqtisodiy tahlilning metodologik jihatlaridan biridir.

Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri uning nafaqat sabab-oqibat aloqalarini o'rganish, balki ularga miqdoriy tavsif berishi, ya'ni faoliyat natijalariga omillar ta'sirini miqdoran o'l-

chashni ta'minlash sanaladi. Bu analitik tadqiqotlar darajasini oshiradi.

Tahlilda sabab aloqalarini o'rganish va o'lchashni induksiya va deduksiya metodi bilan amalga oshirish mumkin. Mantiqiy induksiya ko'magida sabab, aloqalarini o'rganish usuli shundan iboratki, tadqiqot xususiydan umumiy tomon, xususiy dalillardan umumlashtirish, sababdan natija tomon olib boriladi. Deduksiya – shunday usulki, bunda tadqiqot umumiy dalillardan xususiyga, natijalardan sababga tomon amalga oshiriladi. Iqtisodiy tahlilda ham u ham bu yondashuvdan foydalaniladi. Induksiya metodlari barcha ko'rsatkichlarning alohida omillarga nisbatan o'zgarishidagi ta'sirchanlikni kompleks baholash uchun qo'llaniladi. Deduksiya yordamida tadqiq etilayotgan natijaviy ko'rsatkichni shakllantiruvchi butun kompleks omillar tadqiq qilinadi.

Bilishning dialektik metodiga muvofiq har bir jarayon, har bir iqtisodiy hodisani tizim va tizimga o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqish lozim. Bularning har biri uning rivojlanishi uchun munosib hissa qo'shadi. Tizim elementlaridan biriga ichki yoki tashqi tavsifidagi ixtiyoriy ta'sir uning boshqa elementlarida ham o'z aksini topadi. Bundan tahlil obyektlarini o'rganishga tizimli yondashuv zarurati kelib chiqadi, bu tadqiqot metodologiyasining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tizimli yondashuv tahlil obyektini chuqur o'rganishga, u haqda yanada to'liq va yaxlit tasavvur olishga, bu obyektning alohida qismlari o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga imkon beradi.

Tizimli yondashuvning asosiy xususiyati – dinamizm, o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik, tizim elementlarining o'zaro aloqasi, komplekslilik, yaxlitlilik, tobelik, yetakchi bo'g'in ajratilishi kabilardir.

Tizimli yondashuv elementlari o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlarning maksimal detallashtirish (xususiy tahlil) va ularning tizimlashtirilishini ko'zda tutadi. U yoki bu hodisalarni detallashtirish (tarkibiy qismlarga ajratish) o'rganilayotgan obyektda yanada jiddiy va asosiysini aniqlash uchun zarur bo'lgan darajada olib boriladi. U obyekt va tahlil maqsadiga bog'liq. Bu iqtisodiy tahlildagi murakkab vazifa bo'lib, analitikdan iqtisodiy hodisalar

mohiyati, shuningdek, ularning rivojlanishini aniqlovchi omil va sabablar haqida aniq bilimlar talab qiladi.

Tizim elementlarini tizimlashtirish ularning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini o'rganish asosida amalga oshiriladi. Bu asosiy komponentlarni, funksiyalarni, tizim elementlari tobeligini aniqlashga, o'rganilayotgan obyekt (tizim)ning taxminiy tuzilishli – mantiqiy tahlil modelini tuzishga imkon beradi. Grafik jihatda u odatda rasm ko'rinishida taqdim bo'ladi, bu yerda har bir elementga muayyan blok mos keladi. Alohida bloklar o'zaro strelkalar bilan bog'liq, ular ichki va tashqi tizim aloqalari mavjudligi va yo'nalishini ko'rsatadi. tuzilishli-mantiqiy chizmalar asosida matematik bog'liqlik shakllari belgilanadi, tizimning elementlari o'zaro aloqani o'rtasidagi tavsiflovchi matematik modellar tuziladi, ularning parametrlari aniqlanadi. Tizimlashtirish tahlildagi o'ta mas'uliyatli davr hisoblanadi. Bu jarayonda doimiy omillarni tasodifiylaridan ajratish, ko'plab o'rganilayotgan omillarning to'plamidan faoliyat natijalari bog'liq bo'lgan asosiylarini aniqlash zarur.

Iqtisodiy tahlilning yuqorida qayd qilingan tomonlar bilan bevosita shartlangan muhim metodologik jihati, korxonaning xo'jalik faoliyatidagi iqtisodiy jarayon va hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini kompleks, tizimli tadqiq qilish uchun zaruriy sanaluvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va undan foydalanish hisoblanadi.

Tahlilda tizimli bilan bir qatorda vaziyatli yondashuv mavjud, unga muvofiq amalga oshirish belgilangan funksiyani inqirozli hodisalardan ogohlantirish maqsadida boshqarilishi lozim bo'lgan vaziyat tashkil etadi. To'g'ri qaror qabul qilish uchun yuzaga kelgan vaziyatni baholash va uning istiqbolda rivojlanishini prognozlash zarur. Vaziyatli yondashuvning o'ziga xosligi shundan iboratki, u tizimli tahlilning asosiy g'oyalarini rivojlantirib, eng ahamiyatli tizim parametrlarini, eng dolzarb omillarni ajratadi, qo'yilgan maqsadlarga yanada samarali usullar bilan erishish mumkin bo'lganlariga ta'sir ko'rsatadi. Vaziyatli yondashuv hozirgi vaqtda iqtisodiy tahlilni rivojlantirish metodologiya va metodikasining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi.

## 3.4. Iqtisodiy tahlil jarayonida taqqoslash usulining qo'llanilishi

Taqqoslash – inson atrof-muhitni anglay boshlagan usullardan biri bo'lib, undan doimo foydalaniladi. Uning muhimligi quyidagi naqlda ham qayd qilinadi: «Barcha narsa qiyoslashda anglanadi». Bu usul iqtisodiy hodisalar tadqiqida ham keng tarqaldi: baholash uchun qo'llaniladigan har bir ko'rsatkich, har bir raqam, nazorat va prognoz xuddi shunday boshqalar bilan taqqoslashdagina ahamiyatlidir.

Taqqoslash mohiyati – turdosh obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqlarni aniqlash maqsadida qiyoslashdir. Ular yordamida umumiy va xususiy iqtisodiy hodisalarni taqqoslash bajariladi, o'rganilayotgan obyektlar darajasida o'zgarishlar, tendensiyalar va ularning rivojlanishi qonuniyatlari, ular o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari o'rnatiladi.

Texnologik taqqoslash bir nechta bosqichdan iborat: taqqoslanadigan obyektlarni tanlash, taqqoslash shaklini tanlash (dinamik, makoniy va b.), taqqoslash bazasini tanlash (o'tgan davr, hisobot davr rejasi, etalon korxona va b.), obyektlarni qiyoslash amalga oshiriladigan ko'rsatkichlar sonini tanlash, taqqoslash shkalasini tanlash.

Iqtisodiy tahlilda qiyosiy tahlilning quyidagi shakllari farqlanadi: gorizontal va vertikal, dinamik va statik, bir o'lchovli va ko'p o'lchovli.

Gorizontal qiyosiy tahlil o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini bazaviydan (reja, o'tgan davr, o'rtacha daraja, fan va ilg'or tajriba yutuqlari) absolyut va nisbiy og'ishlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

Vertikal qiyosiy tahlil yordamida iqtisodiy hodisalarning strukturasi va jarayonlarning qismlari hamda umumiy solishtirma salmog'ini hisoblash yo'li bilan (o'z kapitalining umumiy kapitaldagi solishtirma salmog'i), butun va qism nisbatlari (masalan, o'z va qarz kapitali, asosiy va aylanma kapital), shuningdek, omillarning natijaviy ko'rsatkichlarning darajasiga ta'sirini mutanosib omilning oldingi va keyingi o'zgarishlari miqdorlariga taqqoslash yo'li bilan o'rganiladi.

Trend tahlil o‘rganishda bazis yil darajasiga nisbatan qator yillar uchun nisbiy o‘sish sur’ati va ko‘rsatkichlarning o‘sishini o‘rganishda qo‘llaniladi, ya’ni ko‘rsatkichlar dinamikasining asosiy tendensiyalari tadqiq qilinadi.

Dinamik taqqoslash o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning vaqtda o‘zgarishini o‘rganish uchun qo‘llaniladi, statik taqqoslash – turli xo‘jalik subyektlari bir davr bo‘yicha ko‘rsatkichlar darajasini baholash uchun.

Bir o‘lchovli tahlilda bir obyektning bir yoki bir nechta ko‘rsatkichlar bo‘yicha yoki bir nechta obyektlarni bir ko‘rsatkich bo‘yicha taqqoslash bajariladi.

Ko‘p o‘lchamli qiyosiy tahlil yordamida bir nechta korxonalar (bo‘linmalar) keng spektrli ko‘rsatkichlar bo‘yicha faoliyati natijalar taqqoslanadi.

Taqqoslash bazasiga bog‘liqligiga ko‘ra u quyidagi turlarga ajratiladi (3.1-jadval).

**3.1-jadval**

**Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan taqqoslashning asosiy turlari**

| **Taqqoslash turlari** | **Taqqoslash maqsadi** |
|---|---|
| 1. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini reja ma’lumotlari bilan qiyoslash | Reja bajarish darajasini nazorati va baholash, uni jadallik darajasini, foydalanilmagan ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash |
| 2. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini tasdiqlangan me’yor va standartlar bilan qiyoslash | Resurslardan tejamli foydalanish nazorati |
| 3. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini o‘tgan yillar ma’lumotlari bilan qiyoslash | Iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari va sur’atlarini belgilash |
| 4. Tahlilga qilinayotgan korxonaning ko‘rsatkichlar darajasini sohaning etakchi korxonalar faoliyati ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash | Korxonaning raqobatdoshligini baholash va uning faoliyati natijalarini yaxshilash rezervlarini aniqlash |
| 5. Tahlilga tortilgan korxonaning ko‘rsatkichlar darajasini sohaning korxonalar faoliyati o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash | Bozordagi o‘sha sohaning boshqa korxonalari o‘rtasidagi korxonaning holatini aniqlash va uni raqobatdoshligi va tadbirkorlik |

| | |
|---|---|
| | risklarini baholash |
| 6. Parallel va dinamik qatorlarni qiyoslash | O'rganilayotgan hodisalar o'rtasida aloqa shakllari mavjudligi va yo'nalishini belgilash |
| 7. Boshqaruv qarorlari turli variantlarini qiyoslash | Qaroming yanada optimal variantini tanlash |
| 8. Qandaydir omil o'zgarishidan avvalgi va keyingi faoliyat natijalarini qiyoslash | Faoliyat natijalari ta'sirchanligiga o'rganilayotgan omillar o'zgarishi darajasini baholash |
| 9. Tadqiq etilayotgan davrda turli ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini qiyoslash | Tahlil qilinayotgan korxona sharoitida iqtisodiy qonunlar namoyon bo'lishi xarakterini o'rganish |
| 10. Turli davrda bir ko'rsatkichning o'sish sur'atini qiyoslash | Bir soat, smena, ish kuni, yil davomida resurslardan foydalanish to'liqligiga ularning ta'sirchanligini baholash |

Avval qayd qilinganidek, iqtisodiy tahlilning vazifalaridan biri tizimli nazorat va qo'yilgan maqsadlarga erishish bo'yicha korxonalar faoliyatini har tomonlama baholash hisoblanadi. Bunda haqiqatdagi ma'lumotlarni rejadagi bilan taqqoslash zarurligiga shartlangan. Bunday taqqoslash oy, chorak yoki yil rejasini bajarish darajasini aniqlashga, mo'ljal parametrlardan og'ishni aniqlash, yechimini talab qiluvchi muammolarni aniqlashga imkon beradi.

**3.2-jadval**

**____ oy uchun mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha rejaning bajarilishi**

| Mahsulot turi | Ishlab chiqarish hajmi, mln so'm. | | Rejadan og'ishish (+;-) | |
|---|---|---|---|---|
| | reja | haqiqatda | mutlaq, mln so'm. | nisbiy, % |
| A | 300 | 327 | +27 | +9,0 |
| B | 250 | 225 | -25 | -10,0 |
| va hokazo | | | | |
| **JAMI** | **550** | **552** | **+2** | **+0,4** |

O‘tgan davr haqiqatdagi ma’lumotlari reja ko‘rsatkichlarining asoslanganligini tekshirish uchun foydalaniladi. Buning uchun o‘tgan 5-6 yil haqiqatdagi ma’lumotlarining o‘rtachasi joriy yilning reja ma’lumotlari bilan qiyoslanadi.

3.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shundan darak beradiki, reja bo‘yicha A turdagi mahsulot ishlab chiqarish yetarlicha asoslangan hisoblanadi. B turdagi mahsulot esa to‘rt davr o‘rtachasidan oshiqcha bo‘lib, bozor talabiga ham mos tushmagan. Shuning uchun mazkur ko‘rsatkich +39 (250-211) mln.so‘mga ko‘p belgilangan. Joriy yil rejaviy ko‘rsatkichlarini bajarilish holatini 6-jadvaldan bilib olsa bo‘ladi .

**3.3-jadval**

**Mahsulot ishlab chiqarish (taqqoslama narxlarda), mln so‘m.**

| Mahsulot TURI | O‘tgan yillar | | | | To‘rt davr uchun o‘rtachasi | Reja (kelgusi davr) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | | |
| A | 280 | 300 | 300 | 320 | 300 | 300 |
| B | 200 | 205 | 218 | 221 | 211 | 250 |
| va hokazo | | | | | | |
| **Jami** | **480** | **505** | **518** | **541** | **511** | **550** |

Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini rejadagi bilan qiyoslash korxona faoliyati samaradorligi oshirishda foydalanilmagan rezervlarni aniqlash uchun ham zarur. Agar reja bo‘yicha qanday-dir tadbir bajarilmagan bo‘lsa, u holda buni mahsulot ishlab chiqarish o‘sishida, uning tannarxini pasaytirish, foyda va rentabelligi o‘sishini foydalanilmagan rezervlari sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Misol uchun, aniq B mahsulot bo‘yicha innavatsion chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (3.4-jadval).

**3.4-jadval**

**Innovatsion chora-tadbirlar rejasining bajarilishi, mln so'm**

| Tadbirlar | Reja bo'yicha | Haqiqat-dagi | Rejadan mutlaq og'ishish (+;-) | Reja bajarilishi (+;-), % |
|---|---|---|---|---|
| **Uskunalar modernizatsiyasi** | 30 | 22 | -8 | - 26 |

O'rganilayotgan holatda yangi texnologiyalar joriy etish va uskunalar modernizatsiyasi bo'yicha reja bajarilmagan. Ushbu omillarning mehnat unumdorligi o'sishiga ta'sirini bilgan holda, shunga bog'liq ravishda mahsulotlar hajmi qanchalik kamayganini hisoblash qiyin emas.

Iqtisodiy tahlilda u yoki bu ko'rsatkichlar bo'yicha erishilgan darajasini istiqbolli reja-prognoz ma'lumotlari bilan taqqoslash ham muhim ahamiyat ega. Bunday taqqoslash istiqbolli reja bajarilishi jarayonini, haqiqatdagi natijalarning kutilgandan og'ishini va kelgusi davr vazifalarini oldindan ko'rishga imkon beradi.

Analitik ishlar amaliyotida haqiqatdagi natijalarni tasdiqlangan norma va standartlar bilan taqqoslashda keng foydalaniladi (3.5-jadval), u mahsulot ishlab chiqarish resurslarni tejalishi yoki sarfi oshganligini aniqlash, ulardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish samaradorligini baholash va mahsulot chiqarish o'sishi va uning tannarxini pasaytirishda foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash uchun zarur.

3.5-jadval

**Korxonaning material resurslaridan foydalanilishiga oid ma'lumotlar**

| Resurslar turi | Resurs xarajatlari, t | | Me'yordan og'ishish (+;-) | |
|---|---|---|---|---|
| | me'yor bo'yicha | haqiqatda | mutlaq | foizda |
| Neft mahsulotlari | 600 | 615 | +15 | +2,5 |
| Xom ashyo | 1200 | 1176 | -24 | -2,0 |
| Yonilg'i | 2500 | 2750 | +250 | 10,0 |
| Va hokazo | | | | |

Iqtisodiy tahlilda ham haqiqatda erishilgan natijalarni o'tgan davr ma'lumotlari bilan taqqoslash juda ko'p qo'llaniladi. Bu o'rganilayotgan ko'rsatkichlar o'zgarishlariga oid sur'atlarni baholashga va iqtisodiy jarayonlar rivojlanishi tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

3.6-jadval

**Asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi**

| Yil-lar | Mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi | | Ishchilar soni | | Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. so'm | bazis yil-ga nisba-tan % da | kishi | bazis yilga nisbatan % da | ming so'm. | bazis yilga nisbatan % da |
| 2003 | 830 | - | 1094 | - | 758,7 | - |
| 2004 | 910 | 9.6 | 1087 | -0.7 | 837,2 | +10,3 |
| 2005 | 930 | 2.2 | 1075 | -1.2 | 865,1 | +3,3 |
| 2006 | 1150 | 1.2 | 1064 | -1.1 | 1080,8 | +24,9 |
| 2007 | 1200 | 4.3 | 1000 | -6.1 | 1200,0 | +11,0 |

3.6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘sish, ishchilar soni esa kamayish tendensiyasiga ega. Bu o‘sish va kamayish mehnat unumdorligini bazis yilga nisbatan ortishiga sabab bo‘lgan.

Korxonada tegishli ko‘rsatkichlarni texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qilish sohasida erishilgan eng yaxshi natijalar bilan taqqoslash biznes samaradorligini oshirish rezervlarini izlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunda ichki korxona va korxonalararo taqqoslash bo‘lishi mumkin. Korxonaning ichida ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasini uning alohida segmentlari yutuqlari bilan taqqoslash olib boriladi va ularning muvaffaqiyati sabablari o‘rganiladi. Korxonalararo qiyosiy tahlil jarayonida tahlil qilinayotgan korxonaning ko‘rsatkichlari mavjud eng yaxshi natijalarga, xo‘jalik yuritishning bir xil boshlang‘ich sharoitlariga ega yetakchi korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Tahlil qilinayotgan korxonaning faoliyat natijalarini raqobatdosh korxonalar ma’lumotlari bilan taqqoslash katta ahamiyatga ega.

Korxonalararo taqqoslash quyidagi maqsadda olib boriladi:

- korxona va o‘xshash korxonalardagi faoliyat natijalari qanday nisbatlanishini rahbariyatga ko‘rsatish;
- biznesning kuchli va kuchsiz tomonlariga rahbariyat e’tiborini jalb qilish;
- korxonaning faoliyat samaradorligini baholash va uning strategik va taktik siyosatiga tuzatishlar kiritish uchun rahbariyatga obyektiv baho berish.

Korxonalararo qiyosiy tahlil sohasida eng so‘nggi yutuq bu – benchmarking. Bu nafaqat xususiy sohaning, balki boshqa sohalardagi fan va amaliyot yutuqlariga asoslangan etilib kelayotgan muammolar haqida oldindan ogohlantiruvchi tizimdir. U raqobatda ustunlikka erishish va uni saqlash uchun talab qilingan axborotlarni olish instrumenti sifatida foydalaniladi. Benchmarking korxona va etakchilar o‘rtasida erishilgan natijalardagi tafovut mohiyatini tushunishga ko‘maklashadi. Menejerlarni yangiliklarni izlashga yanada undaydi, innovatsion faoliyat uchun baza hosil qiladi. Yuqori rahbariyatga xususiy biznesda strategik va taktik

boshqaruv qarorlarini bo'yicha ortda qolishni bartaraf etishga maqbullashtirishga, mahsulot va xizmatlar bozorida yetakchi o'rin egallashga ko'maklashadi.

Korxonalarni taqqoslash bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Raqobat va tijorat siri tufayli raqobatdosh korxonalar kamdan kam axborot ayirboshlashadi. Shuning uchun bir korxonaning holati bilan boshqasiniki o'rtasida bevosita taqqoslash o'tkazish doimo ham mumkin bo'lmaydi – odatda, muayyan soha bo'yicha e'lon qilingan o'rtacha statistik ma'lumotlarga yoki aksionerlik jamiyati va mas'uliyati cheklangan jamiyat hisobotiga asoslangan bilvosita taqqoslash bilan cheklanishga to'g'ri keladi.

Tahlil qilinayotgan korxona ko'rsatkichlarining haqiqatdagi darajasini soha bo'yicha (vazirlik, birlashma, konsern) o'rtacha ko'rsatkichlar bilan qiyoslash ham iqtisodiy tahlilda katta ahamiyat ega. Bunday taqqoslash tahlil qilinayotgan korxonaning ushbu sohaning boshqa xo'jalik subyektlari o'rtasida reytingini aniqlash, korxonaning rivojlanishi darajasini yanada to'liq va obyektiv baholash, uning xo'jalik faoliyati natijalar belgilovchi umumiy va o'ziga xos omillarni o'rganish, operatsion va moliyaviy risk darajasini baholash uchun zarur.

Parallel va dinamik qatorlarni qiyoslash turli ko'rsatkichlar o'rtasida aloqa shakllari va yo'nalishlarini aniqlash va asoslash uchun foydalaniladi. Shu maqsadda ko'rsatkichlardan birini tavsiflovchi raqamni o'suvchi yoki kamayuvchi tartibda ranjirlash va shunga bog'liq ravishda boshqa tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlarni qay tarzda o'zgarishini ko'rib chiqish zarur.

3.7-jadvalda qishloq xo'jalik ekinlari va tuproq hosildorligi bo'yicha tumanning 10 fermer xo'jaligiga oid zanjirlangan ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish o'rganilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida chambarchas aloqa mavjudligini tasdiqlaydi: tuproq sifati oshganda don ekinlari hosildorligi o'sadi va aksincha.

**3.7-jadval**

**Don ekinlari hosildorligining tuproq sifatiga bog'liqligi**

| Xo'jalik nomeri | Tuproq sifati, ball | Hosildorlik, s/ga |
|---|---|---|
| 1 | 31 | 40 |
| 2 | 32 | 42 |
| 3 | 33 | 43 |
| 4 | 34 | 43 |
| 5 | 35 | 44 |
| 6 | 36 | 44 |
| 7 | 37 | 46 |
| 8 | 38 | 47 |
| 9 | 39 | 48 |
| 10 | 40 | 48 |

Boshqaruv qarorlarining turli variantlarini qiyoslash oldindan tahlilda reja va boshqaruv qarorlari asoslangan holda keng qo'llaniladi. Qaror qabul qilishda uning barcha ehtimoliy variantlarini ko'rib chiqish va qo'yilgan maqsadlarga yanada samarali usulda erishilishini ta'minlovchi eng yaxshi variantini tanlash uchun zarur.

Turli ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini tadqiq qilinayotgan vaqt davri uchun qiyoslash iqtisodiy tahlilda konkret sharoit va konkret vaqt intervalida iqtisodiy qonunlarning namoyon bo'lish xarakterini o'rganish uchun foydalaniladi. Misol uchun, mehnat unumdorligini oshib borish qonuni mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarini mehnat haqi o'sish sur'atidan yuqoriroq bo'lishini hamda shu tartibda davom etishini talab qiladi. Korxonaning iqtisodiy barqaror rivojlanishi ta'minlash uchun korxonaning tushumining o'sish sur'atlari uning aktivlarining o'sish sur'atlaridan, foydasining o'sish sur'atlari esa – tushum o'sish sur'atlaridan yuqoriroq bo'lishini talab qiladi. Agar bu qonunga doimo rioya qilinsa, u holda korxona o'zining bozor pozitsiyasini mustahkamlash uchun yaxshi istiqbolga ega yoki aksincha.

Turli vaqt davrlari uchun ayni bir ko'rsatkichning o'sish sur'atlarini qiyoslash resurslardan turli vaqt kesimida (yil, kvartal, oy, kun, soat) foydalanish to'liqligini baholashga imkon beradi.

Misol uchun, agar o'rtacha soatlik ishlab chiqarish o'sish sur'ati o'rtacha kunlik ishlab chiqarish o'sish sur'atidan oshsa, u holda bu ish vaqtining ichki smena yo'qotishlari o'sishidan guvohlik beradi. Agar kunlik ishlab chiqarish o'sish sur'ati o'rtacha yillik ishlab chiqarish o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, u holda bu kun bo'yi rejadan ortiqcha ish vaqti yo'qotishlariga izoh bo'la oladi.

Omillarning ta'sirini hisoblash, rezervlar miqdorlarini aniqlashda ham muayyan omilni ishlab chiqarish vaziyati o'zgarishlaridan oldin va keyin faoliyat natijalari qiyoslashda keng qo'llaniladi.

### 3.5. Ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirish usullari

Tahlilda rioya qilish muhim shartlardan biri – ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlashdir. Chunki, faqat sifat jihatidan bir xil kattaliklarni qiyoslash mumkin.

Ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchan emasligi turli sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin: turli narxlar mavjudligi, faoliyati hajmi; struktur o'zgarishlar; mahsulotlar sifati bir xil emasligi; taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar uchun tanlangan vaqt kesimi har xilligi; faoliyatning bir xil bo'lmagan boshlang'ich sharoiti (texnik, tabiiy, iqlim va b.); ko'rsatkichlarni hisoblashning usullari turlichaligi; korxonaning hisob siyosatining o'zgarishi bilan va b. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun yuqorida sanalgan omillar bo'yicha ularni yagona bazaga olib kelish zarur.

Birinchi navbatda barcha qiymat ko'rsatkichlarning kattaligiga ta'sir ko'rsatuvchi (ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar qiymati, tushum, tannarx, foyda, material xarajatlari hajmi, zaxiralar, asosiy vositalar va b.) inflyatsiya bilan aloqadorlikda narx o'sishini e'tiborga olmoq zarur. Ushbu omilning ta'sirini xolislantirish uchun, taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar bir xil narxda ifodalanadi.

Misol uchun, yalpi mahsulotlar chiqarish taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun uning hisobot va bazis davrlardagi fizik hajmi v bazis davr narxlarida ifodalanadi:

$$I_{ym} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Bu yerda

$q_x$ **va** $q_0$ – i- ko'rinishdagi mahsulotlarning mos ravishda hisobot va bazis davrlardagi ishlab chiqarishning miqdor hajmi;

$r_0$ – i- ko'rinishdagi mahsulotlarning bazis davrdagi narxi.

Bizning misolimizda (3.8-jadval) haqiqatdagi yalpi mahsulotlar chiqarishning o'sishi quyidagiga teng:

$$\Delta_{Ym} = \frac{1060 - 970}{970} \times 100 = 9{,}3\,\%$$

Agar u turli qiymatli baholashni e'tiborga olmay aniqlansa, u holda o'sishning orttirma ko'rsatkichini olamiz:

$$\Delta_{Ym} = \frac{1154 - 970}{970} \times 100 = 19\%$$

**3.8-jadval**

**Mahsulot ishlab chiqarish hajmi**

| | O'tgan davr | | | Hisobot davr | | | Hisobot davri uchun bazis davr narxlarida ishlab chiqarish hajmi | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Miq-dor, dona | narx, so'm | summa, ming so'm | Miq-dor, dona | narx, so'm | Summa, ming so'm | miqdor, dona | narxi, so'm | Summa, ming so'm |
| A | 10 000 | 27,25 | 272,5 | 12 000 | 30 | 360 | 12000 | 27,25 | 327 |
| B | 5000 | 37,50 | 187,5 | 6000 | 39 | 234 | 6000 | 37,50 | 225 |
| V | 20000 | 25,50 | 510,0 | 20000 | 28 | 560 | 20000 | 25,50 | 510 |
| va b. | | | | | | | | | |
| Jami | – | – | 970,0 | | | 1154,0 | | | 1060,0 |

Korxonaning faoliyat ko'lamidagi o'zgarishlar tufayli ko'plab ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslanmas bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar hisobot yili mahsulot ishlab chiqarish xarajati summasini bazis davrdagi mazkur ko'rsatkich ($\sum q_0 b_0 + a_0$) bilan taqqoslasak, u holda ushbu ko'rsatkichlarning farqlanishi nafaqat mahsulotlar tannarxi darajasini o'zgarishi bilan, balki hajmidagi mahsulot ishlab chiqarish

miqdori o'zgarishlari bilan ham shartlangan bo'ladi. Xarajatlarni taqqoslanuvchan ko'rinishga olib kelish uchun hajmli omillar ta'sirini xolislantirish zarur. Buning uchun bazis davr xarajatlarining o'zgaruvchan summasi hisobot davrida haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qayta hisoblash va shundan so'ng buni hisobot davr xarajatlari summasi bilan taqqoslash zarur (3.9-jadval):

**3.9-jadval**

**Hajm omilining va korxonaning xarajat summasiga ta'sirini neytrallash**

| Mahsulot-lar turi | Mahsulotlar birligiga vaqtinchalik xarajatlar, ming so'm | | Hisobot davrida haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi, dona. | Hisobot davri haqiqatdagi ishlab chiqarish hajmiga vaqtinchalik xarajatlar summasi, mln so'm. | |
|---|---|---|---|---|---|
| | $b_0$ | $b_1$ | $q_1$ | $q_1 b_0$ | $q_1 b_1$ |
| A | 25 | 22 | 12000 | 300 | 264 |
| B | 33 | 30 | 6000 | 198 | 180 |
| Jami | – | – | – | 498 | 444 |

Doimiy xarajat summasi:
o'tgan davr – 300 mln so'm.;
hisobot davri – 320 mln so'm.

$$I_{ym} = \frac{\sum q_1 b_1 + a_1}{\sum q_1 b_0 + a_0}; \quad (444+320/498+300) \times 100 = 95{,}7\%$$

Bu yerda:

**b** – *i*- ko'rinishdagi mahsulotlar birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar;

**a** – mahsulot hajmiga bog'liq bo'lmagan, lekin tadqiq davri uchun mahsulot ishlab chiqarishga tegishli doimiy xarajatlar.

Sifat omili ta'sirini xolislantirish uchun mahsulotlar hajmi miqdorini mos ravishda standart sifat ko'rsatkichiga nisbatan qayta hisob-kitob qilinadi yoki standart sifatga keltiriladi. Misol uchun – standart sut yog'liligi holatini mahsulot hajmini o'zgarishiga ta'siri (3.10-jadval).

**3.10 -jadval**

**Sut sifatining uni ishlab chiqarish hajmi va tannarxiga ta'sirini neytrallash**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan davr | Hisobot davri | O'tgan davrga nisbatan hisobot davrida, % |
|---|---|---|---|
| Sut ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm. | 15 000 | 19 800 | 132 |
| Sut yog'liligi, % | 3,5 | 3,3 | 94,3 |
| Bazis yog'lilik, % | 3,4 | 3,4 | 100 |
| Sut ishlab chiqarish hajmi, s:<br>• haqiqatdagi yog'lilik bo'yicha<br>• bazis yog'lilik bo'yicha | <br>25 000<br>25 735 | <br>30 000<br>29 117 | <br>120<br>113,1 |
| 1 s sut tannarxi, so'm.:<br>• haqiqatdagi yog'lilik bo'yicha<br>• bazis yog'lilik bo'yicha | <br>600<br>583 | <br>660<br>680 | <br>110<br>116,6 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sut yog'liligini hisobga olgan holda hisoblangan ko'rsatkichlar sifat omilini xolislantirishsiz aniqlangan ko'rsatkichlardan jiddiy farq qiladi: sut ishlab chiqarish hajmi yog'lilik hisobga olinmagan holdagisi o'tgan yildan 20 % yuqori, bazis yog'lilikka qayta hisoblashda –13,1 % ga. Uning yog'liligi hisobga olinmay haqiqatdagi sut tannarxi 660 so'mni tashkil etadi, bazis yog'lilikka qayta hisoblashda – 680 so'm. Birinchi holatda u 10 % ga , ikkinchisida – 16,6% ga oshdi. Demak,

sifat ko'rsatkichi asosida turli sifatdagi bir xil mahsulotlarni to'g'ri taqqoslash va o'rganish imkoniyati bo'lar ekan.

Iqtisodiy tahlilda mahsulotlarning jami mahsulot hajmi tarkibidagi salmog'i yoki strukturasini o'zgarishi ham mazkur ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslashda ayrim noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun taqqoslanayotgan ko'rsatkichlarni bir xil strukturaga keltirish uchun, haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi bazis davr strukturasiga qayta hisoblanishi zarur.

**3.11-jadval**

**Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va strukturasi**

| Mahsulotlar turi | Baho, so'm | Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, dona. | | Mahsulotning egallagan salmog'i, % | | Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm. | | | Farqi (+;-) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Biznes reja | Hisobot yili | Biznes reja | Hisobot yili | Biznes reja | Qayta hisoblangan mahsulot | Hisobot yili | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| | $P_0$ | $Q_0$ | $Q_1$ | $S_0$ | $S_1$ | $Q_0P_0$ | $\Sigma Q_1P_0S_0/100$ | $Q_1P_0$ | 8-7 |
| A | 30 | 5000 | 5300 | 22,3 | 22,6 | 150000 | 156813,6 | 159000 | 2186,4 |
| B | 20 | 7800 | 7940 | 34,8 | 33.8 | 156000 | 163142,4 | 158800 | -4342,4 |
| S | 15 | 9600 | 10200 | 42,9 | 43.5 | 144000 | 150836,4 | 153000 | 2163,6 |
| Σ | x | 22400 | 23440 | 100 | 100 | 450000 | 470792,4 | 470800 | 7,6 |

Bu yerda:

qp – mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmi;

S – umumiy ishlab chiqarishda *i* ko'rinishdagi mahsulotlarning solishtirma salmog'i ;

p, – *i* ko'rinishdagi mahsulotlar narxi.

Keltirilgan misolda (3.11-jadval) ishlab chiqarish strukturasi o'zgardi va uning ta'sirida A va S mahsulotlar ulushi ortdi, B mahsulot esa kamaydi, natijada mahsulot ishlab chiqarish hajmi qiymat ifodasida 7,6 ming so'mga ortdi. Bu korxonaning faoliyatining yanada obyektiv bahosi, chunki mehnat sig'imi bo'yicha uchchala mahsulot ham bir xil.

Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun turli usullardan foydalaniladi. Misol uchun, mutlaq kattalik o'rniga o'rtacha yoki nisbiy kattaliklarni qo'llab qator hollarda ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligiga erishish mumkin. Korxonalarning ishlab chiqarish bazasini hisobga olmasdan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, foyda summasi va b. mutloq ko'rsatkichlarni qiyoslash mumkin emas. Lekin, mutloq kattaliklar o'rniga nisbiy, misol uchun, bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, aktivlarning ming so'miga to'g'ri keladigan foyda summasi va shu kabilar. Ushbu holda bunday taqqoslash butunlay to'g'ri sanaladi.

Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun tuzatish koeffisientlari ham keng qo'llaniladi qo'llaniladi. Xususan, ko'rsatkichlarning metodik nomutanosibligiga nisbatan e'tiborli bo'lish lozim. U nafaqat taqqoslash natijalarini, balki umuman voqelik ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Misol uchun, fond qaytimi asosiy vositalarning jami summasi bo'yicha, ishlab chiqarishga mo'ljallangan asosiy vositalar bo'yicha yoki faqat ularning aktiv qismi bo'yicha hisoblanishi mumkin. Shuning uchun, xulosalar to'g'riligini ta'minlash uchun ularni hisoblash metodikasi bo'yicha ko'rsatkichlar bir xilligiga erishish lozim.

Ko'rsatkichlarni taqqoslashda ularning taqqoslanuvchanlik bo'yicha tabiiy-iqlim sharoitarini ta'minlash juda muhim. Xususan bu qishloq xo'jaligi uchun juda dolzarb masala sanaladi. Korxonalarning turli tabiiy-iqtisodiy zonalarda bo'lishi mahsulot etishtirishga, vaqtinchalik va doimiy xarajatlar darajasiga, mahsulotlar mehnat sig'imi va boshqalarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu omil bo'yicha ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun iqlimiy va hududiy xususiyatlar bilan shartlangan ko'rsatkichlarning o'sish ulushi ajratiladi, keyin esa ularning ta'siri bartaraf etiladi.

Ayrim ko'rsatkichlarning mavsumiy tavsifga e'tibor qaratish zarur. Misol uchun, tovar zaxiralari mavsumgacha jamlanadi, qishki davr uchun ozuqa zaxiralari yaratiladi, korxonaning ishchan faolligi davrida kapital aylanuvchanlik koeffisienti o'sadi va shu kabilar.

Ayrim hollarda ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchan emasligi korxonaning hisob siyosatidagi o'zgarishlari bilan ham kelib chiqishi mumkin. Xususan, amaldagi me'yoriy hujjatlar bir ma'noga ega ko'rsatkichlarni turli usullar bilan shakllantirish mumkinligiga yo'l qo'yadi. Misol uchun, asosiy vositalarga eskirish hamda nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning turli metod va usullarining mavjudligi; iste'mol qilingan ishlab chiqarish zaxiralarini baholash metodini o'zgartirish (NIFO, FIFO, LIFO) va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda ko'rsatkichlarni taqqoslanuvchan shaklga keltirishning asosiy usullari qiymat, hajm, sifat va struktura omillarning ta'sirini ularni yagona bazisga keltirish yo'li bilan xolislantirish, shuningdek, foydalanish o'rtacha va nisbiy kattalik, tuzatish koeffisientlari, qayta baholash metodlaridan foydalanish va shu kabilar hisoblanadi.

### 3.6. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usuli

Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlarni o'rganish mutlaq miqdorlardan foydalanish bilan boshlanadi. Misol uchun, mahsulot ishlab chiqarish hajmi (natural va qiymat o'lchovlarida), tovar aylanish hajmi, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, yalpi tushum, ishchilar soni va hokazo. Mutlaq ko'rsatkichlar hodisa birliklarning o'lchov, og'irlik, hajm, davomiylik, maydon, qiymat va b. boshqa hodisalarning o'lchamiga nisbatsiz miqdoriy o'lchovini aks ettiradi, nisbiy esa – kattaliklar o'rganilayotgan hodisa va kattaliklarning boshqa davr yoki boshqa obyekt bo'yicha olingan qandaydir boshqa hodisa yoki kattaliklarga nisbatini ifodalaydi.

Mutlaq miqdorlarsiz tahlil ishlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Iqtisodiy tahlilda mutlaq miqdorlar voqelikni bilish, tushunish, o'qish va o'rtacha hamad nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblashda asosiy axborot bazasi bo'lib foydalaniladi. Shuningdek, mutlaq

o‘zgarish iqtisodiy tahlilda muayyan ko‘rsatkichni avvalgi davrlarga nisbatan mutloq miqdordagi farqlarini ko‘rsatib beradi (3.12-jadval).

**3.12-jadval**

**“Mustaqillik” fermer xo‘jaligi mulkining tahlili**

| № | Mol-mulkning tarkibi | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | O‘zgarishi (+,-) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Ming sum | % | Ming sum | % | Ming sum | % | Yil boshiga nisbatan % |
| 1 | Uzok muddatli aktivlar | 251184 | 73,7 | 265548 | 71,7 | 14364 | -2,0 | 5,7 |
| 2 | Joriy aktivlar | 89545 | 26,3 | 104694 | 28,3 | 15149 | 2,0 | 16,9 |
| | Shu jumladan: | | | | | | | |
| a | Tovar moddiy zaxiralar | 7946 | 2,3 | 12216 | 3,3 | 4270 | 1,0 | 53,7 |
| b | Pul mabaglari va qimmatli qog‘ozlar | 834 | 0,2 | - | - | | -0,2 | 0,0 |
| c | Debitorlar | 80765 | 23,7 | 92478 | 25,0 | 11713 | 1,3 | 14,5 |
| | Balans aktivining jami | 340729 | 100 | 370242 | 100 | 29513 | 0,0 | 8,7 |

Nisbiy ko‘rsatkichlar bir xil tur va mazmundagi ko‘rsatkichlarni o‘zaro nisbatini aniqlab foiz, koeffisient, indeks ko‘rinishida aks ettirib beradi. Ushbu usul reja bajarilishi, o‘sish sur’atlari hamda salmog‘lar asosida voqeliklarni tarkibiy tuzilish holati kabilarni o‘rganishda keng qo‘llaniladi (3.12-jadval). Nisbiy ko‘rsatkichlar bir kattalikni boshqasiga bo‘lish natijasida olinadi va u taqqoslash bazasiga qabul qilinadi. Bu reja, bazis yil, boshqa korxonaning, o‘rtacha sohaviy ma’lumotlari va b. bo‘lishi mumkin. Nisbiy kattaliklar koeffisientlar (baza 1) yoki foizlar (baza 100) shaklida ifodalanadi.

Ushbu jadvalda “Mustaqillik” fermer xo‘jaligining mulki, ham mutlaq, ham nisbiy ko‘rsatkichlar asosida hisob-kitob qilingan.

Xo'jalik faoliyati tahlilida nisbiy kattalikning turli shakllari qo'llaniladi: makoniy taqqoslash, rejaviy topshiriq, reja bajarilishi, dinamika, struktura, koordinatsiya, intensivlik, samaradorlik.

Makoniy taqqoslash nisbiy kattaligi ayni bir davr yoki bir vaqt momenti bo'yicha olingan turli obyektlarga tegishli ko'rsatkichlarning darajasini taqqoslash natijasida olinadi.

Rejaviy topshiriqni taqqoslash nisbiy kattaligi ko'rsatkichning joriy yil rejaviy darajasining o'tgan yil haqiqatdagi yoki 3-5 yil oldingi o'rtachasi darajasiga nisbatini o'zida aks ettiradi.

Reja bajarilishi nisbiy kattaligi – ko'rsatkichning hisobot davrining haqiqatdagi va rejaviy darajasi o'rtasida foizlarda ifodalangan nisbatida ifodalanadi.

Dinamika nisbiy kattaligi qandaydir vaqt oralig'ida ko'rsatkichlarning o'zgarishlarini tavsiflash qo'llaniladi uchun va joriy davr ko'rsatkichlari kattaliklarini uni oldingi davr (oy, kvartal, yil) darajasiga bo'lish yo'li bilan aniqlaydi. Ular o'sish sur'ati deb aytiladi va odatda foiz yoki koeffisientlarda ifodalanadi. Dinamikaning nisbiy kattaliklari bazis va zanjirli bo'lishi mumkin.

Struktura ko'rsatkichi – bu qismning umumdagi ulushi (solishtirma salmog'i) bo'lib, foiz yoki koeffisientlarda ifodalanadi. Misol uchun, umumiy ekin maydonida donli ekinlar solishtirma salmog'i, korxonaning xodimlari umumiy miqdorida ishchilarning solishtirma salmog'i, korxonaning aktivlari shakllanishida o'z kapitalining solishtirma salmog'i va shu kabilar.

Koordinatsiya nisbiy kattaligi qism va umumiyning o'zaro nisbatini o'zida aks ettiradi, misol uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari, o'z hamda qarz kapitali va boshqalar.

Intensivlik nisbiy kattaligi biror hodisaning muhit bilan mutanosiblikda rivojlanishi darajasini ko'rsatadi. Misol uchun, xodimlar va ishchilar tarkibida yuqori malakali ishchilar foizini oshib borishi va shu kabilar.

Samaradorlik nisbiy kattaligi – bu foydalilikni resurslar yoki xarajatlar bilan nisbatini ifodalab beradi. Misol uchun, mahsulot sotishdan olingan foydani ishlab chiqarish xarajatlarining bir birligiga to'g'ri kelishi va hakazo.

***Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli.*** Bu usul ham iqtisodiy tahlil jarayonida keng qo'llaniladi, chunki amalda mutlaq raqamlar bilan birgalikda nisbiy miqdorlarning qo'llanilishi ham tez-tez uchrab turadi.

Nisbiy miqdordan foydalanish usulining mohiyati natijaga omillar ta'sirini aniqlashda ularning nisbiy o'zgarishi natijaning nisbiy o'zgarishidagi ulushida ifodalanishidir. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi yalpi mahsulot hajmi (M), ishchilar soni (I) va ularning mehnat unumdorligi darajasiga (MU) bog'liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$M = I * MU$$

Nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish uchun ushbu formuladagi natija va omillarning o'sish sur'atlari olinadi. Hisob-kitoblarda ana shu nisbiy ko'rsatkichlar ishtirok etadi. Masalan, yalpi mahsulotning ishchilar soni o'zgarishi evaziga o'zgarganligini topish uchun ishchilar sonining o'sish sur'atini ($\Delta I$) yuzga ko'paytirib, yalpi mahsulotning o'sish sur'atiga bo'linadi ($\Delta M$):

$$\Delta M_I = \frac{\Delta I * 100}{\Delta M}$$

Natijaga ikkinchi omilning – mehnat unumdorligining ta'sirini ($\Delta M_{MU}$) aniqlash uchun yuzdan shu chiqqan natija miqdori, ya'ni birinchi omilning natijaga ta'siri ayriladi:

$$\Delta M_{MI} = 100 - \frac{\Delta I * 100}{\Delta M}$$

Odatdagidek ikki omilning umumiy ta'siri natija o'zgarishiga teng bo'lishi kerak. Bu holda ikki omil ta'siri 100 ga teng bo'ladi.

Masalan, yalpi mahsulot hisobot davrida 20 %ga, ishchilar soni esa 4 %ga oshdi. Bu holda yalpi mahsulotning ishchilar soni evaziga o'zgarganligi 20 %ni tashkil qiladi:

$$(\frac{4 * 100}{20} = 20\%)$$

Natijaning mehnat unumdorligi evaziga o'zgarganligi 80 %ni (100-20) tashkil qiladi.

Bu usulni aniq ma'lumotlarni qo'llab quyidagi jadval asosida ham ko'rish mumkin.

Nisbiy miqdorlardan foydalanish usulini qo'llab natijaga omillar ta'sirini hisoblash

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | O'sish sur'ati |
|---|---|---|---|
| 1. Yalpi mahsulot, ming so'm (M) | 29450,0 | 30245,0 | 102,7 |
| 2. Ishchilar o'rtacha soni (I) | 1980 | 2017 | 101,5 |
| 3. Mehnat unumdorligi, ming so'm (MU) | 14,9 | 15,0 | 100,7 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yalpi mahsulot hajmining o'tgan yilga nisbatan 2,7%ga oshganligi ishchilarning 1,5%ga ko'payganligi va mehnat unumdorligi 0,7%ga oshganligi evaziga vujudga kelgan. Bularning nisbiy ko'rsatkichdagi ta'siri quyidagicha:

1. Yalpi mahsulotning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atini 100 %ga teng deb olsak, uning 55,6 % (1,5*100/2,7) ishchilar sonining ko'payishi evaziga sodir bo'lgan.

2. Yalpi mahsulot o'sishining 44,4% (100-55,6) mehnat unumdorligi oshishi evaziga vujudga kelgan.

Ushbu amallarni bajarib bo'lgandan so'ng natijaga omillar ta'sirini mutlaq miqdorda ham aniqlash mumkin. Bizning misolimizda yalpi mahsulot hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 795,0 ming so'mga (30245-29450) oshgan. Shundan 442,0 ming so'mi (795,0*55,6/100)) xodimlar sonining ko'payganligi evaziga vujudga kelgan. Mehnat unumdorligi oshganligi evaziga yalpi mahsulot hajmi 353,0 ming so'mga (795,0*44,4/100) ko'paygan. Ikki omil ta'siri umumiy natijani beradi, ya'ni:

**442,0+353,0=+795,0 ming so'm.**

### 3.7. Iqtisodiy tahlilda o'rtacha miqdorlardan foydalanish

Iqtisodiy tahlilda xususiydan umumiyga, tasodifdan qonuniyatga o'tishda mutlaq, nisbiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda o'rtacha miqdorlar asosida voqeliklarni o'rganish ham muhim rol o'ynaydi. Chunki, ushbu usulda bir xil turdagi yalpi, ya'ni ko'p

sonli iqtisodiy voqeliklar matematik hisob-kitoblar bilan yagona o'rtacha miqdorga keltiriladi. Bu jarayonda bir turdagi yalpi voqeliklarni o'ziga xos xususiyati hamda jihatlariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Chunki, voqeliklarni har tomondan bir xil bo'lishi bu borada kelib chiqishi mumkin bo'lgan tasodifiy holatlarning oldini oladi. Natijada, o'rtacha miqdorlarning aniqligi yanada oshadi. O'rtacha miqdorlarni keltirib chiqarishda zaruriyat yoki talabga ko'ra turli xil hisob-kitob shakllari – o'rtacha arifmetik, o'rtacha kvadratik, o'rtacha xronologik, o'rtacha geometrik va shu kabilardan foydalaniladi. Bir turdagi ko'p sonli voqealarni o'rtacha miqdori va ularni o'zgarishini bilish o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining umumiy yo'nalishi hamda qonuniyligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tahlilda turli o'rtacha miqdorlar qo'llaniladi. Ular quyidagilardir (3.13-jadval):

**3.13-jadval**

**Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan o'rtacha miqdorlar**

| | | |
|---|---|---|
| **O'rtacha arfimetik (Oddiy)** | $\overline{X} = \frac{X_1 + X_2 + ... + X_n}{N} = \frac{\Sigma X}{N}$ | X voqeliklar bir yoki teng marta takrorlangan paytda qo'llaniladi. Misol uchun, ishchilarning (N) o'rtacha ish haqini (X) topish. |
| **O'rtacha arfimetik (Tortilgan)** | $\overline{X} = \frac{X_1F_1 + X_2F_2 + ... + X_nF_n}{F_1 + F_2 + ... + F_n} = \frac{\Sigma XF}{\Sigma F}$ | $X_1$ voqelik bir necha marta ($F_1$) takrorlansa, ular o'zaro ko'p marta qo'shib hisoblanmay, takrorlanish miqdoriga $X_1F_1$ ko'paytirilib topiladi. Natijani esa takrorlanishlar ($\sum F$) soniga bo'linadi. Misol uchun, 20 kishining ($F_1$) har biri 50 kg dan paxta ($X_1$) terdi, 40 kishi ($F_2$) esa 60 kg. dan paxta ($X_2$) terdi. Har bir kishi o'rtacha qancha paxta terganligi aniqlanadi. |

| | | |
|---|---|---|
| **O'rtacha xronologik** | $\overline{X} = (\frac{1}{2}x_1 + x_2 + ..... + \frac{1}{2}x_N)/(N-1)$ | Voqeliklarni sodir bo'lish intervallari bir xil bo'lganligi inobatga olinib, muayyan davrdagi o'rtacha aniqlanadi. Misol uchun, ombordagi mahsulotlarning oy oxiriga yoki boshiga qoldiqlarini o'rtacha miqdorlari topiladi. |
| **O'rtacha geometrik** | $\overline{X} = \sqrt[N]{X_1 * X_2 * ... * X_n}$ | Voqeliklar o'zgarishi koeffisientlarda aniqlanib, koeffisientlar asosida o'rtacha miqdor topiladi. Misol uchun, baho o'zgarishlarining o'rtacha o'zgarishi aniqlanadi. |
| **O'rtacha kvadratik** | $\overline{X} = \sqrt{\frac{\Sigma X^2}{N}}$ | Oddiy arifimetik o'rtachani yanada aniqlikda hisoblab topish uchun zarur. |

Iqtisodiy tahlilda o'rtacha miqdordan foydalanishda ommaviy ma'lumotlarga asoslangan holda hodisalarning umumlashma tavsifini berishini hisobga olish lozim. Ularning kuchi ham, nuqsoni ham shunda. Ko'pincha yomon bo'lmagan umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar ichida yomon ishlovchi brigada, sex va boshqa xo'jalik bo'linmalari natijalari yashirin bo'ladi. O'rtacha olingan ma'lumotlarda korxonaning alohida segmentlari yutuqlari ham ko'rinmaydi. Shuning uchun tahlilda ularni o'rtacha guruh, ayrim hollarda esa individual ko'rsatkichlar bilan to'ldirib, o'rtacha miqdor mazmunini yoritish zarur.

### 3.8. Guruhlashtirish usuli

Iqtisodiy tahlil korxona faoliyatida ko'p sonli voqeliklarni guruhlashtirish usuli bilan tartibga solib o'rganadi. Bunda voqeliklarni ijtimoiy-iqtisodiy tabiati chuqur tadqiq etilib, ularning bir turdagi xususiyatlari, jihatlari va miqdorlari aniqlanib, shu mezonlar bo'yicha guruhlar va kichik guruhlarga ajratiladi.

Ta'kidlash kerakki, voqeliklar tasodifiy belgilariga ko'ra guruhlarga bo'linmaydi. Bu holat tahlil natijalariga jiddiy ta'sir etadi.

Voqeliklarni tashkil etuvchi tarkib, tuzilish hamda tartib, ularning o'zgarish sababi hamda o'zgartiruvchi asosiy omillarining birgalikda yuzaga chiqishi hamda o'zaro bog'liqligi asosida ko'rsatkichlarni guruhlashtirish uchun ilmiy asoslangan belgilar topiladi. Xo'jalik jarayonlarini belgilar bo'yicha guruhlarga ajratish bilan har bir guruhga tegishli boshqa voqeliklarni aniqlash, o'rganish, ularning o'ziga xos tomonlarini topish hamda guruhdagi turli voqeliklarni o'zaro aloqalari, bog'liqliklari va ta'sirini bilish, shu asosda guruh bo'yicha bir necha jarayonlarning birgalikdagi rivojlanishining yo'nalishi hamda qonuniyligi aniqlanadi.

Demak, korxona faoliyatidagi voqeliklarni tuzilishi va o'zaro bog'likliklarini o'rganish maqsadida barcha ko'rsatkichlarni ilmiy asoslangan belgilariga ko'ra ajratib, ajralgan muayyan bo'lakga tegishli voqeliklarni alohida tarzda o'rganish usuli guruhlashtirishning mazmunini tashkil etadi. Shu joyda ta'kilab o'tish kerakki, alohida olingan guruhlarni o'rganish natijasida olingan xulosalar iqtisodiy tahlilda belgilab olingan umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqib sintez qilinadi.

Iqtisodiy tahlilda guruhlashtirish maqsadi va vazifasiga ko'ra: tipologik, tuzilish va omilli guruhlarga ajratiladi.

Tipologik guruhlashtirish – bir turdagi voqeliklarni umumiy belgi bo'yicha bo'laklarga ajratishdir. Misol uchun, korxonalarni mulkchilik shakli bo'yicha (davlat, qo'shma, AJ, xususiy va shu kabilar) yoki korxonadagi barcha xodimlarni (asosiy va yordamchi ishchilar, injener-texnik xodimlar, xizmatchilar va shu kabilar) kategoriyalari bo'yicha guruhlashtirish.

Tuzilish bo'yicha guruhlashtirish – ko'rsatkichlarni ichki tuzilishi va ularning alohida qismlarini mutonosibligini o'rganishga qaratilgan. Umumiy ishchilar tarkibida – ishchilarning malakasi, ma'lumoti, ish staji, yoshi, jinsi va boshqa belgilari bo'yicha o'rganish ushbu guruhlashtirishga misol bo'la oladi.

Omilli (analitik) guruhlashtirish natijaviy ko'rsatkichga (oqibat) ta'sir qiluvchi omil (sabab) bo'yicha tashkil qilinadi. Bunday analitik guruhlashtirishda voqeliklarning bir-birlariga bog'liqliklarini o'rganish maqsadida ko'rsatkichlar birinchisi ikinchisini keltirib chiqaruvchi taribda tuziladi. Ya'ni, birinchi

ko‘rsatkich ikkinchi ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi omil, o‘z navbatida ikkinchi ko‘rsatkich birinchi ko‘rsatkich ta’sirining natijasidir. Misol uchun, guruhdagi xodimlarning ish staji, ularning oylik maoshini o‘zgarishiga ta’sir etadi yoki ishlab chiqarish jarayonini texnik va texnologik jihatdan yangilash har bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorini oshirishga keskin ta’sir etashi va shu kabilar.

Ta’kidlash kerakki, har bir alohida olingan guruhdagi omil hamda natija ko‘rsatkichlari, boshqa guruhdagi xuddi shunday ko‘rsatkichlardan farq qilishi mumkin. Ya’ni, birinchi guruhdagi omil ko‘rsatkichi ikkinchi guruhda natija ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Demak, omil va natijani ifodalovchi ko‘rsatkichlar guruhlar bo‘yicha o‘zgaruvchan tavsif kasb etadi.

**3.14-jadval**

**Texnik va texnologik yangilanish bo‘yicha korxonalarni guruhlashtirish**

| Texnik va texnologik yangilanish bo‘yicha korxonalarni guruhlari | Guruhdagi korxonalar soni, dona | Har bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yangilanish xarajatlarining o‘rtacha miqdori, ming so‘m | Har bir ishchi ishlab chiqargan mahsulotlarning o‘rtacha miqdori, mln. so‘m |
|---|---|---|---|
| 30 mln. so‘mgacha | 10 | 404 | 11 |
| 30 - 60 | 15 | 670 | 17 |
| 60 - 90 | 18 | 798 | 26 |
| 90 dan yuqori | 20 | 934 | 37 |

3.14-jadvalda keltirilgan parallel qatorlardan farqli ravishda – jadvalda guruhlangan material o‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasida o‘zaro aloqa yanada yaqqol aks ettiradi. Guruhlashda ko‘rsatkichlarning individual kattaliklari o‘rtacha guruhlarini almashtiradi. Buning natijasida boshqa omillarning noaniq ta’siri bilan kelib chiqqan turli tasodifiy og‘ishlar o‘zaro qoplanadi, shuning uchun o‘zaro aloqa yanada aniq hisoblanadi.

Shunday qilib, axborotlarni to‘g‘ri guruhlash ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘liqlikni, o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatini

yanada chuqur anglash, tahlilning materiallarini tizimlashtirish, ularning asosiysi, xarakterli va tipiklarini ajratishga imkon beradi .

Korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish uchun guruhlashtirish usulini qo'llashda muayyan talablar e'tiborga olinishi shart. Misol uchun, tipologik guruhlar tuzishda iqtisodiy qonun-qoidalarga asoslangan guruhlar tuzishga intilish lozim.

Tuzilish bo'yicha va omilli guruhlashtirishda esa - guruhlar oralig'i imkon qadar bir-biriga mos bo'lishi zarur. Shuningdek, guruhlar kichik sondan, yuqoriga borish tartibida tuzilishi, tahlil natijalarining aniqligini ta'minlash maqsadida guruhlar orasidagi intervallar yaqinroq olinishi, dastlabki va oxirgi guruh chegarasi ochiq, qolgan oraliq guruhlar chegarasi yopiq, ya'ni boshlang'ich va oxirgi guruh chegaralari aniq bo'lishi, barcha o'rganiladigan obyektlar soni tuzilgan guruhlarga imkon qadar teng taqsimlanishiga rioya qilinishi kerak.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan talablarga amal qilinishi iqtisodiy tahlil natijalarini to'g'ri va aniq bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

### 3.9. Iqtisodiy tahlilda balans usuli

Balans usuli o'zaro bog'liq va tenglangan iqtisodiy ko'rsatkichlarning ikki guruhi proporsiyalari, nisbatini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu usul buxgalterlik hisobi va rejalashtirish amaliyotida keng tarqalgan. Lekin u iqtisodiy tahlilda ham muayyan ahamiyat kasb etadi, xususan bilan korxonaning mehnat, moliyaviy resurs, xom ashyo, yonilg'i, material, asosiy ishlab chiqarish vositalari va boshqalar bilan ta'minlanganligini tahlilida keng foydalaniladi. Misol uchun, korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini aniqlash maqsadida, mehnat resurslari bo'yicha balans tuziladi. Unda, bir tomondan, mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyoj, boshqa tomondan – ularning haqiqatdagi mavjudligi ko'rsatiladi. Mehnat resurslaridan foydalanish tahlilida ish vaqtining ehtimoliy fondi haqiqatdagi ishlangan soatlar miqdori bilan taqqoslanadi. Chorva hayvonlarning ozuqa bilan ta'minlanganligini aniqlash uchun ozuqa balansi ishlab chiqiladi, Unda, bir tomondan, oziqaga bo'lgan rejaviy ehtiyoj ko'rsatilsa, boshqa tomondan – uning haqiqatda mavjudligi

ko'rsatiladi. Korxonaning to'lov qobiliyatini aniqlash uchun to'lov balansi tuziladi, unda to'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlari o'zaro taqqoslanadi.

Qo'shimcha vositalar sifatida iqtisodiy tahlilda balans metodi natijaviy ko'rsatkichlar kattaliklari o'sishiga turli omillarning ta'siri aniqlash to'g'riligini tekshirish uchun foydalaniladi. Determinatsiyalashgan tahlilda alohida omillarning ta'sir kattaliklari algebraik summasi natijaviy ko'rsatkichning umumiy o'sish kattaligiga mos kelishi lozim.

Balans usuli additiv omilli model tuzishda foydalanilishi mumkin. Misol uchun, tovar balansi:

$$Ta = T_{yb} + T_k - T_{yo}$$

**3.15-jadval**

**Tovar aylanish hajmi tahlili**

| Ko'rsatkichlar | Tovar hajmi, mln. so'm. | | Rejadan farqi (+;-) | Tovar aylanishi dinamikasiga ta'siri (+;-) |
|---|---|---|---|---|
| | Reja | Haqiqatda | | |
| **Yil boshiga tovar zaxiralarining qoldig'i ($T_{yb}$)** | 104 | 130 | +26 | +26 |
| **Yil davomida tovarlarning kirimi ($T_k$)** | 1200 | 1298 | +98 | +98 |
| **Tovarlarning yil oxiriga qoldig'i ($T_{yo}$)** | 50 | 57 | +2 | -2 |
| **Tovar aylanishining hajmi (Ta)** | 1254 | 1371 | +117 | +117 |

Ba'zan balans usul alohida omillarning natijaviy ko'rsatkichning o'sishiga ta'sir kattaliklarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Masalan, uch omillarning ikkitasining ta'siri ma'lum bo'lsa, u holda uchinchisi ta'sirini natijaviy ko'rsatkichning umumiy

o‘sishidan dastlabki ikki omillarning ta’siri natija chiqarib tashlab aniqlash mumkin.

### 3.10. Zanjirli bog‘lanish usuli

Iqtisodiy tahlilda o‘rganilayotgan natijaviy ko‘rsatkichning o‘zgarishi va mazkur o‘zgarishni yuzaga keltirgan asosiy omillarning turi hamda ularning alohida olingan ta’sir miqdorlari aniq hisob-kitob qilinadi. Bu bilan natijaviy ko‘rsatkichning o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir qildi hamda ularning har birini ta’sir miqdori qanchani tashkil etdi, degan savolga oydinlik kiritiladi. Ushbu turdagi masalalarni hal qilishda zanjirli bog‘lanish usulidan keng foydalaniladi. Ta’kidlash kerakki, zanjirli bog‘lanish usulida tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlar o‘zaro qat’iy funksional bog‘liqlikda bo‘lishi talab etiladi. Ya’ni, bir yoki bir necha ko‘rsatkich ta’sirida natijaviy ko‘rsatkich yuzaga chiqishi kerak.

Zanjirli bog‘lanish usulida o‘rganilayotgan natijaviy ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’sir etgan omillarni tartib asosida aniqlashtirilib, har bir alohida olingan omilni o‘zining o‘zgargan holatini saqlab qolgan holda boshqa omillarni dastlabki holatini shartli o‘zgarmas tarzida olib qolib, ya’ni xolislantirib belgilangan matematik amallarni bajarish bilan natijaviy ko‘rsatkich o‘zgarishiga faqat bir omil (o‘zgargan holatdagi omil) ta’siri hisob-kitob qiladi. Hisoblash ishining keyingi jarayonlarida boshqa omillar ham shu tartibda o‘rganiladi. Faqat, yakuniy natijaga ta’siri o‘rganilgan omil o‘zidan keyingi omilni (yoki omillarni) yakuniy natijaga ta’sirini hisoblashda xolislantirilmaydi. Balki, ular haqiqiy o‘zgarish holatida olinadi. Chunki, dastlabki bosqichda ta’siri hisob-kitob qilingan omil (yoki omillar) yakuniy natija o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib bo‘lgan deb qaraladi. Ushbu tartib oxirgi omilning yakuniy natijaga ta’sirini hisob-kitob qilgunga qadar davom etadi. Shu usulda har bir omil bosqichma-bosqich almashtirilib, ularning yakuniy natijaga ta’sirlari alohida-alohida aniqlanadi. Alohida-alohida hisoblangan ta’sir miqdorlari o‘zaro qo‘shib yoki ayirilganda (bu holat vaziyatga ko‘ra amalga oshiriladi) yakuniy natijani o‘zgarish miqdoriga teng bo‘ladi. Mana shu tartibdagi hisob-kitoblar zanjirli bog‘lanish usuliga xos bo‘lib,

uning mazmunini tashkil etadi. Zanjirli bog'lanish usuli mohiyatini amaliy misolda yanada yaqqolroq ko'rish mumkin.

**19-jadval**

**Zanjirli bog'lanish usulining jami material xarajati o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda qo'llanilishi**

| Ko'rsatkichlar | Biznes reja ma'lumotlari | Haqiqatdagi ma'lumotlar | Farqi (+,-) |
|---|---|---|---|
| 1. Material miqdori, dona | 30 | 32 | +2 |
| 2. Bir dona materialning bahosi, ming so'm | 92,0 | 90,0 | -2,0 |
| 3. Material xarajati, ming so'm | 2760,0 | 2880,0 | +120,0 |

19-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki korxonada jami material xarajatlari rejaga nisbatan haqiqatda 120,0 ming so'mga ko'p bo'lgan. Ushbu natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga material miqdori hamda bir dona material bahosining o'zgarishi ta'sir ko'rsatgan. Bu ikki omil ta'sirini hisoblash uchun quyidagi hisoblash ishlari bajariladi.

1. Birinchi omilni o'zgarish holati olinadi (32 dona), ikkinchi omil shartli o'zgarmas deb qaralib (92,0 ming so'm), u xolislantiriladi.

92,0*32=2944,0 ming so'm

Ushbu tartib bilan shartli material xarajati ko'rsatkichi (2944,0 ming so'm) hisoblab topildi.

Material xarajatlarning biznes-rejadan ortiq sarflanishiga:

2. Material miqdorini me'yordan ortiqcha sarflanganining ta'siri:

(92,0*32) – (92,0*30)=+184,0 ming so'm

Material miqdorini me'yordan +2,0 (32–30) dona ko'p sarflanishi +184,0 ming so'mga xarajatni oshirgan.

3. Bir dona materil bahosining o'zgarishi ta'siri:

(90,0*32) – (92,0*32) = - 64,0

Bir dona materil bahosining -2,0 (92,0– 90,0) ming so'mga o'zgarishi – 64,0 ming so'mga jami material xarajatini oshirgan.

4. Ikkala omilning ta'siri:

+184,0 – 64,0 = 120,0 ming so'mga teng.

Zanjirli bog'lanish usulida faqat natijaviy ko'rsatkichga faqat ikki omil ta'sir miqdori o'rganilmaydi, balki uch va undan ko'p bo'lgan omillarning ta'siri ham hisob-kitob qilinadi. Ushbu hisob-kitob modelini 3.17-jadvalda ko'rsa bo'ladi.

**3.17-jadval**

**Ko'p omillar ta'sir miqdorini zanjirli bog'lanish usulida hisob-kitob qilish modeli**

| Tartib raqami | | Bir biriga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar (Omillar) | | | | Umumlashtiruvchi ko'rsatkich | Umumlashtiruvchi ko'rsatkichning o'zgarishi | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Hisob-lashlar | Almash-tirishlar | A | B | V | G | | Alohida olingan omillar ta'sirida | O'zgarish-lar hisobi |
| 1 | - | Reja | Reja | Reja | Reja | A Bazis | x | x |
| 2 | 1 | Haqi-qatda | Reja | Reja | Reja | $A_1$ Qayta hisoblan-gan | A | $A_1 - A$ |
| 3 | 2 | Haqi-qatda | Haqi qatda | Reja | Reja | $A_2$ Qayta hisoblan-gan | B | $A_2 - A_1$ |
| 4 | 3 | Haqi-qatda | Haqi qatda | Haqi qatda | Reja | $A_3$ Qayta hisoblan-gan | V | $A_3 - A_2$ |
| 5 | 4 | Haqi qatda | Haqi qatda | Haqi qatda | Haqi qatda | $A_4$ Haqiqatda | G | $A_4 - A_3$ |

$$(A_1\text{-}A) - (A_2\text{-}A_1) - (A_3\text{-}A_2) - (A_4\text{-}A_3) = A_4\text{-}A$$

Ushbu modelni aniq misolda o'rganib chiqamiz. Ma'lumki, mahsulot hajmi o'zgarishiga ishchilar soni, ishlangan kishi kunlari, soatlari, bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi kabi omillar ta'sir qiladi. 3.18-jadvalda mahsulot hajmi o'zgarishiga qayd etib o'tilgan omillar ta'sir miqdori hisoblanib topiladi.

**3.18-jadval**

**Mahsulot hajmini o‘zgarishiga omillar ta’sirini hisoblash**

| Bir biriga ta’sir etuvchi omillar | | | | Mahsulot hajmi, ming so‘m. | Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichning o‘zgarishi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Ishchilarning o‘rtacha soni, kishi | Bir ishchi ishlagan kishi kunlarining o‘rtacha soni, kishi kuni | Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kunlik o‘rtacha soat, soat | Kunlik o‘rtacha bir soatga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi, ming so‘m | | Alohida olingan omillar ta’sirida | O‘zgarishlar hisobi |
| 100 | 267 | 6,5 | 2 | 347100 | x | x |
| 107 | 267 | 6,5 | 2 | 371397 | Ishchilar soni | 24297 |
| 107 | 260 | 6,5 | 2 | 361660 | Kishi kunlari | -9737 |
| 107 | 260 | 6,8 | 2 | 378352 | Kunlik o‘r-tacha soat | 16692 |
| 107 | 260 | 6,8 | 2,3 | 435105 | Bir soatga to‘g‘ri ke-ladigan mah-sulot hajmi | 56753 |
| x | x | x | x | 435105 - 347100 | Haqiqatda - Reja | 88005 |

3.18-jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lmoqdaki korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi hisobot yilida o‘tgan yilgan taqqoslaganda 88005 = (435105 - 347100) ming so‘mga ko‘paygan. Mazkur ijobiy o‘zgarishga 88005 = (+24297) + (-9737) + (+16692) + (+56753) ishchilar soni (+24297), kishi kunlari (-9737), kunlik o‘rtacha soat (+16692) hamda bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (+56753) ta’sir etgan. Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kishi kunlarining -7 = (260 - 267) kunga kamayishi mahsulot hajmi o‘zgarishiga salbiy ta’sir qilgan. Qolgan boshqa omillar esa natijaviy ko‘rsatkich o‘zgarishini ijobiy tomonga yo‘naltirgan.

## 3.11. Mutloq farqlar usuli

Iqtisodiy tahlilda natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishiga omillar ta'sirini alohida aniqlash uchun ko'p turdagi usullar qo'llaniladi. Shulardan biri mutloq farqlar usulidir. 20-jadvalda qayd etilgan misolni mutloq farqlar usulida hal etish tartibi quyidagicha bo'ladi.

1. $\Delta YaM_{IS}=\Delta IS*KK_0*KS_0*BS_0=((107-100)=7)*267*6,5*2=24297$
2. $\Delta YaM_{KK}=IS_1*\Delta KK_0*KS_0*BS_0=107*((260-267)=-7)*6,5*2=-9737$
3. $\Delta YaM_{KS}=IS_1*KK_1*\Delta KS_0*BS_0=107*260*((6,8-6,5)=0,3)*2=16692$
4. $\Delta YaM_{BS}=IS_1*KK_1*KS_1*\Delta BS=107*260*6,8*((2,3-2,0)=0,3)=56753$

Bu yerda: YaM – yalpi mahsulot; IS – ishchilarning o'rtacha soni; KK - bir ishchi ishlagan kishi kunlarining o'rtacha soni; KS - bir ishchiga to'g'ri keladigan kunlik o'rtacha soat; BS - kunlik o'rtacha bir soatga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi.

24297+(-9737)+ 16692+56753 = 88005

### Nisbiy farqlar usuli

Ushbu usul ham omillar ta'sir miqdorini alohida hisoblab topish uchun mo'ljallangan. Uning amalga oshirish tartibi 3.19-jadvalda keltirilgan.

**3.19-jadval**

**Nisbiy farqlar usuli**

| Hisoblash tartibi | Misol |
|---|---|
| 1. $\Delta YaM_{IS}=YaM_0*(\Delta IS/IS_0)$ | 347100*(7/100) = 24297 |
| 2. $\Delta YaM_{KK}=(YaM_0+\Delta YaM_{IS})*(\Delta KK/KK_0)$ | (347100+24297)*(-7/267) = = 371397*(-0,026) = -9700 |
| 3. $\Delta YaM_{KS}=(YaM_0+\Delta YaM_{IS}+\Delta YaM_{KK})*$ $*(\Delta KS/KS_0)$ | (347100+24297+(- 9700))* *(0,3/6,5)=361697*0,5 =16638 |
| 4.$\Delta YaM_{BS}=(YaM_0+\Delta YaM_{IS}+\Delta YaM_{KK}+\Delta Y$ $aM_{KS})*$ $*(\Delta KB/KB_0)$ | (347100+24297-9700+16638)* *(0,3/2)=378335+0,15 = 56750 |
| 24297- 9700+16638+56750=87985≈88005 | |

Natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir etgan omillarning har birini alohida miqdorini aniqlovchi usullar bir-birlaridan ayrim jihatlari bilan afzal yoki kamchiliklariga ega.

## 3.12. Indeks usuli

Indeks usuli «Statistika nazariyasi» fanida batafsil yoritilgan. Iqtisodiy tahlil fani buxgalteriya hisobi va statistika fanlari asosida vujudga kelganligini darslikning oldingi boblarida ta'kidlagan edik. Shuningdek, tahlil fani statistika fanining bir qancha usullaridan foydalanadi. Shulardan biri indeks usuli bo'lib, juda ko'p qirrali mavzu. Mazkur darslikda indeks usulining omilli tahlilda qo'llanilishini ko'ramiz, xolos.

Indeks usulida juda ko'p qo'llaniladigan bog'lanish: mahsulot hajmining (Q) o'zgarishi uning miqdori (q) va bahosiga (p) bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Mahsulotning rejadagi hajmini ($q_0$*$p_0$) va haqiqatdagi hajmi ($q_1$*$p_1$) tegishli formulada ifodalab olinsa, uning reja bajarilish indeksi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 * p_1}{\sum q_0 * p_0}$$

Mahsulotning hisobot davridagi o'zgarishi mutlaq miqdorini aniqlamoqchi bo'lsak, uning sur'atidan maxrajini ayirish kifoya:

$$\Delta Q = \sum q_1 * p_1 - \sum q_0 * p_0$$

Formuladan ko'rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta'sir qiladi. Bu omillar ta'sirini hisoblash uchun birinchidan, mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini rejadagi (asos yilidagi) narxda ifodalash lozim, $q_1$*$p_0$. Natija o'zgarishiga mahsulot miqdorining ta'sirini ($\Delta Q_q$) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Q_q = \sum q_1 * p_0 - \sum q_0 * p_0$$

Mahsulot hajmini baho evaziga o'zgarganligini topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$\Delta Q_p = \sum q_1 * p_1 - \sum q_1 * p_0$$

Ushbuu hisob-kitobni aniq ma'lumotlarni qo'llab quyidagi jadval asosida amalga oshirish mumkin.

**3.20-jadval**

**Mahsulot hajmining o'zgarishiga uning miqdori va bahosining ta'sirini indeks usuli bilan aniqlash**

| Mahsulot turlari | Miqdori, dona | | Bahosi, ming so'm | | Mahsulot hajmi, ming so'm | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | biznes rejada | haqiqatda | biznes rejada | haqiqatda | biznes rejada | haqiqatda |
| A mahsulot | 450 | 500 | 15 | 16 | 6750 | 8000 |
| B mahsulot | 230 | 235 | 8 | 6 | 1840 | 1410 |
| V mahsulot | 670 | 710 | 7 | 9 | 4690 | 6390 |
| Jami: | x | x | x | x | 13280 | 15800 |

Jadval ma'lumotlari asosida mahsulot hajmi bo'yicha rejaning bajarilishi indeksi 1,190 ga teng.

$$J_{q*p} = \frac{15800}{13280} = 1{,}190 - yoki - 119{,}0\%$$

Natijaning umumiy mutlaq farqi 2520 (15800-13280) ming so'mni tashkil qiladi. Mahsulot fizik hajmining agregat indeksi (mahsulotning rejadagi va haqiqatdagi miqdori bir xil bahoda hisoblanganda) quyidagini tashkil qiladi:

$$J_q = \frac{\sum q_1 * p_0}{\sum q_0 * p_0} = \frac{(500*15)+(235*8)+(710*7)}{13280} = \frac{14350}{13280} = 1{,}081$$

Shunday qilib, hisobot davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning miqdorini ko'payishi mahsulot hajmini rejadagiga nisbatan 8,1% yoki 1070 ming so'mga (14350-13280) oshirgan.

Baho agregat indeksi (suratida mahsulot miqdori va bahosi rejada) 1,101 ni tashkil qilgan.

$$J_p = \frac{\sum q_1 * p_1}{\sum q_1 * p_0} = \frac{15800}{14350} = 1{,}101 - ёки - 110{,}0\%$$

Demak, mahsulotning umumiy hajmi baho omili ta'sirida 10,1 %ga oshgan, mutloq miqdori esa 1450 ming so'mga (15800-14350) ko'paygan.

Natijada shu ikki omilning ta'sirini nisbiy va mutlaq miqdorda ham aniqlash mumkin. Ikki omil indeksining ko'paytmasi umumiy indeksga teng bo'lishi kerak:

1,081*1,101=1,190

Natija o‘zgarishining mutlaq miqdorini topish uchun shu ikki omil yig‘indisi olinadi:

1070+1450=+2520 ming so‘m

## Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:

- iqtisodiy tahlil fani metodining tushunchasi;
- tahlil metodining o‘ziga xos muhim xususiyatlari;
- iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matematik usullari;
- tahlilning oddiy-an’anaviy usullari;
- taqqoslash usuli;
- guruhlashtirish usuli;
- mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli;
- balansli bog‘lanish usuli;
- zanjirli bog‘lanish usuli;

## Takrorlash uchun savollar:

1. «Metod» so‘zining lug‘aviy ma’nosi nimadan iborat?
2. Tahlil fanining metodiga iqtisodchi olimlar qanday ta’rif berishgan?
3. Iqtisodiy tahlil fani metodining o‘ziga xos muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Tahlilda qo‘llaniladigan usullar qanday guruhlarga ajratib o‘rganiladi?
5. Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli va uning mohiyati haqida tushuncha bering.
6. Guruhlashtirish usuli to‘g‘risida ma’lumot bering.
7. Taqqoslash usuli va uni qo‘llash shartlarini tushuntirib bering.
8. Zanjirli bog‘lanish usulining asosiy xususiyati nimadan iborat?
9. Balansli bog‘lanish usulini tahlil jarayonlarida qo‘llashning afzalliklarini ko‘rsatib bering.

## Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

**1-topshiriq**

Tahlil jarayonida iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy va iqtisodiy matematik usullarini qo'llashning afzalliklarini ko'rsatib bering. Qaysi usullardan foydalanilsa, korxona uchun samarali natijalar beradi.

**2-topshiriq**

Quyidagi ma'lumotlardan foydalangan holda tahlilning zanjirli bog'lanish usulini qo'llab, korxonadagi material xarajatlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang hamda xulosa va takliflaringizni bayon eting.

| Ko'rsatkichlar | Biznes reja | Haqiqatda | Farqi |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1, Bir birlik mahsulotga sarflangan material miqdori, kg | 30 | 32 | ? |
| 2. 1 kg. Material qiymati, so'm | 920 | 900 | ? |
| 3. Bir birlik mahsulotga sarflangan jami material xarajati, so'm | ? | ? | ? |

**3-topshiriq**

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida guruhlashtirish usulini qo'llab, 4 ta guruh asosida mashinalarning paxta terish darajasini tahlil qiling hamda xulosa yozing.

| Mashinalarning raqamlari | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Bitta mashina tergan paxta, tonna | 210 | 200 | 190 | 220 | 215 | 208 | 180 | 195 | 218 | 187 |

**4-topshiriq**

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida balansli bog'lanish usulini qo'llab, mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiling hamda xulosa yozing.

| № | Ko'rsatkichlar | Shart li belgi | Hisobot yili | | Far-qi (+,-) | Mahsulot sotish hajmiga ta'siri (+,-) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Biznes reja bo'yicha | Haqi-qatda | | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1. | Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i | Yb | 41418,3 | 38416,7 | | |
| 2. | Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot | TM | 3418716,3 | 3416816,3 | | |
| | jami (1 satr+2 satr) | | | | | |
| 3. | Sotilgan mahsulot | SM | ? | ? | | x |
| 4. | Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i | Yo | 23318,2 | 15514,9 | | |
| | jami (3 satr+4 satr) | | | | | |

## Test savollari:

**1. Iqtisodiy tahlil fani metodining o'ziga xos jihati**

A. Ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish

B. Metofizika

C. Dunyoqarash

D. Hammasi to'g'ri

**2. Tahlil uchun kerak bo'lgan ko'rsatkichlar turi hamda miqdori**

A. O'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning mazmuniga, hajmiga, davriga bog'liq

B. O'rganilayotgan iqtisodiy jarayonga aloqasi yo'q

C. O'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning shakliga bog'liq

D. Foydaga bog'liq

**3. Iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos jihatlaridan biri**

A. Tahlil natijasida avvaldan mo'ljallanmagan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin

B. Tahlil natijasida avvaldan mo'ljallangan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin emas

C. Mavjud ko'rastkichlar yetarli

D. Mavjud formulalar yetarli

**4. Odatda tahlil ..... bilan boshlanadi**

A. Taqqoslash
B. O'zgarish
C. Rivojlanish
D. Hech narsa bilan

**5. Balansli bog'lanish usulida ko'rsatkichlar bir-biri bilan ..... bog'liqlikda bo'lgandagini to'g'ri natija beradi**

A. funksional
B. teskari
C. kichikdan kattaga
D. ozdan ko'p tomon

**6. Tahlilda o'zgarish sabablari... ko'rinishida yuzaga chiqadi**

A. sifat
B. shakl
C. omillar
D. Yuzaga chiqmaydi

**7. Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri....**

A. Sabab-oqibat aloqalarini o'rganish
B. Sabab-oqibat aloqalarini o'rganish zarur emas
C. Evristikani o'rganish
D. Evristikani o'rganmaslik

**8. Tahlilda tizimli yondashuvning asosiy xususiyati....**

A. Dinamizm
B. Statika
C. Dogmatika
D. Egoizm

**9. Tahlil instrumentariysi...**

A. Tahlilning texnik uslublari va usullari
B. Uslubiyat
C. Tamoyil
D. Fikrlash

**10. Tahlil fanining metodiga qaysi javobdagi ta'rif mos keladi?**

a) Iqtisodiy adabiyotlarda tahlil fanining metodini korxona (firma), tashkilot, muassasa, birlashma va hokazolarning xo'jalik

jarayonlarini sodir bo'lishi va rivojlanishini o'rganishdagi materialistik-dialektik yondashish usullariga aytiladi deb ta'rif berilgan;

b) Iqtisodiy adabiyotlarda tahlil fanining metodini korxona (firma), tashkilot, muassasa, birlashma va hokazolar xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi va rivojlanishini o'rganishdagi idealistik yondashish usullariga aytiladi deb ta'rif berilgan;

c) Tahlil fanining metodi deb, hodisa va jarayonlarni o'rganishga ijodiy yondoshish tushuniladi;

d) Tahlil fanining metodi deb, hodisa va jarayonlarni o'rganishga tizimli yondoshish tushuniladi;

**11. Taqqoslash usulini qo'llashdagi e'tiborga olinadigan talablar qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan?**

a) Taqqoslab o'rganishi lozim bo'lganko'rsatkichlarning aniqlanish usuli aynan bir xil bo'lishi kerak; Bir xil bahoda hisoblangan ko'rsatkichlargina taqqoslanishi lozim; Reja topshiriqlarining bajarilishi og'irligi mos kelishi lozim;

b) O'rganiladigan davrlar bir xil bo'lishi lozim; Korxonaning joylanishi va iqlim sharoiti teng darajada hisobga olinishi lozim; Ko'rsatkichlari taqqoslanuvchi korxonalarning ixtisoslashuvi, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va xo'jalik yo'nalishlari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak;

c) O'rganiladigan obyektlar soni hech mos bo'lishlik sharti; Texnik xavfsizlik va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha tadbirlar bilan bog'lanib ko'rsatkichlarni solishtirish; Ijtimoiy ishlab chiqarish turlari xususiydami yoki davlat korxonasidami albatta hisobga olinishi lozim;

d) Noto'g'ri javob yo'q.

**12. $J_{qp} = \sum q_1 p_1 / \sum q_0 p_0$ Ushbu formuladan qaysi usulda foydalaniladi?**

a) Zanjirli bog'lanish usuli;

b) Mutloq va nisbiy farqlar usuli;

c) Indeks usuli;

d) Balansli bog'lanish usuli.

# IV bob. IQTISODIY TAHLILNING IQTISODIY-MATEMATIK USULLARI

## 4.1. Tahlil jarayonida iqtisodiy matematik usullarni qo'llashning zaruriyati

Iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri korxonalar faoliyatida iqtisodiy-matematik usullardan hamda bu boradagi ilg'or axborot texnologiyalaridagi yangiliklardan samarali foydalanishdir. Ushbu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga tadbiq etilishi, iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini oshirib, yanada ko'proq turdagi va murakkab tavsifdagi masalalarni qisqa muddatda to'g'ri hal qilish imkonini beradi. Natijada, korxona iqtisodiy faoliyatidagi juda ko'plab omillar topiladi hamda o'rganiladi, iqtisodiy resurslardan foydalanishning eng maqbul yo'llari tanlanadi, qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari ilmiy jihatdan asoslanadi hamda faoliyat samaradorligini oshiruvchi zaxiralar aniqlanib, ular maqsadga muvofiq yo'naltiriladi.

Matematik usullar iqtisodiy tahlil vazifalarining ilmiy tasnifi hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish metodologiyasiga asoslangan holda qo'llaniladi.

**Iqtisodiy tahlil jarayonida bir qator matematik modellarning tiplari qo'llanidadi. Xususan,** ularning ko'p uchraydiganlari quyidagilardir: ***additiv model, multiplikativ model, kasrli model.***

**Additiv model** natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Masalan, "U" natija bir qancha omillar ($X_1$, $X_2$, ..., $X_n$) yig'indisidan iborat, deb faraz qilamiz. U holda additiv modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = \sum_{i=1}^{n} Xi = X1 + X2 + X3 + ... + Xn$$

Bunda: **Σ** - yig'indi belgisi;

**i** – omillarning tartib soni;

**($i=\overline{1, n}$)** – omillarning umumiy soni;

**Xi-i** – omilning nomi.

Ushbu model amaliyotda juda qo'p qo'llaniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlariga qarashli korxonalar ishlab chiqargan tovar mahsulotlarining hajmi, ularda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning umumiy ro'yxatdagi soni va h.k. Faraz qilamiz: ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyatiga 10 ta kichik korxona qaraydi. Ularning har biri har xil hajmda mahsulot ishlab chiqargan. Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotni aniqlash uchun additiv modeldan foydalanganda quyidagi formulaga ega bo'linadi:

$$Y = \sum_{i=1}^{10} Xi = X1 + X2 + X3 + ... + X10 \quad (\mathbf{i}=\overline{1,10})$$

**Multiplikativ model** ham tahlilda keng qo'llaniladi. Bu model natija bilan omil o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Masalan, "U" natija bir qancha omillar ($X_1$, $X_2$, ..., $X_n$) ko'paytmasidan iborat, deb faraz qilamiz. U holda multiplikativ modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = \prod_{i=1}^{n} Xi = X1 * X2 * X3 * ... * Xn \quad (\mathbf{i}=\overline{1, n})$$

Bunda: **П** – ko'paytirish belgisi;
**i** - omillarning tartib soni;
$(\mathbf{i}=\overline{1, n})$ – omillarning umumiy soni;
**Xi-i** – omilning nomi.

Ushbu model ham tahlilda keng qo'llanidadi, chunki juda ko'p natija amaliyotda omilning ko'paytmasidan iborat bo'ladi. Masalan, tovar oborotining hajmiga ta'sir qiluvchi moddiy-texnika bazasi bilan bog'liq omillarni olaylik. Unga savdo shaxobchalarining soni(Sh), har bir savdo shahobchasiga to'g'ri keladigan savdo maydoni (Msh), har bir kv. M. Savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oboroti ($T_M$) ta'sir qiladi. Natija bilan ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqliqni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\mathbf{T = Sh * M_{sh} * T_m}$$

Agar har bir omilni mos ravishda ketma-ket $X_1$, $X_2$, $X_3$ deb belgilasak, bu holda multiplikativ modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = \prod_{i=1}^{3} Xi = X1 * X2 * X3 \quad (i=\overline{1,3})$$

Kasrli model ham tahlilda keng qo'llaniladigan modellardan hisoblanadi. U asosan natija hamda omillar o'rtasidagi bog'liqlik bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi tovar oboroti hajmining xodimlarning ro'yxatdagi soniga nisbati bilan aniqlanadi. Rentabellik darajasi foyda summasining tovar oborotiga nisbati bilan aniqlanadi va h.k.

Bunday hollarda kasrli model ko'p xil ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y = \frac{X_1}{X_2}; \qquad Y = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_j}{\sum_{i=n}^{n} X_i}; \qquad Y = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_i}{\prod_{i=1}^{n} X_i};$$

$$Y = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_i}{n}; \qquad Y = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_i}{\prod_{i=1}^{n} X_j}; \qquad Y = \frac{X_i}{\sum_{i=1}^{n} X_i};$$

Kasrli modelda bir vaqtning o'zida hamma model turlari qo'llanilishi mumkin. Ba'zan suratda addintiv model bo'lsa, maxrajida multiplikativ model bo'lishi mumkin. Suratida multiplikativ model bo'lishi maxrajida bitta omil ham ishtirok etishi mumkin. Amaliyotda suratida ham, maxrajida ham bir xil modellar ishtirok etishi ham mumkin.

Xo'jalik faoliyatining barcha hodisa va jarayonlari bir-biri bilan o'zaro aloqada, bog'lanishda bo'ladi va bir-birini taqozo qilib turadi. Ularning ba'zilari bir-biri bilan to'g'ri bog'langan bo'lsa, boshqalari bilvosita bog'langandir. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot xajmiga ishchilar soni va ularning mehnat unumdorligi kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi, qolgan barcha omillar bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Har bir hodisani sabab deb ham va natija deb ham qarash mumkin. Masalan, mehnat unumdorligini bir tomondan mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytiruvchi, uning tannarxi darajasini kamaytiruvchi sabab deb ham qarash mumkin. Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, mehnatni tashkil qilishni takomillashtirishning natijasi deb ham qarash mumkin.

Har bir natijaviy ko'rsatkich juda ko'p va xilma-xil omillarga bog'liq. Natijaviy ko'rsatkichga omillar ta'siri qanchalik detallashtirib (maydalashtirib) o'rganilsa korxona ishining sifatini bahosi va tahlili natijasi shunchalik aniq bo'ladi. Shuning uchun ham xo'jalik faoliyati tahlilining muhim metodologik masalalaridan biri bo'lib, o'rganilayotgan iqtisodiy obyektga omillar ta'sirini aniqlash va o'lchash hisoblanadi.

Omilli tahlil deganda natijaviy ko'rsatkich qiymatiga omillar ta'sirini kompleks va tizimiy aniqlash va o'lchash uslubi tushuniladi.

Omilli tahlil quyidagi tiplarga ajratiladi:

- to'g'ri (deduktiv) va teskari (induktiv) tahlil;
- bir bosqichli va ko'p bosqichli (zanjirli);
- statik va dinamik;
- retrospektiv va perspektiv.

**Deterministik omilli tahlil** deganda natijaga qat'iy to'liq funksional bog'lanishda bo'lgan omillar ta'sirini tadqiq qilish uslubi tushuniladi. Bunda natijaviy ko'rsatkich omillarning ko'paytmasi, bo'linmasi va algebraik yig'indisi ko'rinishida berilgan bo'ladi.

**Stoxastik tahlil** natijaga qat'iy, to'liq bog'lanishda bo'lmagan va bog'lanishi ehtimollik, tasodifiylik harakatda bo'lgan omillar ta'sirini o'rganish uslubi tushuniladi.To'g'ri omilli tahlilda tadqiqot mantiqiy deduktiv usulda amalga oshiriladi, ya'ni umumiydan xususiyga qarab boriladi. Buni barcha tahlil masalalarini, ya'ni butun to'plamni kesimlarga ajratib bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladigan masalalarni kiritish mumkin.

**Teskari omilli tahlil** deganda tadqiqot mantiqiy induksiya usuli bilan amalga oshiriladigan, ya'ni alohida birliklardan, elementlardan, xususiydan-umumiyga chiqib borish tushiniladi. Demak, bu tahlilga teskari usulda amalga oshiriladigan - sintez usulidir.

Bir bosqichli omilli tahlilda natijaviy ko'rsatkichlarga bosh omillarning ta'sirini aniqlash, ya'ni omillar ta'sirini birligi darajasini, detallashtirmay tarkibiy qismlarga ajratmay tadqiq qilish tushuniladi. Masalan, sotishdan olingan yalpi foydani o'rganishda sotishdan tushgan tushum va sotilgan mahsulot tannarxi bir bosqichli tahlilga misol bo'lishi mumkin.

Ko'p bosqichli omilli tahlil deganda natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi bosh omillarni detallashtirib o'rganish yo'li bilan tadqiqot tushuniladi. Masalan, birinchi bosqichda ya'ni foyda (F)ga sotishdan tushgan tushum (T) va sotilgan mahsulotlar tannarxi (S) o'rganilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda sotishdan tushgan tushumga sotilgan mahsulot miqdori (q) va bahosi (p)ni o'zgarishi ta'siri, undan keyin esa, mahsulot miqdorini o'zgartirishga ishchilar soni va ularni mehnat unumdorligi ta'siri o'rganiladi va hokazo (4.1-chizma).




*4.1-chizma. Bir va ko'p bosqichli tahlil chizmasi.*

Statik omilli tahlil deganda, ma'lum sanada (davrda) natijaviy ko'rsatkichlarda omillar ta'sirini o'rganish vaqt o'zgarmas, turg'un holatda qaraladi.

Dinamik omilli tahlil deganda, sabab-oqibat bog'lanishlarini vaqt bo'yicha o'zgarishda o'rganiladigan tahlil tushuniladi Retrospektiv omilli tahlil deganda natijaviy ko'rsatkich omillar ta'sirini o'tgan davrlar bo'yicha o'rganish tushiniladi.

Perspektiv omilli tahlil deganda omillar va natijaviy ko'rsatkichlarni kelgusida o'zgarishi o'rganiladi.

Iqtisodiy omilli tahlilning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Tadqiq qilinayotgan natijaviy ko'rsatkich aniqlab beradigan omillarni tanlash;
- Tizimli yondashishni ta'minlash maqsadida omillarni turkumlash va tizimlashtirish;
- Omilli va natijaviy ko'rsatkichlar orasida o'zaro bog'lanishlarni shaklini aniqlash;
- Omilli va natijaviy ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarni modellashtirish;
- Omillar ta'sirini hisoblash va ularning har birini natijaviy ko'rsatkichni o'zgarishiga ta'siridagi rolini baholash;
- Omilli model bilan ishlash (Iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun ulardan amaliy foydalanish).

## 4.2. Iqtisodiy matematik usullarning turlari

Iqtisodiy tahlil qilishda matematik usullarni qo'llash korxona faoliyatida qator o'ziga xos shartlarni e'tiborga olishni talab qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir: korxona iqtisodiyotini to'laligicha axborot texnologiyalariga asoslangan tizimga moslashtirish, iqtisodiy-matematik modellarni ishlab chiqish, korxonaning axborot manbalarini takomillashtirish, korxonani zamonaviy kompyuter vositalari bilan ta'minlash, xodimlar malakasi va shu kabilar.

Iqtisodiy tahlil maqsadiga ko'ra matematik usullar turli xil bo'ladi. Misol uchun, integral, logorifim, korrelyatsion, regretsion, matematik dasturlash, nazariy o'yin va shu kabilar.

Iqtisodiy-matematik usullarni yuzaga kelishi esa iqtisodiy axborotlarni qayta ishlovchi kompyuterlar hamda axborot texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'liq. Ushbu usullar iqtisodiy axborotlarni hisoblash va qayta ishlash jarayonini tezlashtirib, ularni qisqa muddatda boshqaruv xodimlariga uzatish hamda murakkab masalalarni tez va aniq hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik jarayonlarini o'rganish, tahlil etishda yangi usul va vositalardan foydalanish iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning

muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda tahlilda qo'llaniladigan iqtisodiy-matematik usullarni ham ushbu qatorga kiritish mumkin (4.1-jadval).

**4.1-jadval**

**Tahlilda qo'llaniladigan iqtisodiy-matematik usullar va ularni qo'llash o'rni**

| T/R | Usullarning nomi | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| 1 | Korrelyatsion-regratsion tahlil usuli | O'zgaruvchi birlikka ta'sir etuvchi, o'zaro aloqadorlik va bog'lanishdagi alohida belgining boshqa belgilar ta'sirida o'zgarishlarini aniqlash |
| 2 | Logorifmlar usuli | Natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi ko'plab omillarning ta'sirini aniqlashning matematik ifodaga solinishi |
| 3 | Determinantlar usuli | Yakuniy ifodaga ta'sir etuvchi bir omilning ikkinchi omilni tug'diruvchi va ularning alohida tarkiblanishi |
| 4 | Matritsalar usuli | Yakuniy ifoda va natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni juftlik, bielik va ko'plik koeffisientlarda aniqlash |
| 5 | Chiziqli programmalashtirish usuli | Xo'jalik jarayonlarini funksiya va cheklanishlarda qatorli tarzda programmalashtirish va ularni boshqarish bo'yicha muqobil qatorlardan eng optimal variantini aniqlash |
| 6 | Nazariy o'yin usuli | Ijtimoiy, ekologik, texnologik shartlarni hisobga olgan holda boshqarishni bir xil darajada saqlashning shartlarini belgilash |
| 7 | Va hokazo usullar... | |

Iqtisodiy-matematik usullarni qo'llash asosida:

- tahlilni bajarish muddati tezlashadi;
- o'zgarishlar va ularning ta'sirini aniq hisoblash mumkin bo'ladi;

- oddiy-an'anaviy usullar bilan hisoblab bo'lmaydigan murakkab omillar va ko'p omilli ko'rsatkichlarni to'liq o'rganish imkoni tug'iladi;

- har bir ta'sir etuvchi omilning miqdor va sifat jihatlarini aniq ko'rsatib berish imkoniyati tug'iladi;

- hisoblash texnikalaridan foydalanish osonlashadi va hokazolar.

## 4.3. Determinallashgan modellar va xo'jalik faoliyatidagi omillar tizimining tahlili

Determinizm lotincha "**determino**" so'zidan olingan bo'lib, voqealarni obyektiv qonuniyat asosida o'zaro bog'langanligi hamda shartlanganligi to'g'risidagi ta'limotdir. Determinallash asosida sababga ko'ra amalga oshadigan, ya'ni aniq sharoitda bir voqea (sabab) boshqa voqeani (oqibat) keltirib chiqaradigan holatlardagi bog'liqliklar yotadi.

Determinallashgan tahlil – tadqiq etilayotgan voqeani (O'rganilayotgan ko'rsatkichni) bevosita omillarga bo'lib o'rganishdir. Bevosita omillar – bog'lanishlari uzluksiz zanjirlar asosida modellashtirib quriladigan hamda o'rganilayotgan ko'rsatkichni shakllantirayotgan hamda ta'sir miqdorini o'lchash mumkin bo'lgan alohida voqealardir. Bu yerda tadqiq etilayotgan ko'rsatkich (voqea) omillar hosilasi bo'lib qaraladi. Misol uchun, tovar mahsuloti hajmini shakllanishi (TH) sanoat-ishlab chiqarish xodimlari soni (XS) hamda ishlovchilarga to'g'ri keladigan yillik o'rtacha mahsulot hajmiga (O'M) bog'liq. TH= XS* O'M.

Ushbu omillarni yanada detallashtirish mumkin. Sanoat-ishlab chiqarish xodimlari sonidan (XS) kelib chiqqan holda, uning tarkibida faqat ishchilarning solishtirma salmog'i ($I_{ss}$) topiladi, ya'ni $I_{ss}$= ($I_s$ : XS)*100%. Bu yerda, $I_s$ – ishchilar soni. Modellashtirish jarayonida bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan o'rtacha yillik mahsulot ($O'M_i$) ham topiladi, ya'ni $O'M_i$ = TH : $I_s$. Omillarni mazkur tartibi asosida tovar mahsuloti hajmini (TH) quyidagicha hisoblash mumkin: TH = $O'M_i$* $I_{ss}$* XS yoki TH = (TH : $I_s$) * $I_{ss}$* XS.

Tovar mahsuloti hajmini model asosida tahlil qilishda uni shakllanishiga ta'sir etuvchi yana ko'plab omillarni topish mumkin. Misol uchun, bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan o'rtacha yillik mahsulotga ($O'M_i$) ta'sir etgan omillarni alohida ko'rib chiqish mumkin. Bu yerda, $O'M_i=(O'M_s*I_k*D)$, $O'M_s$ – ishchi tomonidan bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot, $I_k$– ishchi tomonidan ishlangan kunlar miqdori, D – kun davomiyligi. Ishchi tomonidan bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot ($O'M_s$) hajmi quyidagicha topiladi: $O'M_s$= TH : ($I_k$*D). Bu holatda model beshta omildan shakllanganini ko'rish mumkin. Ya'ni:

$TH = (TH : (I_k*D)) * (I_k*D* I_{ss}* XS)$

Determinallashgan model qurilishida quyidagilar nazarda tutiladi: uzluksiz zanjirdagi bevosita bog'liqliklarning davomiyligi asosida omillar miqdori aniqlanadi; ular mantiqiy jihatdan tanlanadi; tahlil yo'li bilan modellashtirilgan ko'rsatkichlar va omillarning miqdor hamda mantiqiy muvofiqligi aniqlanadi.

Determinallashgan modelda o'rganilayotgan ko'rsatkichga uni shakllantirgan barcha omillarning alohida-alohida ta'sirini aynan bir vaqt bo'yicha aniqlash imkoniyati mavjud emas.

Determinallashgan omilli tahlilda o'rganilayotgan ko'rsatkichga har bir omilning ta'sir miqdori ularning xolislantirishga asoslangan usullar vositasida amalga oshiriladi (4.2-jadval).

**Integral usul.** Integral metod multiplikativ, karrali va karrali-additiv ko'rinishli aralash modellarda omillar ta'sirini baholash uchun qo'llaniladi. Ushbu usuldan foydalanish zanjirli o'rin almashtirish, mutloq va nisbiy farq usullariga nisbatan omillar ta'sirini hisoblashda aniqroq natijalar olishga imkon beradi, chunki omillar ta'siri ostidagi natijaviy ko'rsatkich qo'shimcha o'sishi oxirgi omilga biriktirilmaydi, balki ular o'rtasida teng bo'linadi.

Turli modellar uchun omillar ta'sirini hisoblash algoritmlarini ko'rib chiqamiz. Multplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblash uchun quyidagi ishchi formulalar qo'llaniladi:

**f=xy.**

$\Delta f_x = \Delta x y_0 + {}^1/_2 \Delta x \Delta y$, yoki $\Delta f_x = {}^1/_2 \Delta x (y_0 + y_1)$

$\Delta f_y = \Delta y x_0 + {}^1/_2 \Delta x \Delta y$, yoki $\Delta f_y = {}^1/_2 \Delta y (x_0 + x_1)$

**4.2-jadval**

**Mahsulot hajmi o'zgarishiga ishchilar soni hamda bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot o'zgarishi ta'sirining tahlili**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Haqiqatda | Farqi (+;-) |
|---|---|---|---|
| Ishchilar soni, kishi (IS) | 144 | 152 | +8 |
| Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm ($BI_m$) | 1235 | 1207 | -28 |
| Mahsulot hajmi, ming so'm (MH) | 177840 | 183464 | +5624 |

Bizning misolimizda omillar ta'sirini hisoblash quyidagicha bajariladi:

$$MH = IS * BI_m$$

1. $MH_{IS}=(8*1235) + ½(8*(-28))=9880+(-112)= 9768$
2. $MH_{BM}=(-28*144)+1/2(-28*8)=-4032+ (-112)= - 4144$

$$\Delta MH=\Delta IS+\Delta BI_i= 9768 + (-4144) = 5624$$

1-jadval hisob-kitoblaridan ma'lum bo'ldiki ishchilar sonini 8 kishiga ko'payishi mahsulot hajmini 9768 ming so'mga oshirgan. Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni 28 ming so'mga kamayishi esa mahsulot hajmini 4144 ming so'mga kamaytirgan.

**f=xyz.**

$$\Delta f_x = {}^1/_2\Delta x\,(y_0z_1+y_1z_0)+{}^1/_3\Delta x\Delta y\Delta z;$$
$$\Delta f_y = {}^1/_2\Delta y\,(x_0z_1+x_1z_0)+{}^1/_3\Delta x\Delta y\Delta z;$$
$$\Delta f_z = {}^1/_2\Delta z\,(x_0y_1+x_1y_0)+{}^1/_3\Delta x\Delta y\Delta z.$$

**4.3-jadval**

**Mahsulot hajmi o'zgarishiga ishchilar soni, o'rtacha ishlangan kun hamda bir kunga to'g'ri keladigan mahsulot ta'sirining tahlili**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Haqiqatda | Farqi (+;-) |
|---|---|---|---|
| Ishchilar soni, kishi (IS) | 203 | 212 | +9 |
| Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ishlangan kun, kishi kuni (BK) | 278 | 270 | -8 |
| O'rtacha ishlangan bir kunga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, ming so'm ($BK_m$) | 104 | 111 | +7 |
| Mahsulot hajmi, ming so'm (MH) | 5869136 | 6353640 | 484504 |

$$MH = IS * BK * BK_m$$

1. $MH_{IS}=(^1/_2*9)*(278*111+270*104) + {}^1/_3*9*(-8)*7=265053$
2. $MH_{BI}=(^1/_2*(-8))*(203*111+104*212)) + {}^1/_3*9*(-8)*7=-178492$
3. $MH_{BKM}=(^1/_2*7)*(203*270+212*278) + {}^1/_3*9*(-8)*7=397943$

$265053 + (-178492) + 397943 = 484504$

**f=xyzq**

a) $\Delta f_x=1/6\Delta x*[3q_0*y_0*z_0+y_1*q_0(z_1+\Delta z)+q_1*z_0(y_1+\Delta y)+z_1*y_0(q_1+\Delta q)]+$
$+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4;$

b) $\Delta f_y=1/6\Delta y*[3q_0*x_0*z_0+x_1*q_0(z_1+\Delta z)+q_1*z_0(x_1+\Delta x)+z_1*x_0(q_1+\Delta q)]+$
$+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4;$

v) $\Delta f_z=1/6\Delta z*[3q_0*x_0*y_0+x_0*q_1(y_1+\Delta y)+y_1*q_0(x_1+\Delta x)+x_1*y_0(q_1+\Delta q)]+$
$+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4;$

g) $\Delta f_q=1/6\Delta q*[3z_0*x_0*y_0+x_0*z_1(y_1+\Delta y)+y_1*z_0(x_1+\Delta x)+x_1*y_0(z_1+\Delta z)]+$
$+\Delta x*\Delta y*\Delta z*\Delta q / 4.$

Karrali va aralash modellarda omillar ta'sirini hisoblash uchun quyidagi ishchi formulalar qo'llaniladi:

1. Omilli model shakli $\Delta f = \dfrac{x}{y+z}$

$$\Delta f_x = \frac{\Delta x}{\Delta y + \Delta z} In \left| \frac{y_1 + z_1}{y_0 + z_0} \right|; \quad \Delta f_y = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z} \Delta y;$$

$$\Delta f_z = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z} \Delta z.$$

2. Omilli model shakli $\Delta f = \frac{x}{y + z + q}$

$$\Delta f_x = \frac{\Delta x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} In \left| \frac{y_1 + z_1 + q_1}{y_0 + z_0 + q_0} \right|;$$

$$\Delta f_y = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} \Delta y; \quad \Delta f_z = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} \Delta z;$$

$$\Delta f_q = \frac{\Delta f_{yм} - \Delta f_x}{\Delta y + \Delta z + \Delta q} \Delta q.$$

Agar maxrajda omillar ko'proq bo'lsa, jarayon davom ettiriladi.

Shunday qilib, integral metoddan foydalanish integratsiyalashning butun jarayoniga oid bilimlarni talab qilmaydi. Tayyor ishchi formulalarga kerakli sonli ma'lumotlarni kiritish va kalkulyator yoki komyuterda Excel dasturi yordamida uncha murakkab bo'lmagan hisoblashni bajarish yetarli. Bunda hisoblashning yanada yuqori aniqligiga erishiladi.

**Logarifmlash usuli.** Logarifmlash usuli multiplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblash uchun qo'llaniladi. Integratsiyalashdagi kabi bu yerda ham hisoblash natijasi omilning modelda joylashuviga bog'liq emas va integral metodga nisbatan hisoblashning yanada yuqori aniqligi ta'minlanadi. Agar omillar ta'siridagi qo'shimcha o'sish integratsiyalashda ular o'rtasida teng bo'linsa, u holda logarifmlash yordamida omillarning birgalikdagi ta'siri natijalari natijaviy ko'rsatkich darajasiga har bir omilning ajratilgan ta'sir ulushi proporsional taqsimlanadi. Uning ustunligi shunda, kamchiligi esa – uni qo'llash sohasi cheklanganligidir.

Integral metoddan farqli ravishda logorifmlashda ko‘rsatkichlarning absolyut o‘sishi emas, balki ularning o‘sish (pasayish) indeksi qo‘llaniladi.

Aytaylik, natijaviy ko‘rsatkich z = xy – ikki omil hosilasi ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin. Tenglikning ikkala qismini logarifmlash orqali quyidagini olamiz.

lgz=lgx+lgy u holda $lg\Delta z=lgz_1+lgz_0=(lgx_1-lgx_0)+(lgy_1-lgy_0)$ yoki

$$lg(z_1:z_0)=lg(x_1:x_0)+lg(y_1:y_0), \quad (1)$$

$$lgz_1=lgx_1+lgy_1;\ lgz_o=(lgx_0+lgy_0).$$

(1) tenglamani ikkala qismini $lg(z_1:z_0)$ ga bo‘lib va $\Delta z$ ga ko‘paytirib quyidagini hosil qilamiz:

$$\Delta z=\frac{\Delta z lg(x_1:x_0)}{lg(z_1:z_0)}+\frac{\Delta z lg(y_1:y_0)}{lg(z_1:z_0)}$$ yoki $\Delta z=\Delta z(x)+\Delta z(y)=$

$$\kappa lg(x_1:x_0)+\kappa lg(y_1:y_0)$$

$$K=\frac{\Delta z}{lg(z_1:z_0)} \qquad K=\frac{\Delta z}{lgz_1-lgz_0}$$

Aytaylik, natijaviy ko‘rsatkich f = xyz – uch omil xosilasi ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin. Tenglikning ikkala qismini logarifmlash orqali quyidagini olamiz.

$$lgf=lgx+lgy+lgz.$$

Ko‘rsatkichlar o‘zgarishlari indekslari o‘rtasida ham ko‘rsatkichlarning o‘zi o‘rtasidagi bog‘lanish saqlanishi hisobga olgan holda ularning absolyut qiymatlarini indeksga almashtiramiz:

$$lg(f_1:f_0)=lg(x_1:x_0)+lg(y_1:y_0)+lg(z_1:z_0)=$$

$$=lgI_x+lgI_y+lgI_z.$$

Ayniyatning ikkala qismini lgIf ga bo‘lib va $\Delta f$ ga ko‘paytirib quyidagini hosil qilamiz:

Bundan omillar ta’siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta f_x=\Delta f_{umum}\frac{Ig(x_1:x_0)}{Ig(f_1:f_0)};\ \Delta f_y=\Delta f_{umum}\frac{Ig(y_1:y_0)}{Ig(f_1:f_0)};$$

$$\Delta f_z = \Delta f_{umum} \frac{Ig(z_1 : z_0)}{Ig(f_1 : f_0)}$$

Formuladan natijaviy ko'rsatkichning umumiy o'sishi faktorlar bo'yicha omilli indeks logarifmlarining natijaviy ko'rsatkich logarifm indeksiga nisbatiga proportsional taqsimlanishi kelib chiqadi. Qanday logarifm oddiy yoki o'nlikmi – buning ahamiyati yo'q.

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, omilli model bo'yicha ishchilar soni (IS), bir yilda bir ishchi tomonidan ishlangan kunlar miqdori (K) va o'rtacha kunlik ishlab chiqarish (KI) hisobiga mahsulot chiqarish o'sishi hisoblaymiz.

MCh=IC·K·KI

VP = ChR * D * DV

$$\Delta ВП_{чр} = \Delta ВП_{умум} * \frac{Ig(ЧР_1 : ЧР_0)}{Ig(ВП_1 : ВП_0)} = 200 \frac{Ig(120 : 100)}{Ig(600 : 400)} = +89{,}9;$$

$$\Delta ВП_{д} = \Delta ВП_{умум} * \frac{Ig(Д_1 : Д_0)}{Ig(ВП_1 : ВП_0)} = 200 \frac{Ig(208 : 200)}{Ig(600 : 400)} = +20{,}2;$$

$$\Delta ВП_{лВ} = \Delta ВП_{умум} * \frac{Ig(ДВ_1 : ДВ_0)}{Ig(ВП_1 : ВП_0)} = 200 \frac{Ig(24 : 20)}{Ig(600 : 400)} = +89{,}9;$$

$\Delta VP_{umum}=\Delta VP_{chr}+\Delta VP_D+\Delta VP_{DV}=89{,}9+20{,}2+89{,}9=200$ mln. so'm.

Ushbu omilli model bo'yicha turli usullar bilan olingan omillar ta'sirini hisoblash natijalarini taqqoslab ishonch xosil qilish mumkinki, logorifmlash usuli ustunligi hisoblash omillarining nisbatan soddaligi va hisoblashning yanada yuqori aniqlikdaligidan iborat.

Ushbu usullar mohiyatini, ularni qo'llash sohasini, hisoblash tartibini bilish – miqdoriy tadqiqotlarni yuqori saviyada olib borishning zaruriy shartidir.

## 4.4. Stoxastik modellar va xo'jalik faoliyatidagi omillar tizimining tahlili

Stoxastik tushunchasi grekcha "stochastikos" so'zidan olingan bo'lib, topish yo'lini biladi degan ma'noni anglatadi. Stoxastik tahlil – statistik yo'l bilan baholanadigan turli xildagi masalalarni hal etish usulidir. Mazkur usul ko'p turdagi empirik ko'rsatkichlar hamda ularning o'zgarishini to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lmagan, o'zaro bog'lanmagan va shartlanmagan omillar ta'sirida sodir bo'lishini modellashtirish yo'li bilan o'rganadi. Stoxastik bog'liqlik ko'rsatkichlar o'rtasida tasodifan amal qiladi. Bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda muayyan ko'rsatkichni o'zgarishi boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Stoxastik model qurilishi asosida o'rganilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan holatdagi o'zgarishlari o'rtasidagi qonuniy aloqasini hamda tebranishlarini umumlashtirish yotadi.

Korxonaning hisob tizimidagi iqtisodiy tahlilida stoxastik modellashtirishni qo'llash uchun uning faoliyati yalpi kuzatish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak. Modellashtirish matematik-statistik usullar bilan amalga oshiriladi. Bu tartib xo'jalik faoliyatidagi ko'rsatkichlarni, ularni keltirib chiqargan omillar va sharoitlarni e'tiborga olgan holda, sabab-oqibati bo'yicha aloqalarni tadqiq qilish imkonini beradi. Iqtisodiy tahlilda determinallashgan modelni mazkur holatlar bo'yicha amalga oshirish har doim ham mumkin emas.

Matematik-statistik usullardan foydalanish bu borada maxsus tajribalar o'tkazishlarni keskin kamaytiradi.

Stoxastik modellashtirish va o'rganilgan ko'rsatkichlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelatsiya usulidagi tahlildan boshlanadi.

### A) Stoxastik bog'lanish tushunchasi va korrelyatsion tahlil vazifasi

O'tgan savolda determinatsiyalangan omillar tahlili masalasini echish usuli ko'rildi. Biroq amaliyotdan ma'lumki, iqtisodiy ko'rinish va jarayonilarining hammasi ham bu usul bo'yicha o'rga-

nilmaydi. Shu bilan birga, ko'p hollarda ularni funksional bog'lanishga keltirib bo'lmaydi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda taxminiyligi va noma'lumligi bilan ajralib turuvchi stoxastik bog'liqliklar tez-tez uchrab turadi. Ular faqat katta miqdordagi obyektlar (kuzatuvlar)dagina namoyon bo'ladi. Bu yerda har bir omil ko'rsatkichiga (argumentning) bir nechta rezultativ ko'rsatkichlar (funksiyaning) qiymati mos kelishi mumkin. Masalan, ishchilarning mehnat jamg'armasining oshirilishi turli korxonalarda mehnat unumdorligini, hatto, tenglashtirilgan boshqa vaziyatlarda ham turlicha o'sishiga olib keladi. Buni mehnat unumdorligiga bog'liq barcha omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir qilishi bilan tushuntirish mumkin. Optimallik darajasi bo'yicha turli omillarning birikmasi ularning har birining rezultativ ko'rsatkichlar kattaligiga ta'sir darajasiga bog'liq.

Agar ko'p miqdordagi kuzatuvlar (obyektlar) tadqiqot uchun olinib va ularning miqdorlari taqqoslansa, o'rganilayotgan omillar va rezultativ ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish namoyon qilinadi. Keyin esa, ko'p miqdorlar qonuniga mos holda, rezultativ ko'rsatkichlarga boshqa omillarning ta'siri tekislanadi, neytrallanadi. Bu esa tadqiq qilinayotgan hodisalarning o'zaro bog'lanish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, **korrelyatsion (stoxastik) bog'lanish** – bu juda ko'p kuzatuvlardagina namoyon bo'ladigan ko'rsatkichlar orasidagi to'liq bo'lmagan, taxminiy bog'lanishdir.

Juft va ko'p miqdorli korrelyatsiyalar farqlanadi. *Juft korrelyatsiya* – bu bittasi omilli, boshqasi rezultativ bo'lgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishdir. *Ko'p miqdorli korrelyatsiya* esa rezultativ ko'rsatkichlar bilan bir nechta omillarning o'zaro ta'siri natijasida kelib chiqadi.

Stoxastik bog'lanishni o'rganish uchun o'tgan boblarda aytib o'tilgan quyidagi iqtisodiy tahlil usullari: parallel va dinamik qatorlarni taqqoslash, analitik guruhlash, grafiklar qo'llaniladi. Biroq, ular faqat bog'lanishning yo'nalishi va xarakterini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Omilli tahlilning asosiy vazifasi – har bir omilning rezultativ ko'rsatkich darajasiga ta'sir me'yorini aniqlashdir. Shu maqsadda *korrelyatsion, dispersion, komponentli,*

*diskriminantli, zamonaviy ko'p o'lchamli omillar tahlili va h.k. usullar* qo'llaniladi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda kengroq qo'llaniladigan usul korrelyatsion tahlil hisoblanib, u ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'lanishni sonli ifodalash imkonini beradi.

***Korrelyatsion tahlilni qo'llashning zaruriy shartlari:***

- o'rganilayotgan omillar va rezultativ ko'rsatkichlar haqida tanlanadigan ma'lumotlarning yetarlicha ko'pligi (dinamikada yoki joriy yil uchun bir turdagi obyektlarning majmui);
- o'rganilayotgan omillar sonli o'lchamda bo'lishi va axborotning u yoki bu manbaida aks etishi.

***Korrelyatsion tahlilni qo'llash quyidagi masalalarni yechish imkonini beradi:***

1) bir yoki bir nechta omillar ta'siri ostida bo'lgan rezultativ ko'rsatkichlar o'zgarishini aniqlash (absolyut o'lchamda), ya'ni omillining birlikka o'zgarishida rezultativ ko'rsatkich kattaligi necha birlikka o'zgarganini aniqlash;

2) har bir omildan rezultativ ko'rsatkichning nisbiy bog'lanish darajasini o'rnatish.

Korrelyatsion bog'lanishlarni o'rganish tahlilda katta ahamiyatga ega. Bu omilli tahlilning chuqurlashayotganida, o'rganilayotgan ko'rsatkichlar darajasining shakllanishida har bir omilning ahamiyati va o'rni aniqlanayotganligida, o'rganilayotgan holat to'g'risidagi bilimlarning chuqurlashayotganligida, ularning rivojlanish qonuniyatlari va nihoyada aniq isbotlangan rejalarning aniqlanayotganligida, korxona faoliyati natijalari obyektivroq baholanayotganligida va ichki xo'jalik zaxiralari to'laroq aniqlanayotganligida namoyon bo'lmoqda.

**V) Stoxastik bog'lanishlarni o'rganish uchun juft korrelyatsiyalar usulini qo'llash**

Korrelyatsion tahlilning asosiy vazifalaridan biri omillarning rezultativ ko'rsatkichlar kattaligiga (absolyut o'lchamda) ta'sirini aniqlashdan iborat. Bu masalani yechish uchun o'rganilayotgan bog'lanish (to'g'ri chiziqli, egri chiziqli va h.k.) xarakterini yaxshiroq aks ettiradigan mos turdagi matematik tenglama tanlab

olinadi. Bu korrelyatsion tahlilda muhim ahamiyatga ega, chunki masalani yechish yo'llari va natijalarni hisoblash regressiya (inqiroz, tanazzul) tenglamasini to'g'ri tanlashga bog'liq.

***Bog'lanish tenglamasini asoslash*** parallel qatorlarni solishtirish, ma'lumotlar va chiziqli grafiklarni guruhlash yordamida amalga oshiriladi. Nuqtalarni grafikka joylashtirish o'rganilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida to'g'ri chiziqli bog'lanish yoki egri chiziqli bog'lanish bog'lanish shakllanganligini ko'rsatadi.

Ikkita ko'rsatkich orasidagi to'g'ri chiziqli bog'lanishni xarakterlaydigan oddiyroq tenglama bu to'gri tenglamadir.

$$Y_x = a + bx \qquad (1)$$

bu yerda $x$ – omilli ko'rsatkich;

$Y$ – natijaviy ko'rsatkich

$a$ va $b$ – qidirish talab qilinadigan regressiya tenglamasining parametrlari.

Bu tenglama omilli ko'rsatkichlar ma'lum qiymatga o'zgarganda natijaviy ko'rsatkichlar miqdori bir tekisda o'sishi yoki kamayishini ko'rsatuvchi ikkita belgi orasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Korrelyatsion tahlilning to'g'ri chiziqli bog'lanishiga namuna tariqasida ekin ekiladigan yer sifati ($x$) ga bog'liq holda donli ekinlarning hosildorligini o'zgarishi ($Y$) haqidagi ma'lumot qo'llanilishi mumkin (-jadvalga qarang).

$a$ va $b$ koeffisientlar qiymati eng kam kvadratlar usuli bo'yicha olingan tenglamalar tizimlaridan topiladi. Bu holatda tenglamalar tizimlarasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\begin{cases} na + b\sum x = \sum y \\ a\sum x + b\sum x^2 = \sum xy \end{cases}$$

bu yerda $n$ – kuzatuvlar soni (bizning misolda – 20).

$\sum x$, $\sum y$, $\sum x^2$, $\sum xy$ qiymati haqiqiy boshlang'ich ma'lumotlar asosida hisoblanadi (4.4-jadval).

**4.4-jadval**

**Korrelyatsiya koeffisienti va bog'lanish tenglamasining parametrlarini aniqlash uchun yasama miqdor hisobi**

| $n$ | $x$ | $y$ | $xy$ | $x_2$ | $y_2$ | $Y_x$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 32 | 19,5 | 624 | 1024 | 380,25 | 19,8 |
| 2 | 33 | 19,0 | 327 | 1089 | 361,00 | 20,2 |
| 3 | 35 | 20,5 | 717 | 1225 | 420,25 | 21,0 |
| ... | ... | ... | ... | ... | ... | ... |
| 20 | 60 | 33,0 | 1980 | 3600 | 1089,00 | 31,0 |
| *Jami* | 900 | 500,0 | 22900 | 41500 | 12860,00 | 500,0 |

Olingan qiymatlarni tenglamalar tizimlariga qo'yib chiqamiz:

$$\begin{cases} 20a + 900b = 500; \\ 900a + 41500b = 22900. \end{cases}$$

Birinchi tenglamaning har birini 45(900:20) ga ko'paytirib, quyidagi tenglamalar tizimlarasini olamiz:

$$\begin{cases} 900a + 40500b = 22500; \\ 900a + 41500b = 22900. \end{cases}$$

Ikkinchi tenglamadan birinchisini ayiramiz. Bundan

$$1000b = 400;\ b = 0,4;$$

$$a = \frac{500 - (900 \cdot 0,4)}{20} = 7,0.$$

Nihoyat hosildorlikning yer sifatiga bog'liqligini ifodalovchi bog'lanish tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y_x = 7,0 + 0,4x$$

$a$ koeffisient – natijaviy ko'rsatkichning o'zgarmas kattaligidir, u ushbu omil o'zgarishiga bog'liq emas. $b$ parametr omilli ko'rsatkich kattaligining o'zi o'lchanadigan birlikda o'sishi yoki kamayishida natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha o'zgarishini ko'rsatadi. Ushbu misolda yer sifatining bir ballga oshishi donli ekinlar hosildorligi o'rtacha 0,4 s/ga o'rtacha oshadi.

$x$ ning qiymatini regressiya tenglamasiga qo'yib har bir korxona uchun natijaviy ko'rsatkichning to'g'rilangan (nazariy) qiymatini ($Y$) aniqlash mumkin. Masalan, birinchi korxona uchun, erning sifati 32 ball deb baholandi, donli ekinlarning hosildorligi quyidagicha

$$Y_x = 7 + 0.4 * 32 = 19,8 \text{ s/ga}$$

Olingan kattalik ushbu korxona bor ishlab chiqarish imkoniyatini sarflab, yerning sifati 32 ball bo'lganda olinishi mumkin bo'lgan hosildorlikni bildiradi. Xuddi shunday hisob-kitoblar har bir kuzatuvda amalga oshirildi. Ma'lumotlar jadvalning oxirgi ustunida berilgan. Hosildolikning haqiqiy darajasi hisoblangani bilan tenglashtirish ayrim korxonalarning ish natijalarini baholash imkonini beradi.

***O'rganilayotgan holatlarning egri chiziqli bog'lanishlarida ham bog'lanish tenglamasi*** shu tarzda echiladi. Agar bir ko'rsatkichining ko'payib, boshqasining miqdori ma'lum darajagacha o'sib, keyin kamaya boshlasa (masalan, ishchilarning mehnat unumdorligi ularning yoshiga bog'liq bo'lishi), bunday bog'lanishni yozish uchun ikkinchi tartibli parabola mos keladi

$$Y_x = a + bx + cx^2 \qquad (2)$$

Eng kam kvadratlar usulining shartlariga muvofiq $a$, $b$ va $c$ parametrlarini aniqlash uchun quyidagi tenglamalar tizimlarasini yechish kerak:

$$\begin{cases} na + b\sum x + c\sum x^2 = \sum y; \\ a\sum x + b\sum x^2 + c\sum x^3 = \sum xy; \\ a\sum x^2 + b\sum x^3 + c\sum x^4 = \sum x^2 y. \end{cases}$$

$\sum x, \sum y, \sum xy, \sum x^2 y, \sum x^2, \sum x^3, \sum x^4$ – qiymatlar boshlang'ich ma'lumotlar asosida topiladi ( -jadval).

Olingan qiymatlarni tenglamalar tizimlarasiga qo'yib, quyidagini olamiz:

$$\begin{cases} 9a + 36b + 159c = 46; \\ 36a + 159b + 756c = 183; \\ 159a + 756b + 3788c = 794. \end{cases}$$

$a$, $b$ va $c$ parametrlar aniqlovchilar usulida yoki istisno qilish usulida topiladi, aniqlovchilar usulini qo'llaymiz.

Avvalo umumiy aniqlovchini topamiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} 9 & 36 & 159 \\ 36 & 159 & 756 \\ 159 & 756 & 3788 \end{vmatrix} = 9 \cdot 159 \cdot 3788 + 36 \cdot 756 \cdot 159 +$$

$$+ 36 \cdot 756 \cdot 159 - 159^3 - 756^2 \cdot 9 - 36^2 \cdot 3788 = 2565$$

keyin $\Delta a$, $\Delta b$ va $\Delta c$ xususiy aniqlovchilarni topamiz:

$$\Delta a = \begin{vmatrix} 46 & 36 & 159 \\ 183 & 159 & 756 \\ 794 & 756 & 3788 \end{vmatrix} = -6846; \qquad \Delta b = \begin{vmatrix} 9 & 46 & 159 \\ 5 & 183 & 756 \\ 159 & 794 & 3788 \end{vmatrix} = 11349;$$

$$\Delta c = \begin{vmatrix} 9 & 36 & 46 \\ 5 & 159 & 183 \\ 159 & 756 & 794 \end{vmatrix} = -1440$$

Bundan

$$a = \frac{\Delta a}{\Delta} = \frac{-6846}{2565} = -2{,}67; \qquad b = \frac{\Delta b}{\Delta} = \frac{11349}{2565} = 4{,}424;$$

$$c = \frac{\Delta c}{\Delta} = \frac{-1440}{2565} = -0{,}561.$$

Parabola tenglamasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:

$$Y_x = -2{,}67 + 4{,}24x - 0{,}561x^2.$$

Olingan tenglama parametrlari iqtisodiy ma'noga ega emas. Agar tenglamaga $x$ ning mos qiymatlarini qo'yib chiqsak, mehnat unumdorligining to'g'rilangan qiymatini ishchilar yoshiga bog'liqligini olamiz. Natijalar jadvalning oxirgi ustunida keltirilgan.

**4.5-jadval**

**Mehnat unumdorligi ($Y$) ning ishchilar yoshi ($x$) ga bog'liqligi**

| $x$ | $y$ | $x/10$ | $xy$ | $x_2$ | $x_2y$ | $x_3$ | $x_4$ | $y_x$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 20 | 4,2 | 2,0 | 8,4 | 4,00 | 16,8 | 8,0 | 16 | 3,93 |
| 25 | 4,8 | 2,5 | 12,0 | 6,25 | 30,0 | 15,62 | 39 | 4,90 |
| 30 | 5,3 | 3,0 | 15,9 | 9,00 | 47,7 | 27,00 | 81 | 5,55 |
| 35 | 6,0 | 3,5 | 21,0 | 12,25 | 73,5 | 42,87 | 150 | 5,95 |
| 40 | 6,2 | 4,0 | 24,8 | 16,00 | 99,2 | 64,00 | 256 | 6,05 |
| 45 | 5,8 | 4,5 | 26,1 | 20,25 | 117,4 | 91,13 | 410 | 5,90 |
| 50 | 5,3 | 5,0 | 26,5 | 25,00 | 132,5 | 125,00 | 625 | 5,43 |
| 55 | 4,4 | 5,5 | 24,2 | 30,25 | 133,1 | 166,40 | 915 | 4,78 |
| 60 | 4,0 | 6,0 | 24,0 | 36,00 | 144,0 | 216,00 | 1296 | 3,70 |
| *Jami* | 46,0 | 36,0 | 183,0 | 159,00 | 794,0 | 756,00 | 3788 | 46,00 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishchilarning mehnat unumdorligi 40 yoshgacha oshib, keyin pasayib boradi. Demak, qaysiki korxonaning 30-40 yoshli ishchilari ko'p bo'lsa, o'sha korxonaning unumdorlik ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'lar ekan. Bu omilni mehnat unumdorligi darajasini rejalashtirishda va uning o'sish zaxiralarini hisoblashda e'tiborga olish zarur.

Iqtisodiy tahlilda egri chiziqli bog'lanishni yozish uchun, ko'pincha, giperbola qo'llaniladi

$$Y_x = a + \frac{b}{x} \tag{3}$$

Uning parametrlarini aniqlash uchun quyidagi tenglamalar tizimlarasini yechish kerak:

$$\begin{cases} na + b\sum\left(\frac{1}{x}\right) = \sum y \\ a\sum\left(\frac{1}{x}\right) + b\sum\left(\frac{1}{x}\right)^2 = \sum\left(\frac{1}{x}\right)y. \end{cases} \tag{4}$$

Giperbola ikki ko'rsatkich orasidagi quyidagicha bog'lanishni tavsiflaydi, agar bitta o'zgaruvchi oshsa boshqasining qiymati ma'lum darajagacha o'sadi, keyin esa o'sish pasayadi, masalan, hosildorlik necha marta o'g'it solinganlikka, hayvonlarning mahsuldorligi ularning boqilishiga, mahsulot tannarxi ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi va h.k.

O'rganilayotgan holatlar orasidagi murakkabroq xarakterdagi bog'lanishlar uchun murakkabroq parabolalar (uchinchi, to'rtinchi tartibdagi va h.k.) hamda kvadratik, darajali, ko'rsatkichli va boshqa funksiyalar qo'llaniladi.

Shunday qilib, u yoki bu turdagi matematik tenglamadan foydalanib, o'rganilayotgan holatlarning bog'lanish darajasini aniqlash mumkin, ya'ni omilli ko'rsatkichlar birlikka o'zgarganda natijaviy ko'rsatkichlar kattaligining absolyut o'lchamda necha birlikka o'zgarishini bilish mumkin.

Biroq regression tahlil bog'lanishning chambarchas yoki chambarchas emas degan savolga javob bera olmaydi, bu omil

ikkinchi darajali yoki natijaviy ko'rsatkichlar kattaligida yakuniy ta'sir ko'rsatadi.

Omilli va natijaviy ko'rsatkichlar bog'lanishlarining ***chambarchasligini o'lchash uchun*** korrelyatsiya koeffisientlari hisoblanadi. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishning *to'g'ri chiziqli shaklida* bo'lgan holatida u quyidagi formuladan topiladi:

$$r = \frac{\sum xy - \frac{\sum x \cdot \sum y}{n}}{\sqrt{\left(\sum x^2 - \frac{(\sum x)^2}{n}\right) \cdot \left(\sum y^2 - \frac{(\sum y)^2}{n}\right)}} \qquad (5)$$

-jadvaldan formulaga $\sum xy, \sum x, \sum y, \sum x^2$ va $\sum y^2$ larning qiymatlarini qo'yib, uning qiymati 0,66 ga tengligini olamiz.

$$r = \frac{22900 - \frac{900 \cdot 500}{20}}{\sqrt{\left(41500 - \frac{900^2}{20}\right) \cdot \left(12860 - \frac{500^2}{20}\right)}} = 0{,}66$$

Korrelyatsiya koeffisienti 0 dan 1 gacha qiymat qabul qilishi mumkin. Qiymati 1 ga qancha yaqin bo'lsa, o'rganilayotgan holat bilan bog'lanish shunchalik chambarchas bo'ladi va aksincha. Berilgan holatda korrelyatsiya koeffisienti kattaroq ($r$=0,66). Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, erning sifati ushbu tumandagi donli ekinlar hosildorligi darajasiga bog'liq bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanar ekan.

Agar korrelyatsiya koeffisientini ikkinchi darajaga oshirsak, determinatsiya koeffisientini ($d$=0,436). Bu shuni ko'rsatadiki, donli ekinlarning hosildorligining oshishi yer sifatiga 43,5%, qolgan omillarga esa 56,5% bog'liq ekan.

Bog'lanishning egri chiziqli shaklda bog'lanish chambarchasligini o'lchashda esa chiziqli korrelyatsiya koeffisienti ishlatiladi va bu korrelyatsion munosabat quyidagicha ko'rinishga ega:

$$\eta = \sqrt{\frac{\sigma_y^2 - \sigma_{y_x}^2}{\sigma_y^2}}; \qquad (6)$$

bu yerda $\sigma_y^2 = \frac{\sum(y_i - \bar{y})^2}{n}$; $\sigma_{y_x}^2 = \frac{\sum(y_i - y_{x_i})^2}{n}$.

(6.6) formula har tomonlama (universal) hisoblanadi. Bu formuladan korrelyatsiya koeffisientini hisoblash uchun istalgan shakldagi bog'lanishda qo'llash mumkin. Biroq, eng avvalo, regressiya tenglamasini echish kerak, har bir kuzatuv uchun natijaviy ko'rsatkichning to'g'rilangan qiymati ($Yx$) ni hamda o'rtacha va to'g'rilangan darajasidan haqiqiy qiymatning og'ishlar kvadratini hisoblash kerak (4.6-jadval).

**4.6-jadval**

**Egri chiziqli bog'lanishda korrelyatsion munosabatni aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlarni hisoblash**

| $Y$ | $Y_x$ | $Y-\bar{Y}$ | $(Y-\bar{Y})^2$ | $Y-Y_x$ | $(Y-Y_x)^2$ |
|---|---|---|---|---|---|
| 4,2 | 3,93 | -0,9 | 0,81 | +0,27 | 0,073 |
| 4,8 | 4,90 | -0,3 | 0,09 | -0,10 | 0,010 |
| 5,3 | 5,55 | +0,2 | 0,04 | -0,25 | 0,062 |
| 6,0 | 5,95 | +0,9 | 0,81 | +0,05 | 0,003 |
| 6,2 | 6,05 | +1,1 | 1,21 | +0,15 | 0,022 |
| 5,8 | 5,90 | +0,7 | 0,49 | -0,10 | 0,010 |
| 5,3 | 5,43 | +0,2 | 0,04 | -0,13 | 0,017 |
| 4,4 | 4,78 | -0,7 | 0,49 | -0,38 | 0,144 |
| 4,0 | 3,70 | -1,1 | 1,21 | +0,30 | 0,090 |
| $\sum$46 | 46,0 | - | 5,19 | - | 0,431 |

Olingan qiymatlarni (6) formulaga qo'yib, ishchilar yoshi va mehnat unumdorligi orasidagi bog'lanish chambarchasligini xarakterlovchi korrelyatsion munosabat kattaligini aniqlaymiz:

$$\eta = \sqrt{\frac{5{,}19:9 - 0{,}43:9}{5{,}19:9}} = \sqrt{\frac{0{,}576 - 0{,}049}{0{,}576}} = 0{,}956$$

Xulosada shuni aytib o'tish kerakki, juft korrelyatsiya usulini qo'llashni faqat ikkita misoldagina ko'rib chiqdik. Biroq bu usul har xil iqtisodiy ko'rsatkichlar orasida munosabatni ham o'rganish

uchun qo'llanilishi mumkin. Bu esa o'rganilayotgan holatni, uning o'zgarishida har bir omilning o'rni va ahamiyatini baholashda chuqurroq bilimga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

**V) Ko'p miqdorli korrelyatsion tahlil metodikasi**

Korxonaning xo'jalik faoliyatidagi iqtisodiy holatlari va jarayonlari ko'p sonli omillarga bog'liq. Bu kabi kompleks omillarning o'zaro bog'lanishlari o'rganilayotgan holatni to'liqroq xarakterlaydi.

Ko'p miqdorli korrelyatsion tahlil bir nechta bosqichdan tashkil topadi.

*Birinchi bosqichda* o'rganilayotgan holatga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi va korrelyatsion tahlil uchun muhim ahamiyatga ega bo'lganlari tanlab olinadi.

*Ikkinchi bosqichda* korrelyatsion tahlil uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar yig'iladi va baholanadi.

*Uchinchi bosqichda* omilli va natijaviy ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish modellashtiriladi, ya'ni o'rganilayotgan bog'lanish mazmunini aniqroq aks ettiradigan matematik tenglamalar tanlanadi va asoslanadi.

*To'rtinchi bosqichda* korrelyatsion tahlilning asosiy bog'lanish ko'rsatkichlari hisoblanadi.

*Beshinchi bosqichda* korrelyatsion tahlil natijalariga statistik baho beriladi va ularni amaliyotda qo'llash amalga oshiriladi.

***Korrelyatsion tahlil uchun omillarni saralash*** – eng muhim hisoblanadi. Chunki tahlilning yakuniy natijalari omillarning qanchalik to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Nazariya va tahlilning amaliy tajribasi omillarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi qoidalarga bo'ysunish kerak:

1. Birinchi navbatda, ko'rsatkichlar orasidagi sababli bog'lanishlarni hisobga olish zarur, negaki, faqat ulargina o'rganilayotgan holat mohiyatini ochib beradi. Natijaviy ko'rsatkichli matematik munosabatlarda joylashgan bu kabi omillarning tahlili unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

2. Ko'p omilli korrelyatsion model yaratishda amalda qilib bo'lmaydigan barcha shart va majburiyatlarni o'z ichiga olgan,

natijaviy ko'rsatkichlarga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadigan eng muhim omillarni tanlab olish zarur. Styudent bo'yicha kam jadvalli, ishonchlilik mezoniga ega bo'lgan omillarni hisobga olish tavsiya qilinmaydi.

3. Chiziqli turdagi korrelyatsion modellarga egri chiziqli xarakterga ega bo'lgan natijaviy ko'rsatkich bilan bog'lanishli omillarni qo'shish tavsiya etilmaydi.

4. Korrelyatsion modelga o'zaro bog'langan omillarni qo'shish mumkin emas. Agar ikkita omil o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffisienti 0,85 dan ko'p bo'lsa, korrelyatsion tahlil qoidasiga ko'ra bittasini chiqarib tashlash kerak, aks holda, natijaviy ko'rsatkichni xau holdabo'lishiga olib keladi.

5. Korrelyatsion modelga funksional xarakterdagi natijaviy ko'rsatkich bog'lanishli omillarni korrelyatsion modelga qo'shish tavsiya etilmaydi.

Korrelyatsion model uchun omillarni saralashda analitik guruhlash, parallel va dinamik qatorlarni solishtirish, chiziqli grafiklar katta yordam beradi. Ular yordamida o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish mavjudligi, shakli va yo'nalishini aniqlash mumkin. Omillarni saralashni Styudent mezoni bo'yicha qiymatlarni baholash asosida korrelyatsion tahlil masalasini echish jarayonida ham amalga oshirish mumkin.

Sanab o'tilgan shartlarni hisobga olgan holda va omillarni saralash usullarini qo'llagan holda ko'p omilli korrelyatsion modelning rentabellik darajasi ($Y$) uchun uning darajasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi omillar tanlab olingan.

$x_1$ – material unumi, so'm;

$x_2$ – jamg'arma unumi, so'm;

$x_3$ – mehnat unumdorligi (bir ishchining o'rtacha yillik ishlab chiqarishi), ming so'm;

$x_4$ – korxona aylanma mablag'ining aylanish davomiyligi, kun;

$x_5$ – yuqori sifatli mahsulotning solishtirma og'irligi, %

Modomiki, korrelyatsion bog'lanish ko'p sonli kuzatuvlarda to'laligicha namoyon bo'lar ekan, ma'lumotlarni tanlab olish hajmi yetarlicha katta bo'lishi kerak, negaki ko'p sonli kuzatuvlardagina

boshqa omillarning ta'siri tekislanadi. O'rganilayotgan obyektlar majmui qanchalik ko'p bo'lsa, natijalar tahlili shunchalik aniq bo'ladi.

Bu shartni hisobga olgan holda sanab o'tilgan omillarning rentabellik darajasiga ta'siri 40 ta korxona misolida o'rganiladi.

Har bir omil va natijaviy ko'rsatkichlardan ***yig'ilgan boshlang'ich ma'lumotlar*** aniqligi, bir turdaligi va me'yoriy taqsimot qonunlariga moz kelishi tekshirilgan bo'lishi kerak.

Birinchi navbatda uning obyektiv mavjudligiga mos holda *ma'lumotning aniqliligiga* ishonch hosil qilish kerak. Negaki aniq bo'lmagan ma'lumotdan foydalanish tahlil natijalarining noaniqligiga va noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi.

Ma'lumot o'rtacha darajada taqsimlanishi bo'yicha *bir turda* bo'lishi kerak. Agar obyektlar guruhlari o'rtacha darajadan katta farq qilsa, bu boshlang'ich ma'lumotlarning bir turda emasligidan dalolat beradi.

Ma'lumotning bir turda bo'lish mezoni bu har bir omilli va natijaviy ko'rsatkichlarda hisoblanadigan o'rta kvadratik og'ish va variatsiya koeffisienti hisoblanadi.

O'rta kvadratik og'ish alohida qiymatlarni o'rta arifmetik qiymatlardan absolyut og'ishini ko'rsatadi. Uning qiymati ushbu formuladan topiladi

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x_i - \bar{x})^2}{n}}. \qquad (7)$$

Variatsiya koeffisienti alohida qiymatlarni o'rta arifmetik qiymatlardan nisbiy og'ishi chegarasini ko'rsatadi. U quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

$$V = \frac{\sigma}{\bar{x}} \cdot 100 \qquad (8)$$

Variatsiya koeffisienti qanchalik katta bo'lsa, shuncha tarqoqlik nisbatan ko'p va o'rganilayotgan obyektlarning to'g'rilanishi kam bo'ladi. Variatsion qatorlarning o'zgarishi quyidagicha qabul qilingan: 10% dan oshib ketmasa – arzimas, 10-20% - o'rtacha, 20% dan ko'p bo'lsa katta, lekin 33% dan oshib ketmaydi. Variatsiya 33% dan oshib ketsa bu ma'lumotlarning bir turda emasligidan darak beradi va bir turda bo'lmagan

ma'lumotlarni chiqarib tashlash kerak bo'ladi. Bular odatda tanlov qatorlarining boshida yoki oxirida bo'ladi (4.7-jadval).

**4.7-jadval**

**Boshlang'ich ma'lumotlarning statistik tavsifi ko'rsatkichlari**

| O'zgaruvchilar raqami | O'rtacha arif-metik qiymati | O'rtacha kvadratik og'ish | Variatsiya, % | Asimmetriya | Eksсess | Asimmetriya xatosi | Eksсess xatosi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| *Y* | 27,15 | 2,85 | 10,50 | 0,20 | -1,16 | 0,37 | 0,73 |
| *x1* | 2,77 | 0,28 | 10,08 | 0,36 | -0,81 | 0,37 | 0,73 |
| *x2* | 92,57 | 8,70 | 9,39 | 0,24 | -0,69 | 0,37 | 0,73 |
| *x3* | 8,46 | 0,59 | 7,00 | 0,10 | -0,52 | 0,37 | 0,73 |
| *x4* | 17,77 | 2,76 | 15,55 | 0,72 | -0,08 | 0,37 | 0,73 |
| *x5* | 31,68 | 7,28 | 22,98 | 0,63 | -0,13 | 0,37 | 0,73 |

4.7-jadvalda eng yuqori variatsiya $x_5$ da ($V = 22,98$), lekin u 33% oshib ketmaydi. Demak, boshlang'ich ma'lumot bir turda ekan va uni keyingi hisob uchun qo'llash mumkin.

Variatsiyaning eng yuqori ko'rsatkichi asosida korrelyatsion tahlil uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlar hajmini quyidagi formuladan topish mumkin.

$$n = \frac{V^2 t^2}{m^2} = \frac{22,98^2 \cdot 1,96^2}{8^2} = 32, \qquad (9)$$

bu yerda $n$ – tanlanadigan ma'lumotlarning kerakli hajmi;

$V$ – variatsiya, %;

$t$ – ehtimollik darajasi $P = 0,05$ da 1,96 ga teng bo'ladigan bog'lanish ishonchliligi ko'rsatkichi;

$m$ – hisoblarning aniqlilik ko'rsatkichi (iqtisodiy ko'rsatkichlarda xau holda5-8% gacha ruxsat beriladi).

Demak, qabul qilingan tanlov hajmi (40 ta korxona) korrelyatsion tahlil o'tkazish uchun etarli bo'lar ekan.

*Boshlang'ich ma'lumotlarning me'yoriy taqsimot qonuniga bo'ysunishi* deganda o'rganilayotgan ma'lumotlarning asosiy qismi har bir ko'rsatkich bo'yicha uning o'rtacha qiymati atrofida guruhlangan bo'lishi kerak, juda katta va juda kichik miqdordagi

obyektlar esa iloji boricha karoq uchrashi kerakligi tushuniladi. Me'yoriy taqsimot grafigi 4.1-rasmda berilgan.



*4.1-rasm. Ma'lumotlarning me'yoriy taqsimoti grafigi.*

Ma'lumotlarni me'yoriy taqsimotdan og'ish darajasini sonli ifodalash uchun asimmetriya ko'rsatkichi ekssessa ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Asimmetriya ko'rsatkichi ($A$) va uning xatosi ($m_a$) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$A = \frac{\sum (x_i - \bar{x})^3}{n\sigma^3}; \quad m_a = \sqrt{\frac{6}{n}}. \tag{10}$$

Ekssess ko'rsatkichi ($E$) va uning xatosi ($m_e$) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E = \frac{\sum (x_i - \bar{x})^4}{n\sigma^4}; \quad m_e = \sqrt{\frac{24}{n}}. \tag{11}$$

Simmetrik taqsimotda $A$=0. Noldan farqli bo'lsa ma'lumotlar taqsimotida asimmetriya mavjudligini ko'rsatadi. Salbiy asimmetriya ma'lumotlarning katta qiymatga egaligidan, ijobiy asimmetriya esa kichik qiymatli ma'lumotlar ko'p uchrashidan dalolat beradi.

Me'yoriy taqsimotda ekssess ko'rsatkichi $E$=0 bo'ladi. Agar $E$>0 bo'lsa, ma'lumotlar o'rtacha qiymati atrofida zich jamlangan, o'tkir uchli shakllangan bo'ladi. Agar $E$<0 bo'lsa, egri taqsimot yassi uchli shaklda bo'ladi. Biroq, $A/m_a$ va $E/m_e$ munosabat 3 dan kichik bo'lsa asimmetriya hamda ekssess unchalik ahamiyat kasb etmaydi va o'rganilayotgan ma'lumot me'yoriy taqsimot qonunlariga mos keladi.

Jadvalda $A/m_a$ va $E/m_e$ ning istalgan munosabatida 3 dan oshmaydi, demak, boshlang'ich ma'lumot bu qonunga bo'ysunadi.

***Omilli va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishni modellashtirish*** o'rganilayotgan bog'lanishni aniqroq aks ettiradigan mos tenglamani tanlashga e'tibor qaratadi.

Uni asoslash uchun ham mavjud bog'lanishni o'rnatuvchi usullar: analitik guruhlash, chiziqli grafiklar va h.k. qo'llaniladi.

Agar barcha omilli ko'rsatkichlar natijaviy bilan bog'lanishlar to'g'ri chiziqli xarakterda bo'lsa, bu bog'lanishni yozish uchun quyidagi chiziqli funksiyani qo'llash mumkin

$$Y_x = a + b_1 x_1 + b_2 x_2 + ... + b_n x_n; \qquad (12)$$

Natijaviy va omilli ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishning egri chiziqli shaklida darajali funksiya ham

$$Y_x = b_0 \cdot x_1^{b_1} \cdot x_2^{b_2} \cdot ... \cdot x_n^{b_n}; \qquad (13)$$

yoki logarifmik funksiya ham qo'llanilishi mumkin.

$$\lg Y_x = b_0 + b_1 \lg x_1 + b_2 \lg x_2 + ... + b_n \lg x_n; \qquad (14)$$

Keltirilgan modellarning yaxshi tomonlari shundaki, ularning ($b_i$) ko'rsatkichiga iqtisodiy tushuncha (izoh) berish mumkin. *Chiziqli modelda* $b_i$ koeffisientlar omilli ko'rsatkichlar birlikka o'zgarganda, absolyut ifodalashda darajali va logarifmik ko'rsatkichlar foizlarga o'zgarganda natijaviy ko'rsatkich necha birlikka o'zgarganligini ko'rsatadi.

Bog'lanish shaklini asoslash qiyin bo'lgan hollarda masalani echish uchun har xil modellarni qo'llash va natijalarni taqqoslab ko'rish mumkin. Haqiqiy bog'lanishlarda turli modellarning mosligini tekshirish uchun approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi va determinatsiyaning ko'p sonli koeffisientlari o'lchamini ko'rsatuvchi Fisher mezonidan foydalanamiz. Bu haqda keyinroq to'xtalamiz.

O'rganilayotgan omillar va rentabellik darajasi o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bizning misolda ko'rib o'tilgan barcha bog'lanishlar to'g'ri chiziqli xarakterga ega ekan. Shuning uchun ularni ifodalash uchun chiziqli funksiya qo'llanildi.

*Ko'p omilli korrilyatsion tahlil masalasini yechish SHEHM da «Statistika» paketida joylashgan namunli dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.* Avvalo boshlang'ich ma'lumotlar matritsasi (4.8-jadval) tuzib olinadi. Birinchi ustunda kuzatuvlar tartib raqami, ikkinchi ustunga natijaviy ko'rsatkichlar qiymati ($Y$), keyingisiga esa omilli ko'rsatkichlar qiymati ($xi$) yozib olinadi.

**4.8-jadval**

**Korrelyatsion tahlil uchun boshlang'ich ma'lumotlar**

| *T/r* | *Y* | $x_1$ | $x_2$ | $x_3$ | $x_4$ | $x_5$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 22,5 | 2,40 | 80,0 | 8,00 | 25,0 | 25,0 |
| 2 | 23,8 | 2,70 | 88,0 | 7,30 | 23,0 | 22,5 |
| 3 | 24,7 | 2,50 | 87,0 | 7,90 | 22,0 | 26,0 |
| ... | ... | ... | ... | ... | ... | ... |
| 40 | 32,4 | 320 | 94,4 | 9,90 | 18,0 | 36,5 |

Bu ma'lumotlar SHEHM ga kiritiladi. So'ngra ular asosida juft va xususiy korrelyatsiya koeffisientlari matritsasi, ko'p miqdorli regressiya tenglamasi, korrelyatsiya koeffisientlari ishonchliligi yordamida baholanuvchi ko'rsatkichlar hamda bog'lanish tenglamalari: Styudent mezoni ($t$), Fisher mezoni ($F$), approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi (?), korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffisientlari ($R$) va determinatsiyalar ($D$) hisoblanadi.

Korrelyatsiyaning juft va xususiy koeffisientlari matritsasini o'rganib, ko'rilayotgan holatlar bir-birlari bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. Juft korrelyatsiyalar koeffisienti umumiy holda, natijaviy ko'rsatkichlar darajasini aniqlovchi boshqa omillar ta'sirini hisobga olgan holda, ikki ko'rsatkich orasidagi bog'lanish chambarchasligini xarakterlaydi.

4.8-jadvaldagi ma'lumotlar (birinchi ustun) shundan darak beradiki, barcha omillar rentabellik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan. Asosan rentabellik material unumi, jamg'arma unumi, mahsulot sifati va mehnat unumdorligiga chambarchas bog'liqdir. Ushbu ko'rsatkichlar oshishi bilan rentabellik oshadi (to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish); mablag' aylanishining davomiyligi oshsa, rentabellik kamayadi (aylanma bog'lanish).

**4.9-jadval**

**Korrelyatsiyaning juft koeffisientlari matritsasi**

| *Ko'rsatkich* | *Y* | $x_1$ | $x_2$ | $x_3$ | $x_4$ | $x_5$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| *Y* | 1 | | | | | |
| $x_1$ | 0,75 | 1 | | | | |
| $x_2$ | 0,73 | 0,34 | 1 | | | |
| $x_3$ | 0,74 | 0,29 | 0,40 | 1 | | |
| $x_4$ | -0,51 | -0,33 | -0,46 | 0,45 | 1 | |
| $x_5$ | 0,72 | 0,40 | 0,22 | 0,36 | 0,37 | 1 |

Biroq shuni ta'kidlash joizki, korrelyatsiyaning juft koeffisientlari boshqa omillarning natijaga ta'siri holatida olingan. Ularning ta'siridan ajratib, natijaviy va omilli ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishni sof holdagi sonli xarakteristikasini olish uchun korrelyatsiyaning xususiy koeffisientlari hisoblanadi (4.10-jadval)

**4.10-jadval**

**Korrelyatsiyaning xususiy koeffisientlari matritsasi**

| *Ko'rsatkich* | *Y* | $x_1$ | $x_2$ | $x_3$ | $x_4$ | $x_5$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| *Y* | 1 | | | | | |
| $x_1$ | 0,59 | 1 | | | | |
| $x_2$ | 0,48 | -0,136 | 1 | | | |
| $x_3$ | 0,39 | 0,019 | 0,003 | 1 | | |
| $x_4$ | -0,36 | 0,090 | -0,14 | -0,14 | 1 | |
| $x_5$ | 0,31 | 0,098 | 0,16 | 0,48 | 0,082 | 1 |

Korrelyatsiyaning xususiy va juft koeffisientlarini taqqoslanganimizda boshqa omillarning rentabellik darajasi va o'rganilayotgan omillar orasidagi bog'lanishga ta'siri etarlicha ahamiyatli: korrelyatsiyaning xususiy koeffisientlari juft koeffisientlaridan ancha pastligini ko'rish mumkin. Bu korrelyatsion modelga kiruvchi omillar rentabellikka nafaqat bevosita, balki bilvosita ham ta'sir ko'rsatishidan darak beradi. Shuning uchun chalg'ituvchi omillar ta'siridan tozalagach, biroz chambarchas bog'lanish hosil bo'ldi. Agar teskar yo'nalishdan ta'sir etuvchi omillar ta'siridan ham tozalasak, juda chambarchas bog'lanish hosil bo'ldi.

Bu sabablar orqali nafaqat korrelyatsiya koeffisienti miqdori o'zgaradi, balki, bog'lanish yo'nalishi ham, umumiy ko'rinishda to'g'ri bo'lishi mumkin, aslida teskari tomonga o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin yoki aksincha. Buni quyidagicha tushunish mumkin: korrelyatsiyaning juft koeffisientlari hisoblanayotganda natijaviy va omilli ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishi o'rganilayotganda, ularning boshqa omillar bilan ham o'zaro aro ta'sirlari hisobga olinadi. Masalan, agar mehnat unumdorligining o'sish sur'ati unga to'lovni oshirish sur'atidan oshib ketsa, mehnatga haq to'lash darajasi oshganda rentabellik ham oshadi. Shuning uchun, umumiy holda rentabellik darajasi va mehnatga

haq to'lash darajasi o'rtasidagi bog'lanish to'g'ri bo'ladi. Agar mehnat unumdorligi va boshqa omillarni o'zgartirmagan holda mehnatga haq to'lash darajasini oshirsak, u holda rentabellik pasayadi, ya'ni korrelyatsiyaning xususiy koeffisienti minus belgisi bilan chiqadi.

Shunday qilib, korrelyatsiyaning xususiy va juft koeffisientlari yordamida o'rganilayotgan holatlarning bevosita va umumiy hollardagi bog'lanishlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Omillarning o'zaro ta'sirini xarakterlaydigan korrelyatsiya koeffisientlari ham muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlab o'tilganidek, korrelyatsion modelga bir-biridan mustaqil bo'lgan omillar tanlab olinadi. Agar ikkita omilli ko'rsatkichning korrelyatsiya koeffisienti 0,85 dan yuqori bo'lsa, ularning bittasini modeldan chiqarib tashlash kerak. Korrelyatsiya koeffisientlari matritsasini o'rganish natijasida ushbu modelga kiritilgan omillar bir-birlari bilan zich bog'lanmagan degan xulosaga kelish mumkin.

Bog'lanishni chambarchasligini o'rganishda *korrelyatsiya koeffisientlari tanlash hajmiga bog'liq holda tasodifiyligiga* e'tibor qaratish zarur. Ma'lumki, kuzatuvlar soni kamayishi bilan korrelyatsiya koeffisienti ishonchliligi tushib ketadi yoki kuzatuvlar soni ortishi bilan korrelyatsiya koeffisienti ishonchliligi oshadi.

Korrelyatsiya koeffisienti ahamiyati Styudent mezoni bo'yicha tekshiriladi

$$t = \frac{r}{\sigma_r} = \frac{0,59}{0,103} = 5,72 \qquad (15)$$

bu yerda, $\sigma_r$ – korrelyatsiya koeffisientining o'rta kvadratik xatoligi bo'lib, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\sigma_r = \frac{1-r^2}{\sqrt{n-1}} = \frac{1-0,59^2}{\sqrt{40-1}} = 0,103 \qquad (16)$$

Agar $t$ ning hisoblangan qiymati jadvaldagi qiymatdan katta bo'lsa, u holda korrelyatsiya koeffisienti kattaligi ma'noga ega degan xulosa chiqadi. $t$ ning jadvaldagi qiymati Styudent mezoni qiymati jadvalidan topiladi. Bunda erkinlik darajasi soni

$(V = n - 1)$ va ishonchli ehtimollik darajasi (iqtisodiy hisob-kitoblarda, odatda, 0,05 yoki 0,001) hisobga olinadi. Bizning misolda erkinlik darajasi soni $n - 1 = 40 - 1 = 39$ ga teng. Ishonchli ehtimollik darajasi esa $P = 0{,}05t = 2{,}02$ ga teng. Modomiki, $t$ haqiqiy barcha holda $t$ jadvaldan katta ekan, natijaviy va omilli ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish ishonchli, korrelyatsiya koeffisienti kattaligi esa ma'noga ega ekan (-jadval).

**4.11-jadval**

**Styudent mezonining haqiqiy qiymati**

| *O'zgaruvchi raqami* | $x_1$ | $x_2$ | $x_3$ | $x_4$ | $x_5$ |
|---|---|---|---|---|---|
| haqiqiy $t$ | 5,72 | 3,9 | 2,9 | 2,6 | 2,16 |

***Korrelyatsion tahlilning keyingi bosqichi – bog'lanish tenglamasini (regressiyani) hisoblash*** bo'lib, u qadamli usulda olib boriladi. Dastlab natijaviy ko'rsatkichga ko'proq ta'sir ko'rsatadigan bitta omil qabul qilinadi, so'ng ikkinchi, uchinchi va h.k. Har bir qadamda bog'lanish tenglamasining ishonchliligini baholashga yordam beradigan bog'lanish tenglamalari, korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffisientlari ($R$), determinatsiyalar ($D$), $F$-munosabat (Fisher mezoni), standart xau holda(?) va boshqalar hisolab boriladi. Har bir qadamda ularning qiymati oldingisi bilan solishtirib boriladi. Korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffisienti, determinatsiya va Fisher mezoni qanchalik katta va standart xau holdaqiymati qanchalik kichik bo'lsa, o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishni ifodalovchi bog'lanish tenglamasi shunchalik aniq bo'ladi. Agar keyingi qo'shilgan omil bog'lanish ko'rsatkichi bahosini yaxshilamasa, bu omilni tashlib yuboish kerak, ya'ni ko'rsatkich eng optimal bo'lgan bosqichda to'xtatilish kerak.

Har bir qadamda natijalarni solishtirish chog'ida (4.12-jadval), agar beshinchi qatorda to'laligicha ifodalansa, bu bog'lanishni besh omilli model deyish mumkin.

**4.12-jadval**

**Bog'lanish tenglamasini hisoblash natijalari**

| *T/r* | *Bog'lanish tenglmasi* | *R* | *D* | *F* | *?* |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | $Y_x = 5{,}81 + 7{,}68x_1$ | 0,59 | 0,35 | 50,3 | 1,895 |
| 2 | $Y_x = -1{,}11 + 5{,}12x_1 + 0{,}15x_2$ | 0,75 | 0,56 | 57,6 | 1,548 |
| 3 | $Y_x = -6{,}84 + 3{,}93x_1 + 0{,}11x_2 + 1{,}53x_3$ | 0,84 | 0,72 | 71,3 | 1,408 |
| 4 | $Y_x = -2{,}44 + 3{,}89x_1 + 0{,}10x_2 + 1{,}37x_3 - 0{,}12x_4$ | 0,88 | 0,77 | 88,8 | 1,398 |
| 5 | $Y_x = -0{,}49 + 3{,}65x_1 + 0{,}09x_2 + 1{,}02x_3 - 0{,}122x_4 + 0{,}052x_5$ | 0,95 | 0,85 | 95,6 | 1,358 |

Bu qadamda bog'lanish tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y_x = 0{,}49 + 3{,}65x_1 + 0{,}09x_2 + 1{,}02x_3 - 0{,}122x_4 + 0{,}052x_5$$

bu yerda $x_1$ – material unumi, so'm;

$x_2$ – jamg'arma unumi, tiyin;

$x_3$ – mehnat unumdorligi (bir ishchi to'g'ri kelidigan bir yillik ishlab chiqarish), ming so'm;

$x_4$ – korxona aylanma mablag'ining aylanish davomiyligi, kun;

$x_5$ – eng yuqori sifatli mahsulotning solishtirma salmog'i, %

Tenglama koeffisientlari har bir omilning natijaviy ko'rsatkichga sonli ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu holatda olingan tenglamaga quyidagicha izoh berish mumkin: material unumi 1 so'm.ga oshganda rentabellik 3,65%; jamg'arma unumi 1 kop.ga oshganda – 0,09%; bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ishlab chiqarish 1 ming so'm.ga oshganda – 1,02%; eng yuqori sifatli mahsulotning solishtirma og'irligi 1% ga oshganda – 0,052% ga oshadi. Mablag'ning aylanish davomiyligi 1 kunga oshsa, rentabellik o'rtacha 0,122% ga kamayadi.

Bog'lanish tenglamasidagi regressiya koeffisientlari turli o'lchov birligiga ega. Bu esa natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir kuchi qanchaligi haqidagi savol tug'ilganda, ularni solishtirilmaydigan qilib qo'yadi. Ularni solishtirish mumkin bo'lgan ko'rinishga olib kelish uchun regressiya tenglamasining barcha o'zgaruvchilari o'rta kvadratik og'ish ulushida ifodalanadi, boshqacha qilib

aytganda, regressiyaning standart koeffisientlariga mo'ljallanadi. Ular yana beta-koeffisientlar ham deb nomlanib, (?) ko'rinishida ifodalash qabul qilingan.

Beta-koeffisientlar va regressiya koeffisientlari quyidagi munosabat orqali bog'langan:

$$\beta = b_i \frac{\sigma_{x_i}}{\sigma_y} \qquad (17)$$

*Beta-koeffisientlar* agan omil kattaligi bitta o'rta kvadratik og'ishga oshsa, unga mos, bog'liq bo'lgan o'zgaruvchi o'zining o'rta kvadratik og'ish ulushiga oshishi yoki kamayishini ko'rsatadi. Beta-koeffisientlarni qiyoslash har bir omilning natijaviy ko'rsatkich kattaligiga ta'sir darajasini solishtirish to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bizning misolda rentabellik darajasiga material unumi, jamg'arma unumi va mehnat unumdorligi ko'proq ta'sir ko'rsatadi (4.13-jadval).

**4.13-jadval**

**Elastiklik koeffisienti va beta-koeffisientlar**

| *O'zgaruvchi raqami* | $x_1$ | $x_2$ | $x_3$ | $x_4$ | $x_5$ |
|---|---|---|---|---|---|
| Elastiklik koeffisienti | 0,374 | 0,308 | 0,318 | -0,080 | 0,061 |
| Beta- koeffisient | 0,359 | 0,275 | 0,213 | -0,118 | 0,133 |

O'xshashlik bo'yicha elastiklik koeffisienti ham qiyoslash mumkin. Uni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\acute{Y} = b_i \frac{\bar{x}_i}{\bar{y}}. \qquad (18)$$

Elastiklik koeffisienti argument 1% ga o'zgarganda funksiya o'rtacha necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

12-jadval ma'lumotlari bo'yicha rentabellik material unumi 1% ga oshganda 0,374% ga va jamg'arma unumi 1% ga oshganda 0,308% ga oshdi.

**G) Korrelyatsion tahlil natijalarini baholash metodikasi**

Bog'lanish tenglamasining ishonchliligi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligiga ishonch hosil qilish uchun bog'lanish ko'rsatkichlarining ishonchliligiga statistik baho berish kerak. Buning uchun Fisher mezoni (*F*-munosabat), Darbin-Uotson mezoni (*DW*), approksimatsiyaning o'rtacha xatoligi (*?*), korrelyatsiyaning ko'p miqdorli koeffisientlari (*R*) va determinatsiyalar (*D*) qo'llaniladi.

***Fisher mezoni*** (*F*-munosabat) quyidagicha hisoblanadi:

$$F = \frac{\sigma^2_{вocnp}}{\sigma^2_{ocm}}, \text{ bu yerda } \sigma^2_{вocnp} = \frac{\sum\left(Y_{x_i} - \bar{Y}_x\right)^2}{m-1};$$

$$\sigma^2_{ocm} = \frac{\sum\left(Y_{i_i} - Y_{x_i}\right)^2}{n-m} \qquad (19)$$

bu yerda, $Y_{x_i}$ – tenglama bo'yicha hisoblangan natijaviy ko'rsatkichning yakka tartibdagi qiymati;

$\bar{Y}_x$ – tenglama bo'yicha hisoblangan natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha qiymati;

$Y_i$ – natijaviy ko'rsatkichning haqiqiy yakka tartibdagi qiymati;

$m$ – tenglamaning erkin qismlarini hisobga olgan holda bog'lanish tenglamasining parametrlari soni;

$n$ – kuzatuvlar soni (tanlov hajmi).

*F*-munosabatning haqiqiy kattaligi jadvaldigilari bilan solishtirilib, bog'lanishning mustahkamligi haqida xulosalar qilinadi. Bizning misolda *F*-munosabat beshinchi qadamda 95,67 ga teng. *F* javdal *F* ning jadvaldagi qiymatli bo'yicha hisoblangan. Ehtimollik darajasi $P = 0{,}05$ va erkinlik darajalarsi soni $(m - 1) = 6 - 1 = 5$, $(n - m) = (40 - 6) = 34$ bo'yicha u 2,49 ni tashkil qiladi. Modomiki, $F_{his} > F_{jad}$ ekan, rentabellik va o'rganilayotgan omillar orasida bog'lanish mavjud emas degan faraz rad qilindi.

Korrelyatsion tahlil natijalari borasida metodik aniqlikni oshirish maqsadida regression model ***Darbin-Uotson (DW) mezoni*** bo'yicha ham baholanishi kerak. Bu o'rganilayotgan omillar

o‘rtasida avtokorrelyatsiyalar mavjudligini topishda ishlatiladi. Maxsus jadvallar bo‘yicha kuzatuvlar soni, omillar soni va olingan natijalarni ularning darajalari hisobidan kelib chiqib, minimal va maksimal ruxsat etilgan chegaralari aniqlanadi.

Agar mazkur mezoning hisoblangan darajalari $d_u < DW < 4 - d_u$ chegarada bo‘lsa, u holda regression modelda o‘rganilayotgar omillar o‘rtasida avtokorrelyatsiya mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin. Avtokorrelyatsyalar mavjud bo‘lsa, olingan bog‘lanish tenglamasi qoniqarsiz deb hisoblanadi.

Bizning misolda $DW = 1{,}96$, keskin (kritik) nuqtalar $d_1$, $d_2$ lar esa kuzatuvlar soni $n = 40$, bog‘lanish tenglamasidagi o‘zgaruvchilar soni $m = 5$ va berilgan ahamiyatga ega daraja $a = 0{,}05$ da mos ravishda 1,23 va 1,786 ga teng.

Modomiki, $DW$ o‘zining mumkin bo‘lgan boshlang‘ich va oxirgi chegaralari orasida joylashgan ekan ($1{,}786 < 1{,}96 < 2{,}214$), bu avtokorrelyatsiya yo‘qligidan dalolat beradi. Demak bu tasdiqlangan eng yuqori sifatli model hisoblanadi.

***Bog‘lanish tenglamasining aniqligiga statistik baho berish uchun approksimatsiyaning o‘rtacha xatoligi (?)*** qo‘llaniladi:

$$\bar{\varepsilon} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\left(\frac{Y_{x_i} - \bar{Y}}{Y_i}\right)^2. \qquad (20)$$

Regressiyaning nazariy chizig‘i (tenglamadan hisoblangan) haqiqiysidan (empirik) kamroq og‘sa approksimatsiyaning o‘rtacha xatoligi shunchalik kam bo‘ladi. Bu esa bog‘lanish tenglamasining shakli to‘g‘riligidan dalolat beradi. Bizning misolda u 0,0364 yoki 3,64% ga teng. Iqtisodiy hisob-kitoblarda 5-8% gacha xatolikka yo‘l qo‘yilishi mumkinligini hisobga olsak, ushbu tenglama o‘rganilayotgan bog‘lanishni yetarlicha aniq ifodalaydi degan xulosaga kelish mumkin. Bunday katta bo‘lmagan xatolik bilan ushbu tenglama bo‘yicha rentabellik darajasini oldindan taxmin qilish mumkin.

***Korrelyatsiyaning ko‘p miqdorli koeffisientlari va determinatsiyalar*** kattaligi orqali bog‘lanish tenglamasini to‘laroq muhokama qilish mumkin. Bizning misolda, oxirgi qadamda $R = 0{,}92$ va $D = 0{,}85$ ga teng. Demak, rentabellik variatsiyasi

o‘rganilayotgan omillar o‘zgarishiga 85%, hisobga olinmagan omillar o‘zgarishiga esa 15% bog‘liq ekan. Demak, ushbu tenglamani amaliy maqsadda qo‘llash mumkin.

**D) Korrelyatsion tahlil natijalarini amaliyotda qo‘llash metodikasi**

Barcha parametrlar bo‘yicha tekshirilgan regressiya tenglamasinidan quyidagicha foydalanish mumkin:

- xo‘jalik faoliyati natijalarini baholash uchun;
- omillarni natijaviy ko‘rsatkichlarni oshishiga ta’sirini hisoblashda;
- o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar darajasini oshirishda zaxiralarni hisoblashda;
- uning miqdorini rejalash va taxmin qilishda.

Bor imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ***korxonaning xo‘jalik faoliyati natijalarini baholashda*** natijaviy ko‘rsatkichning haqiqiy qiymatlari ko‘p miqdorli regressiya tenglamasi asosida aniqlangan nazariy (hisoblangan) ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bizning misolda (13-jadvalga qarang) №1 korxonada material unumi ($x_1$) – 2,4 so‘mni, jamg‘arma unumi ($x_2$) – 80 tiyinni, mehnat unumdorligi ($x_3$) – 8 ming so‘m.ni, aylanma mablag‘larning aylanish davomiyligi ($x_4$) – 25 kun, eng yuqori sifatli mahsulotning solishtirma og‘irligi ($x_5$) – 25% ni tashkil qiladi. Bundan ushbu korxona uchun rentabellikning hisoblash darajasi quyidagicha

$$Y_x = 0{,}49 + 3{,}65 \cdot 2{,}4 + 0{,}09 \cdot 80 + 1{,}02 \cdot 8 - 0{,}122 \cdot 25 + 0{,}052 \cdot 25 = 22{,}86\%$$

U 0,36% ga oshib ketyapti. Korxona o‘z imknoyatlaridan juda yomon foydanmoqda degan xulosaga kelish mumkin.

***Har bir omilning natijaviy ko‘rsatkich o‘sishiga (rejadan chetga chiqish) ta’siri*** quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Y_{x_i} = b_i \cdot \Delta x_i \qquad (21)$$

bu yerda $b_i$ – bog‘lanish tenglamasida regressiya koeffisienti;

$\Delta x_i$ – omilli ko‘rsatkichning hisobot davridagi o‘zgarishi.

Demak, har bir omil ko‘rsatkichlari bo‘yicha reja oxirigacha bajarilmagan (4.14-jadval), rentabellik darajasi rejadagiga 2,09% ga etmadi.

**4.14-jadval**

**Omillarning rentabellik darajasi o'sishiga ta'siri hisobi**

| *Omilli ko'rsatkich* | *Hisobot davridagi ko'rsatkichlar darajasi* | | $\Delta x_i$ | $b_i$ | $\Delta Y_{x_i}$ |
|---|---|---|---|---|---|
| | *reja* | *haqiqiy* | | | |
| $x_1$ | 2,5 | 2,4 | -0,1 | 3,65 | -0,365 |
| $x_2$ | 90 | 80 | -10 | 0,09 | -0,900 |
| $x_3$ | 8,2 | 8,0 | -0,2 | 1,02 | -0,204 |
| $x_4$ | 22,0 | 25,0 | +3,0 | -0,122 | -0,260 |
| $x_5$ | 30 | 25 | -5,0 | +0,052 | -0,260 |
| $Y$ | 25,0 | 22,5 | -2,5 | - | -2,095 |

### 4.5. Chiziqli dasturlash usuli va uning tahlilda qo'llanilishi

Chiziqli dasturlash usuli iqtisodiyotda ko'p uchraydigan ekstremal masalalarni hal qilishda ko'p qo'llaniladi. Ushbu turdagi masalalarni yechimi funksiyalardagi o'zgaruvchan miqdorlarni chetki qiymatlarini (maksimum va minimum) topishga qaratilgandir.

Chiziqli dasturlash qat'iy funksional bog'liqlikda bo'lgan voqeliklarni o'rganib, chiziqli tenglamalar tizimini (tenglama va tengsizliklarni qayta shakllantirib) yechishga asoslangan. O'zgaruvchan miqdorlarning matematik ifodasi, ularning aniq tartibi, hisob-kitoblarning ketma-ketligi, mantiqiy tahlillar chiziqli dasturlashga xos jihatlardir. Ushbu usulni faqat quyidagi holatlarda qo'llash mumkin:

A) o'rganilayotgan o'zgaruvchan miqdorlar matematik aniqlik va miqdoran cheklangan bo'lsa;

B) omillarni o'zaro almashtirish asosida aniq ketma-ket hisob-kitoblar amalga oshirilsa;

V) o'rganilayotgan obyektning tushunishdagi mantiqiy asoslash bilan hisob-kitoblardagi mantiq, matematik mantiq o'zaro mos kelsa.

Chiziqli dasturlash qo'llanib hal etiladigan barcha iqtisodiy masalalar aniq cheklangan sharoitlarda muqobil yechim topishi bilan farq qiladi. Demak, mazkur usulda masalani hal qilish -

mavjud muqobil imkoniyatlar orasida eng maqbul hamda yaxshisini tanlab olishdir. Iqtisodiyotda chiziqli dasturlashdan foydalanishning qimmati va ahamiyati shu bilan izohlanadiki - mavjud ko'p miqdordagi ahamiyatli muqobil variantlar ichida eng maqbul variant tanlanadi. Boshqa usullar yordamida mazkur turdagi masalalarni hal qilishning imkoni mavjud emas.

Ushbu usul yordamida sanoat korxonalarida stanoklarning eng maqbul unumdorligi, qishloq xo'jaligida minimal miqdor va qiymatdagi ozuqa ratsioni, transport masalalari hal etiladi.

## 4.6. Nazariy o'yin usuli va tahlilda foydalanishning o'ziga xos tomonlari

Nazariy o'yin usuli o'rganilayotgan voqelik tafsifiga ko'ra undagi mavjud vaziyatlar ichida eng maqbul strategiyani topishni tadqiq qiladi. Bunda korxona uchun eng qulay va maqbul vaziyat strategiya qilib boshqaruv qarorlari asosida belgilab olinadi. Mazkur holatni matematik ko'rinishga keltirishda har bir vaziyatni alohida o'yin ishtirokchisi deb belgilab olinadi. Har bir ishtirokchi esa o'zining manfaatini maksimallashtirishni boshqa ishtirokchilar hisobidan amalga oshirishga harakat qiladi.

Nazariy o'yin usulida masala aniq formulalashtirishni talab qiladi. Bunda o'yin qoidasi va ishtirokchilar soni belgilanadi, ishtirokchilar imkoniyatidagi strategiyalar aniqlanadi, yutuqlar va yutqazishlar o'rganiladi.

Masalalarni hal qilishda algebraning chiziqli tenglamalar va tengsizliklar tizimi usullari va boshqa shu kabilardan foydalaniladi.

Nazariy o'yin usulining mazmunini quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

Korxona mavsumiy ishlab chiqarish sikliga ega bo'lib bolalar kiyimi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Qishki mavsum uchun kurtka va palto ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Biroq, mahsulotlarni qaysi birini qancha ishlab chiqarish qish mavsumidagi ob-havoga bog'liq. Agar, qish mavsumida o'ta sovuq bo'lishi kutilayotgan bo'lsa palto mahsuloti ko'p ishlab chiqariladi. Basharti, qish mavsumi iliqroq kelsa kurtka mahsulotiga talab ko'p bo'ladi.

Yana, bu yerda shu holatlar kuzatiladiki qishning o'ta sovuq bo'lishi rejalashtirilgan bir paytda mavsum iliq kelishi mumkin, yoki aksincha. Bu esa, korxona ishlab chiqargan mahsulotlarini qaysi bir turini sotilmay qolishiga sabab bo'ladi. Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan vaziyatlarda korxonaning mahsulot sotishdan tushum, pirovardda esa foydasi (zarari) turlicha bo'ladi. Maksimal tushumga, uning natijasida foydaga erishish (yoki zarar ko'rish) korxona uchun eng ma'qul variant hisoblanmaydi. Chunki, qaysidir bir vaziyat ushbu maqsadni yo'qqa chiqarishi mumkin.

Shuning uchun, bu holatda tushum hamda foyda olishning o'rtacha miqdorini belgilab olish eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Chunki ob-havo qanday bo'lishidan qat'i nazar mahsulotlar miqdorini maqbul holatda rejalashtirish qo'yilgan masadga erishishdagi eng to'g'ri yo'ldir. Ushbu usulni quyidagi misol yordamida o'rganib chiqamiz.

Bolalar ustki kiyimi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik korxona oktabr va noyabr oylarida bir dona kurtka ishlab chiqarish uchun 30,0 ming so'm xarajat qiladi, bir dona palto ishlab chiqarish uchun esa -40,0 ming so'm xarajat qiladi. Sotish bahosi kurtka uchun - 35,0 ming so'm bo'lsa, palto uchun – 50,0 ming so'm.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki korxona havo iliq kelsa 270 dona kurtka, 170 dona palto sotar ekan. Sovuq havoda esa 200 dona kurtka mahsuloti, 250 dona palto mahsulotini sotish imkoniyati mavjud.

Ob-havoni qanday bo'lishi avvaldan bashorat qilish qiyinligini e'tiborga olib, ya'ni tabiat injiqligini hisobga olgan holda korxonaga tushadigan tushumni barqarorlashtirish talab etilsa, quyidagicha hisob- kitob ishlari amalga oshiriladi.

1. Mavsum iliq kelsa korxona tushumi quyidagicha bo'ladi:

$$270 * 35 + 170 * 50 = 19500{,}0 \text{ ming so'm;}$$

2. Mavsum sovuq kelsa korxona tushumi quyidagicha bo'ladi:

$$200 * 35 + 600 * 50 = 17950{,}0 \text{ ming so'm.}$$

Bu yerda korxonaning iliq havo uchun mo'ljallagan strategiyasini **A** hamda sovuq havo uchun esa **V**, tabiatning iliq havosi uchun **S**, sovuq havosi uchun **D** kabi belgilashlarini kiritamiz

Korxona uchun A va V strategiyalardan tashqari, tabiatning injiqligi ham mavjud. Bu holat ham erishiladigan tushum, natijada esa foydaga (zarar) o'z ta'sirini ko'rsatadi. Misol uchun, korxona A strategiyani qo'lladi, lekin havo sovuq (**D**) keldi. Bunda korxonaning tushumi:

***200 * 35 + 170 *50 – 80 * 40 = 12300 ming so'm.***

Agar korxona **V** strategiyani ko'llagan holda **S** iliq havo bo'lsa, u holda:

***200 * 35 - 70 * 30 + 170 *50 = 1300 ming so'mni*** tashkil etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib esa, quyidagi matritsa jadvalini tuzamiz. Bunda korxona $R_1$- komanda, tabiatni esa $R_2$ shartli belgi bilan belgilab olamiz.

| Ishtirokchilar | $R_2$ (Tabiat) | | | |
|---|---|---|---|---|
| $R_1$ (Korxona) | Strategiya | S | D | Min |
| | A | 19500 | 12300 | 12300 |
| | B | 13400 | 17950 | 13400 |
| | Max | 19500 | 17950 | |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning strategiyasi tabiat strategiyasi bilan bir xil bo'lsa 19500 yoki 17950 ming so'm foydaga erishishi mumkin. Aks holda mazkur ko'rsatkich 12300 yoki 13400 ming so'm holatida qoladi. Bu yerda $\mathbf{R_1}$ va $\mathbf{R_2}$ o'yinchilarni strategiyasi o'zaro muvofiq kelmaydi deb qaraladi. Demak, korxona eng kam foydaga erishadi deb olinadi. Ya'ni, o'yinda korxona yutqizadi.

Shu sababli, korxona bu ikki mahsulot turidan o'rtacha foydaga erishish yo'lini ishlab chiqadi.

Buning uchun

$R_1$ o'yinchining A strategiyasida chastotani noma'lum X bilan belgilaymiz. Mazkur holatda V strategiyadagi chastota esa (1-X) miqdorga teng bo'ladi.

Endigi navbatda quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshiramiz:

19500X+12300(1-X)=13400X + 17950(1-X)

117500X=56500

X=0,48 (1-0,48)=0,52

19500*0,48 + 12300*0,52=15756

13400*0,48 + 17950*0,52=15766

(200 + 250)*0,48 +(270+170)*0,52 = 236 kurtka + 208 palto

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

- iqtisodiy-matematik usullar;
- omilli tahlil;
- stoxastik tahlil;
- teskari omilli tahlil;
- determinallashgan modellar;
- integral usuli;
- logarifmlash usuli;
- korrelyatsion va regrassion tahlil;
- ko'p miqdorli korrelyatsion tahlil;
- nazariy o'yin usuli;
- chiziqli programmalashtirish usuli;
- iqtisodiy tashxis qo'yish usuli;
- indeks usuli;
- matematik model tiplari;
- kasrli model.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Tahlil jarayonida iqtisodiy-matematik usullarni qo'llashning zaruriyati va afzalliklari nimalardan iborat?
2. Omilli tahlil qanday tiplarga ajratiladi?
3. Tahlilning qaysi usullari iqtisodiy-matematik usullari tarkibiga kiradi?
4. Integral usulini tahlil jarayonida qo'llanilishini so'zlab bering.
5. Stoxastik modellarga izox bering.
6. Ko'p miqdorli korrelyatsion tahlil metodikasi qanday tashkil topadi?
7. Nazariy o'yin usulining tahlilda qo'llanilishiga baho bering?
8. Tahlil jarayonida iqtisodiy-matematik usullardan kengroq foydalanish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?

## Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

### 1-topshiriq

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan korellyatsion va regression usullarga izoh bering.

| Iqtisodiy tahlilda korelyatsion va regression usullarni qo‘llash zaruratini izohlang | Iqtisodiy tahlilda korelyatsion va regression usullarga qo‘yiladigan talablar |
|---|---|
| | A)<br>B)<br>) |

### 2-topshiriq

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan nazariy o‘yin usuli va uning mohiyatini ochib bering.

| Iqtisodiy tahlilda nazariy o‘yin usulini qo‘llash zaruratini izohlang | Iqtisodiy tahlilda nazariy o‘yin usuliga qo‘yiladigan talablar |
|---|---|
| | A)<br>B) |

### 3-topshiriq

Quyidagi jadval ma’lumotlari asosida mahsulot hajmiga mehnat omillari ta’sirini integral usuli yordamida aniqlang, tahlil qiling hamda xulosa yozing.

| № | Ko‘rsatkichlar | O‘tgan yil | Hisobot yili | Farqi(+;-) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni, kishi | 160 | 165 | |
| 2 | Xar bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi, ming so‘m | 5430 | 5380 | |
| 3 | Ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m | | | |

## Test savollari:

**1. Omilli tahlil bu ...**

A. Natijaviy ko'rsatkich qiymatiga omillar ta'sirini kompleks va tizimiy aniqlash va o'lchash uslubi;

V. Kompleks aniqlash uslubi;

S. Tizimili aniqlash uslubi;

D. Funksional aniqlash uslubi.

**2. Omilli tahlil quyidagi tiplarga ajratiladi:**

A. To'g'ri (deduktiv) va teskari (induktiv) tahlili;

V. Bir va ko'p (zanjirli) bosqichli;

S. Statik va dinamik;

D. Hammasi to'g'ri.

**3. Deterministik omilli tahlil bu ...**

A. Natijaga qat'iy to'liq funksional bog'lanishda bo'lgan omillar ta'sirini tadqiq qilish uslubidir;

V. Natijaga qat'iy to'liq bog'lanishda bo'lmagan va bog'lanishi ehtimollik, tasodifiylik harakatda bo'lgan omillar ta'sirini o'rganish uslubidir;

S. Tadqiqot mantiqiy induksiya usuli bilan amalga oshiriladigan, ya'ni alohida birliklardan, elementlardan, xususiydan-umumiyga chiqib borishdir;

D. Omillar va natijaviy ko'rsatkichlarni kelgusida o'zgarishidir.

4. **Stoxastik tahlil deb ...**

A. Natijaga qat'iy to'liq bog'lanishda bo'lmagan va bog'lanishi ehtimollik, tasodifiylik harakatda bo'lgan omillar ta'sirini o'rganish uslubiga aytiladi;

V. Natijaga qat'iy to'liq funksional bog'lanishda bo'lgan omillar ta'sirini tadqiq qilish uslubiga aytiladi;

S. Tadqiqot mantiqiy induksiya usuli bilan amalga oshiriladigan, ya'ni alohida birliklardan, elementlardan, xususiydan-umumiyga chiqib borishi tushuniladi;

D. Omillar va natijaviy ko'rsatkichlarni kelgusida o'zgarishiga aytiladi.

**5. Teskari omilli tahlil deb ...**

A. Tadqiqot mantiqiy induksiya usuli bilan amalga oshiriladigan, ya'ni alohida birliklardan, elementlardan, xususiydan-umumiyga chiqib borishi tushuniladi;

V. Natijaga qat'iy to'liq bog'lanishda bo'lmagan va bog'lanishi ehtimollik, tasodifiylik harakatda bo'lgan omillar ta'sirini o'rganish uslubidir;

S. Natijaga qat'iy to'liq funksional bog'lanishda bo'lgan omillar ta'sirini tadqiq qilish uslubiga aytiladi;

D. Omillar va natijaviy ko'rsatkichlarni kelgusida o'zgarishi tushuniladi.

**6. Iqtisodiy matematik usullar maqsadiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:**

A. Integral, logorifm, korrolyatsion, regresson, matematik dasturlash;

V. Taqqoslash, logorifm, korrolyatsion, regression;

S. Integral, logorifm, zanjirli bog'lanish;

D. Korrolyatsion, regression, matematik dasturlash, guruhlashtirish.

**7. Integral usul bu ...**

A. Multiplikativ, karrali va karraliadditiv ko'rinishli aralash modellarda omillar ta'sirini baholashdir;

V. Tadqiq etilayotgan voqeani bevosita o'rganishdir;

S. Yakuniy ifodaga ta'sir etuvchi bir omilning ikkinchi omilni tug'diruvchi va ularning alohida tarkiblanishidir;

D. Multiplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblashdir.

**8. Logarifmlash usuli bu ...**

A. Multiplikativ, karrali va karraliadditiv ko'rinishli aralash modellarda omillar ta'sirini baholashga aytiladi;

V. Tadqiq etilayotgan voqeani bevosita o'rganishdir;

S. Yakuniy ifodaga ta'sir etuvchi bir omilning ikkinchi omilni tug'diruvchi va ularning alohida tarkiblanishidir;

D. Multiplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblashdir.

**9. Qaysi javobda iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matematik (omilli tahlil) usullari tarkibiga kiruvchi usul to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?**

A. Mutloq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli;

V. Balansli bog'lanish usuli;

S. Iqtisodiy tashxis qo'yish usuli;

D. Guruhlashtirish usuli.

**10. Integral usulida natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri qanday aniqlanadi?**

A. $\Delta Ux_1=X_2^0*\Delta X_1+(1/2(\Delta X_1*\Delta X_2))$

V. $\Delta Ux_1=X_2*\Delta X_1+(1/2(\Delta X_1*\Delta X_2))$

S. $\Delta Ux_1=X_2^0*\Delta X_1+(1/2(\Delta X_1+\Delta X_2))$

D. $\Delta Ux_1=X_2^1*\Delta X_1+(1/2(\Delta X_1*\Delta X_2))$

**11. Dispersiya qaysi usulda qo'llaniladi?**

A. Integral usulda;

V. Korrelyatsion va regratsion usulda;

S. Nazariy o'yin usulida;

D. To'g'ri javob yo'q.

**12. Iqtisodiy matematik usullarni qo'llash qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?**

A. Masala shartini belgilash; o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi sharoitlarni, omillarni aniqlash;

V. Matematik hisoblash metodikasini belgilash; insperilint modelini belgilash;

S. Hisoblangan ko'rsatkichlar va natijalarni tahlil qilish; o'rganilayotgan iqtisodiy hodisalarni ko'pgina yechimlarini topish;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

**13. Turli xil sharoitlarda korxona yoki firma uchun qanday yo'l topish yoki kelgusidagi taktika va strategiyasini belgilash yo'nalishlarini topish uchun qo'llaniladigan usul - bu ...**

A. Nazariy o'yin usuli;

V. Chiziqli programmalashtirish;

S. Korrelyatsion va regression tahlil;

D. Integral usul.

# V bob. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI VA AXBOROT MANBALARI

## 5.1. Iqtisodiy tahlil va uni turlarga ajratish

Jahonda 2008 yildan so'ng ro'y bergan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozni ilmiy tadqiq qilish asosida uning boshlanishiga sabab bo'lgan voqeliklar birma-bir topilib, ularning shakli hamda mazmuni aniqlanib salbiy hodisaga ko'rsatgan ta'sirlari o'rganilmoqda.

Agar moliyaviy iqtisodiy inqirozni keltirib chiqargan sabablarga e'tibor qilsak ularni shartli ikki yirik guruhga bo'lish mumkin. Ya'ni, makroiqtisodiy hamda mikroiqtisodiy darajadagi sabablar. Bular to'g'risida ommaviy, ilmiy matbuotlarda ko'p yozilmoqda.

Mikroiqtisodiy darajadagi sabablarga ko'plab xo'jalik subyektlari tomonidan biznes rejalarni ilmiy asosda tuzilmaganligi, moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarini iqtisodiy assosiz oshirib ko'rsatilishi, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan aksiyalarning qiymati uning haqiqatdagi aktivlariga muvofiq kelmasligi, mazkur holatlarga auditorlik firmalarini jiddiy munosabatlari bildirilmagani, hamkorlar salohiyatini yetarlicha o'rganmay ular bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Bunday voqeliklarni ommaviy tarzda sodir bo'la boshlagani iqtisodiy subyektlardagi xo'jalik mexanizmida shu bilan birga uning muhim elementi bo'lgan hisob tizimida ham bir qator jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatib berdi. Ayniqsa, bu kamchiliklar xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Agarda, xo'jalik subyektlari har bir iqtisodiy voqelikni ilmiy asosda chuqur tahlil qilib boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilganlarida edi, jahon miqiyosida inqiroz tufayli o'z faoliyatini to'xtatgan, bankrot bo'lgan korxonalar soni bu darajada ko'p bo'lmas edi.

Chunki, xo'jalik subyekti faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish uning har tomonlama bilish, resurslarni samarali boshqarish, investitsiyalar jalb qilish, boshqa korxonalar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatish hamda turli maqsadlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Jahonda ro'y bergan inqirozga qaramasdan respublikamiz hisob tizimida, xususanda xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy tahlil

qilish borasida va uni rivojlantirishda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi hamda bu jarayon hozirda ham davom ettirilmoqda. Mazkur ijobiy ishlar, ko'plab turdagi shu kabi tadbirlar bilan birgalikda respublikamiz iqtisodiga, jumladan xo'jalik subyektlari faoliyatiga global inqirozning salbiy ta'sirlarini yumshatish va uni talofatlarsiz yengib o'tishga qaratilgan omillar bo'lib hisoblandi. Hatto, jahonda inqirozning davom etishiga qaramasdan 2008–2011-yillar bo'yicha respublikamizda yalpi ichki mahsulotning o'sishi o'rtacha 8 foizdan yuqori bo'lishiga erishildi.

Xalqaro xo'jalik tizimidagi jiddiy o'zgarishlar, respublikamizda esa iqtisodiy islohotlar ko'lamini, ham kengayib, ham chuqurlashib borishi, shuningdek, inqirozning milliy iqtisodiyotlarga ko'rsatayotgan ta'sirlari xo'jalik subyektlari faoliyatini yanada obyektiv iqtisodiy tahlil qilish zarurligini talab qilmoqda. Bu esa, iqtisodiy tahlil borasidagi ishlarni davr ehtiyojlari asosida takomillashtirish vazifasini yuzaga chiqarmoqda. Aynan shu paytni o'zida raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirishga erishish mazkur masalani dolzarbligi va uning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish innavatsion yangiliklar va uni zudlik bilan amalda qo'llash asosida bo'ladi. Natijada mavjud bo'lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona hamda samarali foydalanilib, turli hildagi yangi, arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqishga erishiladi. Mahsulotlar diversifikatsiyasi tufayli bozordagi turli xil ehtiyojlarni qondirishga harakat qilinadi. Shu asosda, maqbul foyda hajmiga erishish, moliyaviy holatni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish kabi ijobiy natijalar qo'lga kiritiladi hamda korxonalarning raqobatdoshligi ta'minlanadi. Qayd etib o'tilgan masadga erishish hamda vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishida xo'jalik mexanizimini bo'g'ini bo'lgan iqtisodiy tahlil muhim vosita bo'lib ishtirok etadi.

Iqtisodiy tahlil iqtisodiy axborot hamda ma'lumotlarini o'rganib, ularni qayta ishlab korxona faoliyatini ilmiy asosda yo'lga solib turadi. Biroq, iqtisodiy munosabatlarda korxona murakkab tuzilish va faoliyatga ega bo'lgan obyekt bo'lganligi uchun, u tahlil vositasida kompleks, tizimli, joriy, tezkor, istiqbolli, mavzuga qaratilgan va shu kabi jihatlar asosida o'rganiladi. Chunki, har bir yondashuvning obyektni alohida hamda birgalikda o'rganishda o'ziga xos ijobiy tomonlari mavjud. Tahlil uchun tanlab olingan muayyan yondashuv

belgilangan maqsad va vazifalariga ko'ra obyektning aniq, ishonchli, keng ko'lamda hamda ilmiy asosda tadqiq etib, zarur xulosalarni beradi. Turli yodashuvlar esa o'zaro biror-bir tahlil turi bajargan ishlarni, aynan qaytarib bera olmaydi yoki bu borada jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Demak, korxonalar faoliyatini to'liq va samarali o'rganish uchun iqtisodiy tahlilning turlarga ajratish hamda har bir tahlil turini to'liq o'rganish zarur ekan. Bu bilan iqtisodiy tahlilning analitiklik tavsifi yanada oshadi hamda boshqaruv maqsadlari uchun etarli ma'lumotlarni etkazib bera oladi. Iqtisodiy tahlilning turlarga ajratish zaruratining zamirida boshqaruv funksiyalari va ularning murakkabligi yotadi.

Iqtisodiy tahlil mazmun va mohiyati jihatidan turli shakllarga, xillarga ega. Ammo ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda ular farqlanmasdan ishlatiladi. Vaholanki, ular mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Iqtisodiy tahlilning turi, deganda ma'lum belgilari, xossalari, vazifasi va shu kabilar bilan umumiy bo'lgan guruhlar yoki bir butunlikni tashkil etgan yaxlit xillari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning shakli deganda uning o'ziga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi, ya'ni uni amalga oshirish yo'llari, usullari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning turi va shakli mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin, chunki ularning ikkalasi ham tahlil qiluvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ammo ularning bir-biridan ma'lum belgilari, shakli, va mazmuni bo'yicha farqi bor. Tahlilning turi necha xil bo'lishidan qat'iy nazar, ularda bir-biriga juda yaqin va o'xshash usullardan foydalaniladi. Tahlilning shaklida esa har birida o'ziga xos usullar majmuasi qo'llanilishi mumkin.

Iqtisodiy tahlilning turi uning belgilari bo'yicha guruhlanadi. Bu tahlilga qaysi nuqtai nazardan qarashga bog'liq.

Masalan, iqtisodiy tahlil mazmun jihatidan qaralsa u global, lokal va tematik tahlilga bo'linadi. Bularning hammasida bir xil usullardan foydalanish mumkin. Ammo iqtisodiy tahlilning shaklini ko'radigan bo'lsak, uni makon va zamon nuqtai nazaridan qarab, unda qo'llaniladigan o'ziga xos usullarning majmuasidan kelib chiqiladi. Maslan, kompleks tahlilda qo'llaniladigan kompleks baholash usullari funksional qiymat tahlilida (FQT)

qo'llanilmaydi. FQTda qo'llaniladigan usullar omilli tahlilda qo'llanilmasligi mumkin va hokazo.

Iqtisodiy tahlil turli belgilari bo'yicha tasniflanadi. Bu masala turli darslik va adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Ko'p adabiyotlarda 2-3 ta, ba'zilarida 6-7 ta, ba'zilarida 8 ta belgi bo'yicha tasniflanadi.

Tadqiqotlar natijasida iqtisodiy tahlilning turlarini tasniflashda quyidagi belgilardan foydalanish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelinadi.




*5.1-chizma. Iqtisodiy tahlil turlarini tasniflashdaqo'llaniladigan belgilar*

Bularga: mazmuni bo'yicha tasniflash makon nuqtai nazaridan qarash; tahlil qiluvchilar (subyekti) bo'yicha; tarmoq tamoyili bo'yicha; zamon nuqtai nazaridan tasniflash; ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha; kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha; kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash kabi belgilari kiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy tahlil turlari uning shakllaridan farq qiladi. Iqtisodiy tahlilning shakillari bir-biridan ma'lum darajada o'ziga xos bo'lgan usullari, ketma-ketligi, maqsadi va vazifalari bilan ham farq qiladi. Masalan, kompleks tahlilda xo'jalik faoliyati makon va zamon nuqtai nazaridan batafsil tahlil qilinadi. Unda asosiy usullar tariqasida kompleks baholash usullari qo'llaniladi. Ushbu tahlil ma'lum darajada omilli tahlildan farq qiladi.

Omilli tahlilda xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning natijasini aniqlash usullari o'rganiladi. Bu juda ko'p tahlilda omilli tahlil usullari asosiy bo'lmasdan, balki xulosani chuqurlashtirish uchun foydalaniladi.

Shu ikki tahlil shaklidan farqli o'laroq fuksional-qiymat tahlili (FQT) ham mavjud. FQT da ikki tahlilda ham qo'llanilmaydigan, qo'llanilsa ham kam qo'llaniladigan usullardan foydalaniladi. Boshqa tahlillar asosan ma'lum ko'rsatkichlar, aniq raqamlarga asoslansa, FQT da ko'p hollarda mantiqiy evristik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Xuddi shunday holatni boshqa tahlil shakllari bo'yicha ham keltirish mumkin. Demak, iqtisodiy tahlilning turlarida ma'lum darajada metodologik mushtaraklik bo'lsa, shakillarida o'ziga xoslik ustuvordir.

Iqtisodiy tahlilning shakllari va har birining qisqacha mazmuni ushbu chizmada keltirilgan:

| IQTISODIY TAHLIL | |
|---|---|
| **SHAKLLARI** | **MAZMUNI** |
| 1. Kompleks tahlil | Xo'jalik subyekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir |
| 2. Solishtirish tahiili | Xo'jalik subyektlar faoliyatini yaxlit holda alohida tuzilmalari yoki mavzularini baho va vaqt jihatidan solishtiriladigan holatga keltirilib amalga oshiriladigan tahlilidir |
| 3. Omilli tahlil | Xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash usullari majmuasini o'zida aks ettirgan tahlildir |
| 4. Funksional qiymat tahlili | Har bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va nokerak) qiymat jihatidan baholab, mahsulotning (ish, xizmat) sifatini oshirgan holda nokerak funksiyalarni bartaraf qilish evaziga ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) topish va ishga solishga qaratilgan tahlildir |
| 5. Marjinal tahlil | Barcha xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarga bo'lib ishlab chiqariladigan mahsulotlar (bajariladigan ish, xizmat)ning biznesda ko'zda tutilgan foydaga erishish uchun zarur bo'lgan miqdorini aniqlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlildir |
| 6. Staxostik tahlil | Xo'jalik faoliyatida natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik, funksional bog'liq bo'lmagan sharoitda, ularning bog'liqligini o'rganishga qaratilgan tahlildir; makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir |
| 7. Loyiha | Xo'jalik subyektlar istiqbolini, biznes rejasini, investitsiya |

| | |
|---|---|
| tahlil | loyihalarini asoslash uchun hali sodir bo'lmagan, ya'ni bo'lishi kutilayotgan iqtisodiy jarayonlarni o'rgatadigan tahlildir |
| 8. Moliyaviy tahlil | Xo'jalik subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir |
| 9. Boshqaruv tahlili | Korxona rahbariyati, egasi va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir |
| 10. Xo'jalik faoliyati tahlili | Korxonalar xo'jalik faoliyatini o'rganishga qaratilgan iqtisodiyotning mikroiqtisod darajasini o'rganishga qaratilgan tahlildir |
| 11. Auditorlik tahlili | Xo'jalik subyektlar moliya xo'jalik faoliyatini audit qilganda to'g'ri xulosa chiqarish uchun auditorlar tomonidan o'tkaziladigan tahlildir |

*5.2-chizma. Iqtisodiy tahlilning shakllari va ularning mazmuni*

Iqtisodiy tahlil mazmuni bo'yicha uch guruhga bo'linadi: global, lokal va tematik.

Global tahlil deganda xo'jalik yurituvchi subyektining faoliyatini atroflicha, to'liq, yaxlit holda o'rganish tushuniladi.

Lokal tahlil deganda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining alohida bir tarkibiy qismini o'rganish tushuniladi. Misol tariqasida aksiyadorlik jamiyati xo'jalik faoliyatini olish mumkin. Uning tarkibiga bosh korxona va oltita sho'ba korxonalari kiradi, deb faraz qilamiz. Hammasining holatini yaxlit holda bir hisobot davri mobaynida crishilgan natijalar bo'yicha tahlil qilish global tahlilga misol bo'lish mumkin. Uning alohida bo'linmalarini tahlil qilish lokal tahlilga misol bo'lsa, shu bo'linma ichida alohida bir mavzuni o'rganishga bag'ishlangan tahlil tematik tahlilga misoldir.

Demak, tematik tahlil deganda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini alohida mavzusi bo'yicha tahlil qilish tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllarini tasniflashda uning alohida xillari shartli ravishda olingan. Bunda tasniflash belgilari va ularga kiruvchi iqtisodiy tahlil turlariga tahlilning nazariy va amaliy jihatlarini hisobga olgan holda yondashilgan.

Iqtisodiy tahlilni faqatgina bir belgi bo'yicha turlarga ajratib o'rganish murakkab tavsif kasb etadi. Chunki boshqaruv funksiyasi turlarining ko'pligi iqtisodiy tahlilning ham turlicha bo'lishiga ta'sir etadi. Shu sababli iqtisodiy tahlilni muhim jihatlaridan kelib chiqadigan umumiy belgi aosida tahlilni tasniflash mumkin.

Vaqt – betakror boylik. Agar u yo'qotilsa, qayta tiklanmaydi. Shu tufayli vaqtni yo'qotmaslik lozim. Vaqt o'tishi bilan ishlab chiqarish jarayoni davom etadi. Ma'lum bir davrda natija hisob-kitob qilinadi, jamlanadi, tegishli kamchiliklar va yutuqlar aniqlanadi. Muayyan vaqtda sodir bo'lgan jarayonni uzluksiz ravishda tahlil qilib turish lozim. Shu jihatdan iqtisodiy tahlil uchga bo'linadi: tezkor tahlil, joriy tahlil, istiqbol tahlili.




*5.3-chizma. Iqtisodiy tahlilning mazmunini qamrab olish bo'yicha tasnifi.*

**Tezkor tahlil** deganda hisobot davri davomida, u tugamasdan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, hisobot davrini bir chorak deydigan bo'lsak, uning tamom bo'lishini kutish uchun uch oy kerak. Ammo shu muddatda qanday natijaga erishish mumkinligini aniqlash uchun o'sha davr ichida tezkor tarzda har kuni, har haftada, har o'n kunlikda, har oyda tahlil qilib borish

lozim. Bu aynan shu hisobot davrida (chorak ichida) amalga oshirilgani uchun ushbu tahlil tezkor tahlil hisoblanadi.

**Joriy tahlil** deganda hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobot ma'lumotlari va boshqa axborot manbalariga asosan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, hisobot davri chorak bo'lsa, u tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar tuziladi. Hamda ular tegishli tashkilotlarga (soliq idorasiga, moliya, statistik bo'linmalariga) topshiriladi, asl nusxasi shu xo'jalik yurituvchi subyektda qoladi. Ana shu hisobot ma'lumotlariga asosan ushbu xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati joriy tahlil qilinadi.

Joriy tahlilning qulayligi shundaki, u ma'lum bir davr o'tgach barcha natijalar jamlangan, xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar qonuniylashgan bo'ladi. Ammo shu bilan birgalikda aniqlangan kamchiliklar o'tgan davrga tegishliligi sababli uni bartaraf qilish uchun vaqt o'tgan bo'ladi. Lekin shu kamchiliklarga endilikda yo'l qo'ymaslik uchun tegishli chora-tadbirlar qo'llaniladi.

**Istiqbol tahlili** deganda xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish, bo'ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt biznes-rejani tuzish uchun o'z faoliyatini nima bilan yakunlanishi to'g'risida aniq tushuncha va ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili ham deb atamoqdalar.




*5.4-chizma. Iqtisodiy tahlilning zamon nuqtai-nazaridan tasniflanishi.*

Iqtisodiy tahlil maqsad, vazifalar, mazmun, shakl, makon va zamonga ko'ra, foydalaniladigan manbalar, kim tomonidan o'tkazilishidagi uyg'unlik va yaxlitlik bo'yicha turlarga ajratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan:

- moliyaviy tahlil;
- boshqaruv tahlili;
- tezkor tahlil;
- joriy tahlil;
- istiqbolli tahlil;
- kompleks tahlil;
- tizimli tahlil;
- funksional qiymatli tahlil;
- mavzuga oid tahlil;
- staxostik tahlil;
- determinallashgan tahlil;
- marjinal tahlil;
- solishtirma tahlil;
- xo'jalik faoliyati tahlili;

- texnik-iqtisodiy;
- ijtimoiy-iqtisodiy;
- iqtisodiy-ekologik;
- diognostik tahlil;
- ichki tahlil;
- tashqi tahlil va shu kabilar.

Qayd etib o'tilgan tahlil turlari korxona faoliyatini o'rganish va boshqarishda o'z ahamiyatiga ega.

## 5.2. Moliyaviy tahlil

Dialektika tushunchasidan ma'lumki borliqdagi har bir obyekt garchand alohida mavjuddek bo'lib ko'rinsada, u son-sanoqsiz jihatlari bilan boshqa obyektlar bilan chambarchas bog'liqlikda harakat qiladi yoki yashaydi. Iqtisodiy obyekt sifatida korxonalar ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda boshqa obyektlar bilan o'zaro aloqada va doimo birgalikda faoliyat yuritadi. Demak, korxona bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan, u bilan hamkorlik qilayotgan yoki qilmoqchi bo'lgan, raqobatdosh bo'lgan va shu kabi turli obyektlar fikrimizga misol bo'la oladi. Har bir alohida olingan obyektlar o'z maqsadi, manfaati hamda ehtyojidan kelib chiqib o'zlarini qiziqtirayotgan korxonalarni qaysidir tomonlarini o'rganadilar. Bozor munosabatlarida korxonalarning mulkining ko'p bo'lishi, ulardan samarali foydalanish holati, mulkni shakllanish manbalari hamda ularning tarkibi, moliyaviy natijalar holati va dinamikasi, pul oqimlari harakati va miqdori, ularning faoliyat harakati bilan mutonosibligi, xususiy kapital va uning tarkibi, o'zgarish holati, to'lov qobilyati, aktivlar likvidligi shu kabi moliyaviy holatni ifodalovchi axborotlar juda ko'p turdagi hamkorlarni qiziqtiradi. Misol uchun, kredit beruvchi institutlar uchun moliyaviy holatni barcha tomonlari zarur bo'lsa, mol yetkazib beruvchi uchun to'lov qobilyati hamda likvidlik ko'rsatkichlari, aksionerlar uchun moliyaviy natijalar hamda xususiy kapitaldagi o'zgarishlar, qarz beruvchilar uchun garrov bilan ta'minlanganlik, xaridorlar uchun shartnoma hajmidagi mahsulot ishlab chiqarish uchun korxonaning moliyaviy imkoniyati

mavjudligi kabilardir. Demak, korxonaning moliyaviy holati tashqi hamkorlar uchun juda ham muhim ahamiyatga ega. Ular o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumot va axborotlarni tahlil qilib, zarur xulosalar olib so'ngra biznes qarorlarini qabul qiladilar.

Moliyaviy holat nafaqat tashqi foydalanuvchilar, balki korxonaning ichki ehtiyojlari uchun ham zarurdir. Mulkdorlar, boshqaruvchilar, menejerlar, xodimlar doimo korxonaning moliyaviy jihatdan ahvoli yaxshi bo'lib borish ta'rafdorlaridir. Chunki, moliyaviy holatni yaxshilanishi mulkdorni yanada boy qiladi, boshqaruvchilar, menejerlar hamda xodimlarning maoshini hamda boshqa daromadlarini oshiradi, korxonani raqobatchilar orasida mulki hamda imijini oshiradi.

Korxona muayyan mamlakat yoki mamlakatlar hududida joylashgan bo'ladi. Demak, u mamlakat iqtisodiyoti uchun o'z ahamiyatiga ega. Jamiyatdagi korxonalarning moliyaviy holatini takomillashib borishi tarmoqlarni, umuman milliy iqtisodiyotni yaxshi holatda rivojlanayotganidan dalolat beradi. Korxonada muayyan mahsulotlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko'rsatiladi yoki ish bajariladi, u soliq to'laydi hamda ajratmalarni amalga oshiradi, xodimlar ish haqi oladi, turli tadbirlarga homiylik qiladi. Demak, korxonalar milliy iqtisodiyotdagi, tarmoqdagi yoki hududdagi ahamiyatiga ko'ra ham tegishli vazirliklar yoki qo'mitalar tomonidan o'rganiladi. Bu bilan ularga zaruratga ko'ra turli moliyaviy imtiyozlar (foizi past bo'lgan kreditlar, soliq bo'yicha, bojxona yig'imlari) yoki yordamlar (subsidiya, subvensiya, grantlar) beriladi. Muxtasar qilib aytganda moliyaviy natijalar va holat, ularga bog'liq bo'lagan ko'rsatkichlar tahlili davlat, tashqi hamkorlar va korxonaning o'zi uchun ham zarur ekan.

Moliyaviy tahlil – korxonaning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, moliyaviy natijalari, asosiy vositalari, pul oqimlari va ularning holati, tarkibi, o'zgarishlarini ta'sir qiluvchi omillar hamda maxsus ko'rsatkichlar tizimi asosida tadqiq etish va o'rganishdir.

Mazkur tahlil turining maqsadi korxonaning moliyaviy holatining turli tomonlariga, barqarorligiga, moliyaviy salohiyat va raqobatdoshligiga baho berishdir.

Moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari korxonaning mulki va uning shakllanish manbalari, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, pul oqimlari, xususiy kapital va ular bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni o'rganishdir. Bunda korxonaning moliyaviy barqarorligi, holati, mol-mulk tarkibi, manbalarni joylashuvi, mablag'lar harakatchanligi, to'lov qobilyati, foyda va zararlarni faoliyat turi hamda shakllanishi bo'yicha, pul oqimlarini to'g'ri tashkil etilgani va uning korxona amaliy faoliyatiga mos kelishi, xususiy kapitalni ko'payishiga ta'sir etayotgan omillar shu kabilarga e'tibor qaratiladi.

Moliyaviy tahlilning axborot manbalarini moliyaviy hisobot shakllari va unga ilova qilingan rasmiy hujjatlar tashkil etadi. Mazkur turdagi hisobot shakllari ommaviy-axborot vositalarida ochiq e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 16-moddasi va 1-BHMS ga hamda moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish buyicha qoidalarga asosan moliyaviy hisobot quyidagi hisobotlarning umumiy shakllaridan iborat bo'ladi:

1. Buxgalteriya balansi – 1-shakl;
2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot – 2-shakl;
3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot – 3-shakl;
4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – 4-shakl;
5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot – 5-shakl;
6. Debitorlik va kreditorlik qarzi haqida ma'lumotnoma – $2^a$-shakl;
7. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati;
8. Auditorlik xulosasi.

Moliyaviy tahlil hisob tizimi bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi. Chunki, tahlilchi hisob tizimining o'ziga xos bo'lgan barcha jihatlarini bilishi va amalda qo'llay olishi shart.

Mazkur tahlil turi kompleks tarzda yillik hisobotlar, xususan moliyaviy hisobotlar tuzilgandan so'ng o'tkaziladi. Demak, ushbu tahlil davriy tavsifga ega.

Moliyaviy tahlil korxona faoliyatida faqat moliyaviy holat, barqarorlik va shu kabi tomonlarni o'rganishi bilan cheklanganlik tafsifiga ega. Chunki, u korxona faoliyatini barcha tomonlarini qamrab ola olmaydi.

## 5.3. Boshqaruv tahlili

Korxonani to'g'ri boshqarish belgilangan maqsadga erishishning ilmiy asoslangan yo'lidir. Obyektlarda boshqaruv ta'sirini oshirish, uning samaradorligini ta'minlashda ko'p turdagi vositalar bilan birgalikda iqtisodiy tahlil ham o'zining o'rni va ahamiyatiga ega. Xususan, hisob tizimida tahlil vositasida ma'lumotlar yig'ilib, qayta ishlanib hamda ularning foydaliligi oshirilib, qaror qabul qilish uchun ichki boshqaruvchilarga, menejerlarga, xodimlarga va boshqa shu kabilarga yetkazib beriladi. Boshqaruv subyektlari foydali ma'lumotlar asosida tegishli qarorlar qabul qilib faoliyatni davom ettiradilar. Shu tarzda boshqaruv funksiyasi o'z ilmiy asosiga ega bo'ladi. Chunki, tahlil ma'lumotlari asosida jarayonlar rejalashtiriladi, nazorat qilinadi, o'zgartirishlar kiritiladi yoki muvofiqlashtiriladi, natijalar aniqlanadi va istiqbollar belgilab boriladi.

Boshqaruv tahlili – korxonada mablag'lar va boshqa resurslardan samarali foydalanish yo'llarini, omillarini, imkoniyatlarini ko'rsatuvchi hamda qarorlarini qabul qilishda ilmiy asos bo'ladigan faktlarni beruvchi tahlil turidir.

Korxonada boshqaruv tahlili quyidagi obyektlarni qamrab oladi (5.5-chizma).

Rasmdan ko'rinib turibdiki boshqaruv tahlilida o'rganilishi zarur bo'lgan obyektlarni ko'pligi o'z navbatida uning kompleks, tizimli va tezkor tavsifda amalga oshirishni hamda turli mutaxasisslar ishtirok etishini talab qiladi.




*5.5-chizma. Xo'jalik subyektlarida boshqaruv tahlilni tashkil etishning tizimli shakli.*

Xo'jalik faoliyati to'g'risida ma'lumotlarning yuqoridagi tartibda shakllanishi va tahlil qilinishi korxonadagi barcha boshqaruv obyektlarini kuzatish, o'rganish hamda tezlik bilan ularga ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Lekin, boshqaruv tahlili kompleks, tizimli hamda tezkor tahlillardan amalga oshishi bilan jiddiy farq qiladi. Mazkur tahlil korxonadagi barcha obyektlarni faoliyat boshlanishidan oldin va u davom etishi bilan birgalikda uzluksiz olib boriladi. Ya'ni, hisobot yilida boshlanib, xuddi shu yil tugashida nihoyasiga etadi va shunday ko'rinishda takrorlanaveradi.

Boshqaruv tahlilining kompleks tavsifi u korxonaning barcha obyektlarini qamrab olinishida namoyon bo'ladi. Biroq, kompleks tahlil yuzaga chiqishiga ko'ra statik, boshqaruv tahlili esa dinamik tavsif kasb etadi. Shu bilan birga maqsad, vazifalariga ko'ra ham ular bir-birlaridan jiddiy farq qiladi.

Tezkor tahlil esa masad, vazifalar, tahlil o'tkazuvchi xodimlar, ma'lumot manbalari, tahlil obyektlari va ularning keng ko'lamda o'rganilmasligi, vaqtni qisqaligi va shu kabilari bilan boshqaruv tahlilidan farqli tomonlariga ega.

Boshqaruv tahlilida tizimli tahlil kabi jarayonlar boshlanishidan tugashigacha, barcha omillar boshidan oxirigacha, muayyan ketma-ketlikda, sabab-natija ko'rinishida, tizimli yondashuv asosida, keng ko'lamda statik holatda o'rganilmaydi. Balki, jarayonlar davomi bilan boshqaruv obyektlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy hamda eng muhim omillar tizimli o'rganilib, ular o'zaro muvofiqlashtirib boriladi.

Korxona iqtisodchilari, buxgalterlari hamda boshqa mutaxassis hamda xodimlari boshqaruv tahlilini amalga oshiradilar. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoqchimizki, xo'jalik subyektlarida rahbarlar va iqtisodchilarning ham o'z ishlariga ijodiy yondoshuvi iqtisodiy tahlilning samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil uchun ma'lumotlar juda ham ko'p manbalardan olinadi. Misol uchun, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari, ichki hisobot ma'lumotlari, statistik hisobot ma'lumotlari, tezkor hisob ma'lumotalari, bozor ma'lumotlari, rasmiy ma'lumotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, istiqbolldagi natijalarni ifodalovchi ma'lumotlar va shu kabilar.

Raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida korxonalar uchun raqobatdagi korxonalarning ma'lumotlari va ularga tegishli bo'lgan axborotlar boshqaruv tahlilida o'ta muhim ahamiyatga ega.

## 5.4. Tezkor (Operativ) tahlil

Korxona faoliyati doimo tezkor boshqarishni talab etadi. Bu bilan uzluksiz davom etayotgan jarayon davrning har bir soatida, kunida yoki dekadasida kuzatiladi, o'rganiladi, nazorat qilinadi hamda obyektlarga zarur ta'sirlar ko'rsatiladi. Demak, tezkor tahlil

xo'jalik faoliyati va uning qismlarini qisqa muddatda o'rganib, ishlab chiqarishni operativ boshqarishga tayinlanganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Tezkor tahlilni boshqa tahlil turlaridan (ayniqsa joriy tahlildan) farqli tomoni shundaki, korxona faoliyati hamda undagi o'rganilayotgan jarayonlar bilan tezkor tahlil ketma-ket, ya'ni o'ta yaqin oraliqda amalga oshiriladi. Natijada sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari o'z vaqtida o'rganiladi. Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish qisqa va tez muddatlarda amalga oshiriladi. Ushbu jihat esa mazkur tahlil turining ijobiy tomonini ko'rsatib beradi.

Hisob tizimining boshlang'ich hujjatlari, tezkor hisob ma'lumotlari, kunlik ish faoliyati haqidagi statistik ma'lumotlar, sodir bo'layotgan jarayonlarni bevosita borib ko'rish, o'lchash va ayrim hollarda suhbatlashish natijalaridan o'rganilgan ma'lumotlar tahlil uchun manbalar hisoblanadi.

Mazkur tahlil turini faqat maxsus bilimga ega bo'lgan iqtisodchilar, buxgalterlar yoki boshqa mutaxassislar emas, balki o'rganilayotgan xo'jalik jarayonlariga dahldor va qiziquvchilarning barchasi amalga oshirishi yoki tahlil jarayonlarida qatnashishi mumkin. Masalan, ishchilar, texnik xodimlar, radio va televidenie xodimlari va hokazolar.

Tezkor tahlilni boshqa tahlil turlaridan afzalliklari quyidagilar:

- tahlil sodir bo'layotgan xo'jalik jarayoni bilan ketma-ketlikda va bir-biriga yaqin oralig'da amalga oshiriladi;
- yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish imkoniyati mavjudligi;
- tahlil natijalari korxonalarni tezkor boshqarish uchun asosiy manbaligi va shu kabilar.

Boshqa tahlil turlari kabi tezkor tahlilda ham ba'zi kamchiliklar majud. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ayrim hollarda tezkor tahlil ma'lumotlari juda ham aniq ma'lumotlar bo'lmasligi mumkin;
- tezkor tahlil natijasi oxirgi iqtisodiy natijalar ma'lumotlariga mos kelmasligi va shu kabilar.

Tezkor tahlil vositasida korxonaning kunlik mahsulot ishlab chiqarishi, sexlar o'rtasidagi kunlik yoki soatlik ish unumi, qishloq xo'jaligi korxonalarida kunlik paxta topshirish holati, yerlarni shudgorlash va shu kabilar o'rganilishi mumkin.

## 5.5. Joriy tahlil

Joriy (retrospektiv) tahlil doimo qo'llaniladigan tahlil turi bo'lib va korxonalarni o'tgan hisobot davri faoliyatini batafsil o'rganishga qaratilgandir. Demak, u hisobot yili yakunlangandan so'ng amalga oshiriladi. Rejaning bajarilish holatini batafsil tadqiq etish tahlildagi asosiy va markaziy jihat sanaladi. Bunda korxonaning faoliyatini tashkil etgan barcha bosqichlar hamda obyektlar keng ko'lamda o'rganiladi. Ularga quyidgilar kiradi:

- marketing, ta'minot, ishlab chiqarish, realizatsiya bosqichlari va ularning o'zaro uzviy hamda uyg'unligi holatiga baho beriladi;
- bozorda korxona mahsulotiga bo'lgan talab va taklif holati, korxona mahsulotlarining raqobatdoshligi qanday o'rganilganligiga baho beriladi;
- uzoq muddatli (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar) va joriy aktivlardan (tovar-moddiy zaxiralar) foydalanish darajasiga baho beriladi;
- mehnat resurslaridan foydalnish darajasiga baho berish;
- ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxi holatiga baho beriladi;
- mahsulotlarni sotish natijalariga baho beriladi;
- xarajat, hajm va foydaning o'zaro aloqadorligi natijalariga baho beriladi;
- moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlari o'rganiladi;
- moliyaviy holat, barqarorlik va salohiyat ko'rsatkichlariga baho beriladi.

Tahlilda barcha mavzular ketma-ketlikda, umumiy holda yoki har biri alohida o'rganilishi mumkin.

Ushbu tahlil turining asosiy vazifalari bo'lib korxonaning tijorat faoliyatiga obyektiv baho berish, foydalanilmagan zaxiralarni komplek holda aniqlash, ularni kelgusida foydalanishga yo'naltirish,

faoliyatda yo‘l qo‘yilgan kachiliklarni topish va ular bo‘yicha aybdorlarini aniqlash, mehnat natijalari hamda ish sifati bo‘yicha moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishlar holatini o‘rganish hisoblanadi.

Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida ham, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida joriy tahlilga juda katta ahamiyat berib kelinmoqda. Bu bejiz emas, albatta, chunki tahlil uchun axborotlar tizimi shakllanishi lozim. Bu esa hisobot davri tugagandan keyin amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida ham joriy tahlilga katta ahamiyat beriladi, chunki, bor narsani o‘rganish kelgusi faoliyat uchun asos bo‘ladi. Shu tufayli korxonaning moliyaviy hisobotini o‘rganish uchun bir, qancha usullarni o‘ziga jamlagan «Moliyaviy tahlil» shakllangan. Bunday tahlil bizda ham shakllanmoqda.

Ushbu holatlardai kelib chiqib joriy tahlil bevosita hisobot davriga moslashadi. Buning shakli quyidagi chizmada keltirilgan.

**Joriy tahlil tasnifi**




Joriy tahlilning ma’lumotlar manbasi bo‘lib korxonalarni yillik, yarim yillik, choraklik hisobotlaridan foydalanadi. Shuningdek, tashqaridan (statistik, bozor, raqobatdosh korxona ma’lumotlari kabilar) olinadigan ma’lumotlar ham sodir bo‘lganligi hamda rasmiy e’lon qilinganligi bilan aniq tavsif kasb etadi. Demak, joriy tahlil rasmiy tavsifdagi ma’lumotlarga asoslangan bo‘ladi. Bu esa korxonalar faoliyatiga to‘g‘ri va xolisona baho berish, o‘tgan yilda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, yo‘qotishlar va farqlarni bilishga imkoniyat yaratadi.

Tahlil natijalari korxonaning o'tgan yoki bir necha yillik faoliyatlarini chuqur o'rganishga hamda subyektning kelgusi yildagi yoki yillardagi taktika hamda strategiyasini belgilash uchun asosli ma'lumotlar bazasi yaratadi. Shuningdek, joriy tahlil korxonaning ishlab chiqarishining yuqori manfaat keltirishi uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni, ulardan kelib chiqadigan yo'nalishlarini belgilash imkoniyatlarini yaratadi.

Iqtisodchilar hamda buxgalteriya mutaxassislari joriy tahlilni tashkil etadi va olib boradilar. Obyektlar ko'lami keng bo'lgani uchun zarurat va ehtiyojga ko'ra boshqa mutaxassis hamda xodimlar tahlil jarayoniga jalb qilinadi.

Joriy tahlil boshqa tahlil turlariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- korxona faoliyatini to'liq o'rganadi va baho beradi;
- rasmiy ma'lumotlar asoslanadi;
- o'rganiladigan mavzular ko'p ekanligi;
- joriy tahlil natijalari korxonaning kelgusidagi rejalarini ishlab chiqish uchun asoslardan biri bo'ladi.

U bilan birga mazkur tahlil turida ayrim kamchiliklar ham mavjud:

- joriy tahlil xo'jalik jarayonlarining sodir bo'lib o'tib ketgan davrini o'rganadi;
- tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklar korxona uchun boy berilgan imkoniyatlardir, ya'ni o'tgan davr jarayoniga hech qanday ta'sir qila olmaydi.

Ayrim kamchiliklariga qaramasdan joriy tahlil amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan tahlil turlaridan biri bo'lib qolaveradi.

## 5.6. Istiqbolli tahlil

Istiqbolli tahlil kelajakni mo'ljallab o'tkaziladigan tahlil hisoblanadi va u korxonaning kelgusi bir-ikki va hokazo uzoq yillarga mo'ljallangan ish faoliyatini qanday tashkil etishni belgilash maqsadida amalga oshiriladi.

Istiqbolli tahlil joriy tahlilning natijalari va ma'lumotlariga asoslanib korxonani kelgusidagi faoliyatini bashoratlash va

mo'ljallash vazifasini bajarishga qaratilgan.

Bunga sabab globallashuv jarayonini ko'chayishi, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashuvi, modernizatsiyalash tadbirlarini eng muhim masala bo'lib yuzaga chiqishi ishlab chiqarish subyektlarlarini iqtisodiy raqobatchilik muhitida yuqori foyda olish maqsadida rivojlanishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bu esa iqtisodiy tahlilni xo'jalik subyektlarni samarali boshqarishdagi rolini yanada oshirishni taqozo qiladi.

Ushbu sharoitda zamonaviy iqtisodiy tahlil vazifalari takomillashib asosiy e'tibor boshqaruv hamda investitsiya qarorlarini asoslash, istiqbolli kapital qo'yilmalar yo'nalishlarini aniqlash va ularning maqsadga muvofiqligini baholashga o'tishga qaratiladi.

Ayni paytda, iqtisodiy tahlil vositalari pul mablag'larining nominal qiymati, noaniqlik va risk, inflyatsiya ta'siri kabi omillarni baholash imkonini beruvchi yangi usullar hisobiga takomillashmoqda.

Investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini asoslash zarurati diskontlangan pul oqimlari tahlilini rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratdi. Inflyatsiya jarayonining mavjudligi mamlakatimiz uchun yangi hisoblangan yo'nalish – inflyatsiyaning pul oqimlari, moliyaviy natijalar, aktivlar va majburiyatlarga ta'sirini baholash imkonini beruvchi inflyatsiya tahlilini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ishlab chiqarish xo'jalik subyektlarlarida istiqbolli iqtisodiy tahlilni tashkil etish qo'yilgan maqsadni optimal darajada amalga oshirish, tahlilning alohida turi sifatida uning boshqa turlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy tahlilning ushbu turi quyidagi asosiy bosqichlarga asoslanadi:

- retrospektiv (joriy) tahlil qilish;
- taxminlash asosida tahlil qilish;
- istiqbolni baholash;
- oqilona boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon beruvchi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
-yangi taxminga asoslangan hisob-kitoblarni amalga oshirish;
-xo'jalik subyektlarni muhim iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berish va amaliyotga joriy etish borasida etarlicha ilmiy asoslangan amaliy takliflar berish.

**5.1-jadval**

**Istiqbolli iqtisodiy tahlil hamda uning o'ziga xos jihatlari**

| t/ r | Belgilari | Istiqbolli (Perspektiv) tahlil |
|---|---|---|
| 1. | *Maqsadiga qarab* | Xo'jalik subyektlar rahbariyatini istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur axborotlar bilan ta'minlash |
| 2. | *Ko'rsatkichlar tizimiga qarab* | Asosan moliyaviy ko'rsatkichlar (foyda, tannarx, pul mablag'lari harakati ko'rsatkichlari kabilar) |
| 3. | *Axborot manbalariga qarab* | Xo'jalik subyektlarning bir necha yillik moliyaviy hisoboti shakllari va boshqa iqtisodiy axborotlari, shuningdek, taxminga asoslangan axborotlar |
| 4. | *O'tkazish usullariga qarab* | Joriy tahlil usullari hamda korrelyatsion-regression, statistik va taxminlash kabilar |
| 5. | *Muddatiga qarab* | 3-5 va undan ko'p yillik ma'lumotlar asosida |
| 6. | *Foydalanuvchilar doirasiga qarab* | Asosan xo'jalik subyektlar rahbarlari uchun |
| 7. | *Avtomatlashtirish darajasiga qarab* | Aniq avtomatlashtirishni talab qiladi. Bunda maxsus, murakkab kompyuter dasturlaridan foydalaniladi |

Mazkur tahlilning muhim xususiyati shundaki, u o'tgan davr iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida ularga kelgusida ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Bunda istiqbolli tahlilni tashkil etishda joriy tahlil va istiqbolli taxminlash elementlaridan samarali foydalanish lozim.




*5.6-chizma. Xo'jalik subyektlarlarda istiqbolli iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari.*

*Taxminlash* istiqbolli iqtisodiy tahlil o'tkazishning muhim bosqichi hisoblanib, u kelgusi tahlil, boshqaruv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar tahlili, iqtisodiy rivojlanishning muqobil variantlaridan eng samaralisini tanlab olish orqali amalga oshiriladi.

Istiqbolli iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri istiqbolga mo'ljallangan investitsiya qarorlarini qabul qilishdagi xatoliklarni bartaraf etishdan iborat. Shuningdek, mazkur tahlil quyidagilarni baholash imkonini beradi:

– xo'jalik subyektlarning mulkiy holati;
– tadbirkorlik riski darajasi;
– uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyati;
– joriy va uzoq muddatli investitsiyalar uchun kapital yetarliligi;
– qo'shimcha moliyaviy manbalarga ehtiyoj;
– kapitalni ko'paytirish imkoniyati;
– qarz mablag'larining oqilona tarzda jalb etilishi tahlili;

– foydani taqsimlash va ishlatilishining asoslanganligi;

– investitsiyalarni yo'naltirishning maqsadga muvofiqligi.

Keng ma'noda istiqbolli iqtisodiy tahlildan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

– qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiya qarorlarini maqsadga muvofiqligini asoslashda;

– investitsiya faoliyatini boshqarish sifatini baholashda;

– kelgusi natijalarni taxminlash usuli sifatida.

Istiqbolli iqtisodiy tahlil natijalari oqilona strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Istiqbolli iqtisodiy tahlilning asosiy vazifasi istiqbolli rejalarga asoslangan holda ularning bajarilish imkoniyatlarini baholash hisoblanadi. Ushbu tahlil turi istalgan faoliyat sohasining muhim iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlarini komplek qamrab oladi, chunki, bir tomonlama istiqbolli tahlil xo'jalik subyektlarning iqtisodiy samaradorlikka erishishidagi mavjud muammolarni to'liq ifodalash imkonini bermaydi.

Istiqbolli iqtisodiy tahlilni boshqa tahlil turlaridan asosiy farqi uni tashkil etishda xo'jalik subyektlarning bir necha yillik ma'lumotlaridan foydalanishdir. Bu esa hisob-kitob jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli, uni tashkil etishda iqtisodiy-moliyaviy jarayonlarni modellashtirish usullaridan unumli foydalanish maqsadga muvofikdir.

Istiqbolli iqtisodiy tahlilda xo'jalik subyektlar faoliyatining uzluksizligi va iqtisodiy yashovchanligini tavsiflovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

– xo'jalik subyektlarlarning ishbilarmonlik faolligi ko'rsatkichlari;

– joriy to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari;

– uzoq muddatli to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari.

Ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi xo'jalik subyektlarning moliyaviy jihatdan barqaror emasligidan dalolat beradi.

Xo'jalik subyektlarning ishbilarmonlik faolligi ko'rsatkichlarini pasayishiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

– mahsulotlar sotishdan olinadigan tushumning kamayishi;

– sotish sur'atlari o'sishining hisobot davri bo'yicha beqarorligi;

– tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi va ishlab chiqarish zaxiralarining kamayishi;

– iste'mol qilinadigan resurslar miqdorini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga nisbatan oshib ketishi;

– aylanma aktivlarning ishlab chiqarish zaxiralari tarkibida bo'lish muddatining oshishi;

– ishlab chikarish sikli va tayyor mahsulotni omborda saqlash muddatining cho'zilishi;

– pul mablag'larining harakatsiz qolish muddatini uzayishi; daromad keltirmaydigan aktivlar qiymatining asossiz ravishda ortishi;

– ishlab chiqarishdagi va muomaladagi aylanma aktivlar nisbatidagi mutanosiblik.

Xo'jalik subyektlarning o'z majburiyatlarini kelgusida bajara olmasligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

–sof aktivlar va ustav kapitalining nokulay nisbati;

–uzoq muddat mobaynida zarar bilan ishlash holatining yuzaga kelishi;

–kapital zaxiralarining kamayishi;

–hisobot davri oxirida xo'jalik subyektlar kapitali narxining yil boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan oshib ketishi;

–aktivlar rentabelligi va xo'jalik subyektlar kapitali bahosining nomaqbul nisbati;

–foiz xarajatlarini qoplash koeffisient qiymatining kamayishi (marjinal foydaning to'lov bo'yicha foizlar summasiga nisbati);

– xarajatlar rentabelligining sezilarli darajada kamayishi (soliqlar va foizlarni hisoblab ajratishgacha bo'lgan foydaning xo'jalik subyektlar xarajatlariga nisbati) ko'rsatkichlari.

Yuqorida ko'rib chiqilgan xo'jalik subyektlar iqtisodiy yashovchanligi ko'rsatkichlari guruhlari o'zaro bog'liq bo'lib, faoliyat ko'lamining qisqarishi joriy va uzoq muddatli tashqi majburiyatlarni bajarishda moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga kelishi, ishbilarmonlik faolligining susayishi iqtisodiy subyektning bankrotlik holatiga tushishiga olib keladi.

Demak, istiqbolli tahlil yordamida korxonaning kelgusidagi iqtisodiy – ijtimoiy natijalarining strategiyasini belgilab olish, boshqaruvni yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Bundan tashqari korxonani iqtisodiy-ijtimoiy natijalarini fan – texnika taraqqiyoti bilan bog'lagan holda kelgusida milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ko'rsatib berishi mumkin bo'ladi.

Istiqbolli tahlil korxonalar faoliyatini avvaldan ko'ra bilish yoki prognozlashtirish deb ham qaraladi.

## 5.7. Kompleks tahlil

Korxona faoliyatidagi yo'nalishlarga ko'ra bugungi kunda operatsion tahlil, investitsiya tahlili, innovatsiya tahlili, moliyaviy tahlil kabi tahlil turlari yuzaga chiqib, tabora rivojlanib bormoqda. Bu esa, har bir alohida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha tahlilni batafsil o'tkazishni talab qiladi. Shu bilan birgalikda korxona faoliyatining barcha yo'nalishlari, obyektlari va mablag' aylanish bosqichlarni bir-birlari bilan uzviy bog'likda o'rganish boshqaruv ehtiyojlari uchun zarur. Korxona faoliyatini batafsil va har tomonlama o'rganish bilan taktika va strategiyani olib borishda eng muhim hamda asosiy bo'lgan ko'rsatkichlar (omillar) tizimi ishlab chiqiladi.

Boshqaruv maqsadidagi xo'jalik faoliyatini komplek iqtisodiy tahlil etishning metodik jihatdan tashkiliy bosqichlari quyidagilardan iborat;

– kompleks iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifalarini aniqlash;

– qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ko'rsatkichlar yig'indisini asosliligini har tomonlama tahlil etish;

– kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazish bosqichlarini belgilash;

– kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazish muddatlarini belgilash;

– tahlilni tashkil etish bosqichlarini ishlab chiqish va xizmat bo'limlari bo'yicha vazifalarni taqsimlanishi;

– tahlil natijalarini rasmiylashtirish va ularni baholash;

– analitik ishning mehnat sig'imini baholash, tahlil natijasining samarasini jamlash.

Korxona iqtisodiy holatini kompleks tahlil qilishning maqsad va vazifasi avvalo korxonani ichki xo'jalik muammolarini yechishga ya'ni faoliyat natijaviyligi, hamda uning iqtisodiy

potensialini tashkil etuvchi resurslar, kapitaldan foydalanishga daromad, foyda kompaniya qiymatini, aksionerlarning aksiyadan oladigan daromadlarini oshirishga qaratilgan.

Korxona iqtisodiy holatini kompleks tahlil qilishning ayrim o'ziga xos xususiyatlari:

– tahlil natijalari korxonanig o'z maqsadlari va manfaatlariga xizmat qiladi;

– tahlil o'tkazishda barcha turdagi manbalardan, shu jumladan ishlab chiqarish hisobi ma'lumotlaridan ham keng foydalaniladi;

– tahlil o'tkazishni davlat boshqaruv organlari tomonidan cheklanmaganligi;

– tahlil kompleks tarzda korxona faoliyatining barcha tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi;

– tahlil natijalari sir saqlanadi.

Korxona faoliyatini kompleks iqtisodiy tahlilining asosiy vazifalari:

1) ko'rsatkichlarni bazis davridan farqlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

2) xo'jalik faoliyati samaradorligini obyektiv ravishda baholash;

3) biznes-rejani ilmiy jihatdan asoslanganligi, uning bajarilishini nazorat qilish;

4) mahsulot hajmini oshirish, uning tannarxini pasaytirish bo'yicha foydalanilmagan ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash, o'tkazilgan sinov natijalarini atroflicha o'rganish va ularni umumlashtirish.

Chuqur va aniq, obyektiv tahliliy xulosalarga bir qancha turdagi axborot manbalariga ishlov berish orqali erishiladi. Iqtisodiy tahlil uchun ichki axborot manbalari muhim ahamiyatga ega. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

– ta'sis hujjatlari;

– asosiy vositalar va aylanma mablag'lar tarkibi, ular qiymati, xo'jalik operatsiyalari hamda korxonaning daromad va xarajatlarini o'zida ifoda etuvchi dastlabki hujjatlar;

– texnik – loyihalarga oid hujjatlar

– investorlar, mol etkazib beruvchilar, haridorlar, qarzdorlar, emitentlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlarni ifodalovchi yuridik xujjatlar;

– buxgalteriya hisobining analitik ma'lumotlari;

– tezkor va statistik hisob ma'lumotlari;
– buxgalteriya hisoboti;
– nazorat organlarining dalolatnomalari, auditor va soliq inspeksiyalari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv xulosalari, tijorat banklarining dalolatnomasi;
– me'yoriy hujjatlar;
– biznes-reja va h.k.

Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun quyidagi tashqi manbalardan ham foydalaniladi:

– davlatning iqtisodiy sohadagi siyosatini ifodalovchi siyosiy xarakterdagi manbalar, masalan, tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni soliq yukini pasaytirish orqali rag'batlantirish yoki ayrim turdagi faoliyatlarni cheklashlarni keltirish mumkin;
– ayrim turdagi tovarlar, xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar, kredit stavkalari foizi, chet el valyuta kursini o'zgarishi, ayrim kompaniya va tijorat banklari reytingi to'g'risidagi ma'lumotlar;
– mol etkazib beruvchilar, xaridorlar, investorlar, kreditorlarning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar;
– rahbar lovozimdagi yuridik shaxslarning ishbilarmonlik va shaxsiy sifat ko'rsatkichlarini ifodalovchi ma'lumotlar;
– gazeta, jurnal, birja byulletenlari, televidenie va radio, internet ma'lumotlari va h.k.

Tahlil manbalari guruhlarga ajratiladi, hisobotlarda aks etgan ma'lumotlar har tomonlama chuqur tekshiruvdan o'tkazilib, so'ng ma'lumotlarga analitik ishlovlar beriladi.

## 5.8. Funksional qiymat tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlari ko'zda tutilmagan hodisa va jarayonlarga ko'plab duch kelishi muqarrar. Bu sharoitda har bir korxona, firma o'z faoliyatini chuqur tahlil qilib noan'anaviy qarorlar qabul qilishni, ko'zda tutilmagan chora-tadbirlarni qo'llashni talab qiladi. Bunga faqat funksional-qiymat tahlilini **(FQT)** qo'llash yo'li bilan erishish mumkin.

FQT jahon amaliyotida, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Uning samaradorligi beqiyos

ekanligini jahon amaliyoti takror va takror isbotlab kelmoqda, chunki mahsulotning (ish, xizmatning) sifatini unga sarf qilinadigan xarajatlarni kamaytirish evaziga erishib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida korxonaning ichki va tashqi bozordagi raqobatda yutib chiqishini, uning moliyaviy barqarorligi mustahkamliligini ta'minlamoqda.

FQT iqtisodiyotning barcha sohalarida (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, xizmat, savdo kabilar) qo'llanilishi mumkin. Uning ahamiyati beqiyosdir, chunki jamiyatda manfaatlar mushtarakligini ta'minlaydi. U eng avvalo mehnatkash manfaatiga mos, ularni ortiqcha samarasiz ishlashdan, nokerak funksiyalarni amalga oshirishdan xoli qiladi va shu yo'l bilan barcha qilinadigan mehnatning foydaliligini ta'minlaydi. Shu orqali ular bir xil mehnatga bir vaqt birligida ko'p mehnat haqi olishga erishadi.

FQT mulk egasi – investorlar manfaati uchun ham xizmat qiladi. U eng avvalo, mahsulot sifatini yaxshilash evaziga mulk egasining iste'mol bozoridagi nufuzini oshiradi. Ikkinchidan, korxonada ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish evaziga uning iqtisodiy samaradorligi oshishiga, foydaning ko'payishiga zamin yaratadi. Korxona faoliyatida moliyaviy barqarorlik ta'minlanib, uning raqobatga bardoshliligi oshadi.

***FQTning vujudga kelish tarixi.*** FQTning vujudga kelish tarixi XX-asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Bu tahlilning paydo bo'lishi obyektiv zaruratdan kelib chiqqan. Iqtisodiyotda shunday vaziyat vujudga keladiki, endi maqsadsiz xarajatlarni bartaraf etib korxona faoliyatining samaradorligini oshirish evaziga ko'proq foyda olish zarurati tug'ildi. FQTning metodologiyasi birinchi marta sobiq ittifoq davrida 40-yillarda rus konstruktori permlik Yu.M.Sobolev tomonidan ishlab chiqilgan. Shu davrda AQShda ham bir guruh olimlar FQT metodologiyasini yaratish bo'yicha muhandis L.Maylsom rahbarligida ish olib bordilar. So'ngra tahlilning bu turi G'arbiy Yevropa va taraqqiy etgan yirik mamlakatlarga (Angliya, Germaniya, Yaponiya va h. k.) tarqaldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, FQT sobiq ittifoqda birinchi marta yaratilishiga qaramasdan, uning amaliyotda qo'llanilishi orqada qoldi. Shu tufayli AQShda tahlilning bu turi amaliyotga birinchi

marta joriy qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu esa FQTning vatani AQSh degan tushunchani vujudga keltirdi.

Sobiq ittifoqda FQTdan amaliyotda foydalanish 70-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. 1974-yildan boshlab u elektrotexnika sanoatida, 80-yillardan esa mashinasozlik sanoatida qo'llanildi.

FQTning takomillashishi shu asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda shu soha bo'yicha juda ko'plab adabiyotlar yaratildi. Bunda olimlardan B.I.Maydonchik, M.G.Karpunin, N.K.Moiseeva, V.P.Saltikova, R.Volchek, A.D.Sheremet, A.P.Seleznev kabilar katta hissa qo'shdilar. Bu olimlar FQT bo'yicha monografiya, darslik, o'quv va amaliy qo'llanmalar yaratdilar. Xullas, FQTning nazariy va amaliy asosi yaratildi.

1985-yilda Riga shahrida FQTdai foydalanish bo'yicha ikkinchi Butunittifoq simpoziumi, 1986-yilda Chexoslovakiyada. FQTni qo'llashga bag'ishlangan to'qqizinchi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.

Bu tadbirlar FQTni iqtisodiyotning barcha sohalarida keng ko'lamda qo'llanish imkonini berdi. Shunday qilib, 90-yillarga kelib FQT o'zining nazariy asosiga, amaliy tajribasiga ega bo'ldi va iqtisodiy tahlilning bir shakli sifatida mustahkamlandi.

***FQT mohiyati, mazmuni va xususiyatlari.*** FQTni qo'llashdan maqsad korxonaning xarajatlarini kamaytirish evaziga uning faoliyatida yuqori samaradorlik va sifat ko'rsatkichiga erishishdan iboratdir. Bunga iqtisodiy hodisa, jarayon va faoliyat sodir bo'lmasdan oldin sistemali ravishda tahlil qilish orqali erishiladi. Natijada mahsulotning yuqori sifati, ishning yuksak samaradorligi ta'minlanadi. Shu tufayli FQT iqtisodiy tahlilning eng samarali va ilg'or shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tahlilning bu shakli asosan mikroiqtisodiyot darajasida qo'llaniladi. Bunda ham aniq bo'g'inlarni, mahsulotni, jarayonni, faoliyatni obyekt qilib oladi, Masalan, biror mahsulotni ishlab chiqarish, tovar harakatini boshqarish, yoki biror mutaxassis faoliyatini takomillashtirish kabilar. Demak, FQTning qo'llanilish doirasi qisqa va aniq maqsadlarni ko'zda tutar ekan.

Shunday qilib, FQT deb ish, faoliyat mehnatning samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida, ularni sistemali ravishda,

sodir bo'lmasdan oldin, mantiqiy (evristik) yo'l bilan, tahlil qilish orqali mahsulotni ishlab chiqarishda unga sarflanadigan xarajatlarni va bajariladigan funksiyalarni kamaytirish evaziga uning foydaliligi va rentabelligini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

FQT o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular quyidagilardan iborat:

1. Tahlil qilinayotgan obyekt hali ishga tushmagan, faoliyat ko'rsatmayotgan, loyihalashtirish, rejalashtirish bosqichida bo'lishi mumkin. Shu tufayli FQT iqtisodiy jarayon sodir bo'lmasdan oldin o'tkaziladi.

2. Har bir tahlil qilinayotgan obyektda birorta hodisa yoki iqtisodiy jarayonning to'liq sodir bo'lishi uchun u qanday funksiyalardan iboratligi aniqlanadi. Bunday tahlilda, abstrakt tafakkur, evristik tahlillardan foydalanish mumkin.

3. FQTda barcha funksiyalar uchga bo'lib o'rganiladi: asosiy, qo'shimcha, nokerak. Tahlil qilinadigan obyekt faoliyatini loyihalashtirishda nokerak funksiyalarni bartaraf qilish yo'llari ishlab chiqiladi. Bu esa xarajatning o'z-o'zidan kamayishini ta'minlaydi.

4. Har bir asosiy va qo'shimcha funksiyalarning qanday amalga oshishi belgilanadi. Imkoni boricha bu funksiyalar ham tejamli yo'llar bilan mahsulot (ish, xizmat) sifatini oshiradigan darajada bajarilishini ta'minlaydi.

5. FQT samaradorligi oldindan aniqlanadi, chunki ta'kidlanganidek, oldindan aniqlangan nokerak funksiyalar sodir bo'lmasdan, ularga mablag', vaqt yo'qotilmasdan bartaraf qilinadi. Bu ham uning o'ta samarali iqtisodiy dastak ekanligidan dalolatdir.

Ushbu tahlilda axborot manbai bo'lib o'tgan, sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonni ifodalovchi hisobotlar emas, balki bajarilishi lozim bo'lgan, ko'proq ilmiy va mantiqiy yo'l bilan aniqlangan, hali sodir bo'lmagan funksiyalar tizimi hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan obyektlarda FQT biznes-rejani tuzishda qo'llaniladi. Uning har bir ko'rsatkichini asoslash uchun funksiyalarni tarkiblash (asosiy, qo'shimcha, nokerak) tamoyiliga asoslanadi. Bu esa iqtisodiy ko'rsatkichlarning ham yaxshilanishini, iqtisodiy o'sishni samarali yo'llar bilan ta'minlash imkonini beradi.

FQTda tahlilning ham, tahlil qilinayotgan obyektning ham maqsadini, kutilayotgan natijasini, funksiyasini, mohiyatini, ta'sirini va aloqasini aniqlab olishni taqozo qiladi. Obyektning maqsadida u orqali nimaga erishilishi ko'zda tutilsa, natijada shu obyekt nimaga erishilganligi ko'rsatiladi. Uning funksiyasida shu obyektning nima qilishi ko'zda tutilsa, mohiyatida shu obyekt nima qila olishini ko'rsatadi, Obyektning ta'siri, deganda obyektning nimani o'zgartira olishi tushunilsa, uning aloqasida FQT boshqa ko'rsatkichlarga ta'sir qilish nimalar orqali amalga oshishi ko'rsatiladi. Shu tufayli FQTni amalga oshirish jarayonida ushbu iboralardan to'g'ri va aniq foydalanish lozimdir.

***FQTning bozor munosabatlari sharoitidagi vazifalari.*** FQT erkin bozor munosabatlari shakllanayotgan va shakllangan sharoitda iqtisodiyotning hamma sohasida qo'llanilishi mumkin. Undan loyihalashtirishda, biror obyektni takomillashtirishda, texnika va texnologik jarayonlarni tahlil qilishda, iqtisodiyotning hamma bo'g'inlarida, boshqarishda, xizmat sohasi kabilarda foydalanish mumkin. Ushbu ish bevosita iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga bag'ishlanganligi tufayli biz FQTning faqat shu sohada qo'llanilishiga to'xtalamiz, xolos.

FQTning ahamiyati O'zbekistonda bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda yanada oshdi, chunki bu iqtisodiyot har bir xo'jalik yurituvchi subyektning o'z faoliyatini mukammal tahlil qilib borishini, ishi, mahsuloti va xizmati sifatini uzluksiz oshirib borishini talab qilmoqda. Bu tadbirlar shu subyektning erkin raqobat sharoitida uning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy omillardir. Zero, iqtisodiy erkinlik o'z navbatida iqtisodiy mas'ullikni ham keltirib chiqaradi.

Har qanday mahsulot (tovar), bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat iste'molchiga mo'ljallangan bo'ladi. Iste'molchi uchun esa ularning eng avvalo sifati, so'ngra narxining arzonligi kerak. Aynan ana shu ko'rsatkichlarga FQTni qo'llash orqali erishiladi. Demak, ushbu tahlilning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va vazifasi yanada oshadi.

FQTning asosiy vazifalari:

1. FQT qo'llanilishi mumkin bo'lgan xo'jalik subyektining iqtisodiy faoliyatini, tovar, ish, xizmat kabi jarayonlarni aniqlash;

2. Tahlil qilinadigan obyektda bajariladigan funksiyalarni (asosiy, yordamchi, nokerak) va ularning har biriga ketadigan xarajatlar miqdorini (pul, vaqt birligida) aniqlash;

3. Nokerak funksiyalarni bartaraf qilish yo'li bilan tovar, ish, xizmat sifatini yaxshilagan holda, ularga ketadigan xarajatlarni kamaytirish evaziga, korxonaning (xo'jalik yurituvchi subyektning) umumiy moliyaviy ahvolini yaxshilashni ta'minlash;

4. Shu yo'l bilan xo'jalik yurituvchi subyektning umumiqtisodiy samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

5. Samaradorlikni oshirish evaziga ushbu subyektning moliyaviy barqarorligini, uning raqobatga bardoshliligini ta'minlash, ishdagi va bozordagi faolligini ko'tarish kabilardan iboratdir.

Ushbu vazifalarni bajarish korxonalarda bir yoki ikki kishining ishi emas. Iqtisodiy tahlilni bir kishi amalga oshirishi mumkin. Ammo, FQTni unday qilib bo'lmaydi. Buni bajarish uchun har bir xo'jalik subyektida FQT o'tkaziladigan guruh bo'lishini taqozo qiladi. Bu guruhga iqtisodchi, menedjer, marketolog, buxgalter, moliyachilar, ichki audit xodimlari, ilmiy xodimlar (maslahatchilar) kirishi lozim. Bunda «fikrlar hujumi», «yetti marta o'lcha», evristik, mantiqiy, sinektika kabi ko'plab usullardan foydalanish lozim.

Funksional qiymatli tahlil - ishlab chiqarish sikli davomida sodir bo'ladigan xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni jamlab, sodir bo'lgan sarflarni kamaytirish yoki uni maqbul darajalarini ko'rsatishdan iboratdir.

Ushbu tahlilning obyekti muayyan mahsulot, uning ishlab chiqarish jarayoni hamda texnik-texnologik tizimi hisoblanadi. Misol uchun, korxona traktor ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Demak, traktor uning obyekti bo'lib hisoblanadi.

Funksional qiymatli tahlil o'z ichiga xo'jalik faoliyatini amalga oshirishning dastlabki faoliyatlarini ham qamrab oladi, ya'ni kerak bo'ladigan mablag'lar, ilmiy-metodik ishlar, texnik-iqtisodiy usullar, qurollanish bazasi, oshiqcha xarajatlarni kamaytirish yoki ular uchun qo'shimcha mablag'larni ajratish va hokazolar. Bu ishlarning amalga oshirilishi faoliyat funksiyasini har tomonlama o'rganib ularning sarflash kerak bo'lgan xarajatlari bilan birga belgilanib olinishidan boshlanadi. Mazkur tahlil

turining o'ziga xos xususiyati shundaki, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan barcha omillarni xarajatlar bilan birga bog'liq holda tahlil qilishni ta'minlaydi

Funksional qiymatli tahlil eng ilg'or tahlil turi bo'lib, obyektlarni tizimli o'rganish metodiga asoslanib bajariladi. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– funksional yondashish, ya'ni o'rganiladigan jarayonlar asosiy, qo'shimcha va yordamchi, keraksiz guruhlarga ajratilib o'rganiladi;
– mulk egalarining manfaati nuqtai - nazaridan yondashish;
– tizimli va kompleks yondashish;
– ijodiy yondashish;
– istiqbolli tahlil metodlarini qo'llash.

Ushbu tahlilning eng ijobiy tomoni o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni qanday natija bilan tugashi avvaldan aniq ko'rsata biladi.

Funksional qiymatli tahlil odatda ettita bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

Birinchi bosqich – tayorgarlik bosqichi bo'lib, bunda tahlil obyekti tanlab olinadi, tahlil dasturi va rejasi tuziladi hamda tahlil o'tkazilishi to'g'risidagi qaror rasmiylashtiriladi. **FQTga tayyorlanish bosqichida** eng avvalo, tahlil qilinadigan ko'rsatkich, jarayon, hodisa, faoliyat kabi tahlil obyekti aniqlanadi. Masalan, bitta firmada faqat bir xil mahsulot ishlab chiqarish jarayoni, yoki unga joriy qilinadigan yangi texnologiya, shu firmani boshqaruvchi faoliyat kabilar tahlil uchun obyekt sifatida tanlab olinishi mumkin. Ba'zi hollarda firmaning butun faoliyati ham FQTning obyekti bo'lishi mumkin. Bu tahlil oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqadi.

FQTni o'tkazish uchun bir qancha mutaxassislardan iborat ishchi guruhi tuziladi. Ishchi guruhi qaysi obyektni qay tarzda, qancha vaqtda tahlil qilish rejasini, uning kutilayotgan samaradorligini aniqlab oladi va shundan kelib chiqqan holda tegishli axborotlarni to'plashga kirishadi.

Ikkinchi bosqich – ma'lumotlar to'plash bosqichi bo'lib, bunda ma'lumotlar yig'iladi va tizimlashtiriladi. O'rganilayotgan obyektning texnik holati va qiymat ko'rsatkichlari o'rganiladi, patentli axborotlar va ixtirochilik ishlari ko'rib chiqiladi. **Axbo-**

**rotlarni to'plash bosqichida** ishchi guruhi tanlangan obyektni tahlil qilish uchun tegishli ma'lumotlarni (iqtisodiy ko'rsatkichlarni, konstruktorlik yechimlarini, texnologik jarayon hujjatlarini, patentlarni, ilmiy-texnik tavsiyalar kabilarni) to'playdi, ularni bir tizimga keltiradi va o'rganadi. O'rganish jarayonida obyektda bajariladigan funksiyalarni aniqlab chiqadi va shu funksiyalarning asosiy, yordamchi yoki nokerak ekanligini belgilash bilan birga har bir funksiyaning bajarlishi uchun ketadigan xarajatlar miqdorini ham (sarf qilinadigan vaqtda, pulda) aniqlaydi.

FQTning shu bosqichida bajariladigan funksiyalarning tarkibiy tuzilishi va nokerak funksiyalarni bartaraf qilishning samaradorlik ko'rsatkichlari ham aniqlanadi. Axborotlarning tarkibi, ulardan foydalanish tartibi, uni kimlar amalga oshirishi ham aynan shu bosqichda ko'rsatib beriladi. Tegishli axborotlar yig'ilib, ular bir tartibga keltirilgandan keyin FQT ni boshlash mumkin.

Uchinchi bosqich – analitik bosqich bo'lib, bunda to'plangan ma'lumotlar keraklilik darajasiga qarab guruhlashtiriladi (eng asosiy, asosiy, yordamchi, keraksiz) hamda ma'lumotlarga baho beriladi. Tahlil qilish bosqichida to'plangan va bir tizimga kelgan axborot manbalariga asosan bajariladigan faoliyat bo'lsa, ulardan ham eng xarajatdor faoliyat tanlab olinadi va FQT ni qo'llash shu faoliyatga tadbiq qilishdan boshlanadi. Shunday qilib, korxonaning yoki tahlil qilinayotgan obyektning takomillashuvi uchun FQTning ahamiyati beqiyos ekanligi ko'rinib turibdi.

- to'rtinchi bosqich – ijodiy bosqich bo'lib, bunda vazifalar yechimi bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi, oldingi bosqichlarga moslashtirilishi, keraksiz funksiyalarni likvidlash, bir qancha funksiyalar va obyekt bo'yicha xarajatlarni qisqartirishdan iborat;
- beshinchi bosqich – izlanuvchanlik bosqichi bo'lib, bunda ma'lumotlarni muhokama qilish, izlanish, kompleks baholash hamda ijodiy bosqichda qayta ishlangan takliflarni saralash, eng maqbul variantlarni ishlab chiqarishga joriy qilishdan iborat;
- oltinchi bosqich – tavsiyalar berish bosqichi bo'lib, bunda funksional qiymatli tahlil o'tkazayotganlar oldingi bosqich natijalari va takliflaridan kelib chiqib yakuniy qarorni qabul qilinishi lozim bo'ladi. Funksional qiymatli tahlil natijalarini

muhokama qilish va rasmiylashtirish hamda tavsiyalarning reja grafiklarini to‘g‘rlashlardan iborat bo‘ladi;

- yettinchi bosqichda reja - grafik loyihalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi tavsiyalarni kiritish hamda uni bajarish ishlarini olib borish.

Kelajakda ushbu tahlilni barcha bosichlari bilan amaliyotga joriy qilish O‘zbekistonda nafaqat makro, balki mikroiktisodiyotning tez sur’atlar bilan rivojlanishi uchun eng muhim dastaklardan biri bo‘ladi. Bunda albatta, bir guruh olimlar tavsiyasi yoki bir-ikki firmaga uning usullarini joriy qilish bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Bu davlat ahamiyatiga molik masala. Buni chet mamlakatlar tajribasi ham isbotlab turibdi.

FQT metodologiyasini juda ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqish lozim. Xususan, boshqaruv, ishlab chiqarish (hamma qirralari bilan), xizmat kabi yo‘nalishlar ko‘zda tutilmoqda. Bu kelajakda mahsulot, ish, xizmat sifatini oshirish, ular bo‘yicha «Sifatning mutlaq darajasiga» erishish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Funksional qiymatli tahlilning asosiy maqsadi – mahsulotning (ish,xizmat) iste’mol qiymati va qiymati bo‘yicha maqbul aloqadorlilik hamda moslikni aniqlashdan iborat.**

Funksional qiymatli tahlil quyidagi maqsadlarni amalga oshirishda foydalaniladi:

- korxonaning foydasini oshirish;
- mahsulot tannarxini pasaytirish va foydalanishdagi xarajatlarni kamaytirish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni standart talablari darajasida bo‘lishini ta’minlash;

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish uchun esa quyidagi ishlarni tartibga soladi:

1. Mahsulot ishlab chiqarishda material sig‘imi, mehnat sig‘imi, fond sig‘imini kamaytirish;
2. Transport va undan foydalanish xarajatlarini kamaytirish;
3. Qimmat baho va import orqali olib kelinadigan xom - ashyolarni boshqa o‘rinbosar mahalliy materiallar bilan almashtirish;
4. Sifatli mahsulot ishlab chiqarish salmog‘ini oshirib, sifatsiz mahsulotlar yaratishni kamaytirish yoki to‘xtatish;
5. Mehnat unumdorligini oshirish va hokazolar.

Sifat darajasini oshirishda esa quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

A) talab qilingan sifat ko'rsatkichini belgilab olish;

B) talab qilingan texnik ko'rsatkichlar bilan ta'minlash;

V) talab qilingan darajada mahsulot ishlab chiqarish.

Yakuniy natija ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxini maqbul darajada kamaytirish bo'lib, u quyidagicha amalga oshadi:

- mahsulot uchun sarflanadigan xarajatni mazkur mahsulotga bo'lgan talabni oshirish bilan bir vaqtda kamaytirilishini ta'minlash;

- xarajatlarni maqbul darajada saqlagan holda mahsulotning sifat darajasini oshirish;

- xarajatlarni kamaytirgan holda sifat darajasini saqlab qolish va boshqalar.

Tahlilning asosiy vazifalaridan yana biri - ishlab chiqarishni texnalogik jarayonida sodir bo'layotgan barcha salbiy xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni jamlab, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishdir.

Funksional qiymatli tahlilning natijalarini baholashda uch xil yondashish bo'ladi. Bundan birinchisi *muammoli yondashish*, bunda milliy iqtisodiyot yoki tarmoq miqyosida ayrim muammolarning echilishini ko'riladi. Misol uchun quyosh energiyasini foydalanishni yo'lga qo'yilishi natijasida bu sohada mamlakatda qanday muammolar hal qilinadi. Bu bilan tarmoqda, joylarda energiyaning etishmaslik muammosini tugatildimi? kabi savollarga javob topiladi.

Ikkinchi yondashish - bu *kreditli yondashishdir*. Bu funksional qiymatli tahlil yordamida aniqlangan obyektning amaldagi faoliyati maqsad darajasidami, iqtisodiyotdagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirdimi? kabi savollarni ko'rib chiqadi.

Uchinchi yondashish - bu *izlanuvchanlikdir*. Bu yondashuvda funksional qiymatli tahlilning obyektida ilgari ko'rilmagan kamchiliklarni qayta o'rganib amaliyotga qo'llaydi yoki qo'shimcha fikrlar beriladi.

Funksional qiymatli tahlil asosiy kriteriylarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar, tannarx, rentabellik va boshqalar.

- texnik - konstruktorlik ko'rsatkichlar, ya'ni yaratilgan obyektning tuzilishi va uning iqtisodiyotda kerakligi, ishlab chiqarish texnologiyasi yoki foydalanish ko'rsatmalari, asosiy sarflanuvchi materiallar va material sig'imi, detallarning sotib olish hajmi va hokazo.

- ishlab chiqarish jarayonidagi keraksiz texnalogik ko'rsatkichlar – ishlab chiqarish yoki texnikani ishga solish jarayonida atrof-muhitni ifloslanishi, qiyin ishga tushirilishi yoki katta hajmdagi mehnatni talab qilishi, katta ko'lamni egallashi va boshqalar.

- ishlab chiqarish obyektida resurslar sarfi chegarasini belgilovchi ko'rsatkichlar. Bunda fizik-texnik resurslar zaxirasi, foydalanishdagi resurslar zaxiralari, texnalogiyani qo'llab-quvvatlash va obyektni loyihalashdagi, obyekt hujjatida talab qilgan me'yordagi resurslar sarfini kafolatlash kabi ma'lumotlar o'rganiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlari to'g'risida ma'lumot barcha boshqaruv organlariga uning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatilgan holda taqdim etilishi lozim.

Funksional qiymatli tahlil yordamida ko'rsatilgan reja ijobiy deb topilsa uni amalda ko'rsatib, tashviqot ishlarini olib boradilar.

Funksional qiymatli tahlil injenerlik, iqtisodiy, huquqiy, texnologik masalalarni barchasini mujasamlashtirgan holda jarayonlarni va hodisalarni oxirgi natijasidan avvalroq bilib, o'rganib turadigan tahlil turidir. Bu tahlil turi eng rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishida amalda ko'llanilib katta ijobiy taraflarni egallashga musharraf bo'lgan.

Funksional qiymatli tahlilning shu bilan bir qatorda salbiy taraflari ham mavjud bo'lib, unda barcha bajariladigan ishlar eng optimal variant deb qaraladi va uning yangi texnologiyalarning kirib kelishini sekinlashtiradi. Chunki bu ishlar oldindan ko'rilgan optimal variant va uzoq davrga mo'ljallangan deb qaraladi. Bu salbiy taraflarni oldini olish uchun faoliyat ko'rsatayotgan mehnat kuchlari qatlamini ma'naviy tarafdan boyligini oshirib borish lozim.

Funksional qiymatli tahlilda iqtisodchilar bilan bir qatorda injener, texnolog, oddiy ishchilarni mahsulot ishlab chiqarish

jarayonida qatnashuv darajasini takomillashtirish ishlari ham ko'rib chiqiladi. Umuman bu tahlil har bir faoliyatni aniq o'lchangan va natijalashtirgan holda ko'radi.

## 5.9. Diagnostik tahlil

Jahon moliyaviy-iqtsodiy inqirozini sabab-oqibatlarini o'rganishdan olingan saboqlardan biri korxona faoliyatini iqtisodiy jihatdan o'rganishda voqeliklarni yuzaga kelayotgan belgilari hamda simtoplari orqali, ularning tavsiflash asosida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar va ularning natijalarni oldindan ilmiy asosda bashoratlash zarurat ekanligidir. Oldindan bashoratlangan natijalar maqsadga muvofiq bo'lsa jarayon o'z yo'nalishda davom ettiriladi. Agar, jarayon natijasining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlansa topilgan omillar chora-tadbirlar vositasida faoliyatga joriy etiladi. Basharti, diagnostika natijalari salbiy holatlarni ko'rsatsa, unda reja va byudjet ko'rsatkichlari bozor talablari hamda korxona imkoniyatlari asosida qaytadan ko'rib chiqiladi va zarur o'zgartirishlar oldindan amalga oshiriladi. Diagnostika tahlil qisqa yoki uzoq muddatli voqeliklarni o'rganib ularni iqtisodiy holatning istiqbolli natijalarini hamda rivojlanishini ko'rsatib beradi. Demak, mazkur tahlil turi korxona faoliyatini boshqarishning asosiy funksiyalaridan birini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana, hozirgi davrda iqtisodiy tahlil uchun kerakli manbalar hajmi qisqarib borishi, ularning o'zgarib turishi, tahlil ishlarini me'yoriy manbalar bilan ta'minlash qiyinlashib borayotgan sharoitda diagnostik tahlilga ehtiyoj kuchaymoqda. Chunki kam ma'lumotlar asosida yuzaga keladigan holatlarni oldindan to'g'ri ko'rsatib berish bugungi kun talabidir.

Korxonalarda iqtisodiy diagnostika ko'plab turdagi kompleks analitik vazifalarni hal etish imkonini beradi.

Iqtisodiy diagnostikada barcha turdagi ma'lumotlar manbaidan foydalanish uning aniqligi va ishonchliligini oshiradi.

Iqtisodiy diagnostika korxona faoliyati darajasida uchta bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda diagnostik tahlil o'tkazish uchun kerak bo'ladigan ko'rsatkichlar ro'yxati tuziladi.

Ikkinchi bosqichda o‘rganiladigan parametrlar bo‘yicha analitik tadqiqotlar olib boriladi. Uchinchi bosqichda diagnostikaning natijasiga va olingan ma’lumotlarning boshqaruv jarayonlarida foydalanishiga baho beriladi.

## 5.10. Ichki xo‘jalik va korxonalararo tahlil

Iqtisodiy tahlilning obyekti xo‘jalik yurituvchi subyektlardir. Bularga falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, makon deb qarash mumkin. Makon nuqtai nazaridan iqtisodiy tahlil ikkiga bo‘linadi: ichki va tashqi.

Ichki iqtisodiy tahlil deganda shu xo‘jalik yurituvchi subyekt xodimlari tomonidan o‘tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyati xo‘jalik faoliyati tahlilini oladigan bo‘lsak, faqat shunga daxldor kishilar tomonidan o‘tkaziladigan tahlildir.

Tashqi iqtisodiy tahlil deganda shu xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini boshqa tashqi subyektlar tomonidan o‘tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyati xo‘jalik faoliyatini assosiatsiya, soliq idoralari, bank xodimlari, statistik va moliya organlari tomonidan tahlil qilinishi mumkin. Bu tahlil tashqi tahlilga misol bo‘ladi va ular moliyaviy hisobotlarga asosan ajratiladi.

Ushbu tahlilning tasnifi va tavsifi quyidagi chizmada keltirilgan.




*5.7-chizma. Iqtisodiy tahlilning makon nuqtai nazaridan tasnifi.*

Xo'jalik faoliyatini o'rganishga qaratilgan tahlil vositasida korxonadagi muayyan ish joyi, smena, zveno, brigada yoki sex faoliyatini alohida-alohida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir elementni alohida o'rganish obyektga taalluqli bo'lgan hodisa va jarayonlarni aniq bilishga hamda ko'rsatkichlarni korxonaning umumiy faoliyatiga qay tartibda, qanchalik ta'sir qilayotganini ko'rsatib beradi.

Mazkur tahlil turi korxona tarkibidagi faqat bir bo'lim yoki sohani to'liq va chuqur o'rganish uchun tashkil etiladi. Xulosalari esa shu bo'lim yoki sohaga taalluqli bo'ladi. Yana, ushbu tahlida ko'proq miqdor o'lchamidagi ko'rsatkichlar tadqiq etiladi hamda ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash evaziga yakuniy faoliyatning samarali natijalari belgilab olinadi.

Ichki xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy manbalar bo'lib o'rganiladigan bo'lim yoki soha bo'yicha tuzilayotgan hisobot ma'lumotlari hamda buxgalteriya hisobotlari, boshlang'ich hujjatlar, statistik va tezkor hisob ma'lumotlaridan hisoblanadi. Xo'jalik ichki faoliyatini o'rganishdagi maqsadlardan biri korxonadagi eng ilg'or tajriba yoki eng qoloq holatlar nimalardan iborat ekanligini bilib olishdir.

Korxonalararo tahlil o'rganilayotgan ko'rsatkichni ikki va undan ortiq korxonalarning xuddi shunday ma'lumotlari asosida taqqoslab o'rganish tushuniladi. Bunday tahlilni tashkil etishning zaruriyati shundaki, korxonalar o'rtasida o'rtacha yoki eng yuqori natijalar darajasini bilish zaruryatidir. Muayyan korxonaning erishgan natijasi yoki o'rtacha ko'rsatkichi boshqa raqobatdosh korxonalarda qanchalik ekanligini ko'rish, va boshqa korxonalar o'rtasida o'rganilayotgan subyekt qanday mavqeiga egaligini bilishdir.

Korxonalararo tahlilni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

korxonalar ixtisosi, hajmi va boshqa sharoitlari bir xil bo'lishi zarur;

taqqoslanadigan ko'rsatkichlarning aniqlanish uslublari aynan bir xil bo'lishi lozim.

Raqobatdosh iqtisodiyotda korxonalararo tahlil turining ahamiyati beqiyosdir.

### 5.11. Hudud, tarmoq va vazirlik bo‘yicha tahlil

Hudud, tarmoq va vazirlik bo‘yicha erishilgan asosiy eng muhim ko‘rsatkichlarni tahlil qilish iqtisodiyotni makro boshqarishda o‘ta muhim masaladir. Ushbu tahlil turi tegishli statistik ma’lumotlarni o‘rganish asosida amalga oshiriladi. Bunda hudud, tarmoq va vazirlik bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ya’ni yalpi ichki mahsulot, mehnat unumdorligi, o‘rtacha ish haqi va shu kabilar ko‘rsatkichlar o‘rganiladi.

Tahlil qilishda ko‘llaniladigan uslublar ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, ko‘rsatkichlarni o‘rganishda korxonalar soni ko‘p bo‘lganligi uchun guruhlashtirish va balans usullaridan keng foydalaniladi.

Hudud, tarmoq va vazirlik bo‘yicha umumlashtirilgan iqtisodiy ma’lumotlarni o‘rganish mamlakat uchun qaysi obyektlar yuqori samara keltirayotganligini yoki aksincha, makro darajada o‘rtacha natijalar qandayligini bilish uchun ham zarurdir.

Kengaytirilgan ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi. U to‘rtta bosqichdan iborat. Birinchisi moddiy va nomoddiy ne’matlar ishlab chiqarish bo‘lsa, ikkinchisi uning taqsimotidir. Uchinchi bosqich, muomila bosqichi va nihoyat oxirgi bosqich iste’moldir. Hamma bosqichlarda o‘ziga xoslik bor. Shu tufayli ushbu soha bo‘yicha ham tahlil turlari mavjud. Ular ishlab chiqarish sohasi tahlili, taqsimot sohasi tahlili, muomila sohasi tahlili va iste’mol sohasi tahlilidir.




*5.8-chizma. Iqtisodiy tahlilning tarmoq tamoyili bo'yicha tasnifi.*

Iqtisodiy tahlilni kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha tasnifi quyidagi rasmda ko'rsatib o'tilgan.




5.9-chizma. *Iqtisodiy tahlilni kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha tasniflanishi.*

Shuni e'tirof etish kerakki, ushbu guruhga kiruvchi tahlil turlari alohida fan yoki tahlil turi sifatida o'qitilmaydi. Amaliyotda ham bu tahlillar alohida mavjud emas. Ammo har bir bosqich tahlili turli tarmoqlar tahlilida o'z ifodasini topadi. Masalan, ishlab chiqarish sohasining tahlili sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi ishlab chiqarishga oid sohalar tahlilida ham savdo korxonalari (ulgurji, chakana) xo'jalik faoliyatining tahlilida o'z ifodasini topadi. Xuddi shunday gaplarni boshqa sohalar uchun ham aytish mumkin.

## 5.12. Tahlilning boshqa turlari

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jamiyatning barcha jabhalarida sodir bo'ladi. Ularni o'rganish uchun iqtisodiyotni turli darajalari bo'yicha tasniflash lozim. Bular shu jihatdan ikkiga: makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajaga bo'liiadi.

Makroiqtisodiyot darajasida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni **makroiqtisodiy tahlil o'rgatadi.** Bu mamlakat miqyosida milliy-iqtisodiyot holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Masalan, yalpi milliy mahsulot, aholining daromadlari, milliy daromad kabi ko'rsatkichlar shu makroiqtisodiyot darajasidagi ko'rsatkichlarga kiradi.

**Mikroiqtisodiy tahlil** esa bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Bu tahlilda korxona, birlashmalar faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Masalan, ishlab chiqarilgai mahsulot (ish, xizmat) hajmi, foyda, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi, korxonalar ish va bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va h.k.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgacha makroiqtisodiy tahlil bilan bir qancha tahlilga oid bo'lmagan fanlar (iqtisodiy nazariya, statistika kabilar) shug'ullanadi. Ushbu fanlarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning holati o'rganiladi, xolos. Ammo hozirgi paytda O'zbekiston uchun makroiqtisodiy tahlil obyektiv zaruriyatga aylandi. Respublika Vazirlar Mahkamasida, barcha hokimliklarda «Axborot va tahlil» guruhlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning vazifasi bevosita makroiqtisodiy tahlil bilan shug'ullanishdan iboratdir. Shunga qaramay hamon makroiqtisodiy tahlil metodologiyasi ishlab chiqilmagan.

Makroiqtisodiy tahlilda makro darajadagi ko'rsatkichlarning holati bilan birga ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar ham o'rganiladi. Bu faqat makroiqtisodiy tahlilning vazifasi, maqsadi va obyektiga kiradi. Shu tufayli makroiqtisodiy tahlilning metodologik va nazariy asosi yaratilishi lozim.

Mavzuga oid tahlil. Xo'jalik faoliyatida muayyan mavzuga oid bo'lgan jarayonlar va ularga tegishli bo'lgan obyektlarni alohida tarzda, batafsil va tizimli o'rganishga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Misol uchun, mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanishning tahlili, asosiy vositalar tahlili, material resurslar va ulardan foydalanish tahlili kabilar. Ushbu tahlilda mavzuga oid barcha jihatlar chuqur va keng ko'lamda o'rganiladi. Boshqa tahlil turlarida mavzuga tegishli jihatlar tahlil turilari maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib o'rganiladi, xolos.

**Marjinal tahlil.** Xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratib foyda hajmini aniqlash va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlildir.

**Texnik-iqtisodiy tahlil.** Ushbu tahlil turi aniq mehnat bilan mahsulotning belgilangan sifatlarini saqlab qolgan holda, natural ko'rinishida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayonlarni sabab-oqibat asosida o'rganadi. Bunga misol qilib mehnat resurslari, asosiy vositalar, xom-ashyolar, texnologiyalar va shu

kabilarni moddiy ko'rinishdagi o'zaro uzviy faoliyatini ko'rsatish mumkin. Mazkur tahlil olib borishdan maqsad ularni o'zaro yanada muvofiqlashtirish hamda bu boradagi innavatsion yangiliklarni joriy qilishdir.

**Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil.** Har qanday iqtisodiy faoliyatdan kutilayotgan asosiy natija u jamiyatga (korxona va uning xodimlari, korxona faoliyati bilan bilvosita bog'liq bo'lgan insonlar hayoti va shu kabilar) qanday ijtimoiy sharoitlar yaratgani va ularning rivojlantirib borayotganligi bilan baholanadi. Misol uchun, ishlab chiqarishda xodimlar sog'ligiga zarar yetkazmaydigan sharoitlarni yaratish, xodimlar sog'ligini doimo mustahkamlovchi omillarni vujudga keltirish, maishiy, o'y joy, sport, ma'naviy tadbirlar va shu kabilar. Bu bilan me'yordagi mehnat sharoitlari tashkil etiladi. Xuddi shu jihatlar ijtimoiy tahlil vositasida o'rganiladi. Maqsad esa yaxshi sharoit qanchalik ish unumini oshishiga ta'sir etayotganligini va ular o'rtasidagi sabab-oqibatlarni bilishdir.

**Iqtisodiy-ekologik tahlil.** Korxonalar faoliyatida ekologiya bo'yicha tahlilni olib borish davrimizning dolzarb vazifasidir. Mazkur tahlilda jamiyatning, xususan korxona faoliyatining tabiat bilan munosabati hamda unga ko'rsatayotgan ta'sirlari tadqiq qilinadi.

Ekologiya tahlilini olib borishdan maqsad jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni doimo saqlash hamda uni imkon qadar yaxshilashdir. Ekologik tahlilni samarali amalga oshirish jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi.

## 5.13. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot turlari va ularning manbalari

O'zbek tilining izohli lug'atida axborotga ikkita izoh berilgan:

Xabar; xabarlar, ma'lumot, informatsiya.

Vaqti-vaqti bilan chiqib turadigan ba'zi to'plamlarning nomi. Bularning ichida iqtisodiy tahlilga mosroq atama bu ma'lumotdir.

Ushbu kitobda "Ma'lumot" atamasiga ham ikkita izoh berilgan:

O'qish o'rganish natijasida olingan bilim darajasi.

Xabar, axborot. Dalil bo'ladigan hujjat, raqam va shu kabi materiallar.

Ko'rinib turibdiki, bu ikki holda ham axborotlarning mazmuni iqtisodiy tahlil va boshqaruv nuqtai nazaridan yetarli darajada ochib berilmagan. Bizning fikrimizcha, axborotlar tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar majmuasidan iboratdir. Lekin iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun bizga barcha axborotlar ichidan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'z ichiga olgan iqtisodiy axborotlar zarur.

Iqtisodiy axborotlar iqtisodiyotda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar to'g'risidagi ma'lum bir huquqiy kuchga ega bo'lgan ma'lumotlar majmuidan iboratdir. Masalan, o'tgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi to'g'risidagi axborotni biz ushbu xo'jalik yurituvchi subyektning o'tgan davrdagi hisobotidan olamiz. Hisobot tashkilot rahbarining va bosh buxgalterning yoki boshqa mas'ul shaxslarning imzosi va shu imzolarni tasdiqlovchi yumaloq muhri bosilgan bo'lsagina qonuniy kuchga ega. Ushbu ko'rsatkichning hozirgi holati va kelgusi istiqboldagi hajmi ham tegishli tarzda hisob-kitob qilinib mas'ul shaxslar tomonidan tasdiqlansagina ulardan iqtisodiy tahlilda foydalanish mumkin.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, axborotlar zarur miqdorda bo'lishi lozim. Uning kam bo'lishi to'liq va to'g'ri xulosa chiqarish imkonini bermaydi, ko'pi esa ulardan tez va soz foydalanishda qiyinchiliklar tug'dirishi, ortiqcha vaqtni olishi mumkin. Axborotlarning ko'pi yaxshi, lekin ular ortiqcha bo'lmasligi lozim. Shu tufayli har bir jarayonni tahlil qilganda, aynan shu jarayonga tegishli axborotlarni olish taqozo qilinadi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumotlar va axborotlarni bir-biridan farqlamoq lozim.

Ma'lumotlar deganda sodir bo'lgan hodisa va jarayonlarni o'zida ifoda etgan birlamchi hujjatlar va boshqa vositalarda aks etiladigan raqamlar, belgilar, xabarlar tushuniladi. Masalan, 15 kishi bir oy ishladi degan ma'lumot tabelda, 2 kishi kasallik varaqasida, shuncha mahsulot sotildi degan ma'lumot schet-fakturada, qancha pul o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot to'lov-byurtmasida ifodalanadi. Bularning hammasi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi.

Axborotlar deganda, yuqorida ta'kidlanganidek, shu ma'lumotlarni jamlash, ularni ishlash orqali ma'lum tizimga keltirish natijasida hosil bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadigan ma'lumotlar majmui tushuniladi. Iqtisodiy tahlilda asosan axborotlardan kengroq foydalaniladi.

Ba'zan tahlilni chuqurlashtirish, aniqlik kiritish uchun bevosita birlamchi ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Axborotlar qayerda ifodalanishiga qarab uchga bo'linadi: og'zaki, hujjatlarda va kompyuterda.

Og'zaki axborotlar ko'pincha tezkor hisobda qo'llaniladi. U bevosita muloqot, telefon va boshqa vositalar orqali berilishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida og'zaki axborotlar juda keng qo'llaniladi. Bunda axborot beruvchi va uning iste'molchisi o'rtasida yuksak ishonch bo'lishi lozim.

Sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlar hujjatlarda ifoda etiladi. Bular eng avvalo buxgalteriya hisobida o'z ifodasini topadi. Har bir jarayonni qonuniyligi aynan shu va shu kabi hisoblarda o'z tasdig'ini topadi. Shu jihatdan juda ko'p axborotlar iqtisodiy tahlil uchun hujjatlardan olinadi. Har bir hujjat qonuniy kuchga ega bo'lishi kerak.

Kompyuter dasturlari orqali ifoda etilgan axborotlar hozirgi paytda juda keng qo'llanilmoda. Zero, kompyuterlar barcha hisob-kitob jarayoniga kirib bormoqda. Hozirgi paytda kompyuterlardan bevosita axborotlarni uzatishda ham foydalanilmoqda. Masalan, O'zbekiston "Internet"ga ulanib butun dunyo axborot tizimiga kirdi va ulardan bemalol foydalanilmoqda. Yoki hozir bank tizimlari bo'yicha yagona kompyuter tarmog'i tashkil qilindi. Bu ham banklar o'rtasidagi muloqotni kompyuter orqali amalga oshirish imkonini tug'diradi.




*5.10-chizma. Axborotlarning qayerda ifodalanishi bo'yicha tasnifi.*

Og'zaki axborotlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi: so'rovga javob tariqasida berilgan axborot, bevosita muloqotda beriladigan axborot, ma'ruza va nutqlar orqali beriladigan axborotlar.

So'rovga javob tariqasida beriladigan axborotlar ko'pincha rahbarlar, jurnalistlar, ilmiy xodimlar va boshqa tahlilchilarning intervyulari orqali aniqlanadi va olinadi. Masalan, tahlilchi iqtisodiy islohotning jadal borishini asoslash uchun tuman hokimiyatiga ba'zi savollar bilan murojaat qilib, ularning javoblari asosida o'z xulosalarini yanada boyitish va chuqurlashtirishi mumkin.




*5.11-chizma. Og'zaki iqtisodiy axborotlar tasnifi*

Muloqot paytida beriladigan axborotlar ha xulosa chiqarish va ma'lum qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi. Masalan, ustoz-shogird muloqoti shogird uchun juda ko'p axborot berishi mumkin. Yoki mutaxassislarning dehqonlar bilan muloqotini misol keltiraylik. Dehqonlarga qachon, qancha o'g'it berish, necha marta haydashi, qachon o'rishi, qanday o'rishi kabi ko'rgazmalar ham og'zaki muloqot orqali berilishi mumkin.

Ma'ruza va nutqlar orqali ham juda ko'p ma'lumotlar beriladi. Masalan, O'zbekistonning boshqa hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasida tutgan o'rni, aholining va mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari kabi ma'lumotlar tinglovchilarga to'g'ri va aniq xulosa chiqarish uchun juda zarur ma'lumotlar bo'lib hisoblanishi mumkin. Yoki notiqning biron-bir sohada samaradorlikni oshirish uchun olib boriladigan ishlar ko'lami va natijalari to'g'risidagi ma'ruzasi aynan shu sohaga kiruvchi bitta korxona rahbari uchun o'zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishda asos bo'ladi.

Juda ko'p axborotlarni radio, televideniya kabi og'zaki axborot vositalaridan ham olish mumkin. Telefonogramma ham bevosita og'zaki axborot vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, og'zaki axborotlar hozirgi paytda, tahlil qilish, ma'lum xulosa chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Kelajakda esa uning rivojlanishi, qo'llanilish doirasining kengayishi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Kelajakda esa uning rivojlanishi, qo'llanilish doirasining kengayishi, boshqaruv uchun asos bo'lishi shak-shubhasizdir.

Hujjatlarda ifodalanadigan axborotlar hozirgi sharoitida iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan asosiy axborotlardir. Ta'kidlanganidek, sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar, eng avvalo, hujjatlarda ifodalanadi. Bu hujjatlar mulkdor, davlat, ish beruvchi va sohibkorning manfaatini, haq-huquqini ifoda etish bilan birga, ularni himoyalaydi ham. Masalan, ish beruvchi sohibkorning qancha ishlaganiga qarab ish haqi to'laydi. Mulkdor o'z mulkini bir kishiga xatlab ijaraga bergan bo'lsa, ijarachi shu mulkni son va sifat jihatidan saqlanishi uchun javobgar va h.k.

Demak, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda hujjatlarda ifoda etilgan axborotlarning ahamiyati beqiyos. Hujjatlar ham juda ko‘p, ular turli-tuman. Bu haqda buxgalteriya hisobi fanida to‘liq ma’lumotlar beriladi.

Iqtisodiy tahlilda hujjatlarning jamlangan qismlaridan foydalaniladi. Ular ko‘pincha buxgalteriya, statistik va tezkor hisob-kitoblarda ifodalanadi. Iqtisodiy jarayonlarni aks ettiradigan hujjatlarda ifodalanadigan birlamchi axborotlar asosan korxona rejasida, buxgalteriya, statistik va tezkor hisob va hisobotlarda o‘z aksini topadi. Buni quyidagi chizmada ifodalangan.




*5.12-chizma. Iqtisodiy axborotlarning tasniflanishi.*

Ushbu axborotlarning hammasi iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun asosiy axborot beruvchi ma’lumot bo‘lib hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil jarayonida turli xil axborotlar hamda ma'lumotlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning to'g'ri, aniq, ishonchli bo'lishi hamda o'z vaqtida olinishi tahlil natijalarining samaradorligini oshiradi.

Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muayyan shakl va mazmunga ega iqtisodiy hodisa, voqea va xo'jalik jarayonlarini qayd etish yoki qayta hisoblab tegishli manbalarlarda darak yoki ko'rsatkich ko'rinishida aks ettirish iqtisodiy tahlil uchun ma'lumotlar hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilda foydalanuvchilarga uzatiladigan xabar tavsifiga ega ma'lumotlar yoki ularning to'plami axborot tushunchasini beradi.

Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlar hamda axborotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- iqtisodiy ma'lumotlar;
- huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar;
- ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar;
- tabiiy-ekologik ma'lumotlar;
- benchmarking ma'lumotlari;
- boshqa ma'lumotlar.

**Iqtisodiy ma'lumotlar** ko'lami kengligi jihatidan ikki yirik guruhga bo'linadi. Birinchisi – ichki iqtisodiy ma'lumotlar. Ularni biznes reja, hisob tizimi, byudjet hisob-kitoblari, korxona dasturi ma'lumotlari, turli xil texnalogik ma'lumotlar va shu kabilar tashkil etadi. Ikkinchisi – tashqi iqtisodiy ma'lumotlar. Misol uchun, tovar-xomashyo bozoridagi ma'lumotlar, qimmatli qog'ozlar bozoridagi ma'lumotlar, raqobatdosh korxona ma'lumotlari, tarmoqdagi o'rtacha ko'rsatkichlar va shu kabilar. Bu manbalar tahlilda eng ko'p foydalaniladi.

**Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar** xalqaro va mamlakatda amal qilayotgan barcha qonunlar, hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar hamda aktlarda rasmiylashtirilgan axborotlar, korxona pasporti, ustavi, korxona a'zo bo'lgan turli uyushmalardagi shartnomalar va shu kabilardan iborat bo'ladi.

**Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar** esa eng yangi taraqqiyot, ilm-fandagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tabiiy-ekologik ma'lumotlar** tabiat, yer, suv, havo, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamlashtirgan axborotlardan iborat bo'ladi.

**Benchmarking ma'lumotlari** ro'y berishi mumkin bo'lgan, biroq ehtimoliy ma'lumotlardir. Mazkur ma'lumotlar barcha ma'lumot va axborotlarni qayta ishlash yo'li bilan yoki voqelar rivoji bilan evristik usulda shakllantiriladi.

**Boshqa ma'lumotlar**ga esa, iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-texnikaviy, tabiiy-ekologik, benchmarking kabi manbalarda aks etmagan ma'lumotlar tushunilib, ularga ommaviy-axborot vositalari, gazeta va jurnallardagi, radio va televideniyadagi keltirilgan axborotlar kiradi.

Turli axborot va ma'lumotlarni tahlil jarayonlarida qo'llash natijalarni mazmunini boyitishga, boshqaruv qarorlarini xolisona bo'lishiga asos sanaladi.

Iqtisodiy axborotlar boshqa turdagi axborotlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- Hujjatlashganligi. Barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich hujjatlarda qayd etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi.
- Turli hil bo'lishi. Hodisa va voqealar ko'p manbalarda qayd etilishi, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir-biridan farqlanadi.
- Ommaviyligi va hajmining kengligi. Ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori organlar tomonidan tasdiqlanilganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.
- Davr oralig'ida takrorlanib turishi. Tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar muntazam to'lg'azilib tegishli yuqori tashkilotlarga belgilangan davrda topshiriladi. Hisobot davrlari - choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo'linib axborotlar tuziladi.
- qonunlashganligi va chegaralanganligi. Barcha yuqori organga topshiriladigan yoki ochiq e'lon qilinadigan iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, moliya vazirligi, iqtisodiyot vazirligi va soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan talab hamda shakllarga asoslanib tuziladi. Bozor munosabatlarida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma'lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo'lib, faqat egasining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin.

• ko‘p qirraliligi va sermazmunligi. Iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o‘lchamlarida ko‘rsatiladi, boshlang‘ich hujjatlarda korxona nomi, imzo chekuvchilarning nasl-nomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko‘rsatilgan holda rasmiylashadi.

Iqtisodiy ma’lumotlarni aksariyat qismini hisob tizimi axborotlari tashkil etadi. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari esa iqtisodiy tahlilning axborotlari tarkibida yirik salmog‘ni egallaydi.

Axborot va ma’lumotlar mazmuniga ko‘ra turli xil bo‘lishi, ularning manbalariga ham ta’sir etadi. Chunki, har bir ma’lumot miqdor va mazmunini shakllantirib bera oladigan manbadan olinadi. Demak, manbalar tasnifi ham mazmun tasnifiga o‘xshashdir.

Tahlil uchun kerakli manbalar quyidagi talablarni bajarishi lozim:

1. Haqqoniy va xolis bo‘lishi.

2. Manbalar tahlil maqsadlari uchun moslashtirilgan hamda keng imkoniyatli bo‘lishi, ya’ni reja, hisob va statistik malumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to‘liq yoritishi kerak.

3. Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o‘lchamlarda aks ettirilishi lozim.

4. Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog‘liqligi saqlaniladi hamda ulardagi axbarotlar bir-birini to‘ldirib turilishini taqozo etiladi.

5. Manbalardagi ko‘rsatkichlarni aniqlanish tamoyillari va aks ettiriladigan davrlari mosligi ta’minlanishi zarurdir.

Ushbu talablarga javob beruvchi barcha axborot manbalari va ulardan foydalanish tahlil natijalarining aniq va sermazmun bo‘lishiga imkon yaratadi.

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan barcha manbalarni ishonchliligini, aniqliligini va to‘g‘riligini tekshirish natijalarning samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. Barcha yig‘ma ma’lumotlarni har tomonlama to‘g‘riligi texnik va mazmunan turlar ajratilib tekshiriladi.

Texnik tekshirish - axborot manbalarini arifmetik jihatidan to‘g‘riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko‘rsatkichlarni bir-biriga o‘zaro mos kelishini e’tiborga olgan holda o‘rganishdir.

Misol uchun, moliyaviy hisobotning turli shakllaridagi ma'lumotlarni bir-biriga mosligini o'rganish tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

**5.2-jadval**

**Moliyaviy hisobot ma'lumotlarini bir-biriga mosligini tekshirish**

| Ko'rsatkichlar | Birlamchi | | | Ikkilamchi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Nomi | Shakl raqami | Satri | Summa | Shakl raqami | Satri | Summa | Moslig i |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| Asosiy vositalar: boshlang'ich qiymat | 1 | 010 | 71000 | 3 | 130 | 71000 | Mos |
| Eskirish qiymati | 1 | 011 | 44500 | 3 | 130 | 44500 | Mos |
| Ustav kapital | 1 | 320 | 80000 | 5 | 080 | 80000 | Mos |
| Taqsimlanmagan foyda | 1 | 350 | 45000 | 5 | 080 | 45000 | Mos |
| Va hokazolar | | | | | | | |

Shunday tartibda debitorlik va kreditorlik qarzlarni, pul mablag'lar harakatini va boshqa ma'lumotlarni miqdoran to'g'riligini tekshirish mumkin.

Mazmun jihatidan tekshirish – ma'lumotlarning haqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan ko'rsatkichlarning haqiqatda mavjudligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunday tekshirish buxgalteriya hisobi hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarni inventarizatsiya o'tkazish orqali taqqoslash, sanab ko'rish va o'lchash yo'li bilan to'g'riligiga ishonch hosil qilishdir.

Tahlil uchun kerakli ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va ularni tez muddatda foydalanishga tayyorlash hamda qayta ishlashni samarali yo'li kompyuterlarni tahlil jarayoniga joriy qilishdir.

**Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:**

- iqtisodiy tahlil turlari;
- moliyaviy tahlil;
- boshqaruv tahlili;
- tezkor tahlil;
- joriy tahlil;
- istiqbolli tahlil;
- kompleks tahlil;
- tizimli tahlil;
- solishtirma tahlil;
- texnik-iqtisodiy tahlil;
- ijtimoiy-iqtisodiy tahlil;
- iqtisodiy-ekologik tahlil;
- ichki xo‘jalik va korxonalararo tahlil;
- iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborotlar;
- iqtisodiy axborotlar;
- me’yoriy-huquqiy axborotlar;
- ilmiy-texnologik axborotlar;
- tabiiy-ekologik axborotlar;
- ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish usullari.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Iqtisodiy tahlil qanday turlarga bo‘linadi?
2. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining farqli jihatlarini ko‘rsatib bering?
3. Iqtisodiy tahlil o‘tkazilish davrlariga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?
4. Istiqbolli iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlarini ko‘rsatib bering?
5. Kompleks iqtisodiy hamda tizimli tahlilning afzalliklari va kamchiliklarini sanab o‘ting?
6. Iqtisodiy tahlil jarayonida qanday turdagi axborotlardan foydalaniladi?
7. Iqtisodiy axborotlar qaysi jihatlari bilan boshqa turdagi axborotlardan ajralib turadi?

## Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

**1-topshiriq.**

Iqtisodiy tahlilning turlarini belgilariga ko‘ra tasniflang.

| Iqtisodiy tahlilning turlarga ajratishga asos bo‘ladigan belgilar | Iqtisodiy tahlilning turlari |
|---|---|
| A) | 1.<br>2.<br>3.<br>... |
| B) | 1.<br>2.<br>3.<br>... |

**2-topshiriq.**

Boshqaruv tahliliga keng qamrovli izoh bering.

| Boshqaruv tahlili nima ? | Boshqaruv tahlilining obyektlariga nimalar kiradi? | Boshqaruv tahlilining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat ? | Izoh |
|---|---|---|---|
| | | | |

**3-topshiriq.**

Moliyaviy tahlilga izoh bering.

| Moliyaviy tahlili nima ? | Moliyaviy tahlilining obyektlariga nimalar kiradi? | Moliyaviy tahlilining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat ? | Izoh |
|---|---|---|---|
| | | | |

**4-topshiriq.**

Berilgan ma’lumotlar asosida ishlab chiqarishning borishini tezkor tahlil qiling.

| № | Ko‘rsatkichlar | Rejada | Haqiqatda | Farqi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Ishchilar soni, kishi | 90 | 85 | |
| 2 | Bir kunda ishlash kerak bo‘lgan jami kishi soat | 720 | 630 | |
| 3 | Bir kunlik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, dona | 180 | 173 | |

## Test savollari:

**1. Iqtisodiy tahlilning turlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.**

A. Ichki va tashqi; korrelyatsion va regratsion; ixtiyoriylik va taqqoslanuvchanlik;

V. Moliyaviy va boshqaruv; tezkor, joriy va istiqbolli; kompleks va tizimli; ichki va tashqi; funksional qiymatli va diagnostik tahlil; makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil; korxonalararo va hududlararo.

S. Tezkor, joriy va istiqbolli; nazariy xizmat ko‘rsatish; mazmunning shakldan ustunligi; ichki va tashqi;

D. Hammasi to‘g‘ri.

**2. Moliyaviy tahlil bu...**

A. Korxonaning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, moliyaviy natijalari, asosiy vositalari, pul oqimlari va ularning holati, tarkibi, o‘zgarishlarini, ta’sir qiluvchi omillar hamda maxsus ko‘rsatkichlar tizimi asosida tadqiq etish va o‘rganishdir;

V. Korxonada mablag‘lar va boshqa resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini, omillarini, imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi hamda qarorlarini qabul qilishda ilmiy asos bo‘ladigan faktlarni beruvchi tahlildir;

S. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini o‘rganishdir;

D. Korxonaning kelajakdagi imkoniyatlarini o‘rganishdir.

**3. Boshqaruv tahlili deb - ...**

A. Korxonaning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, moliyaviy natijalari, asosiy vositalari, pul oqimlari va ularning holati, tarkibi, o‘zgarishlarini, ta’sir qiluvchi omillar hamda maxsus ko‘rsatkichlar tizimi asosida tadqiq etish va o‘rganishdir;

V. Korxonada mablag‘lar va boshqa resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini, omillarini, imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi hamda qarorlarini qabul qilishda ilmiy asos bo‘ladigan faktlarni beruvchi tahlil turidir;

S. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini o‘rganishdir;

D. Korxonaning kelajakdagi imkoniyatlarini o‘rganishdir.

**4. Tezkor (operativ) tahlil bu ...**

A. Korxona faoliyatidagi o‘rganilayotgan jarayonlar bilan tezkor va yaqin oralig‘ida amalga oshiriladigan tahlil turidir;

V. Korxona kelajagini mo‘ljallab o‘tkaziladigan tahlildir;

S. Korxonani o‘tgan hisobot davri faoliyatini batafsil o‘rganishga qaratilgan tahlildir;

D. Korxona faoliyatini batafsil va har tomonlama o‘rganadigan tahlildir.

**5. Joriy tahlil deb ...**

A. Korxona faoliyatidagi o‘rganilayotgan jarayonlar bilan tezkor va yaqin oralig‘ida amalga oshiriladigan tahlil turiga aytiladi;

V. Korxona kelajagini mo‘ljallab o‘tkaziladigan tahlil turidir;

S. Korxonani o‘tgan hisobot davri faoliyatini batafsil o‘rganishga qaratilgan tahlil turi hisoblanadi;

D. Korxona faoliyatini batafsil va har tomonlama o‘rganadigan tahlildir.

**6. Istiqbolli tahlil deb - ...**

A. Korxona faoliyatidagi o‘rganilayotgan jarayonlar bilan tezkor va yaqin oralig‘ida amalga oshiriladigan tahlildir;

V. Korxona kelajagini mo‘ljallab o‘tkaziladigan tahlil turi tushuniladi;

S. Korxonani o‘tgan hisobot davri faoliyatini batafsil o‘rganishga qaratilgan tahlil turiga aytiladi;

D. Korxona faoliyatini batafsil va har tomonlama o‘rganadigan tahlildir.

**7. Kompleks tahlil turiga qaysi javobda to‘g‘ri izoh berilgan?**

A. Korxona faoliyatidagi o‘rganilayotgan jarayonlar bilan tezkor va yaqin oralig‘ida amalga oshiriladigan tahlil;

V. Korxona kelajagini mo‘ljallab o‘tkaziladigan tahlil;

S. Korxonani o‘tgan hisobot davri faoliyatini batafsil o‘rganishga qaratilgan tahlil;

D. Korxona faoliyatini batafsil va har tomonlama o‘rganadigan tahlil.

**8. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan ma’lumotlar mazmuniga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?**

A. Iqtisodiy, huquqiy-me’yoriy;

V. Ilmiy-texnikaviy, tabiiy-ekologik;

S. Bennchmarking;

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

**9. Ishlab chiqarish sikli davomida sodir bo‘ladigan harajatlar to‘g‘risida ma’lumotlarni jamlab, sodir bo‘lgan sarflarni kamaytirish yoki uni optimal sarf darajalarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan tahlil – bu...**

A. Korxonalararo tahlil;

V. Funksional-qiymatli tahlil;

S. Tezkor tahlil;

D. Istiqbolli tahlil.

**10. Funksional-qiymatli tahlil nechta bosqichdan iborat?**

A. 5 ta

V. 3 ta

S. 7 ta

D. 4 ta

**11. Iqtisodiy tahlilning tahlil qilinadigan davrlariga qarab:**

A. Operativ tahlil, joriy tahlil, istiqbolli tahlil;

V. Operativ tahlil, istiqbolli tahlil;

S. Kompleks tahlil, sistemali tahlil;

D. Operativ tahlil, joriy tahlil;

# VI bob. IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL QILISH VA UNING AXBOROT BAZASI

## 6.1. Korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy qoidalari

Korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning natijasi asosan, uning to'g'ri amalga oshirilishiga bog'liq. Iqtisodiy tahlil qilish qator talablarga javob berishi lozim. Ya'ni, u reja va yangi metodikaga asoslanishi hamda analitik jarayoni samarasini ta'minlab berishi kerak.

Boshqaruv uchun analitik ishlanmalarni bir tartibda, o'z vaqtida hamda tushunarli tarzda yetkazib berishni ta'minlash uchun iqtisodiy tahlilni tashkil qilish va o'tkazish jarayonlari quyidagi talablarga asoslanadi.

- Majburiyatlarni taqsimlanishi. Tahlilni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar alohida ijrochilarga bo'lib beriladi hamda u bo'yicha ma'sul belgilanadi.

- Tahlil kamchiqim natijasi esa samarali bo'lishi zarurur. Tahlilni amalga oshirishda tahlilning yangi usullari, ma'lumotni kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganish, ma'lumotni yig'ish hamda uni saqlashning ratsional usullari keng miqyosda ishlatilishi lozim. Natijalardan esa turli maqsadlarda foydalanish imkoniyati ta'minlanishi shart. U asosida qabul qilingan qarorlar aniq ijobiy yakunlar bilan tugashi kerak.

- Ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlarni to'la qondirishga yo'naltirilishi. Tahlilni turli subyektlarining informatsion talablarni imkon qadar to'la qondirish yo'llarini hamda tahlilni o'tkazishga ketgan xarajatlarni kamaytirish bilan uyg'unlashtirib olib borish.

- Tahlil ishlarini reglamentatsiyalash va unifikatsiya qilish. Reglamentatsiyalash har bir ijrochidan majburiy talab qilinadigan jadval va natija shakllarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Tahlilni unifikatsiyalash (standartizatsiyalash) metodik qo'llanmalarni, natija shakllarini, jadvallarni, standart programmalarni, umumiy baholash mezonlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Ko'rsatib o'tilgan qoidalarga rioya qilish tahlil ishlari samarasini keskin oshiradi.

## 6.2. Korxonada iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish shakllari va uning ijrochilari

Korxonada iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish boshqaruv apparati tarkibi va texnik darajasi bilan izohlanadi.

Yirik ishlab chiqarish korxonalarida hamma iqtisodiy bo'limlar faoliyatini iqtisodiy masalalar bo'yicha direktor muovini yoki bosh iqtisodchi boshqaradi. U korxonada barcha iqtisodiy ishlarni, shu jumladan iqtisodiy tahlilni ham tashkil qiladi. Uning boshqaruvida iqtisod va ishlab chiqarishni tashkilqilish bo'limi, reja-iqtisod bo'limi, mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'limi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy bo'lim va boshqa bo'limlar bo'ladi. Korxonada alohida tarkibiy tuzilish bo'linmasida bo'lim yoki iqtisodiy tahlil guruhi tahlil ishlarini olib boradi. O'rta yoki kichik korxonalarda analitik ishni reja bo'limining menedjeri yoki bosh buxgalter boshqaradi.

Iqtisodiy tahlil nafaqat iqtisod bo'linmalari xodimlari majburiyatlariga, balki u texnik bo'linmalar xodimlarining ham (bosh mexanik, energetik, texnolog, yangi texnika va boshqalar) majburiyatiga kiradi. Iqtisodiy tahlil bilan sex bo'linmalari, brigada va uchaska rahbarlari va boshqalar ham shug'ullanadilar. Bu iqtisodiy bo'linmalarda xodimlar yuqori malakaga ega bo'lmasalarda, ularning ishtirokisiz korxonada iqtisodiy tahlilni chuqur, har tomonlama va mukammal o'tkazib bo'lmaydi. O'rganilayotgan masala bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lgan iqtisodchilar, texniklar, texnologlar, turli xil ishlab chiqarish bo'linmalari rahbarlarining birgalikdagi harakatlari bilan qo'yilgan masalani kompleks tadqiq qilib, uni hal qilish uchun maqbul variantni topish mumkin.

Misol uchun korxonada iqtisodiy tahlil funksiyalari quyidagi holda taqsimlanishi mumkin:

***Reja-iqtisod bo'limi*** analitik ish rejasini tuzishni, uni bajarishni nazorat qilishni, tahlilni metodik ta'minlashni amalga oshiradi; korxona va uning bo'linmalari xo'jalik faoliyati tahlilini shakllantiradi va natijalarni jamlaydi; korxona rivojlanishining strategik va kelajak masalalarni o'rganadi; tadbirlar rejasini tuzadi va uning bajarilishini nazorat qiladi, tahlil natijasida istiqbolli va kundalik rejalarni ishlab chiqadi.

***Boshqaruv buxgalteriyasi*** mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan harajatlarni, moliyaviy natijalarini va boshqalarni rejalashtiradi, hamda ularni tahlil qiladi.

***Moliyaviy buxgalteriya (moliya bo'limi)*** korxonaning mulkini, ularning manbalarini shakllanish jarayonini, korxona kapitalidan samarali foydalanishni, pul oqimlarini, investitsiyalar, va undan foydalanishni, korxona moliyaviy holatini va boshqa shu kabilarni tahlil qiladi.

***Mehnatni tashkil qilish va ish haqi bo'limida*** ishni tashkil qilish holatini, uni yuqori darajaga ko'tarish uchun yo'naltirilgan tadbirlar rejasini bajarilishini, korxona mehnat resurslarining kategoriya va malakalarning ta'minoti, ish vaqti fondidan foydalanish, ish haqi fondini sarflanishi tahlil qilinadi.

***Marketing bo'limi*** mahsulot bozorlarini va sotib olish bozorlarini, mahsulotlarning bozorlardagi o'rnini, mahsulotning raqobatdoshligini va uni oshirish yo'llarini, korxona narx-navo siyosatini va korxonaning tashqi faolyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalarini o'rganadi.

***Ishlab chiqarish bo'limi*** hajm va assortimentga bog'liq mahsulotni ishlab chiqarish rejasini amalga oshirishni, ishlab chiqarishning davomiyligini, mahsulot sifatini oshirishni, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni kompleks mexnizatsiyalash va avtomatizatsiyalash, uskunalarning ishlashini, material resurslarni ishlatilishini, texnologik siklning davomiyligini, ishlab chiqarishning umumiy texnik va tashkiliy darajasini tahlil qiladi.

***Bosh mexanik va energetik bo'limi*** mashina va jihozlarni ekspluatatsiyasini, jihozlarni modernizatsiyalash va remont ishlarini bajarish reja-grafikalarini, remont ishlarining sifati va narxini, jihozlarni to'liq ishlatishni, energoresurslardan ratsional foydalanishni o'rganadi.

***Texnik nazorat qilish bo'limi*** xomashyo va tayyor mahsulot sifatini oshirish, xarid qiluvchilarni reklama, mahsulotni ishlab chiqarish sifatini oshirish va boshqalarni tahlil qiladi.

***Ta'minot bo'limi*** ishlab-chiqarishning material-texnik sifatini va vaqtida bajarilishini, rejadagi hajm, muddatlar, sifat bo'yicha

yetkazib berishni, omborxona zaxiralari holatini, transport-tayyorlov chiqimlarni nazorat qiladi.

***Sotish bo'limi*** shartnoma majburiyatlarini va mahsulotni hajmi, sifati, muddati bo'yicha iste'molchilarga yetkazib berish rejasini bajarilishini, omborxona zaxiralari holati va tayyor mahsulot to'liqligini nazorat qiladi.

Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda ish jamoalari alohida o'rin egallaydi. Ularga rejalashtrishda ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishda, moddiy resurslarni ratsional sarflashda, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etish masalalarida, ish faoliyati sharoitlarini yaxshilash hamda himoya qilish kabi yo'nalishlar va boshqa shu kabilarda ko'plab vakolatlar berilgan.

Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda jamoaning birgalikdagi harakati, uning umumiyligni, yetarli malakaga ega ekanligi, korxona faoliyatini, uning natijalarini yanada chuqurroq o'rganishni, samaradorlikni oshiruvchi zaxiralarni tadbiq etishni ta'minlashga yordam beradi.

Korxona faoliyati tahlili alohida masalarni o'rgana oladigan va tahlilini kopleks tarzda amalga oshiradigan *yuqori turuvchi boshqaruv organlari mutaxassislari* tomonidan ham amalga oshiriladi. Bunday tahlil natijasida korxona faoliyatidagi iqtisodiy holatlarni ma'lum bir jihatlari o'zgartirilii mumkin.

*Muassadan tashqari iqtisodiy tahlil* statistik, moliya institutlari, soliq inspeksiyalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalar tomonidan bajariladi. Statistik organlar statistik hisobotlarni jamlaydilar va tahlil qilib, natijalarni kerakli vazirlik va tashkilotlarga foydalanish uchun yuboradilar.

Murakkab strategik muammolarni hal etish bilan bog'liq bo'lgan bir marotabali analitik tadqiqotni amalga oshirishda, korxonalar biznesidagi mavjud bo'lgan va bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishga yordam beradigan auditorlik va konsalting uyushmalari xodimlarining xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Ichki xo'jalik, muassasa va muassasadan tashqari tahlil hamma ko'rinishidan foydalanish korxona xo'jalik faoliyatini har tomonlama o'rganish va uni samaradorligini oshirish yo'llarini to'liq o'rganish imkonini yaratadi.

## 6.3. Analitik ishni rejalashtirish

Iqtisodiy tahlilining samarali hamda ta'sirli bo'lishining asosiy talablardan biri uni amalga oshirilishini rejalashtirilganligidir. Har bir korxonada tahlilni amalga oshirish ishlari oldindan rejalashtirilishi kerak. Rejalar quyidagi shakllarda tuzilishi mumkin:

- korxona analitik ishining kompleks (umumiy) rejasi;
- Mavzuga oid reja

***Analitik ishning umumiy rejasi*** odatda bir yilga tuziladi. Unda birinchi navbatda tahlil qilinishi kerak bo'lgan obyektlar ro'yxati, hamda tahlil qilish maqsadlari aniqlanadi. Keyngi bosqichda tahlil natijasida qo'yilgan maqsadni amalga oshirishni ta'minlovchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqiladi.

Rejada majburiy tarzda har bir obyekt bo'yicha tahlilning ma'lum muddatda qaytarilishi (har yilda, har kvartalda, har oyda, har dekadada, har kun), hamda analitik ishni amalga oshirish muddatini (misol uchun, keyngi oyning 3 kuniga) ko'rsatish nazarda tutiladi.

Shuningdek rejada har bir masala yuzasidan tahlil ijrochilari tarkibi va ular o'rtasidagi majburiyatlarning bo'linishi ko'rsatilishi shart. Rejada yana har bir o'rganilayotgan masala bo'yicha tahlilning informatsiya va metodik ta'minoti manbalarini (qo'llanma raqami yoki kompyuter dasturi) ko'rsatib o'tish lozim. Rejada tahlilning ichki va tashqi foydalanuvchilari ko'rsatiladi.

***Mavzuga oid reja*** obyekt, subyekt, tahlilni o'tkazish muddatlari, uining ijrochilari, hisobot turi va boshqalardan iborat bo'lib, chuqur o'rganishni talab etgani uchun yirik muommalarni tahlil qilish uchun tuziladi.

Tahlil rejasini bajarilayotganligini nazorat qilish korxona rahbarining muovini yoki tahlilni boshqarish majburiyati yuklatilgan shaxs amalga oshiradi.

## 6.4. Tahlilning axborot (informatsiya) hamda uslubiy ta'minoti

Analitik ishlarning natijasi asosan uning informatsion hamda uslubiy ta'minotiga bog'liq. Iqtisodiy tahlilning ma'lumot manbalari me'yoriy-rejali, hisob va hisobdan tashqarilarga bo'linadi.

***Me'yoriy-rejali ma'lumotlar manbaliriga*** korxonada ishlab chiqiladigan xamma turdagi rejalar, ya'ni perspektiv, operativ, texnologik xaritalar, shuningdek, me'yoriy hujjatlar, smetalar, proekt vazifalari va boshqalar kiradi.

***Hisob tavsifidagi ma'lumotlar manbalari*** – bu buxgalteriya, statistika va operativ hisob hujjatlaridagi hamma ma'lumotlar, shuningdek turli xildagi hisobotlar, birlamchi hisob hujjatlaridir.

Tahlilning informatsion ta'minotida boshlovchi rol xo'jalik jarayoni hamda uning natijasida yaqqol aks etgan buxgalteriya *hisobi va hisobotga* tegishli. Birlamchi hisob registrlarida hamda hisobotda mavjud bo'lgan o'z vaqtida va to'liq qilingan, ma'lumotlar tahlili xo'jalik natijalarini yanada mukamallashtirishni ta'minlaydi.

*Korxonaning hisobi va hisobot ma'lumotlari* ularni darajasini hosil qiladigan asosiy ko'rsatkich va faktorlari tendensiyalarini chuqur o'rganish uchun foydalaniladi. Makroiqtisodiy statistika ma'lumotini o'rganish umuman soha bo'yicha yoki milliy iqtisodiyotda korxona ishlashining tashqi shartlarini, xo'jalik va moliya holatini baholash uchun zarurdir.

*Tezkor hisob va hisobot* statistika, buxgalteriya hisobi va analiz ta'minotiga nisbatan kerakli ma'lumotlar bilan tez ta'minlaydi. (Misol uchun, mahsulotni ishlab chiqarish hamda uni etkazib berish, ishlab chiqarish zaxiralari holati va hokazo) Shu bilan analitik tadqiqot samaradorligini oshirishga sharoit yaratib beradi.

Hisob hujjati - bir necha yil davomida korxona faoliyati natijalari ma'lumoti yig'iladigan korxonaning iqtisodiy pasporti hisoblanadi. Ko'rsatkichlarni o'rganishda pasportda mavjud bo'lgan bir qator ma'lumotlar tadqiqotlarni amalga oshirishga va korxona iqtisodini rivojlanishini o'rganishga imkon beradi.

***Hisobdan tashqari ma'lumotlar manbalari*** bu korxonani tegishli hujjatlar bo'lib, korxona faoliyati tashqi muhitdagi o'zgarishlarni tavsiflovchi ma'lumotlardir.

1) Rasmiy hujjatlar, korxona o'z faoliyatida ishlatishi majbur bo'lgan hujjatlar: davlat qonunlari, Prezident farmoyishlari, hukumat qarorlari, yuqori turuvchi muassasalar qarorlari, tekshiruv

va audit xulosalari, korxona rahbarlarining qarorlari, boshqaruv yig'ilishining qarorlari va boshqalar;

2) Xo'jalik huquqiga oid hujjatlar: shartnomalar, arbitraj va sud qarorlari, reklamatsiyalar;

3) Ilmiy-texnik ma'lumot (maqolalar, ilmiy-tadqiqot ishlar natijasi hisoboti va hokazo);

4) Texnik va texnologik hujjatlar;

5) Korxona va alohida ish ish joylarning holati haqidagi maxsus tadqiqot hujjatlari (xronometraj, rasmlar);

6) Korxona asosiy kontragentlari haqidagi ma'lumot – ta'minlovchi va xaridorlar.

7) Turli xil manbalardan asosiy raqobatchilar haqidagi olingan ma'lumot – internet, radio, televideniye, gazeta, jurnallar, informatsion byulletenlar va boshqalardan;

8) Material resurslar bozori holati haqidagi ma'lumot (bozor hajmlari, alohida mahsulotlar uchun narx-navo darajasi va dinamikasi);

9) Kapital bozorining holati haqida ma'lumot;

10) Fond bozorlari haqidagi ma'lumotlar (qimmatli qog'ozlarning asosiy ko'rinishlari bo'yicha taklif va narx-navo);

11) Mamalaktda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi haqidagi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

***Tadqiqotning obyektiga nisbatat*** ma'lumot ichki va tashqi bo'ladi. *Ichki ma'lumot tizimi* bu buxgalteriya, statistika, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari, reja ma'lumotlari, korxonada ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar va hokazo. *Tashqi ma'lumotlar tizimi* bu statistik to'plamlardagi qayd etilgan ma'lumotlar, doimiy va maxsus nashryotlar, konferensiya va uchrashuvlardagi ma'lumotlar, rasmiy va xo'jalik-huquqiy hujjatlar va shu kabilar.

***Tadqiqotning predmetiga nisbatan*** ma'lumot *asosiy ma'lumotga*, hamda o'rganilayotgan predmet sohasini yanada mukammalroq tavsiflash uchun *yordamchi ma'lumotlarga* bo'linadi.

***Doimiy ravishda tushadigan*** analitik ma'lumot regulyar va epizod tavsifidagi ma'lumotlarga bo'linadi. *Regulyar ma'lumot* manbalariga rejali va hisob ma'lumotlari tegishli. *Epizod tavsifidagi ma'lumotlar* esa keraklilik darajasiga nisbatan hosil bo'ladi, misol uchun yangi raqobatchi haqida ma'lumot.

Regulyar ma'lumot, o'z navbatida, o'zini kerakliligini uzoq muddat saqlovchi *doimiy* ma'lumotga (kodlar, shifrlar, buxgalteriya hisobining rejasi va shu kabilar), o'zini kerakliligini ma'lum bir muddat saqlaydigan *shartli doimiy* ma'lumotga (reja ko'rsatkichlari, me'yoriy ko'rsatkichlar), voqealarning tez tez o'zgarishini tavsiflaydigan *o'zgaruvchan* ma'lumotga (ma'lum bir muddat uchun tahlil qilinayotgan obyekt haqidagi hisob ma'lumotlari) kabilarga tasniflanadi.

***O'rganib chiqish jaryoniga nisbatan*** ma'lumotni *birlamchi ma'lumot* (birlamchi hisob, inventarizatsiya, kuzatish ma'lumotlari) va ma'lum bir o'rganish va o'zgarish jarayonini o'tgan *ikkilamchi ma'lumotga* (hisobot va shu kabilar) ajratish mumkin.

Tahlilning informatsiya ta'minotini amalga oshirishda bir qator talablar qo'yiladi, ya'ni ma'lumotning analitik ekanligi, uning haqiqiyligi, tezkorligi, taqqoslana olishi, ratsionalligi va boshqalar.

*Ma'lumotning analitik* ekanligi butun iqtisodiy ma'lumot iqtisodiy tahlil talablariga javob berishi kerakliginin bildiradi, ya'ni ma'lumotlarning aynan sohalar faoliyati va iqtisodiy jarayonni har tomonlama o'rganish uchun zarur bo'lgan detallashtirilgan holda kelib tushishini ta'minlash, ular asosida asosiy omillarning ta'sir qilishini aniqlash va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish uchun ichki xo'jalik zaxiralarini o'rganish imkoni bo'lishi lozim. Shuning uchun iqtisodiy tahlilning hamma infomatsiya ta'minoti boshqaruv talablariga asosan doimo mukamallashtirilib borilishi lozim.

Iqtisodiy ma'lumot haqiqiy holatga mos bo'lishi hamda tadqiqot jarayonini obyektiv aks ettirishi kerak. Aks holda tahlil natijasida qilingan xulosalar, amaliyotga to'g'ri kelmaydi, tahlilchilar tomonidan ishlab chiqilgan takliflar esa nafaqat korxonaga kerakli bo'lishi, balki unga ziyon keltirishi ham mumkin. Shuning uchun tahlil uchun yig'ilgan ma'lumot yuqori sifatli bo'lishini tekshirish lozim.

*Ma'lumotning tezkorligi.* Amalga oshirilgan xo'jalik jarayonlari haqidagi ma'lumotlar qanchalik tez yetkazib berilishi, tahlilni ham shunchalik tezkor o'tkazish mumkinligini, kamchiliklarni, yo'qotishlarni aniqlash va ularni o'z o'rnida bartaraf etishni

bildiradi. Ma'lumotni operativligini oshirish yangi muloqot vositalaridan foydalanish, ularni EHM amalga oshirish hisobiga erishiladi.

Ma'lumotning sifatiga beriladigan talablardan biri uni tadqiqotning predmeti va obyektiga, ma'lum bir muddatga, ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va boshqa bir qator belgilarga *taqqoslanishini* ta'minlashdir. Oldindan ko'rsatkichlar taqqoslanishi ta'minlangan bo'lsa, u holda tahlil ancha kam mehnat talab qiladi. Buning uchun butun raqamli ma'lumotning sifatliligi tekshirilganidan so'ng, u ko'rib chiqilgan qo'llanishlarni ishlatib ma'lum bir ko'rinishga keltiriladi.

Informatsion bazani shakllantirishda tahlil qilish uchun *ma'lumotlarni onsonlashtirish* maqsadga muvofiq. Analitik tadqiqot ko'p holda bashorat tavsifiga ega bo'lib, buxgalter hisobotidagi kabi aniqlikni talab qilmaydi. Xo'jalik subyektlari faoliyatiga beriladigan umumiy bahoni osonlashtirish maqsadida birlamchi ma'lumotlar ko'pincha o'rta va nisbiy ko'rsatkichlar darajasida ko'rsatiladi.

Va nihoyat, ma'lumot tizimi *ratsional* bo'lishi kerak, ya'ni ma'lumotni yig'ish, saqlash va ishlatish uchun ketgan vaqtni kamaytirish lozim. Bir tomondan, iqtisodiy jarayonini kompleks tahlil qilish uchun har tomonlama ma'lumot talab qilinadi. Agar, bunday imkoniyat mavjud bo'lmasa tahlil to'liq bo'lmaydi. Boshqa tomondan, ortiqcha ma'lumot uni qidirish, yig'ish va qaror qabul qilish jarayonini uzaytiradi. Ushbu talabdan, ma'lumotni foydaliligini tekshirish zarurligi, hamda keraksiz ma'lumotlarni chiqarish va kerakli ma'lumotlarni kiritish asosida ma'lumotlarni takomillashtirish mumkinligi kelib chiqadi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilni samaradorligini ta'minlashda zaruriy shartlardan biri bo'lgan, iqtisodiy tahlil ma'lumot tizimi yuqorida qayd etilgan talablarga muvofiq shakllanishi va takomillanishi shart.

***Tahlilni amalga oshirishda uning uslubiy ta'minoti ham alohida o'ringa ega.*** Korxonada qanday tahlil uslubi qo'llanilishiga qarab, uning natijasini aniqlash mumkin. Tahlilning uslubiy ta'minoti bo'yicha mas'uliyat odatda, korxonada analitik ishni boshqaradigan mutaxassisga yuklatiladi. U doimiy ravishda

iqtisodiy tahlil metodikasini tahlil sohasidagi tajriba va ilm-fan taraqqiyotini o'rganish asosida takomillashtirishi hamda ularni korxonaning har bir segmentida joriy etish, tahlil bo'yicha kadrlarni tayyorlashi va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshiradi. Mas'uliyatli shaxsni tayyor iqtisodiy-matematik usullarni qo'llab tezkor va kompleks tarzda hujjatlar asosida faoliyat natijalarini o'rganishni ta'minlovchi tahlil dasturlarini joriy etishi yoki o'zi ijodiy tarzda ishlab chiqishi kabi harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

### 6.5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etishning bosqichlari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiyot jarayonida asosiy subyekt sifatida ishtirok etadi. U o'z mulkining ko'payishidan, ko'proq foyda olishidan manfaatdor. Bu uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va aql bilan ish ko'rish lozim. O'z navbatida mulkining holati, ishlatilishi va saqlanishini tahlil qilinishini taqozo etadi. Demak, iqtisodiy tahlil eng avvalo mulkdor uchun kerak ekan.

Mulkdor o'z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to'g'ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil etadi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta'minlaydi. Mehnat jamoyasi o'zi ishlayotgan korxona xo'jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoasi uchun ham kerak ekan.

Har bir korxonaning xo'jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o'z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq to'laydi. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxona faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor. Demak, iqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham kerak ekan.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi deyarli hamma mutaxassislar shug'ullanadi.

Ammo hammasi ham korxona to‘g‘risida jamlangan batafsil axborotga ega emas. Hamma o‘zi bajarayotgan u yoki bu soha bo‘yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o‘zining sohasini muntazam tahlil qilib boradi.

Lekin shuni e’tirof etish kerakki, xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida butun faoliyatni o‘zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada to‘planadi va qayta ishlanadi.

Analitik ishlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uni qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Korxona faoliyatida iqtisodiy tahlilni tashkil etishning quyidagi bosqichlardan iborat:

***Tahlil rejasi va dasturini tuzish bosqichi.*** Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o‘tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o‘tkazish dasturida quyidagilar aniq ko‘rsatilgan va belgilanib olingan bo‘lishi lozim:

- tahlilning maqsadi va vazifasi;
- tahlil obyekti;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izohlash;
- ijrochilarni tarkibi va ularning vazifalari;
- tahlil o‘tkazish muddatlari;
- tahlil manbalari va ularni natijalarini rasmiylashtirish tartibi.

***Tahlil uchun zarur ko‘rsatkichlarni belgilash hamda kerakli bo‘lgan manbalarni aniqlash bosqichi.*** Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tahlil uchun zarur ma’lumotlarni aniqlanadi;
- tahlil manbalari belgilanadi;
- qo‘shimcha ma’lumotlar jalb etiladi.

***To‘plangan ma’lumotlar va ularning manbalarini to‘g‘riligini tekshirish hamda ishonchliligini aniqlash bosqichi.*** Manbalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar belgilab olinadi.

- tahlil usullari;
- ma’lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, chizma va maketlarni tuzish;

- ta'sir etuvchi omillarni topish;
- zaxiralarni aniqlash.

***Iqtisodiy tahlil bosqichi.*** Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil jarayonlari amalga oshiriladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarishlar topiladi, o'zgarish sabablari va unga ta'sir etuvchi omillar, ham miqdor, ham tartib jihatdan aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlarni aniqlash;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

***Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.*** Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi. O'zgarishlarga baho beriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur bo'ladi:

- korxona faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini tushuntirib berish;
- korxona faoliyatini yanada yaxshilashga oid zaxiralarni jamlab ko'rsatib berish;
- aniqlangan zaxiralardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

***Tahlil natijasida aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash choralari va tadbirlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bosqichi.***

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlarining umumiy ko'rinishini quyidagi chizmada ko'rsatib o'tishimiz mumkin.




*6.1-chizma. Tahlilning asosiy bosqichlari*

## 6.6. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish

Korxona va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati tahlilining natijalari analitik mavzular yoki xo'jalikni yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida ifoda etiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o'tkazganligiga qarab bajariladi. Misol uchun, korxonalarning yillik hisoboti asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati yozish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarni ma'ruzasi, korxona rahbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni, audit xulosalari orqali umumlashtirilishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda albatta erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda va faktlar bilan ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni takliflar ham ko'rsatiladi.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishga korxonaning umum majlis materiallari, turli xil diagramma, jadval va grafiklar tuzib mehnatkash ommaga ko'rsatma sifatida osib qo'yish, oynoma va ro'znoma sahifalarida ma'lumotlarni chop etish, axborot doskalaridagi ko'rsatkichlarni e'lon qilib borish ham hisoblanadi.

Korxona yoki uning bo'limlari faoliyati bo'yicha qilingan analitik tadqiqotning turli xil natijalari tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Bu analitik hisobot (tushuntirish xati), ma'lumotnoma va xuloslar bo'lishi mumkin.

***Analitik hisobot (tushuntirish xati)*** odatda tashqi foydalanuvchilar uchun yoziladi. Tahlil natijalari ichki xo'jalik ishlarida foydalanish uchun yo'naltirilgan bo'lsa, ular ma'lumotnoma yoki xulosa ko'rinishda rasmiylashtiriladi.

Analitik hisobotning tarkibi to'liq bo'lishi kerak. Avvalambor, u korxona rivojlanishining iqtisodiy darajasini namoyon qiladigan, xo'jalik yuritishning shartlarini, korxonada baho siyosatining tavsifi, mahsulotning raqobatdoshligi, mahsulotlarni xarid qilish

bozorlarining kengligi, mahsulotlarning bozordagi o'rni, korxona mavqei kabi umumiy savollarni qamrab olishi kerak. Shuningdek, hisobotda bozordagi har bir mahsulotning hayotiy holati, real hamda potensial raqobatchilarni, ular biznesining kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'rsatib tavsiflash lozim.

Bundan keyin korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarini tavsiflovchi, mulkiy va moliyaviy holatini, natijalarning samaradorligini, rivojlanish holati kabi ko'rsatkichlar dinamikasini ifodalab berishi kerak. Shuningdek, pul oqimlari, moliyaviy natijalar va asosiy tomonlarga ta'sir ko'rsata oladigan korxonaning hisob siyosatidagi o'zgarishlarini ochib berish kerak.

Analitik hisobotda hisobot davri mobaynidagi korxona faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatiladi hamda ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadigan obyektiv va subyektiv, ichki va tashqi omillar tushuntirib beriladi. Yana, mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltiriladigan hamda yaqin va uzoq muddatda korxona faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida qilinadigan ishlar ko'rsatib beriladi.

Hisobotning analitik qismi aniq va asoslangan bo'lishi shart. U analatik hisobotlardan, kerakli ma'lumotlar yig'ilgan jadvallardan, grafika va diagrammalardan iborat bo'lishi mumkin. Uni rasmiylashtirishda tahlil natijalari asosida qilingan taklif va xulosalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Ular har tomonlama asoslangan va korxona faoliyati natijalarini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak.

***Tahlil natijasida qilingan ma'lumotnoma yoki xulosalar*** mazmuni tushuntirish xatidan farqli ravishda ko'proq aniqlashtirilgan, kamchilik yoki muvafaqqiyatlarni kamroq hajmda tartib bilan ko'rsatadigan, aniqlangan ma'lumotlarni qo'llaydigan bo'lishi mumkin. Unda korxona umumiy tasnifi va uning faoliyatiga sharhlari yozilmaydi.

***Tahlil natijasini matnsiz ko'rinishda*** taqdim etilishiga alohida to'xtab o'tish lozim. U doimiy maket tarzidagi analitik jadvallar, grafikalardan tashkil topib, hech qanday tushuntirish xatidan iborat bo'lmaydi. Analitik jadvallar va grafikalar sistematizatsiyalashga, o'rganilayotgan materialni umumiylashtirishga va uni qabul qilish uchun oson bo'lgan ko'rinishda taqdim etishga ijozat beradi.

Jadvallar tuzilishi turli xilda bo'lishi mumkin. Ular tahlil talablari asosida tuziladi. Analitik jadvallardagi ko'rsatkichlarni shunday tartibda joylashtirish lozimki ular bir vaqtda ham analitik ham ilyustratsiya materiali tarzida ifoda etishi lozim. Lekin bir jadvalda korxona ishining hamma ko'rsatkichlarni berish yoki juda ko'p jadvallar kiritish ham maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Jadvallarning ko'pligi ham ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Analitik jadvallar va grafikalar juda oddiy va yaqqol bo'lishi kerak.

Tahlil natijalarini bunday tartibda ramiylashtirish oxirgi paytda juda ko'p qo'llanilmoqda. U ko'rib chiqilgan va sistematizatsiya-lashgan ma'lumotni mustaqil o'rganib chiqib, kerakli xulosalarni chiqara oladigan, yuqori toifali ishchilarga mo'ljallangandir. Tekstsiz tahlil uining ta'sir kuchini oshiradi, chunki bunda tahlilni bajarishda hamda uining natijalaridan foydalanishdagi uzilish qisqaradi.

Amaliyotda judayam kerakli bo'lgan tahlil natijalari korxona iqtisodiy pasportning ma'lum bir bo'limiga kiritiladi. Bir necha yil mobaynida yig'ilgan bunday ma'lumotlar tahlil natijalarini umumiy holatda ko'rib chiqishga imkon yaratadi.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

- iqtisodiy tahlilning asosiy qoidalari;
- tahlilni tashkil etish shakllari;
- tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari;
- iqtisodiy tahlilni rejalashtirish;
- tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Xo'jalik subyektlari faoliyatini tahlil etishning zaruriyati va asosiy qoidalari nimalardan iborat?
2. Korxonada iqtisodiy tahlilning ijrochilari tarkibiga kimlar kiradi?
3. Iqtisodiy tahlil qanday bosqichlarda tashkil etiladi?
4. Tahlil o'tkazish dasturi va rejasini tuzib olish bosqichida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
5. Tahlil natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

## Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

**1-topshiriq.**

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlarini va uning tarkibini izohlang.

| Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari | Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlarining tarkibi |
|---|---|
| 1. | A)<br>B)<br>) |
| 2. | |

**2-topshiriq.**

Iqtisodiy tahlilning axborot manbalarini va ularga qo‘yiladigan talablarni ko‘rsatib bering.

| Iqtisodiy tahlilning axborot manbalari | Iqtisodiy tahlilning axborot manbalariga sharh bering | Iqtisodiy tahlilda axborotlarga qo‘yilgan talablar | Iqtisodiy axborotlarni to‘g‘riligini tekshirish usullari |
|---|---|---|---|
| 1. | | | |
| 2. | | | |

## Test savollari:

**1. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish va o‘tkazish jarayonlari talablari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.**

A. Majburiyatlarni taqsimlanishi va tahlil natijasi samarali bo‘lishi, ma’lumotga bo‘lgan ehtiyojlarni to‘la qondirilishi, tahlil ishlarini reglamentatsiyalash va unifikatsiya qilish;

B. Tahlil o‘tkazish dasturi va rejasini tuzib olish; tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;

C. Tahlil natijalarini korxona amaliyotiga joriy qilish;

D. Ma’lumotga bo‘lgan ehtiyojni to‘la qondirish; tahlilda foydalaniladigan ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish.

**2. Iqtisodiy tahlil o'tkazishda tuziladigan rejalar quyidagicha bo'lishi mumkin:**

A. Korxona analitik ishining kompleks rejasi, mavzuga oid reja;

B. Iqtisodiy tahlil o'tkazishda kompleks rejadan foydalanadi;

C. Iqtisodiy tahlil o'tkazishda mavzuga oid rejadan foydalanadi;

D. Iqtisodiy tahlilda shaxsiy rejadan foydalanadi.

**3. Iqtisodiy tahlilning ma'lumot manbalari quyidagilarga bo'linadi:**

A. Me'yoriy-rejali, hisob va hisobdan tashqari;

B. Iqtisodiy, huquqiy-me'yoriy;

C. Ilmiy-texnikaviy;

D. Tabiiy-ekologik.

**4. Iqtisodiy tahlilni o'tkazishdagi ketma-ketlik qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Ma'lumot to'plash va qayta ishlash, tahlil, takliflar bildirish;

B. Tahlil o'tkazish rejasini tuzish va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;

C. Tahlil o'tkazish rejasini tuzish, ma'lumot to'plash, tahlil, o'zgarishlarni aniqlash, takliflar bildirish va natijalarni korxona amaliyotiga tadbiq etish;

D. Ma'lumot to'plash, tahlil va yechimini aniqlash.

**5. Korxonaning me'yoriy rejali ma'lumotlar manbalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Korxona tomonidan ishlab chiqariladigan barcha rejalar;

B. Perspektiv, operativ, texnologik xaritalar;

C. Me'yoriy hujjatlar, smetalar, proyekt vazifalar;

D. Hammasi to'g'ri

**7. Korxonaning hisob tavsifidagi ma'lumotlar manbalari qaysi javobda to'liq ko'rsatib o'tilgan?**

A. Birlamchi hisob hujjatlari, smetalar, kadastr hujjatlari;

B. Hisob va hisobot ma'lumotlari, turoq ball banitetlari, biznes rejalar;

C. Buxgalteriya, statistika, operativ hisob ma'lumotlari, turli xildagi hisobotlar, birlamchi hisob hujjatlari;

D. Qonunlar, turli qarorlar va farmoyishlar, texnologik xaritalar.

**8. Tahlil uchun yig'ilgan ma'lumotlarni tekshirish nechta usulda olib boriladi va ular qanday?**

A. 2 ta usulda: texnik(yuzaki) va mantiqiy(mazmunan) tekshirish usuli

B. 4 ta usulda: taqqoslab, guruhlab, texnik(yuzaki) va mantiqiy(mazmunan) tekshirish usuli

C. 3 ta usulda: taqqoslab, texnik(yuzaki) va mantiqiy (mazmunan) tekshirish usuli

D. Barcha javoblar noto'g'ri;

**9. Korxonada iqtisodiy tahlilni amalga oshiruvchilar kimlar?**

A. Tashqi tahlilchilar(boshqaruv yuqori organlari, moliya organlari, bank muassasalari, soliq idoralari va boshqalar);

B. Ichki tahlilchilar(korxona tomonidan ishchi xodimlari ishtirokida tuzilgan tahlil guruhi);

C. A va V

D. Barcha javoblar noto'g'ri.

# VII bob. KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL HAMDA ISHLAB CHIQARISH-MOLIYAVIY FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILINING USLUBIY ASOSLARI

## 7.1. Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bartaraf etilayotgan sharoitda xo'jalik aloqalarining yana kuchayishi, ishlab chiqarish sur'atlarining muntazam o'zgarib turishi sodir bo'layotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishga har tamonlama yondashishni taqozo etadi. Shu ma'noda kompleks iqtisodiy tahlilning mazmunini korxonani keng qamrovli tarzda o'rganish asosida, faoliyatdagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik jihatlarni ko'rib chiqib, mavjud resurslardan imkon qadar samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilab berish maqsadida faoliyat natijaviyligini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Kompleks iqtisodiy tahlil tizimli asosda o'tkaziladi. Tizimli tahlil esa olti bosqichdan iborat. Ular quyidagilardir.

**Birinchi bosqichda** tahlil obyektining maqsadi va funksiya qilish shartlari aniqlanadi. Korxona faoliyati tizim ko'rinishida resurslar ta'minoti, ishlab chiqarish va tayyor mahsulot kabi elementlar yig'indisidan tashkil topadi. Maqsad esa rentabellikni ta'minlash. Tahlil vazifasi rentabellikni oshiruvchi alohida olingan omillarni topish. Shartlar cheklangan resurslar bilan samarali ishlash yoki mahsulot hajmi cheklangan sharoitda resurslarni tejash.

**Ikkinchi bosqichda** korxona faoliyatini ifodalovchi barcha ma'lumotlar tanlab olinadi. Bunda axborot tizimi asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

**Uchinchi bosqichda** tizimning chizmasi shakllantiriladi. Chizmada asosiy komponentlar, funksiyalar, o'zaro aloqalar, kichik tizimlar, ularning elementlari ko'rsatib beriladi.

Ko'rsatkichlar hamda omillar asosida kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy blok-chizmasi tuziladi. Blok-chizmada omillar va ko'rsatkichlar tasnif qilinib, ularning aloqasi ilmiy asosda rasmiylashtiriladi.

**To'rtinchi bosqichda** tizimdagi asosiy bog'lanishlar va omillar belgilanib ularga miqdoriy tavsif beriladi. Asosiy vositalar bo'yicha fond qaytimi, materiallar bo'yicha material qaytimi, mahsulot bo'yicha mahsulot hajmi va shu kabilar.

**Beshinchi bosqichda** dastlabki bosqichlarda olingan ma'lumotlar asosida tizimning modeli quriladi. Bunda muayyan korxonaning ma'lumotlari kiritilib, miqdor jihatdan asoslangan ko'rsatkichlar olinib modelning parametrlari shakllantiriladi.

**Oltinchi bosqichda** model parametrlari bilan ishlanadi. Bundaishlab chiqarishning samaradorligiga, uning oshiruvchi omillarga, faoliyat natijalariga obyektiv baho beriladi.

Kompleks iqtisodiy tahlilda tizim asosida yondashishda asosiy jihat mantiqiy-uslubiy holatni ilmiy shakllantirib tasvir ko'rinishida ifodalashdir. Ushbu tahlil turining asosiy jihati esa samaradorlikni ifodalovchi umumiy ko'rsatkichga har bir blokning alohida bog'liqligi va ta'siri, bloklarning o'zaro ta'siri, o'zaro shartlanganligi tahlilida bog'liqlik hamda tizimlilikni mavjudligidir.

Boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqib kompleks iqtisodiy tahlil uslubida quyidagi elementlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

- iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifalarni aniqlash;
- ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish;
- tahlil o'tkazishning uzluksizligi va chizmasi;
- tahlil o'tkazishning muddati va davriyligi;
- ma'lumotlar olish hamda ularning qayta ishlash usullari;
- iqtisodiy ma'lumotlarning tahlil qilishning usul va texnikalari;
- tahlil o'tkazishning bosqichlari hamda majburyatlarning taqsimlanish tartibi;
- tahlil uchun zarur bo'lgan hisoblash texnikasi hamda tashkiliy tizim;
- tahlil natijalarini rasmiylashtirish tartibi hamda ularning baholash;
- analitik ishlarni mehnattalabligini baholash hamda tahlil o'tkazish samarasini hisob-kitob qilish.

Kompleks iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ular qatoriga quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni kiritish mumkin:

1. Mehnat resurlaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili.

2. Mehnat vositalaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.

3. Nomoddiy aktivlardan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.

4. Mehnat ashyolari, buyumlaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.

5. Ishlab chiqarish va faoliyat natijaviyligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.

6. Moliyaviy holat va to‘lov layoqatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili.

Kompleks tahlilda tizimli o‘rganish barcha faoliyatni turli manfaatlar nuqtai nazaridan, ma’lum ketma-ketlikda, tartib va qonuniyatlarni e’tiborga olgan holda o‘rganishdir.

**7.1-jadval**

**Kompleks iqtisodiy tahlilda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar tizimi**

| | | |
|---|---|---|
| Mehnat resurslari bilan bog‘lik bo‘lgan ko‘rsatkichlar tahlili | Mehnat vositalari hamda nomoddiy aktivlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tahlili | Mehnat ashyolari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tahlili |
| Ishlab chiqarish va faoliyat natijaviyligi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tahlili | | |
| Moliyaviy holat va to‘lov layoqati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tahlili | | |

Kompleks iqtisodiy tahlilda barcha ko‘rsatkichlar o‘zaro aloqadorlikda va bog‘lanishda o‘rganilgan holda korxona faoliyatiga umumiy tashxis qo‘yiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi va faoliyat natijaviyligini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi umumlashtiriladi.

Kompleks iqtisodiy tahlildagi barcha ko‘rsatkichlar o‘rganiladigan masalalardan kelib chiqadi. O‘rganiladigan masalalarni aniqlash esa ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liklarni bilishda eng muhim yondashish hisoblanadi. Demak, tahlilda o‘rganiladigan masalalar quyidagi tartibda bo‘lishi mumkin:

1. Korxona faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga kompleks sharh.

2. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy darajasi hamda mahsulotlar sifati tahlili.

3. Korxona mahsulotlariga bozordagi talab va taklifning tahlili.

4. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlili.

4. Mehnat resurslaridan foydalanish, mehnat va unga haq to'lash tahlili.

5. Moddiy resurlardan foydalanish tahlili

6. Asosiy vositalardan foydalanish tahlili.

7. Ishlab chiqarish xarajatlari hamda mahsulotlar tannarxi tahlili.

8. Korxona moliyaviy natijalari va rentabelligi tahlili.

9. Korxona moliyaviy holati va barqarorligi tahlili.

10. Korxona faoliyatiga umumlashtiruvchi baho berish.

Ushbu masalalar tahlil maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib o'rganiladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlarini aniqlash tahlilning asosiy maqsadini ham belgilaydi. Ya'ni mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va korxonaning moliyaviy natijalarini hamda holatini yaxshilash bo'yicha subyektda mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish chora tadbirlarini belgilash tahlilning muhim vazifasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlari – resurslardan foydalanish bo'yicha korxonada mavjud bo'lgan, biroq ishga solinmagan zaxiralarning mavjudligidan tashkil topadi.

Bu imkoniyatlar birinchi navbatda korxonaning mehnat vositalari, texnologiyalari va zamonaviy mehnat vositalari bilan qurollanish darajasiga hamda ularning holatiga bog'liq.

Imkoniyat – korxona iqtisodini kuchaytirishning muhim vositasidir. Agarda subyektda ulardan to'liq va to'g'ri foydalanilsa ishlab chiqarish samaradorligi oshirish yuzasidan muhim ijobiy natijalarga erishiladi.

Demak, ishlab chiqarish samaradorligining oshirish ko'p jihatdan mavjud zaxiralardan foydalanish holatiga ham bog'liq.

Korxona biznes rejalarini belgilashda barcha imkoniyatlar hisobga olinadi va ularning realizatsiyasi reja bajarilishi davomida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari faoliyatdagi texnologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda uning tashkiliy-texnikaviy darajasini yaxshilash, mehnatni tashkil etish, boshqaruvni takomillashtirish kabilar orqali ham belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda makro darajadagi imkoniyatlarning tarkiblashni quyidagi uch guruhi ajratiladi.

1. Iqtisodiyot.
2. Tarmoq.
3. Ichki xo'jalik imkoniyatlari.

Korxonada har bir imkoniyatdan maqsadga muvofiq foydalanish yo'llari ishlab chiqilishi zarur.

Korxona ichki imkoniyatlari quyidagi tarkib bo'yicha guruhlanadi.

a) mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar:

✓ ishlab chiqarish vositalari va ularni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish texnologiyalarini samarali turlarini ishlab chiqarishga jalb etish, asosiy vositalarning aktiv qismini ko'paytirish, informatsion texnologiyalarga asoslangan ish o'rinlarini tashkil etish;

✓ asosiy vositalarni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish uskunalarining mehnat unumi, samarasini oshirish;

✓ asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi bo'limlarni tashkil etish va ular faoliyatini faollashtirish;

✓ texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkil etishning usullarini faollashtirish, ishlab chiqarish maromiyligiga amal etish, texnik standartlar va loyihalar tuzilishi va shu kabilar.

b) moddiy va yoqilg'i energetika resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar:

✓ xom-ashyo va materiallarni sarf me'yorlarini to'g'ri belgilash va ularga amal qilish;

✓ zamonaviy texnika va chiqindisiz texnologiyalarni joriy qilish;

✓ ishlab chiqarishdagi braklar hajmini kamaytirish;

✓ yoqilg'i va elektr energiya resurslaridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish.

s) mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlar:

✓ mehnat sharoitlarini yaxshilash;

✓ xodimlar bilan ta'minlanish holati va harakatini to'g'ri boshqarish;

✓ ish o'rinlariga xizmat ko'rsatish holatini yaxshilash;

✓ ish o'rinlarini tashkil etishning takomilashtirish;

✓ mehnatning taqsimlanishini ilmiy asosda tashkil etish;

✓ mehnatni me'yorlashtirishning takomillashtirish.

d) mahsulot tannarxini pasaytirish va foydani ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlar

✓ ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasidan to'g'ri foydalanish;.

✓ ishlab chiqarish va mehnatni to'g'ri tashkil etish;

✓ mahsulotlar diversifikatsiyasi hamda hajmini oshirish;

✓ mahsulotlarning tarkibi hamda sifatini yaxshilab borish;

✓ tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash.

✓ ishlab chiqarishning rivojlanishi va shu kabilar.

Korxonadagi imkoniyatlar faoliyatni intensiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo'nalishlari sifatida intensiv va ekstensiv yo'nalishlar tarkiblanadi. Intensiv rivojlantirish va ekstensiv rivojlanish yo'nalishlari bir-biridan bevosita miqdoriy ko'rsatkichlarga farqlanishi bilan tavsiflanadi.

Ekstensiv asosda rivojlanish mahsulot hajmining oshishi unga ta'sir etuvchi omillarning (mehnat vositalari, mehnat predmetlari, yer, ish kuchi sarfi va shu kabilar) o'zgarishi bilan mutanosib holda sodir bo'ladi. Misol uchun, hosilning ko'payishi yer maydonining kengayishi, non mahsuloti un sarfi o'zgarishi va shu kabilar bilan amalga oshiriladi

Intensiv rivojlanishda esa natijaning (mahsulot hajmi) ijobiy o'zgarishi resurs sarfi oshishi bilan shartlanmaydi. Misol uchun, hosil miqdori hosildorlikni oshirish hisobiga ko'paytiriladi. Yer maydonining kengayishi yoki o'z holatida qolishi bu jarayonda e'tiborga olinmaydi. Intesiv rivojlanish fan-texnika yutuqlari hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish asosida amalga oshiriladi. Serhosil urug' navining ekilishi hosildorlikni keskin oshiradi. Texnikalardan unumli foydalanish texnologik tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy tahlilda natijaviy ko'rsatkich o'zgarishini baholashda intensiv yoki ekstensiv rivojlanishga baho berish zarur. Misol uchun, ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini oshishi ishchilar sonini ortishi yoki bir ishchining mehnat unumdorligini o'zgarishi bilan sodir bo'lganligini bilish hamda uning dinamikasini kuzatish kerak. Bu bilan nisbiy iqtisodlar aniqlanadi.

Ishlab chiqarishning ichki imkoniyatlari resurslarning har bir turi, ulardan foydalanish o'rni, joyi bo'yicha o'rganilgan holda tarkibli va umumiy o'rganilgan holda korxona bo'yicha kompleks baholanadi hamda ularni boshqarishning chora-tadbirlari belgilanadi.

Ishlab chiqarish faoliyatini intensifikatsiya qilinganlikning baholash ham kompleks tahlilda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun rentabellik ko'rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ko'rsatkich asosiy faoliyatdan olingan foydani ishlab chiqarish asosiy vositalari va moddiy aylanma mablag'larga nisbati bilan hisoblanadi.

$$P = \frac{F}{AB + MM} * 100\%$$

Bu yerda: R – rentabellik;

F - asosiy faoliyatdan olingan foyda;

AV - ishlab chiqarish asosiy vositalari;

MM - moddiy aylanma mablag'lar.

Ta'kidlab o'tish kerakki, korxona faoliyatini kompleks baholash murakkab vazifa bo'lgani uchun mazkur maqsadda ko'plab ko'rsatkichlardan foydalanish hamda ular asosida yagona xulosaga kelish tahlil natijasini yanada obyektivligini ta'minlaydi.

## 7.2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning muhim ko'rsatkichlari tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilida bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ularni iqtisodiy mazmuni bo'yicha quyidagi turlarini ajratish mumkin.

- yalpi mahsulot;
- sof mahsulot;

- me'yoriy sof mahsulot;
- shartli sof mahsulot;
- tayyor mahsulot;
- tovar mahsuloti;
- sotilgan mahsulot;
- kritik hajmdagi mahsulot.

Yalpi mahsulot hisobot davrida jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ifodalaydi. U tayyor mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatidan iborat. Yalpi mahsulot asosida mikro darajada, ya'ni korxona bo'yicha iqtisodiy rivojlanish darajasiga baho beriladi. Mazkur ko'rsatkichdan foydalanib moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning samaradorlik darajalari o'rganiladi.

Yangidan yaratilgan qiymat korxona darajasida sof mahsulot deb yuritiladi. Sof mahsulot mehnat haqi hamda foyda qiymatidan iborat bo'ladi. Yalpi mahsulotdan eskirish hamda moddiy xarajat sarflari ayirib tashlansa korxonada yangitdan yaratilgan qiymat – sof mahsulot hisoblab topiladi. Ushbu ko'rsatkich asosida mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligini tavsiflovchi resurslar samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlashda, asosiy vositalar qaytimini baholashda korxona faoliyat natijaviyligi ko'rsatkichlariga baho berishda foydalaniladi.

Sof mahsulotning qiymat ifodasi yangidan yaratilgan qiymatga teng deb olinadi.

Me'yoriy sof mahsulot yangidan yaratilgan qiymatning o'zidan iborat. Faqat bunda o'zgaruvchi (mehnat haqi) qiymat ham foyda summasi ham me'yorlar chegarasida olinadi. Demak, me'yoriy ish haqi va me'yorlashtirilgan foyda summasi me'yoriy sof mahsulotni ifodalaydi. Bu ko'rsatkichdan foydalanib mehnat unumdorligi, resurslar samarasi va boshqa samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

**Shartli sof mahsulot** qiymati sof mahsulot qiymatiga yaqin bo'ladi. Faqat shartli sof mahsulot yangidan yaratilgan qiymat (mehnat haqi va foyda) va amortizatsiya xarajatlari (asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha) iborat bo'ladi. Ushbu korsatkich korxonaga zarur bo'lgan pul oqimlarini bashoratlash hamda belgilashda muhim ahamiyatga ega.

**Tayyor mahsulot.** Korxona ishlab chiqarish faoliyatida yaratilgan, belgilangan barcha texnologik jarayonlardan o'tgan, o'rnatilgan rasmiy talablarga muvofiq bo'lgan, o'z iste'mol qiymatiga ega buyumlar (ish, xizmatlar) tayyor mahsulot deb hisoblanadi. Tayyor mahsulot tovar hamda o'z is'temoli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmidan iborat bo'ladi. Uning qiymat ifodasi korxona ulgurji bahosida, amaldagi bozor va taqqoslama baholarda hisoblanishi mumkin. Tayyor mahsulot ko'rsatkichi tahlilda asosiy va markaziy ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Uning asosida tahlilda turli xil vazifalar hal etiladi.

**Tovar mahsuloti.** Korxonada sotish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (ish,xizmat) hajmi tovar mahsulotini tashkil qiladi. Uning qiymat ifodasi korxona ulgurji bahosida, amaldagi bozor va taqqoslama baholarda hisoblanishi mumkin. Tovar mahsuloti mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha xarajatlar summasidan va ushbu mahsulot bo'yicha oladigan foyda summasidan iborat bo'ladi.

**Sotilgan mahsulot.** Korxonada rasmiy jihatdan sotildi deb tan olingan mahsulot hajmi sotilgan mahsulotni ifodalaydi. Sotilgan mahsulot qiymat ifodasida tayyor hamda tovar mahsuloti hajmiga teng yoki ulardan kam bo'lishi mumkin. Qachonki, korxonadagi tayyor yoki tovar mahsuloti to'liq sotilsa, u holda ular to'la ravishda sotilgan mahsulotni tashkil etadi. Basharti, tovar mahsulotining bir qismi sotilib, boshqa qismi sotilmay qolsa, u holda tovar mahsulotining faqat sotilgan qismi sotilgan mahsulot deb tan olinadi.

**Kritik hajmdagi mahsulot.** Ushbu ko'rsatkich biznes rejada belgilangan mahsulot hajmi turlaridan biri bo'lib, mazkur hajmga erishilganda korxona mahsulot ishlab chiqarish hamda sotishdan foyda olmaydi, ayni bir paytda zarar ham ko'rmaydi. Kritik hajmdagi mahsulot miqdoridan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish korxona uchun foyda keltiradi yoki aksincha. Mahsulot bozor baholari (ulgurji) asosida rejalashtiriladi.

Mahsulot ish va xizmatlarni sotish korxona ulgurji bahosi yoki chakana baholarda amalga oshiriladi. Korxona ulgurji bahosining tuzilishi quyidagicha bo'ladi. Ya'ni, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, sotilgan mahsulotlar bo'yicha korxona foydasi, sotilgan mahsulotlar bo'yicha egri soliqlar summasi. Sotil-

gan mahsulotning chakana bahosi ulgurji bahodan savdo qo'shimchasi yoki chegirmalari summasiga farq qiladi.

### 7.3. Mehnat resurslari va ular samaradorligi ko'rsatkichlarining tahlili

Korxonada mehnat resurslari xizmat vazifalari va ish faoliyatining mazmuniga ko'ra tarkiblandi. Jumladan, ishlab chiqarishni tuzilishi bo'yicha – sanoat ishlab chiqarish xodimlari, boshqa tarmoq xodimlari, noishlab chiqarish xodimlari; band bo'lishiga qarab - doimiy ishchilar, mavsumiy ishchilar; xizmat vazifasi bo'yicha - ishchilar, xizmatchilar; ishlab chiqarishda qatnashuvchanlik darajasi bo'yicha – asosiy va yordamchi ishchilar kabilarga ajratiladi. Korxonada xodimlarning yoshi, mehnat staji, jinsi, malakasi va ma'lumoti bo'yicha ham tarkiblash mumkin.

Iqtisodiy tahlilda xodimlar tarkibi, xodimlar bilan ta'minlanganlik, xodimlar harakati, dinamikasi kabilar bo'yicha o'rganiladi.

Xodimlar tarkibi tahlilida korxona xodimlari sanoat ishlab chiqarishi xodimlari, ishchilar, rahbarlar, xizmatchilar, mutaxassislar, qorovullar kabi guruhlarga ajratib o'rganiladi. Unda barcha xodimlarni eng maqbul miqdori va salmog'i, ularning o'zgarishlari tahlil qilinadi.

Ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik tahlilida xodimlar sonining rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlari, mahsulot hajmining oshishi yuzasidan mutlaq va nisbiy farqlar, xodimlar aylanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

Mehnat resurslari harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich sifatida xodimlar qo'nimsizligi ko'rsatkichi aniqlanadi.

$$Q = \frac{Xs}{X}$$

Bunda: Q - xodimlar qo'nimsizligi koeffisenti

Xs - korxona va umumjamiyat tavsifida bo'lmagan sabablar ta'sirida ishdan bo'shaganlar soni

X - xodimlarning ro'yhatdagi o'rtacha soni.

Ushbu koeffisentni imkon qadar kam salmog'da bo'lishi korxonada xodimlar uchun sharoitni yaxshiligidan dalolat beradi.

Xodimlar qo'nimsizligi bevosita xodimlarni qabul etish va bo'shatish bo'yicha aylanmalarni hisoblash asosida to'ldiriladi.

Xodimlarni ishga qabul etish koeffisienti hisobot davrida ishga qabul qilingan ishchilar sonini mazkur davrdagi jami ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soniga bo'lish asosida aniqlanadi.

Xodimlarning ishdan bo'shatish koeffisienti hisobot davrida ishdan bo'shagan xodimlar sonini ularning ro'yxatdagi o'rtacha soniga bo'lish asosida hisob-kitob qilinadi.

Korxonada xodimlar mehnat unumining oshishi ko'p jihatdan ish vaqtidan qay darajada foydalanganlik darajasi bilan bog'liqdir. Korxonada ish vaqtidan foydalanishning quyidagi jihatlarini farqlash mumkin:

- ishchilar ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish;
-uskunalar ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish.

Ishchilarning ish vaqtidan foydalanganligini umumlashgan ko'rsatkichi - jami ishchilar tomonidan yil davomida ishlangan kishi soatlari hisoblanadi.

Tahlilda, korxonada ish vaqtidan foydalanishning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi alohida omillarning ta'sir darajasiga tavsif beriladi. Ishchilar ish vaqtidan foydalanish darajasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi.

- ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha sonining o'zgarishi;
- bir yilda o'rtacha ishlangan ish kunlarining o'zgarishi;
- ish kuni davomiyligining o'zgarishi.

Ish vaqtidan to'g'ri foydalanish mehnat unumdorligini oshishiga ta'sir qiladi.

Mehnat unumdorligi ishlab chiqarilgan mahsulot, ish va xizmatlar hajmini mehnat sarfi birligiga bo'lish asosida aniqlanadi. Mehnatning sarfining birligi sifatida ishlangan ish soatlari, kunlari yoki ishchilar soni olinadi.

Tahlilda mehnat unumdorligi, uning o'sish darajalari va dinamikasiga baho beriladi.

Mehnat unumdorligining o'sish darajalari va dinamikasiga baho berishda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi quyidagi qatorlarga alohida ahamiyat beriladi.

- intensiv omil;
- ekstensiv omil;

- ishlab chiqarishning texnik-texnologik holati;
- mehnat unumdorligining oshishi;
- mahsulot hajmining uni ishlab chiqarish vaqti va sifatiga ta'sir etmagan holda oshirishga;
- mahsulot birligiga mehnat sarfining kamayishiga;
- mahsulot ishlab chiqarish va tovarlar aylanish vaqtini qisqartirishga;
- mahsulot hajmi va foydani oshirish holatiga.

Mehnat unumdorligi qiymat (pul o'lchovida) va ayrim hollarda natural (dona va shu kabilar) ko'rsatkichlarda aniqlanadi.

**7.2-jadval**

**Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari**

| Nomi | Hisoblash tartibi |
|---|---|
| Bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi | $MU = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat) hajmi}}{\text{Xodimlarning o'rtacha soni}}$ |
| Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi | $MU = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat) hajmi}}{\text{Ishchilarning o'rtacha soni}}$ |
| Bir kunlik mehnat unumi | $MU = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat) hajmi}}{\text{Jami ishlangan ish kunlari}}$ |
| Bir soatlik mehnat unumi | $MU = \frac{\text{Mahsulot (ish, xizmat) hajmi}}{\text{Jami ishlangan ish soatlari}}$ |

7.2-jadvaldagi hisoblash tartiblarini quyidagi misol yordamida ko'rib chiqamiz.

**7.3-jadval**

**Bir xodimga, bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi (+;-) | O'sish darajasi |
|---|---|---|---|---|
| A | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. Mahsulot hajmi korxona ulgurji bahosida, ming so'm | 15428000 | 18650000 | 3222000 | 120,9 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni, kishi | 1914 | 1760 | -154 | 91,9 |
| a) Shu jumladan; ishchilar | 1560 | 1450 | -110 | 92,9 |
| 3. Jami ishlangan ish kunlari, ming kishi – kuni | 430.6 | 366.0 | -64,6 | 85,0 |
| 4. Jami ishlangan ish soatlari, ming kishi – soat | 3014,2 | 2635,2 | -379,0 | 87,4 |
| 5. Bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, ming so'm (1/2) | 8060,6 | 10596,5 | 2535,9 | 31,5 |
| 6. Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, ming so'm (1/2 a)) | 9889,7 | 12862,0 | 2972,3 | 30,0 |
| 7. Bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot, so'm (1/4) | 5118,4 | 7077,3 | 1958,9 | 38,2 |
| 8. Bir kishi kunida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, so'm (1/3) | 35,8 | 50,9 | 15,1 | 42,1 |

7.3-jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, korxonada ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich mehnat unumining o'zgarishi quyidagicha bo'lgan; bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi o'tgan yilga nisbatan 31,5 foizga oshgan, miqdor jihatdan esa 2535,9 ming so'mga ko'paygan. Qolgan ko'rsatkichlar ham ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lgan.

Iqtisodiy tahlilda o'zgarishlarga ta'sir etgan omillar ham alohida o'rganiladi.

Mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin.

1. Moddiy - texnik va texnologik.
2. Tashkiliy – iqtisodiy.
3. Ijtimoiy – ruhiy.

Moddiy-texnik va texnologik omillar ishlab chiqarishda samarador texnika va zamonaviy texnologik uskunalardan, shuningdek axborotlar texnologiyasidan, yangi xom-ashyo va materiallardan foydalanishni tavsiflaydi. Ular ko'proq mahsulotning hajmiga, sifatiga hamda mehnat va ashyoviy sarflariga ta'sir etadi.

Tashkiliy-iqtisodiy omillarga boshqaruvning, mehnat va butun ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali va zamonaviy tizimini qo'llash usullari kiradi.

Ijtimoiy-ruhiy omillarga – xodimlarning sifat tasnifini tavsiflovchi (malakasi, mehnat faolligi, majburiyati va xizmat vazifasiga ma'sulligi, sohibkorligi) jihatlarini faollashtirish masalalari kiradi.

Yuqorida tarkiblangan barcha omillar o'zaro bog'liq va aloqadorlikdadir. Shu sababli ular tahlilda kompleks holda o'rganiladi.

Mehnat unumdorligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda bir ishlovchiga va bir ishchiga to'g'ri keladigan unumdorlik ko'rsatkichlariga alohida ahamiyat beriladi. Bir xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumining o'zgarishiga ishchilarning jami ishlovchilar tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi va bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi ta'sir etadi. Bir ishchining mehnat unumining o'zgarishiga esa bir ishchi tomonidan o'rtacha yillik ishlangan ish kunlarining o'zgarishi, ish kuni davomiyligining o'zgarishi hamda bir soatlik mehnat unumining o'zgarishini ta'sir etadi.

Tahlilda har omilning natijaviy ko'rsatkichga ta'sir darajalari hisoblab topiladi va ularning o'zgarish ta'siri baholanadi.

## 7.4. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanishning tahlili

Asosiy vositalar ishlab chiqarish faoliyatida uzoq yillar qatnashadigan, o'z boshlang'ich qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibiga yoki moliyaviy natijalar hisobidan qoplanadigan xarajat obyektlariga o'zining belgilangan xizmat muddati davomida bo'lingan tartibda o'tkazadigan hamda jismoniy shaklini o'zgartirmaydigan mehnat qurollaridir. Shuningdek, asosiy vositalar korxonaga mulkiy jihatdan tegishli, kelgusida iqtisodiy naf keltirishi kutilayotgan hamda xizmat muddati uzoq vaqtni tashkil etadigan aktivlar jumlasiga kiradi.

Korxonada asosiy vositalarni quyidagi belgilar bo'yicha tasniflash mumkin.

1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab:

- aktiv asosiy vositalar;
- passiv asosiy vositalar.

2. Tarmoq bo'ysunuviga qarab:
- sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari;
- boshqa tarmoq asosiy vositalari;
- noishlab chiqarish asosiy vositalari.

3. Foydalanishiga qarab:
- foydalanishdagi asosiy vositalar;
- foydalanishdan olib qo'yilgan asosiy vositalar

4. Turi bo'yicha:
- binolar, inshoatlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asbob-uskunalar, xo'jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar.

5. Mulkiy egaligiga qarab:
- o'ziga tegishli asosiy vositalar;
- ijaraga olingan asosiy vositalar.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 3 – shakl "Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot" shaklidan olinadi. Ushbu tasnif tahlil maqsadlari uchun foydalaniladi.

Asosiy vositalarni o'rganishda ularning texnik holat va harakat ko'rsatkichlariga muhim ahamiyat beriladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi:
- asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;
- asosiy vositalarning eskirish darajasi.

Yaroqlilik darajasi asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali;

Eskirish darajasi asosiy vositalarning eskirish qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Yaroqlilik va eskirish koeffisentlari yig'indisi koeffisentda 1 ga, foizda 100 teng bo'ladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga qarab ularning texnik holatiga baho beriladi va ularni tartiblash bo'yicha boshqaruv qarorlari qa'bul qilinadi.

Asosiy vositalarning holatini o'rganishda korxona amortizatsiya siyosatiga, asosiy vositalarning ma'naviy eskirganlik daraja-

siga, foydalanishdan olib qo'yilgan asosiy vositalar holatiga muhim e'tibor qaratiladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlarini ularning har bir turi va jami bo'yicha o'rganiladi. Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 1-shakl «Buxgalteriya balansi» va 3 - shakl «Asosiy vositalarning harakati to'g'risida hisobot" shakllaridan olinadi.

7.4-jadval

**Aktiv asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari tahlili**

| Asosiy vositalar | Boshlang'ich qiymati | Eskirish qiymati | Qoldiq qiymati | Eskirish darajasi | Yaroq-lilik darajasi |
|---|---|---|---|---|---|
| **O'tgan yil** | 168900 | 54890 | 114010 | 32.5 | 67,5 |
| **Hisobot yil** | 187320 | 65780 | 121540 | 35,1 | 64,9 |
| **Farqi (+;-)** | +18420 | +10890 | +7530 | +2,6 | -2,6 |

Korxonada aktiv asosiy vositalarning eskirish darajasi o'tgan yilga nisbatan 2.6% ga oshgan. Unga qarama qarshi bo'lgan ko'rsatkich asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi esa 2,6% ga kamaygan. Biroq, korxonadagi aktiv asosiy vositalarlarning yaroq-lilik darajasi 64,9 foizni tashkil etib ijobiy holatga ega.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning harakat ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi. Asosiy vositlarning harakat ko'rsatkichlariga ularning yangilanishi va chiqib ketish koeffisentlari kiritiladi.

Asosiy vositalarning yangilanish koeffisenti joriy davrda yangidan kiritilgan asosiy vositalar qiymatini asosiy vositalarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish orqali topiladi. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffisienti joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymatini ularning yil boshiga bo'lgan qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Bu tarkiblashni asosiy vositalarning jami qatori va har bir tarkibi bo'yicha berib o'tish mumkin.

7.5-jadval

**Asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlari tahlili**

| Asosiy vositalar | Asosiy vositalar yil boshiga qoldigi | Yangidan qabul qilingan asosiy vositalar | Chiqim qilingan Asosiy vosita-lar | Asosiy vositalar yil oxiriga qoldigi | Yangila-nish koeff. | Chi-qib ketish koeff. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| O'tgan yil | 155690 | 14500 | 1290 | 168900 | 8,6 | 0,8 |
| Hisobot yili | 168900 | 22380 | 3960 | 187320 | 11,9 | 2,3 |
| Farqi (+;-) | +13210 | +7880 | +2670 | +18420 | +3,3 | +1,5 |

Korxonada asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlarini o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatadiki joriy davrda asosiy vositalarning yangilanish darajasi oldingi yilga nisbatan 3,3 % ga o'sgan. Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi esa +1,5 % ga ortgan. Ular orasidagi nisbat 2.2 ga (3.3 / 1.5) teng bo'lgan.

Tahlilda asosiy vositalarning yangilanish va chiqib ketish sabablariga ham muhim e'tibor beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi nafaqat asosiy vositalarning texnik holat va harakat ko'rsatkichlariga, balki ular bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bog'liq. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik yoki qurollanganlik darajasi ishlab chiqarishdagi mehnat vositalari me'yor darajasida mavjud yoki mavjud emasligini tavsiflab beradi.

Avvalo, korxonaning mehnat vositalari bilan ta'minlanganligida quyidagi jihatlarini farqlash lozim:

- o'ziga tegishli bo'lgan mehnat vositalar hisobiga ta'minlash;
- ijaraga olingan mehnat vositalari hisobiga ta'minlash.

Demak, korxona har ikki holatda ham asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikning me'yor ko'rsatkichlariga ega bo'lishi mumkin.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik tahlilida korxonada asosiy vositalarning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan mutlaq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko'rsatkichlari sifatida bir ishchiga to'g'ri keladigan mehnat vositalari, ish o'rni, maydonining asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi aniqlanadi. Asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi. Ya'ni korxona faoliyatiga faqat miqdor ko'rsatkichlar orqaligina emas, balki sifat ko'rsatkichlarini ham o'rganish asosida baho beriladi.

7.6-jadval

**Ishchilarning asosiy vositalar bilan qurollanganlik tahlili**

| № | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi (+;-) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | **Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati, ming so'm** | 162295 | 178110 | +15815 |
| 2 | **Ishchilar soni, kishi** | 1560 | 1450 | -110 |
| 3 | **Bir ishchiga to'g'ri keladigan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm** | 104 | 122 | +18 |

Korxonada ishchilarning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi o'tgan yilga nisbatan 18000 so'mga o'sgan. Bu o'sish ikki omil hisobiga: birinchisi – ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga; ikkinchisi – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi hisobiga sodir bo'lgan.

Asosiy vositalardan foydalanishda ularning samaradorligiga baho berish iqtisodiy tahlilning zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Samaradorlik korxona xo'jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

7.7-jadval

**Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari**

| Ko'rsatkichlar nomi | Hisoblanish tartibi |
|---|---|
| **Sanoat ishlab chiqarish fondlari qaytimi** | $Fk = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Sanoat ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}$ |
| | Mahsulot hajmi |

| | |
|---|---|
| **Mashina va uskunalar qaytimi** | Fk =- ---------- Mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymati |
| **Sanoat ishlab chiqarish fondlari sig'imi** | Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati Fs = ---------- Mahsulot hajmi |
| **Mashina va uskunalar sig'imi** | Mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymati Fs = ---------- Mahsulot hajmi |

Ushbu qaytimga oid samaradorlik ko'rsatkichlari har bir ming yoki bir so'mlik asosiy vositalarga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini ifodalaydi . Qaytim ko'rsatkichlarini tobora oshib borishi ijobiy o'zgarishlarni bildiradi.

Sig'imga oid ko'rsatkichlar esa bir birlik mahsulot tarkibida qancha asosiy vositalar qiymati mavjud ekanligini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich kamayib borishi yaxshi natijalarni ko'rsatadi yoki aksincha.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va uning holatiga baho berishga iqtisodiy tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Korxona ishlab chiqarish quvvati uning to'la ish bilan bandlik holatiga aytiladi. Bu holat nafaqat mahsulot ishlab chiqarish darajasiga balki uning xarajatlar tarkibiga, moliyaviy natijasiga ham ta'sir etuvchi birlik sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish quvvatlari va uning foydalanish darajalariga baho berish asosida korxonaning joriy davrdagi iqtisodiy potensiali hamda uni maqsadli boshqaruvi belgilanadi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning tahlilining quyidagi qatorlarini tavsiflash mumkin;

- korxona ishlab chiqarish quvvatlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimi;
- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni qiyosiy tahlili;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxona xarajatlariga ta'sirining tahlili;

- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxona ishlab chiqarish samaradorligiga va faoliyat natijaviyligiga ta'sirining tahlili.

Tahlilda asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning ta'sir etuvchi omillari ikki tarkib bo'yicha o'rganiladi:

1. Asosiy vositalarning samaradorligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

2. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirining tahlili.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi.

Fond qaytimi (sig'imi) va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishi;
- asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.

Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi;

- asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi;
- fond qaytimi (sig'imi)ning o'zgarishi.

Asosiy vositalar tahlili natijalari ular bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

## 7.5. Moddiy zaxiralar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili

Moddiy zaxiralar ishlab chiqarish faoliyatining muayyan bosqichida foydalanishda bo'lgan, shu jarayonda is'temol etilgan, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmat) tarkibiy asosini tashkil etadigan hamda uning tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazadigan mablag'lardan tashkil topadi.

Iqtisodiy tahlilda moddiy zaxiralar holati va ulardan foydalanish darajasini ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmat) tannarxiga nisbatan o'rganiladi. Mazkur mablag'lardan noishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishdan tashqari jarayonlarda foydalanish esa korxona sarflarining alohida tarkib qatori sifatida qaraladi.

Ishlab chiqarish omillari tarkibiga kiruvchi mehnat ashyolari va ularning cheklanganligi, avvalo ulardan foydalanishni to'g'ri va

maqsadli boshqarishni talab etadi. Resurslar yoki mablag'lar cheklanganligi bevosita ular zaxirasining tugashini va chegaralanganligini tavsiflaydi.

Mehnat ashyolari tahlilining mazmuni bevosita uning oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqadi. Tahlilda bevosita ashyoviy resurslar bilan korxonaninng ta'minlanganlik darajasiga, ulardan samarali foydalanishning holatiga, mahsulot hajmini oshirishda ashyolarni to'g'ri boshqarishning ahamiyatiga, ashyoviy resurslarni iqtisod qilish yuzasidan ichki imkoniyatlarni belgilash va yo'lga quyishga muhim ahamiyat beriladi.

Shu ma'noda iqtisodiy tahlil oldiga ham o'ta muhim vazifalar qo'yilgan.

- moddiy resurslar ta'minoti rejasining bajarilishiga baho berish;
- resurslar va ular bo'yicha me'yorlarga qat'iy amal etilishini o'rganish;
- moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanishning darajasiga baho berish;
- moddiy aylanma mablag'lar aylanishini o'rganish;
- muhim samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishini omilli tahlil etish;
- mahsulot hajmini o'zgarishiga tasir etuvchi mehnat ashyolari bilan bog'liq bo'lgan omillarni o'rganish;
- ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida mehnat ashyolarining salmog' ko'rsatkichlarini o'rganish va shu kabilar.

Moddiy zaxiralardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi:

- material sig'imi ko'rsatkichi;
- material qaytimi ko'rsatkichi.

Material sig'imi ko'rsatkichi ishlab chiqarishga sarflangan material xarajatlarni yoki moddiy resurslar qiymatini mahsulot hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga nibati bilan aniqlanadi. Unga teskari bo'lgan ko'rsatkich material qaytimini tavsiflaydi. Ularni hisob-kitobi quyidagicha ifoda etiladi.

Material qaytimi = Mahsulot hajmi / material xarajatlar

Material sig'imi = Material xarajatlar / mahsulot hajmi

Moddiy resurslar aylanishiga baho berish ham tahlilda asosiy mezon sifatida olinadi. Ya'ni, moddiy ishlab chiqarish resurslarining pulga aylanish davri va vaqtini o'rganish asosida korxona aylanma aktivlarining likvidlilik darajasiga baho beriladi.

Tahlil etishda moddiy resurslar sig'imi va qaytimining o'zgarishiga shuningdek, ularning aylanuvchanlik darajalariga ta'sir etuvchi omillarga va ularning mahsulot hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga ta'siriga ham alohida ahamiyat qaratiladi.

Moddiy resurslar sig'imi va qaytimiga ta'sir etuvchi omil sifatida mahsulot hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlar qiymatining o'zgarishi va moddiy resurs va sarflar qiymatining o'zgarishini kiritish mumkin. Ularning ta'sir darajalari bevosita tahlilning oddiy va matematik formulalari asosida aniqlanadi.

Moddiy resurslar va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarining mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini ham bevosita moddiy resurslar va xarajatlar qiymati hamda ularning samarasidan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin.

7.8-jadval

**Moddiy resurslar samaradorligi tahlili**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | Farqi (+;-) | O'sish darajasi |
|---|---|---|---|---|
| Mahsulot hajmi korxona ulgurji bahosida, ming so'm | 125463 | 215364 | +89901 | 171,6 |
| Moddiy zaxira sarflari, ming so'm | 79520 | 154862 | +75342 | 194,7 |
| Moddiy sarflar qaytimi (1/2) | 1,577 | 1,390 | -0,187 | 88,1 |
| Moddiy sarflar sig'imi (2/1) | 0,634 | 0,719 | +0,085 | 113,4 |

7.8-jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, korxonada moddiy sarflarning samaradorlik darajasi o'tgan yilga nisbatan bir qadar yomonlashgan. Moddiy zaxira sarflari qaytimi o'tgan yilga nisbatan 0,187 so'mga kamaygan. Sig'im ko'rsatkichi esa 0,085 so'mga oshgan. Demak, korxona mutaxassislari bu boradagi holatni yaxshilashga jiddiy e'tibor qaratishlari zarur.

Moddiy resurslar tahlilida ularning aylanuvchanlik darajasiga korxona moliyaviy holatiga baho berishning muhim ko'rsatkichi

sifatida qaraladi. Moddiy sarflarning aylanuvchanlik darajasi koeffisentlarda va kunlarda aniqlanadi.

Sotilgan mahsulot hajmini (yoki Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini) tovar-moddiy zaxiralarning o'rtacha qoldig'iga bo'lish bilan aylanuvchanlik koeffisenti hisoblanadi. Koeffisent miqdorini oshib borishi ijobiy holat sanaladi. Chunki u aylanishlar miqdorini ko'rsatib beradi.

Tovar-moddiy zaxiralarning o'rtacha qoldig'ini hisobot davri kunlari soniga ko'paytirib, natijani sotilgan mahsulot hajmiga (yoki Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga) bo'lish bilan moddiy zaxiralarni aylanish kunlari topiladi. Kunlar sonnini kamayishi ijobiy holat deb qaraladi. Chunki, aylanishning tezlanishi kunlar sonini qisqartiradi. Demak, mablag' tez bo'shaydi.

Moddiy zaxiralar tahlili natijalari ulardan samarli foydlanish yo'llarni topishda muhim ahamiyatga ega.

## 7.6. Xarajatlar va mahsulot ishlab chiqarish tannarxining tahlili

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada xarajatlar tushunchasi korxona faoliyatining buxgalteriya hisob-kitoblarida aks etadigan xarajatlar tushunchasidan farq qiluvchi ba'zi bir jihatlarga ega. Chunki buxgalteriya hisob-kitoblarida xarajatlar mazkur fanning usullari, tamoyillari va rasmiy belgilangan talablari asosida shakllantiriladi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlari tushunchasi – aktivlardan foydalanish yoki ularning chiqib ketishi, foydani kamaytiruvchi zararlar yoki majburiyatlarni qamrab oladi deb ifodalanadi Bundan ma'lum bo'lmoqdaki, xo'jalik subyektlarining xarajatlari o'z mazmuni, yuzaga chiqish shakli va boshqa belgilari bo'yicha bir necha turdan iborat bo'ladi. Ularni alohida o'rganish xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalarini to'g'ri aniqlash, mablag'larni maqsadga muvofiq sarflash, ularni boshqarish, nazorat qilish, tahlil etish, bu boradagi hisob ishlarini ilmiy tashkil etish hamda soddalashtirish uchun zarur.

Xo'jalik subyektlari faoliyatidagi xarajatlar to'g'risida iqtisodiy ma'lumotlarni obyektiv shakllantirish masalasi – buxgalteriya hisobi va uning usullari orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishning turli usullari mavjud. Xarajatlarni zararsizlik nuqtasi yoki zararsizlikni ta'minlovchi mahsulot hajmi bo'yicha tahlil qilish ham keng tarqalgan yondashuvlardan biridir.

Ushbu tartibda xarajatlarni o'zgarmas, o'zgaruvchan hamda diskert tartibdagi turlari bo'yicha o'rganish mumkin. Yoki, eng maqbul foyda hajmini ta'minlaydigan xarajat miqdorini belgilash kabilar tahlil ishlarida samarali qo'llaniladi.

Moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi xarajatlar tarkibini tahlili ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Unda sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, davr xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar kabilar ham bu boradagi o'rganiladigan masalalardir.

Ishlab chiqarish tartibidagi sarflarni o'zida umumlashtirib aks ettirgan mahsulot tannarxi ham xarajatlar tahlilida markaziy jihat egallaydi. Amaldagi tartibga mufofiq milliy hisob tizimimizda xarajatlar quyidagi elementalardan tashkil topadi:

- bevosita va bilvosita tavsifdagi moddiy xarajatlar;
- bevosita va bilvosita tavsifdagi ish haqi xarajatlari hamda unga bog'liq ijtimoiy ajratmalar;
- bevosita va bilvosita tavsifdagi asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- bevosita va bilvosita tavsifdagi boshqa xarajatlar.

Mahsulot tannarxini tahlil etishdan asosiy maqsad uni pasaytirish yuzasidan korxonada mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash va foydani oshirish masalasida xarajatlarni to'g'ri va o'rinli boshqarishning shartlarini belgilashdan iborat.

Bunda bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va ularning o'zgarish sabablariga ahamiyat beriladi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan barcha xarajatlarning o'zgarish sabalarini me'yorlar va baholar ta'siri asosida tadqiq etish mumkin.

Mahsulot tannarxini tahlil etishda muhim iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Bo'larga quyidagi-

larni kiritish mumkin. Ya'ni, a) bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan -

material xarajatlar;
ish haqi va ijtimoiy ajratmalar;
asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
boshqa xarajatlar;
b) mahsulotning jami xarajat sig'imi;
o'zgaruvchan xarajatlar;
o'zgarmas;
diskert xarajatlar.

Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat ko'rsatkichlari quyidagi bog'lanishlar bo'yicha aniqlanadi.

7.9-jadval

**Ishlab chiqarilgan mahsulot xarajat sig'imi ko'rsatkichlari**

| **Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keluvchi -** | **Aniqlanishi** |
|---|---|
| Material xarajatlar | Material xarajatlar / Mahsulot hajmi |
| Ish haqi va ijtimoiy ajratmalar | Ish haqi va ajratmalar / Mahsulot hajmi |
| Amortizatsiya | Amortizatsiya / Mahsulot hajmi |
| Boshqa xarajatlar | Boshqa xarajatlar / Mahsulot hajmi |

Tahlil etishda ularning rejaga va o'tgan yillaraga nisbatan, shuningdek boshqa raqobatchi korxonalarga nisbatan o'zgarishlari o'rganiladi.

## 7.7. Moliyaviy natijalar hamda rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili

Foyda (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti maqsadi sifatida qaraladi. Jahon amaliyotida foyda tushunchasi ko‘pincha biznes samaradorligining natijasi sifatida qaraladi. Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o‘zgaruvchanlikdir. Ular orasidagi quyi o‘zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijlarni tavsiflovchi foydani o‘lchashga daxldor bo‘lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlarni, ya’ni foydani aniqlash va o‘lchash – korxona o‘z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Daromadlar va xarajatalar elementlari quyidagicha aniqlanadi.

**Daromadlar** – bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko‘payishi shaklida oshishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq etuvchi oshishiga olib keluvchi kamayishidir.

**Xarajatlar** – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek qatnashchilar o‘rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Daromad va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy xususiyatlarini belgilaydi, ammo ularni moliyaviy natijalar hisobotida aks ettirishda talab qilinadigan mezonlarni aniqlashni maqsad qilib qo‘ymaydi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o‘zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo‘yicha o‘zgarishlari o‘rganiladi. Foyda va zararlarning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo‘lga qo‘yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini tavsiflovchi rentabellik ko‘rsatkichi va uning omilli tahlili o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish,

xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tasniflanadi.

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

YaF= SST-IT

bunda,

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tavofut va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

AFF = YaF-DX+BD-BZ,

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar;

- umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

UF = AFF+MD-MX,

bunda,

UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to‘lagungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlarda ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

STF = UF+FP-FZ,

bunda,

STF – soliq to'lagungacha olingan foyda;

FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

- yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan, to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

SF = STF-DS-BS,

bunda,

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foydani shakllantirish va taqsimlashni hisobga olish korxona faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi.

Turli mulk shaklidagi korxonalarning faoliyatlari asosiy va aylanma mablag'larga bevosita bog'likdir. Ushbu mablag'lar xo'jalik yurituvchi subyektlar tashkil qilingandan e'tiboran foydalaniladi va ko'paytirib boriladi. Xo'jalik mablag'larini ko'paytirishning muhim manbasi xususiy kapital hisoblanadi. Kapital o'z navbatida ustav kapitali, qo'shilgan kapital va zaxira kapitaldan tashkil topadi. Ushbu manbalar, asosan, korxona faoliyatidan olingan so'nggi moliyaviy natija, ya'ni taqsimlanmagan foyda hisobidan ko'paytirilib boriladi. Shuning uchun ham korxona foydasi tahlilning muhim obyekti hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o'zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo'yicha o'zgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararlarning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga qo'yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajaasini tavsiflovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkaziladi.

Tahlil moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trendli tahlil va ko'rsatkichlarni

aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qishda uning satrlar bo'yicha ko'rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni tavsiflovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlarga umumiy izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir qatorli va ko'p qatorli usullarida o'zaro farqlanishlarga va nisbiy o'zgarishlar baho beriladi.

Gorizontal tahlilida esa moliyaviy natijalarning bo'ylamasiga tarkiblanishi va ularning o'zgarishlari o'rganiladi.

Asosli yoki trend tahlilida moliyaviy natijalar va ularning yillar bo'yicha o'zgarishi, dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning moliyaviy natijalarini tahlil etishda moliyaviy tahlilning eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Korxonaning foydalilik darajasiga baho berish.
2. Korxonaning moliyaviy natijalarini tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish.
3. Biznes rejada belgilangan foydalilik darajasiga erishilganligi va unga ta'sir etgan omillarni o'rganish hamda baho berish.
4. Foydaning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish.
5. Foydaning ko'paygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan va boshqa faoliyatlardan erishilgan natijaning ta'sir etishini aniqlash.
6. Korxonaning yalpi foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish.
7. Soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan foydaning shakllanishiga va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish.
8. Korxonaning sof foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda baho berish.
9. Sof foydani ko'paytirish yo'nalishlarini belgilab berish.
10. Korxonaning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarga baho berish.

11. Korxonaning umumiy rentabellik darajasini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va hokazolar.

Korxona faoliyat natijaviyligi baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Rentabellik korxona foydalilik darajasini tavsiflaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob-kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'rni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Rentabellikning iqtisodiyotda quyidagi turlari aniqlanadi.

**1. Ishlab chiqarish xarajtalariga nisbatan rentabellik**

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Ishlab chiqarish xarajatlari}} \text{ x100\%}$$

Ushbu ko'rsatkich bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foyda summasini tavsiflaydi.

**1. Asosiy vositalar rentabelligi.**

Asosiy vositalar rentabelligi har bir so'mlik yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan foyda summasini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}} \text{ x 100 \%}$$

2. **Sotish bo'yicha rentabellik.** Sotish bo'yicha rentabellik sotilgan mahsulotlarning foydalik darajasini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulotlarni sotishdan olingan tushumga bo'lish asosida aniqlanadi. Ya'ni:

$$R = \frac{\text{Sotishdan olingan foyda}}{\text{Sotishdan olingan tushum summasi}} \text{ x 100\%}$$

3. **Aylanma aktivlar rentabelligi.** Ushbu ko‘rsatkich aylanma aktivlarning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda, sof foyda summasini tavsiflaydi.

Aylanma aktivlar rentabelligi olingan sof foyda summasini aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish asosida aniqlanadi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Aylanma aktivlar o‘rtacha yillik qiymati}} \times 100\%$$

4. **Jami mulk rentabelligi.** Ushbu ko‘rsatkich korxona mulkining foydalilik darajasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich har bir so‘mlik mulkka to‘g‘ri keladigan sof foyda summasini ifodalaydi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxona mulki jami}} \times 100\%$$

5. **O‘z mablag‘lari rentabelligi.** Ushbu ko‘rsatkich korxonaning o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larning foydalilik darajasini tavsiflaydi.

Korxona sof foydasini uning o‘zlik mablag‘lari manbaiga bo‘lish asosida o‘zlik kapitalining foydalilik darajasi o‘rganiladi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxona o‘zlik mablag‘lari}} \times 100\ \%$$

6. **Qarz mablag‘lari rentabelligi.** Ushbu ko‘rsatkich korxona sof foydasini qarzga olingan mablag‘lariga nisbati asosida aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich har bir so‘mlik qarz mablag‘iga to‘g‘ri keladigan foyda summasini ifodalaydi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz mablag‘lari jami}} \times 100\%$$

7. **Asosiy vositalar va moddiy aylanma mablag'lari rentabelligi.** Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini korxona asosiy vositalari va moddiy aylanma mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi. U har bir so'mlik asosiy va aylanma mablag'iga to'g'ri keladigan foyda summasini tavsiflaydi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy va aylanma mablag'lari o'rt.yil. qiym.}} \times 100\%$$

Yuqorida belgilangan rentabellik ko'rsatkichlarini quyidagi jadvalda hisob-kitoblari belgilangan.

**7.10-jadval**

**Rentabellik tahlili**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi (+;-) |
|---|---|---|---|
| B | V | G | D |
| Mahsulot sotishdan sof tushum | 125987 | 152485 | +26498 |
| Sotilgan mahsulot tannarxi | 102574 | 135425 | +32851 |
| Sotishdan olingan foyda | 23413 | 17060 | -6353 |
| Sof foyda | 2589 | 3125 | +5365 |
| Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati | 5213 | 5632 | +419 |
| Aylanma mablag'lari o'rtacha yillik qiymati | 8752 | 9521 | +769 |
| Korxona mulki | 15562 | 17892 | +4330 |
| O'zlik mablag'lari | 8542 | 8965 | +423 |
| Qarz mablag'lari | 2546 | 3212 | +670 |
| Mahsulot rentabelligi | 18,6 | 11,2 | -7,4 |
| Asosiy vositalar rentabelligi | 49,6 | 55,4 | +5,8 |
| Aylanma mablag'lar rentabelligi | 29,6 | 32,8 | +3,2 |
| Ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi | 22,8 | 12,6 | -10,2 |
| O'z mablag'alari rentabelligi | 30,3 | 34,8 | +4,5 |
| Jami mulkka nisbatan rentabellik | 16,6 | 17,5 | +0,9 |
| Umumiy rentabellik | 18,5 | 20,6 | +2,1 |
| Qarz mablag'lari rentabelligi | 101,7 | 97,2 | -4,5 |

7.10-jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, korxonada rentabellik ko'rsatkichlari o'tgan yilga nisbatan bir qadar o'sgan. Faqat mahsulot rentabelligi, ishlab chiqarish tannarxi va qarz mablag'alariga nisbatan rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan pasayish kuzatilgan.

Asosiy vositalar rentabelligi 5,8 % ga, aylanma aktivlari rentabelligi (moddiy) 3,2 % ga, o'z mablag'lari rentabelligi 4,5 % ga, jami aktivlar rentabelligi 0,9 % ga, umumiy rentabellik 2,1 % ga o'sgan.

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ularda qatnashuvchi birliklarga nisbatan belgilash mumkin. Misol uchun, mahsulotni sotishga nisbatan rentabellik o'zgarishiga sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishi va sotishdan olingan tushumlar summasining o'zgarishi ta'sir etsa, asosiy vositalar rentabelligiga korxona sof foydasining o'zgarishi va asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi, umumiy rentabellikka bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan sof foyda summasining o'zgarishi, asosiy vositalar qaytimining o'zgarishi va moddiy aylanma mablag'lar qaytimining o'zgarishlari ta'sir qiladi va h.k.

## 7.8. Korxona moliyaviy holati tahlili

Moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar korxonaning muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bu boradagi tahlil moliyaviy hisobot hamda boshqa zarur manbalardagi ma'lumotlar asosida o'tkaziladi. Moliyaviy holat bir qator muhim ko'rsatkichlar hamda hisob-kitoblar bilan o'rganiladi. Ularning ayrimlarini tartib asosida ko'rib chiqamiz.

Moliyaviy tahlilda korxona mulki, ularning manbasini chuqur o'rganiladi. Chunki, korxonada mulklar va ularning manbalarining holati va o'zgarishi moliyaviy holatning muhim jihati hisoblanadi. Quyidagi jadvalda korxona mulkining hajmi va tarkibi keltirilgan.

7.11-jadval

**Korxona mulkining tahlili**

| № | Mol-mulkning tarkibi | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | O'zgarishi (+,-) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Ming sum | % | Ming sum | % | Ming sum | % | Yil boshiga nisbatan % |
| 1. | Uzok muddatli aktivlar | 251184 | 73,7 | 265548 | 71,7 | 14364 | -2,0 | 5,7 |
| 2. | Joriy aktivlar | 89545 | 26,3 | 104694 | 28,3 | 15149 | 2,0 | 16.9 |
| | Shu jumladan: | | | | | | | |
| A) | Tovar moddiy zaxiralar | 7946 | 2,3 | 12216 | 3,3 | 4270 | 1,0 | 53,7 |
| B) | Pul mabaglari va kimmatli kogozlar | 834 | 0,2 | - | | | -0,2 | 0,0 |
| V) | Debitorlar | 80765 | 23,7 | 92478 | 25,0 | 11713 | 1,3 | 14,5 |
| | Balans aktivining jami | 340729 | 100 | 370242 | 100 | 29513 | 0,0 | 8,7 |

7.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki xo'jalikning mol mulki yil boshiga nisbatan 29513 ming so'mga ko'paygan. Bu yaxshi ko'rsatkich, albattta. Bunda uzok muddatli aktivlar 14364 ming so'mga, joriy aktivlar esa 15149 ming so'mga oshgan. Korxona, ham ishlab chiqarishga sharoit yaratmoqda, ham mablag'lar aylanishini oshirmoqda. Biroq debitor korxonaning qarzlari hamon yuqoriligicha qolmoqda. Umuman olganda xo'jalikning mulki mavjud va u oshib bormoqda.

Shundan so'ng balansni passiv qismi o'rganiladi.

Balansning passiv qismida xo'jalik mablag'larining qoplash manbalari ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag'larni to'ldirish quyidagilardan iborat:

1. O'zlik mablag'larning manbalari.
2. Majburiyatlar.

Bozor iqtisodi talabidan kelib chiqqan holda xo'jalikda qarz kam bo'lgani ma'qul. Ushbu -jadvalda xo'jalik mablag'larining manbalari ko'rsatilgan.

7.12-jadval

## Korxonada balans passivi tahlili

| № | Mol-mulkning tarkibi | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | O'zgarishi (+, -) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Ming sum | % | Ming sum | % | Ming sum | % | Yil boshiga nisbatan % |
| 1 | O'zlik mablaglari manbalari | 201291 | 59,1 | 234146 | 63,2 | 32855 | 4,2 | 16,3 |
| 2 | Majburiyatlar | 139438 | 40,9 | 136096 | 36,8 | -3342 | -4,2 | -2,4 |
| | Shu jumladan: | | 0,0 | | 0,0 | 0 | 0,0 | |
| A) | Uzok muddatli kredit va karzlar | 118815 | 34,9 | 113768 | 30,7 | -5047 | -4,1 | -4,2 |
| B) | Kiska muddatli kredit va karzlar | 7849 | 2,3 | 9945 | 2,7 | 2096 | 0,4 | 26,7 |
| V) | Kreditorlik karzlari | 12774 | 3,7 | 12383 | 3,3 | -391 | -0,4 | -3,1 |
| | Balans passivining jami | 340729 | 100 | 370242 | 100,0 | 29513 | 0,0 | 8,7 |

7.12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki korxonada mablag'lar manbai ham 29513 ming so'mga ko'paygan. O'zlik mablaglari manbalari 32855 ming so'mga keskin oshgan. Majburiyatlar esa – 3342 ming so'mga kamaygan. Bu borada xujalikdagi axvol yaxshilangan. Bu esa moliyaviy holatni manbalar bo'yicha yanada yaxshilanganini namoyon qiladi.

Uzoq muddatli kredit va qarzlar yil oxiriga kamaygan. Bu ham yaxshi holatlardan biri hisoblanadi.

Tahlilda zaxiralari va xarajatlarni har tomonlama o'rganish o'ta muhimdir. Bunday mablag'lar tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari, ya'ni xom-ashyo va materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruksiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o'rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug' va yem-xashak va boshqalar kiradi. Ular xo'jalikning bir me'yorida ishlashi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo'yicha sotish rejasini ta'minlashga yetarli bo'lishi lozim. Shuningdek,

zaxira va xarajatlar tarkibiga o'simlik va chorvachilik bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari, tayyor mahsulot va boshqalar ham kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ham o'rganish va tahlil etish lozim bo'ladi.

Shu bilan birga, moliyaviy holat tahlilida aylanma mablag'larni qoplashga o'zlik manbalarining yetarliligi yoki yetishmasligini tahlili ko'rib chiqiladi.

Quyidagi jadvalda zaxira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarning etarliligini aniqlash uslubi keltirilgan.

7.13-jadval

**Zaxira va xarajatlarni koplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganlikni tahlili**

| № | Ko'rsatkichlar | Yil boshiga | Yil oxiriga | Farqi (+;-) |
|---|---|---|---|---|
| A | B | V | G | D |
| 1 | O'zlik mablag'larning manbalari | 201292 | 234146 | 32854 |
| 2 | Uzoq muddatli aktivlar | 251184 | 265548 | 14364 |
| 3 | Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli o'zlik manbalari (1-2) | -49892 | -31402 | 18490 |
| 4 | Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli uzok muddatli karz mablaglari | 118815 | 113768 | -5047 |
| 5 | Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli uzlik va uzoq muddatli qarz mablaglari (3+4) | 68923 | 82366 | 13443 |
| 6 | Qisqa muddatli kredit va qarzlar | 7849 | 9945 | 2096 |
| 7 | Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz mablag'lari (5+6) | 76772 | 92311 | 15539 |
| 8 | Zaxira va xarajatlarning jami | 7946 | 12216 | 4270 |
| 9 | Zaxira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarning yetarliligi yoki yetishmasligi (3-8) | -57838 | -43618 | 14220 |
| 10 | Zaxira va xarajatlarni qoplashga o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalarining yetarliligi yoki yetishmasligi (5-8) | 60977 | 70150 | 9173 |
| 11 | Zaxira va xarajatlarni qoplashga jami manbalarning yetarliligi yoki yetishmasligi (7-8) | 68826 | 80095 | 11269 |

7.13-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki korxonada zaxira va xarajatlar qoplashga o'zlik manbalar yetarli emas, biroq yil oxirida

bu borada sezilarsiz ijobiy o'zgarish mavjud. Bu borada o'zlik va qarz manbalarini, hamda jami manbalarning yetarliligi ta'minlangan. Hatto, ular o'tgan yilga nisbatan ko'paygan. Demak, korxona o'zlik manbalarini ko'paytirish ustida chora-tadbirlarni belgilashi kerak. Bu bilan zaxira va xarajatlarni o'z hisobidan moliyalashtira olish holatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil obyekti bo'yicha xo'jalik me'yor darajasida barqarorlikka ega.

Korxonaning moliyaviy holatini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlar quyidagilardan iboratdir:

**1. Jami mablag'dagi xo'jalikning o'ziga qarashli mablag' ulushi:**

$$\frac{\text{Xo'jalikning o'ziga qarashli mablag'i (O'z mablag'lari manbai)}}{\text{Jami mablag' (balans jami)}}$$

Bunda o'ziga qarashli mablag' ulushi qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik moliyaviy barqarorlik yuqori bo'ladi.

**2. Xo'jalikdagi qarzga olingan mablag'lar bilan o'ziga qarashli mablag' o'rtasidagi nisbat:**

$$\frac{\text{Qarzga olingan mablag'}}{\text{O'ziga qarashli mablag'}}$$

Ko'rsatkichni pasayib borishi moliyaviy barqarorlik bu borada yaxshilanayotganligini bildiradi.

**3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffisienti:**

$$\frac{\text{Uzoq muddatga olingan qarz mablag'}}{\text{Xo'jalikning o'ziga qarashli mablag'} + \text{Uzoq muddatga olingan qarz mablag'i}}$$

Ushbu ko'rsatkichni 0,5 dan 0,1 ga qarab pasayishi bu boradagi ijobiy holatni ifodalaydi.

**4. Korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘larining chaqqon harakatchanlik koeffisienti:**

$$\frac{\text{O‘ziga qarashli aylanma mablag‘}}{\text{O‘ziga qarashli jami mablag‘}}$$

0,1 dan yuqori bo‘lishi ijobiy moliyaviy holatni aks ettiradi.

**5. Eskirishning jamlanish koeffisienti (immobilizatsiya):**

$$\frac{\text{asosiy vositalarning eskirish summasi}}{\text{asosiy vositalar qiymati}}$$

Bu ko‘rsatkich 0,5dan kichik bo‘lshi asosiy vositalarning yaroqliligini ko‘rsatib beradi.

**6. Xo‘jalikdagi jami mulkning harakatchanligi (chaqqonlik) koeffisienti**

$$\frac{\text{aylanma mablag‘lar}}{\text{jami mulk}}$$

Mazkur ko‘rsatkich mablag‘larning aylanishdagi qismini ifodalaydi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish xo‘jalikning moliyaviy holatini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi. Agar ko‘rsatkichlarni o‘zgarishi ijobiy tomonga yo‘nalgan bo‘lsa, demak, moliyaviy holat mustahkamlanib borayotganini bildiradi.

Shuningdek, moliyaviy holat tahlilida korxona mablag‘larining likvidlilik darajasi, uning to‘lov qobiliyati, aylanma mablag‘larning aylanishi, pul oqimlari, xususiy kapital, asosiy vositalar holatidagi o‘zgarishlar keng ko‘lamda o‘rganiladi.

Moliyaviy holat tahlili natijalari kompleks baholanadi.

**Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:**

- kopmleks iqtisodiy tahlil;
- ishlab chiqarishning muhim iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- mehnat resurslari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- asosiy vositalarni tasniflash belgilari;
- asosiy vositalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari;
- material qaytimi va sig‘imi;
- gorizontal, vertikal va trendli tahlil;
- moliyaviy holat bilan bog‘liq muhim samaradorlik ko‘rsatikichlari.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Kompleks iqtisodiy tahlil qanday tashkil etiladi?
2. Tizimli tahlil necha bosqichdan iborat?
3. Kompleks iqtisodiy tahlilda qanday ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi?
4. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini tahlil etishda qanday ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi?
5. Ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natijalarni baholashda o‘rganiladigan eng muhim iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari?
6. Korxona moliyaviy holatini tahlil etishda o‘rganiladigan muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning mohiyatini tushuntirib bering?
7. Korxonaning asosiy vositalari va pul oqimlarini o‘rganishda aniqlanadigan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari tarkibiga qaysi ko‘rsatkichlar kiritiladi?

**Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:**

**1-topshiriq.**

Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilish jarayoniga baho bering.

| Kompleks iqtisodiy tahlilning mazmuni va uning oldiga qo‘yilgan vazifalar | Kompleks iqtisodiy tahlil metodikasining bosqichlari nimalardan iborat? | Kompleks iqtisodiy tahlil metodikasi bosqichlariga sharh yozing |
|---|---|---|
| | | |

**2-topshiriq.**

Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan omillar va ularning tasnifini o'rganing.

| Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan omillarni tasnifiy belgilari | Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan omillar tasniflangan turlari | Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni har biriga sharh yozing |
|---|---|---|
| A) | | |
| | | |
| | | |
| V) | | |

**3-topshiriq.**

Ushbu mahsulot hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlarga sharhlar yozing.

| Yalpi mahsulot nima va uning tarkibi | Tayyor mahsulot nima va uni tarkibi | Tovar mahsuloti nima va uni tarkibi | Sotilgan mahsulot nima va uning tarkibi |
|---|---|---|---|
| | | | |

**4-topshiriq.**

Mehnat resurslari tahliliga oid nazariy yondoshuvlaringizni bayon eting.

| Mehnat resurslari to'g'risida o'z fikringizni yozing | Mehnat resurslari tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar | Mehnat resurslari tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlarga tegishli hisob-kitoblar (formulalar) | Izoh |
|---|---|---|---|
| | A)<br>V)<br>) | | |

**5-topshiriq.**

Mehnat unumdorligining tahliliga iod nazariy va uslubiy yondoshuvlaringizni bayon eting.

| Mehnat unumdorligi nima? | Mehnat unumdorligining tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar | Mehnat unumdorligi tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlarga tegishli hisob-kitoblar (formulalar) | Izoh |
|---|---|---|---|
| | A)<br>V)<br>) | | |

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar yordamida o'rganiladi?

Har bir ko'rsatkichga sharh yozing.

Ish vaqti fondiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsatib bering va ularga sharh yozing.

**6-topshiriq.**

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlilini amalga oshiring.

| Asosiy vositalardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarni yozing | Asosiy vositalardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarni hisoblash formulalarini yozing | Asosiy vositalardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarni hisoblash formulalariga sharhlar yozing |
|---|---|---|
| | | |

**7-topshiriq.**

Korxona moliyaviy natijalarini tahlilining uslubiy asoslarini izohlang.

| Amaldagi "Xarajatlar tarkibi... to'g'risida"gi Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarning shakklanishini tartib bilan ko'rsatib bering | Har bir alohida ko'rsatilgan moliyaviy natija turining hisoblash tartibini ko'rsatib bering | Har bir alohida ko'rsatilgan moliyaviy natija turini shakllantirishdan maqsad nima ekanligiga sharh yozing |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

**Test savollari:**

**1. Kompleks iqtisodiy tahlilda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.**

A. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi;

B. Mehnat vositalaridan samarali foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi;

C. Ishlab chiqarish va faoliyat natijaviyligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

**2. Ishlab chiqarish asosiy fondlari va moddiy aylanma mablag'lar bo'yicha rentabellik ko'rsatkichi qaysi javobda to'g'ri aniqlangan?**

A. (Asosiy faoliyatdan olingan foyda x 100) / asosiy vositalar + moddiy aylanma mablag'lar;

B. (Asosiy faoliyatdan olingan foyda x 100) / aktiv fondlar + passiv fondlar;

C. (Asosiy faoliyatdan olingan foyda x 100) / balans aktivi 1-bo'lim + 2-bo'lim jami;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

**3. Bir kunlik mehnat unumini tahlil qilishda hisoblanadigan qiymat ko'rsatkichi bu ...**

A. Mahsulot hajmi / ishchilar soni;

B. Mahsulot hajmi / kishi soat;

C. Mahsulot hajmi / jami ishlagan kishi kunlar;

D. Mahsulot hajmi / boshqaruv xodimlar soni;

**4. Ish vaqtidan foydalanishning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Ishchilar soni va mehnat unumdorligining o'zgarishi;

B. Ishchilar soni, bajarilgan kishi-kuni va ish-kuni davomiyligi o'zgarishi;

C. Kishi kuni va kishi-soatlarining o'zgarishi;

D. Mehnat unumdorligi.

**5. Asosiy fondlarning texnik holatini tahlil qilishda hisoblanadigan ko'rsatkichlar bo'lib:**

A. Yaroqlilik va eskirish darajasi;

B. Yangilanish, eskirish va yaroqlilik darajasi;

C. Eskirish va yangilanish darajasi;

D. Yaroqlilik va yangilanish darajasi.

**6. Asosiy vositalar ishlab chiqarishda ishtirok etishiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:**

A. Aktiv va passiv asosiy vositalarga;

B. Passiv asosiy vositalarga va ishlab chiqarish asosiy vositalariga;

C. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalariga va aktiv asosiy vositalarga;

D. Korxona ixtiyoridagi asosiy vositalarga va ijaraga berilgan asosiy vositalarga.

**7. Asosiy vositalarning eskirish koeffisenti qaysi javobda to'g'ri aniqlangan?**

A. Asosiy vositalarning eskirish summasi / asosiy vositalar boshlang'ich qiymati;

V. Asosiy vositalarning eskirish summasi / jami mulk;

C. Asosiy vositalarning eskirish summasi / asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati;

D. Asosiy vositalarning eskirish summasi / uzoq muddatli aktivlar;

**8. Sotishdan olingan yalpi foyda quyidagicha aniqlanadi:**

A. Sotishdan olingan sof tushumdan o'zgaruvchan xarajatlar chegiriladi;

B. Sotishdan olingan sof tushumdan o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar ayirib topiladi;

C. Sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi ayirib topiladi;

D. Sotishdan olingan tushumdan sotish hajmiga soliqlar (qo'shilgan qiymatga soliq, aksiz, reklama va boshqa sotishlar hajmiga soliqlar) ayirib topiladi.

**9. "Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga binoan xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:**

A. To'g'ri va egri xarajatlar, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar;

B. Ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari, favqulodda xarajatlar (zararlar);

C. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar;

D. Davr va o'zgaruvchan xarajatlar.

**10.O'z mablag'lari rentabelligi quyidagicha aniqlanadi:**

A. (O'z mablag'lari x 100) / sof foyda;

B. (Sof foyda x 100) / ustav kapitali;

C. (Sof foyda x 100) / xususiy kapital;

D. (Sof foyda x 100) / o'z mablag'lari jami.

**11. Bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi:**

A. Mahsulot(ish, xizmat) hajmi / ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni;

B. Mahsulot (ish, xizmat) hajmi / xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni;

C. Mahsulot (ish, xizmat) hajmi / ishlangan ish kunlari;

D. Mahsulot (ish, xizmat) hajmi / ishlangan ish soatlari;

**12. Muayyan davr oralig'ida jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi – bu...**

A. Yalpi ichki mahsulot;

B. Yalpi milliy mahsulot;

C. Sof mahsulot;

D. Tovar mahsuloti;

**13. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining fond qaytimi:**

A. Mahsulot hajmi / mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymati;

B. Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati / mahsulot hajmi;

C. Mashina va uskunalar o'rtacha yillik qiymati / mahsulot hajmi;

D. Mahsulot hajmi / Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati

**14. Sistemalilik, to'liqlik, o'z vaqtidalik, umumiylik va boshqalar. Ushbu tamoyillar qaysi tahlilga tegishli?**

A. Kompleks iqtisodiy tahlil;

B. Funksional-qiymatli tahlil;

C. Tezkor tahlil;

D. Istiqbolli tahlil;

**15. Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi birlarini kompleks iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar qatoriga kiritiladi?**

A. Mehnat resurlaridan samarali foydalanishni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili; Mehnat vositalaridan samarali foydalanishni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili;

B. Mehnat ashyolari, buyumlaridan samarali foydalanishni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili;

C. Ishlab chiqarish va faoliyat natijaviyligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili; Moliyaviy holat va to'lov layoqatini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

# VIII bob. IQTISODIY TAHLILDA INFORMASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

## 8.1. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning roli va o'rni

Davlatimizning ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha asosiy hujjatlaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»[1]da bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), internet va kompyuter tarmoqlari negizida tashkil etish zarurligi alohida ta'kidlangan. Respublikamiz ta'lim tizimida ushbu vazifalar o'z vaqtida hamda samarali amalga oshirilmoqda. Belgilangan maqsadga erishishda uzviy va izchil, o'zaro uyg'unlashgan tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, o'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini joriy qilish maqsadida "Elektron ta'lim" milliy tarmog'ini barpo etish hamda barcha oliy o'quv yurtlarini, keyinchalik esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini yagona kompyuter axborot tarmog'iga ulashni ta'minlash vazifasi..." belgilab berilib[2] hozirgi davrda mazkur tadbirlar kompleks tarzda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Shu yo'nalishning davomi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi[3] qarorida belgilangan oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va

---

[1] O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997.

[2] Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T.: O'zbekiston, 2011.–35 b.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Xalq so'zi, 2011-yil, 21-may.

modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv va ilmiy-uslubiy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarini ta'lim standartlari bo'yicha takomillashtirish hisobiga tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish tadbirlari amaliy faoliyatga joriy etilmoqda. Ushbu vazifalarni yanada muvaffaqiyatli bajarilishi uchun bu borada o'z ijobiy natijasini bera oladigan yangi innovatsion chora-tadbirlar hamda takliflar ishlab chiqilib soha amaliyotiga joriy qilinishi zarur. AKT ga asoslangan nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qilish esa pirovard natijada ijtimoiy-iqtisodiy samaralarini beradi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bu iqtisodiy tahlil ishlarini amalga oshirishning zamonaviy shaklidir. Mazkur tizim tegishli obyektning maqbul boshqarish uchun zamonaviy texnik vositalardan va texnologiyalardan foydalaniladigan, boshqaruv jarayonlari modellarini tuzadigan, ularni o'lchash va baholash usullarini ishlab chiqadigan, mutaxassislar yordamida faoliyat ko'rsatadigan inson-mashina tavsifidagi yaxlit mexanizmdir.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan tizimda boshqaruv mutaxassislari, zamonaviy texnik vositalar va usullar, uning faoliyat ko'rsatishida, o'z oldiga quygan vazifalarni hal qilishda muhim rol uynaydi.

Inson informatsion texnologiyalarga asoslangan tizimda ishini tashkil etadi, maqsad qo'yadi, vazifalarni belgilaydi, faoliyat dasturlarini tuzadi, natijalirni baholash mezonlarini ishlab chiqadi hamda boshqaruv funksiyasini ijro etish metodikasini takomillashtiradi.

Zamonaviy texnik vositalar (turli kompyuterlar, dasturlar, aloqa vositalari va boshqa vositalar), boshqaruv usullari bilan birgalikda kuchli va zaruriy qurol hisoblanib boshqaruv faoliyatini tezlashtirish, kengaytirish, chuqurlashtirishga imkon berib, uning sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'taradi.

Boshqariladigan obyektlarning zamonaviy modeli informat-sion texnologiyalarga asoslangan tizimning tarkibiy elementi sifatida boshqariluvchi obyektlarning mohiyati va mazmunini ochib berishda, undagi o'zgarishlarni o'lchash metodlarini

aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z ichiga mantiqiy so'zlar va matematik ifodalarni oladi; ular boshqaruv obyektda bir-birga bog'liq elementlarni ifodalaydi; ko'rsatkichlar tizimini qurilishi va tuzilishi; xo'jalik faoliyati mohiyati va natijalarini aks ettiradi; ularni rivojlatirish maqsadi va mezonlarini ifoda etadi.

Amaldagi modellarni takomillashtirish birinchi navbatda ishlab chiqarishni boshqaruv sohalarida ko'llaniladigan nazariy va amaliy fanlar rivojlanishiga va ularning yutuqlarini modellar konstruksiyasi tuzishda tadbiq etilishiga bog'liq.

Modellarga boshqaruv usullarini joriy etish, ular jumlasiga boshqaruv funksiyasi uslubiyoti ya'ni tahlilni kiritish zaruriy shartdir. Chunki, u modellar bilan birgalikda informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining metodik ta'minotini tashkil etadi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimidagi zamonaviy texnik vositalar, modellar va boshqaruv metodlari iqtisodiy tahlilning funksiyalarining imkoniyatlarini to'la amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu holatda, ko'p variantli masalalar ichidan eng maqbul echim oson topiladi, ichki xo'jalik rezervlari to'la ochib beriladi, ularni tez o'zlashtiradi, rejalarni bajarishda yuzaga kelgan holatlarni o'z vaqtida aniq baholaydi, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak o'z faoliyatini boshqaruv funksiyalari bilan bog'laydi. Bularning barchasi informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida tahlil funksiyasi samaradorligi va rolini oshiradi.

Hozirgi davrda analitik vazifalar informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining kichik tizimlari tarkibiga kiritib yuborilgan. Ular kichik sistemalar nomlanishida goho uzilmaydi, goho uziladi. Masalan, "Iqtisodiy rejalashtirish va tahlil", "Buxgalteriya hisobi va tahlil" va shu kabilar.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining tarkibidagi kichik tizimlarida xo'jalik faoliyati tahlili tushunchasiga markazlashgan tarzda yondashish kutilgan natijalarni bermaydi. Kichik tizimlar ichida analitik masalalarni lokal tarzda dasturlash ularni uslubiy jihatdan umumlashtirish, mantiqiy, muddat va informatsiya texnologik aloqasi, bir xil analitik hisoblar va bir xil turdagi ma'lumotlarni ko'plab kiritish

kabi ishlarda kamchiliklar borligini namoyon etadi va bu ma'lumotlarni bir tizimda qayta ishlash hamda tahlilni kompleks o'tkazishda uning rolini susaytiradi. Tahlilni "Buxgalteriya hisobi va tahlil" tizimi bilan birlashtirish esa uning tezkorligiga hamda yoppasiga o'tkazilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu tartib faqatgina buxgalteriya ma'lumotlarini kiritish va ularni qayta ishlab, asosan iqtisodiy jarayonlarni natijalarini aks ettirishga yo'naltirilgandir. Bundan tashqari kichik tizimlar ishlanayotgan paytda analitik masalalar tahlil nuqtai nazaridan qaralmaydi. Shu sababli barcha dasturlar ishlar ichida uning qismi 15-20% dan oshmaydi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining rivojlanishi va uning yanada takomillashtirish xo'jalik faoiyati tahlili funksiyasini informatsion texnologiyalarga asoslanishini talab etadi. Shu sababli "Kompleks iqtisodiy tahlil" nomli alohida funksional kichik tizimli informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi paydo bo'ldi. Uning bu tartibdagi faoliyati boshqarishning texnologik jarayonlarida va masalalarni yechimiga tizimli yondashishda tahlil funksiyalari rolini oshirishga qaratilgandir. Bu kichik tizim informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida quyidagi afzalliklarni namoyon etadi:

- xo'jalik faoliyatida ro'y bergan ijobiy yoki salbiy holatlarning sabablarini aniq bilishga imkon yaratadi;
- boshqariladigan obyektga ularning miqdor va sifat tomonidan ko'rsatgan ta'sirini aniqlaydi;
- boshqaruv tizimining yanada samarali ishlashga o'tkazish uchun yangi variantlar topiladi;
- eng asosiysi tahlil yordamida xo'jalik faoliyatini yanada yaxshilashning qo'shimcha imkoniyatlari aniqlanadi.

Tahlil boshqaruv funksiyasi sifatida boshqaruv tizimi bilan birgalikda bir maqsadga qaratilgan, shu tufayli boshqa boshqaruv funksiyalari bilan chambarchas bog'langan. Masalan rejalashtirish bilan uni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqishda bir tomondan, boshqa tomondan esa rejaning bajarilishi uchun tahlil muhim vosita hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi tahlilni boshqariladigan obyekt holati haqida zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Boshqaruvni eng maqbul qarorlarini qabul qilishda va ishlab chiqarishda analitik

ma'lumotlar tahlil natijasida olinadi. Demak, boshqaruv obyektiga tizimli yondashish informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi strukturasi va mazmuni uning tarkibida mustaqil «Kompleks iqtisodiy tahlil» kichik tizimi alohida tarzda faoliyat ko'rsatishni talab etadi

## 8.2. Analitik ma'lumotni kompyuterda ko'rib chiqishni tashkillashtirish

Analitik ishni kompyuter dasturlari vositasida bajarish davr talabidir. Buning zaruriyati boshqaruv qarorlari uchun asos bo'ladigan axborotlarni o'ta tez va o'z vaqtida olinishini ta'minlashdir.

Hozirgi zamon informatsion texnologiyalari hamma iqtisodiy ma'lumotlarni, shuningdek, korxona faoliyati tahlilini ko'rib chiqishni ham butunlay kompyuterlashtirish imkonni beradi. Natijada esa:

- iqtisodchi-tahlilchilar ishining samaradorligi oshadi. Ular texnik ishdan bo'shab, chuqur tadqiqotlarni amalga oshirishga yordam beradigan ijodiy faoliyat bilan, qiyin iqtisodiy masalalarni yechish bilan shug'ullanadilar.
- iqtisodiy jarayonlar chuqur va har tomonlama tahlil qilinadi, korxona samaradorligini oshirish usullari o'rganiladi.
- tahlilning tezkorligi va sifati, uning umumiy holati va ta'siri oshadi.

Analitik hisoblarni kompyuterlashtirish zamonaviy elektron hisoblash mashinalirini qo'llash amalga oshiriladi. Ularning bazasida esa avtomatlashtirilgan buxgalter, iqtisodchi, moliyachi, tahlilchi va boshqa ish joylari yaratilmoqda.

Avtomatlashgan iqtisodchi-tahlilchining ish joyi bu informatsiya, dastur va texnik resurslar yig'indisi bo'lib, u analitik hisoblarni mutaxassis boshqaruvida avtomat tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tahlilchi avtomatlashtirilgan ish joyini yaratish uchun shartli talablardan biri bu texnik bazaning (HM larning), korxona xo'jalik faoliyatining ma'lumot bazasining, bilimlar bazasining (tahlil metodikasi va usullari) va analitik masalalar yechimini avtomatlashtiradigan dastur vositalarining mavjudligidir.

Tahlilchining avtomatlashtirilgan ish joyini yaratish bir qator uslubiy, texnik, dasturiy va informatsion ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan elementlarni tashkillashtirishni talab qiladi.

Uslubiy ta'minot tahlilni o'tkazishda umumiy va xususiy uslubiy tizimlar yig'indisidir.

Texnik ta'minot informatsion tizimning ishlashiga mo'ljallangan: kompyuterning turli xil modellari, yig'ish, ko'rib chiqish, ma'lumotni chiqarish va yetkazib berish kabi texnik vositalar kompleksini o'z ichiga qamrab oladi.

Dasturiy ta'minotiga umumtizim hamda maxsus dastur mahsulotlari kiradi. Umumtizim dastur ta'minotiga turli xildagi ma'lumotni ko'rib chiqishga mo'ljallangan universal dasturlar, misol uchun, statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqish uchun, maqbullashtirishga oid masalalarni yechish uchun paketlar kiradi. Maxsus dastur ta'minotiga maxsus soha bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar to'plami (maxsus analitik masalalarni yechishga qaratilgan) kiradi. Ular lokal va kompleks (umumiy) programmalar bo'lishi mumkin.

Lokal dasturlar bir xil ko'rinishdagi masalalarni yechishda bir necha marotaba foydalanishga mo'ljallangan.

Korxona faoliyatining hamma sohasini qamrab oluvchi, *kompleks tahlil dasturi* juda murakkab tuzilgan tizimni o'z ichiga qamrab oladi. Uni ishlab chiqarishda quyidagilar talab qilinadi:

1) kompleks iqtisodiy tahlil masalalarini izohlash;

2) algoritm va masalani echish modellarini ishlab chiqish, ya'ni SHEHM uchun masalalarning matematik izohlash;

3) yangi informatsion tizimni ishlab chiqish, avtomatlashtirilgan ish joyi tahlilchi uchun ma'lumotlar bazasini yaratishi;

4) Iqtisodiy tahlil masalarini echish uchun SHEHM algoritm tilida dastur ishlab chiqish;

5) avtomatlashtirilgan ish joyi tahlilchini korxona faoliyatini boshqarish amaliyotiga joriy qilish.

Avtomatlashtirilgan ish joyi tahlilchining samaradorligi ko'p holda tahlil metodikalarning mukamallashganligi, zamon talablariga qanday javob berishi, shuningdek, EHM larning texnik holatiga bog'liq. EHM larning funksional takomillashishi, resurslarni

kengayishi iqtisodiy tadqiqotlarni chuqurroq olib borishga, analitik masalalarni maqbul usullarini keng qo'llashga imkon yaratadi.

### 8.3. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tashkil etish tamoyillari va mazmuni

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida «Kompleks iqtisodiy tahlil»ni tashkil qilish tizimdagi barcha umumiy tamoyillarga asoslanadi. Bu bilan informatsion, matematik, texnik va tashkiliy masalalar metodik jihatdan to'g'ri hal qilinadi hamda tizim elementlarining o'zaro aloqasi va boshqa kichik tizimlar bilan bog'liqligi ta'minlanadi.

Ularga quyidagi tamoyillarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin:

Tizimli yondashish. "Kompleks iqtisodiy tahlil" tizimi informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi, ayni paytda o'z elementlaridan tashkil topgan mustaqil faoliyat ko'rsatib tahlil funksiyasini maqbul shaklda bajaruvchi tizim deb qaraladi;

To'xtovsiz rivojlanish tamoyili. Mazkur tamoyil an'anaviy usuldagi barcha nazariy va amaliy tomonlarga matematik, mantiqiy, texnik, texnologik, tashkiliy, uslubiy jihatlar va boshqa shu kabilar) tinimsiz yangi sifat jihatdan takomillashgan o'zgarishlarni tadbiq etib borilishga asoslanadi.

Ma'lumotlarni kiritish va chiqarishni minimallashtirish tamoyili. Uning mohiyati ma'lumotlarni ortiqcha kiritish, qayta ishlash va chiqarish masalasidagi kamchiliklarni bartaraf etishdir. Iqtisodiy tahlil tizimi boshqa tizimlardan farqi tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni oladi, qayta ishlaydi va foydalanishga tahlil natijalarini chiqarib beradi, qaysiki ular asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilinadi.

Funksional va dasturiy yondashishning bog'liqligi. Mazkur tamoyilga amal qilish faqatgina tahlilning funksional vazifalarini hal qilib qolmasdan, balki kompleks dasturlarni bajarishni ham nazarda tutilishini ta'minlaydi.

"Kompleks iqtisodiy tahlil"ni tashkil etishda sanab o'tilgan asosiy umumtizim tamoyillar bilan birgalikda uning informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida tutgan o'rnidan, vazifasidan kelib chiqadigan o'ziga xos tamoyillarini ham hisobga olish zarur. Ulardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz:

Informatsion texnologiyalarga asoslangan analitik hisob-kitoblarni maqsadga muvofiqligi. Mazkur tamoyil mehnat talab qiladigan hisob-kitoblarni, ularning shakllantirilish ishlarini kompyuterlarga yuklatilishi, qolgan barcha ijodiy jarayonlar inson tomonidan amalga oshirilishiga asoslanadi.

Tahlilning komplekslliligi. Xo'jalik faoliyatida boshqariladigan obyektni tadqiq etishda har tomonlama yondashishni bildiradi;

Tahlilning metodik ta'minotini rivojlantirish tamoyili. Analitik vazifalarni informatsion texnologiyalarga asoslanishini hal qilish ularni oldindan uslubiy jihatdan hamda boshqaruv maqsadiga ko'ra tekshirishni talab etadi. Bundan tashqari, ko'p xo'jalik faoliyati turi paydo bo'lish bosqichida turadi, shu sababli mazkur tamoyilga amal qilish tizimni uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida kichik tizimlarni parallel rivojlanish tamoyili "Kompleks iqtisodiy tahlil» da analitik masalalarni yechimi boshqa tizimlar ma'lumotlariga asoslanadi. Shunga ko'ra mazkur tizim masalalarni qayta ishlash va joriy etish avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidagi boshqa tizimlar faoliyatiga muvofiq tarzda belgilangan bosqichlar bo'yicha tashkil etiladi.

Uslubiy birlik tamoyili. Tizimning turli kompleks yoki bloklarda bir turdagi analitik masalalarni bajarilishi va amalga oshirilishining yagona uslubini talab etadi. U analitik ma'lumotlarni qayta ishlashning tartibi hamda ro'yhatini bir me'yorga keltirish imkonini yaratadi.

Aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan natijaviy analitik ma'lumotlar tamoyili. Mazkur tamoyil tizimda qayta ishlanib tayyor bo'lgan ma'lumotlar miqdori, shakli, turi bo'yicha aniq foydalanuvchiga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun etkazib berishni ta'minlashga asoslangandir.

"Kompleks iqtisodiy tahlil" tizimini tashkil etishda yuqoridagi tamoyillariga amal qilish, uning turli elementlari, qismlarini boshqa tizimlar bilan aloqasini tartibga solish va samarali ishlashida o'z natijasini beradi.

O'rganilayotgan kichik tizimning tarkibiy qismlarini boshqaruv tizimining turi bo'yicha bir-biridan farqlangan xo'jalik faoliyatini tahlili tashkil etadi.

Ular:

- tahlil turlarida yechiladigan alohida va o'zaro bog'langan obyektlar;
- kompleks yoki analitik masalalarni darajasi va masshtabi;
- uslubiy, matematik, texnik va tashkiliy elementlardan iborat bo'ladi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida analitik masalalarni samarali hal etilishi ko'p jihatdan tahlil metodikasini takomillashganligiga, ya'ni turli darajadagi ijtimoiy ishlab chiqarishning boshqarishni zamon talablariga javob berishiga bog'liq.

Xo'jalik faoliyat tahlili bo'yicha metodik materiallar analitik masalalarni kompyuterlarda qayta ishlashda foydalaniladigan quyidagi jihatlarni o'zida aks ettirishi zarur:

analitik va boshqa ko'rsatkichlar tushunchasiga aniq mazmunli ta'rif berilishi;

shartli belgilarni bir xil bo'lishi;

analitik ko'rsatkichlar hisoblarini amalga oshirishda eng maqbul usullarni ko'llash, kiritiladigan va chiqariladigan informatsiyalarni aniq ro'yhati, shuningdek, analitik jadvallar shakli va shu kabilar.

Mazkur talablar ma'lumotlarni informatsion texnologiyalarga asoslangan tarzda qayta ishlash shartlaridan kelib chiqadi. Noaniq yoki mazmuni to'liq ochib berilmagan ko'rsatkichlar analitik masalalarni hisob-kitob qilishda, dasturlarni ishlab chiqishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Agar ko'rsatkichlarni shartli belgilarini birligi hamda masalalarning eng maqbul yechish usullari ko'llanilmas ekan,bu ham analitik masalalarni ishlash algoritmlarini tuzishda ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ko'rsatkichlarni belgilashda birlikni ta'minlash maqsadida ularni tavfislovchi so'zlarning bosh harfi olinishi maqsad muvofiqdir. Misol uchun, Yalpi mahsulot – YaM, Tovar mahsuloti – TM.

Bazis, reja, me'yoriy va haqiqatdagi ko'rsatkichlarni ifodalash uchun so'zlarni kichik bosh harflarini olish kerak va shartli belgini ifodalovchi bosh harflarning yuqori qismining o'ng tomoniga yoziladi. Misol uchun, $TM^r$, $TM^x$ rejadagi va haqiqatdagi tovar mahsuloti.

Ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omllarni belgilash uchun ham so'zlarning bosh harfi kichik ko'rinishda ifodalaniladi va asosiy shartli shartli belgining pastki qismining o'ng tomoniga yozilishi kerak. Masalan, haqiqatdagi tovar mahsulotining ko'payishi mehnat unumdorligini oshishi hisobiga bo'lishi

$$+TM^x_{mu}$$

Uslubiy belgilarni to'la va aniq ifodalanishi analitik masalalarni algoritmlash tamoyilini bajarilishida muhim rol o'ynaydi. U bilan hisoblash ishlari ro'yhati, mantiqiylik va bir-biriga bog'liqlik, ularning bajarilishi, matematik izohlanishlari ta'minlanadi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimda "Kompleks iqtisodiy tahlil" kichik tizimining matematik ta'minoti ko'p tomondan uning samaradorligini aniqlaydi. U til va dastur vositalari kompleksni qamrab olib masalalar echimi algoritmlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Algoritmlash jarayonini tayyorlash ko'p mehnat talab qiladigan faoliyat jumlasiga kiradi. Analitik masalalarni algoritmlari kichik tizimdagi algoritm kompleksga birlashadi, u esa boshqaruv algoritmi bilan bir qatorda ishchi va standart algoritmlardan iborat bo'ladi.

Ishchi algoritmlar turli variantdagi masalalarni bajarishda qo'llansa, standart algoritmlar esa – zaruriy to'ldirishlar bilan aniq turdagi masalalarni hal qilishga tayinlangan bo'ladi.

Mazkur tizimning matematik ta'minotining dastur qismi ma'lumotlarni ishlashni struktura (tahlil turi bo'yicha) va

bosqichlari (kiritish, nazorat, turlarga ajratish va hokazo) bo'yicha bo'linadi.

Uslubiy ko'rsatmalar bilan o'zaro bog'langan dasturlar birgalikda kichik tizimning matematik ta'minotini tashkil etadi. Uning tarkibida:

- analitik masalalarni matematik algoritmlari;
- mashina algoritmi;
- namunaviy dasturlar;
- ko'rsatmalar va boshqa ta'minot qismlari bo'ladi.

Mazkur kichik tizimni tashkil etishda informatsiya ta'minoti muhim o'rin egallaydi. Uning asosini tahlil ma'lumotlari modeli tashkil etadi. Unda ma'lumotlar jalb etilishi, tartibi, uni rasmiylashtirish kabi vazifalar ko'rsatib beriladi. Tahlil masalalari tartibidan kelib chiqib boshlang'ich massivlar aniqlanadi: ma'lumotlar to'plash tartibi, rasmiylashtirish, oqimi va hajmi, yangilanish davri, saqlanish muddati chiqariladigan hujjatlar, ularning taqdim etish tartibi va davri alohida mujassamlanadi. Informatsion ta'minot boshqa informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimidagi kichik tizimlar ma'lumotlar bazasini hamda massivlarini o'ziga qamrab oladi va tahlil turi bo'yicha kerakli ma'lumotlarni saqlaydi. Reja, hisob ma'lumotlari bilan birgalikda kiritilgan axborotlar asosida kichik tizimning analitik masalalarini yechadigan funksional massivlar to'ziladi. Faoliyat natijasida chiqariladigan informatsiyalar shakllantirilib boshqaruv ehtiyojlari uchun yetkazib beriladi yoki ularning ma'lumotlar bazasini to'ldiradi.

"Kompleks iqtisodiy tahlil" tizimida ma'lumotlar ta'minotini qurilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- informatsion texnologiyalarga asoslangan ma'lumotlarni tashkil etishda uslubiy va tashkiliy birlik bo'lishligi;
- bir marta ma'lumotlarni kiritish va undan ko'p marta foydalanish;
- ma'lumotlarni markazlashgan tarzda saqlash;
- ma'lumotlarning kod va shifrlarini bir tizimga keltirish;
- boshqa tizim massivlari bilan aloqasini ta'minlash;
- savol-javob rejimida ishlash;

- ma'lumotlar massivlarini tizimda saqlashni ta'minlash.

Kichik tizimda ma'lumotlar ta'minotini loyihalashtiri-lishida foydalanish talabiga ko'ra ma'lumotlarni tayyorlashga katta e'tibor beriladi. U faqat zaruriy ma'lumotlarni emas, balki uning muddatini ham nazarda tutadi. Bu jihat esa boshqaruv funksiyalarini to'liq bajarilishi uchun asos hisoblanadi.

Kichik tizimning samarali ishlashida texnik ta'minot ham muhim o'rin tutadi. U bir necha turdagi texnik vositalar yig'indisidan iborat bo'lib, analitik masalalar uning yordamida o'z vaqtida yechiladi.

Texnik vositalarning qulayligi, ish bajarish hajmi, tezligi va arzonligi zamonaviyligi tizim tashkil etilayotganda e'tibor beradigan muhim jihatidir.

Yana tizimning zaruriy bo'limlaridan biri tashkiliy ta'minotdir. U o'zida alohida shaxslar va bo'limlar, ularda ko'llaniladigan usullar va vositalarni aks ettirib kichik tizimni tashkil etishni va samarali funksiyani ta'minlaydi. Tashkiliy ta'minotda quyidagi masalalar hal qilinadi:

- korxona tarkibiy bo'linmalarga bo'linadi;
- bo'linmadagi aniq analitik ishga javobgar shaxs tayinlanadi;
- bo'limlardagi shaxslarga tahlil ishlarini amalga oshirish topshiriladi va javobgarlik yuklatiladi;
- analitik ishlarni bajarishga mutaxassislar tanlanadi va kiritiladi;
- bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro aloqa va birgalikda harakat tashkil qilinadi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan tahlil ishlarini yanada yuqori darajaga ko'tarish uchun informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida xo'jalik faoliyatini tahlil qiluvchi maxsus kengash tashkil etilishi zarur. Mazkur kengash tashkiliy metodologik funksiyalarni takomillashtirish bilan shug'ullanib, kichik tizimni yanada samarali ishlashini ta'minlaydi.

Tashkiliy ta'minot usullariga: huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy, xodimlar va texnik vositalar aloqasini tartibga solish kabilar kiradi.

Tashkiliy ta'minot vositalari kichik tizimni yaratilishiga hamda uning amalga oshirilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

**Birinchi guruh**: umumtarmoq boshqaruvning uslubiy materiallari, namunaviy loyiha yechimlari bo'yicha uslubiy material, informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida mazkur kichik tizimning takomillashtirish va joriy etish to'g'risida uslubiy materiallar;

**Ikkinchi guruh**: korxona va uning bo'linmalari to'g'risida nizom, lavozimlarga tegishli ko'rsatmalar, analitik masalalarni yechimini tashkil etish uchun ko'rsatma va shu kabilar.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida "Kompleks iqtisodiy tahlil" ning o'zi hamda uning elementlari (uslubiy, matematik, informatsion, texnik) rivojlanib boradi. Mazkur sifat jihatdan o'zgarish informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining boshqa kichik tizimlari bilan chambarchas bog'liqlikda amalga oshiriladi.

## 8.4. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi analitik masalalar tasnifi

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimidagi "Kompleks iqtisodiy tahlil" tizimida ko'plab miqdordagi analitik masalalar hal qilinadi.Ularning aniq tasnif qilinishi masalalarning navbatma-navbat ishlanib joriy etilishiga, natija esa tizimning funksiyasini samaradorligini oshirishga ta'sir etadi. Obyektga tizimli va kompleks yondashish rejalashtirish, hisob va tahlil masalalarini boshqaruv maqsadi va funksiyasi uchun yagona tavsifini talab etadi.

Analitik masalalarning ijtimoiy tamoyillar talablariga javob bera oladigan tasnifining amaldagi turi mazmun tavfisi bo'yicha ajratishdir.

Boshqaruv jarayoniga bog'liqligiga ko'ra mazkur belgi bo'yicha masalalar quyidagi ko'rinishni oladi:

- tabiiy-buyumlashgan – aniq iste'mol qiymatini yaratishga ko'ra;
- iqtisodiy – qiymatni shakllanishiga ko'ra;
- ijtimoiy – ijtimoiy sohadagi faoliyat bo'yicha;
- ekologik – tabiiy muhitni saqlash bo'yicha.

Analitik masalalar boshqaruv darajasi va turiga ko‘ra ham tasnif etiladi.

Birinchi belgi bo‘yicha: brigada, sex, bo‘lim, korxonaning xo‘jalik faoliyati tegishli masalalarga bo‘linadi.

Ikkinchi belgi bo‘yicha: boshqaruv turi bo‘yicha esa – tezkor, joriy va istiqbolli masalalarga ajratiladi.

O‘z navbatida muayyan belgilar bo‘yicha guruhlangan masalalarning ichida boshqariladigan obyekt mazmuniga ko‘ra ham guruhlarga ajratiladi. Masalan, birinchi guruh muayyan mahsulot yaratish bo‘yicha quyidagicha bo‘linishi mumkin; ishlab chiqarishni tayyorlash, mehnat vositalari va predmetlari bilan ta’minlanish, ishlab chiqarish yordamchi ishlab chiqarish, sotish jarayoni va shu kabilar.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil natijalari obyekt ma’lumotlaridan foydalanish maqsadiga ko‘ra ichki va tashqi foydalanuvchilar yo‘nalishi bo‘yicha ham alohida tayyorlanadi.

Ichki foydalanuvchilarga mo‘ljallangan tahlili ma’lumotlari boshqaruv ehtiyojiga ko‘ra barcha soha, jarayonlarni aks ettirish mumkin.

Tashqi foydalanuvchilar uchun esa ma’lumotlar olish obyektlari cheklangan bo‘ladi.

Iqtisodiy tahlilga oid ko‘plab adabiyotlarda ma’lumotlarni informatsion texnologiyalarga asoslangan tarzda qayta ishlashda analitik masalalarni boshqa belgilariga ko‘ra ham tasnif etishlar tavsiya etiladi.

Lekin ularning barchasini asosida bir mazmun u ham bo‘lsa iqtisodiy tahlil funksiyasini informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida doimiy va samarali amalga oshirishni ta’minlash etadi.

## 8.5. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning rivojlantirish istiqbollari

Hozirgi davrda "Kompleks iqtisodiy tahlil" kichik tizimi informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida to'la ma'noda rivojlanayotgani yo'q.

Ma'ruzada bayon etilgan informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida mazkur tizimning o'rni, roli va mazmuni asosan nazariy bilimlar hamda shu bilan birgalikda amaliy tajribalarga asoslanib yoziladi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining iqtisodiy tahlil funksiyalari hamda uning keng yoyish – uning yaqin kelajakdagi rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida xo'jalik foliyatini tahlil qilish tizimining sifat jihatdan tinimsiz takomillashtirib borish ham ustivor ahamiyatga ega yo'nalish bo'lib, bu bilan uning tobora samarali ishlash ta'minlanadi.

Agar informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining rivojlanishi ikkinchi yo'nalishdan borsa, u holda boshqaruvchi tizim (KIT) o'z mohiyatini saqlab qolgan holda o'zgaradi.

Ayni davrda informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining tarkibida texnologik jarayonlarni informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimini (TJITABT) shaklini qo'llanilishi ko'proq samara bermoqda. Biroq bu xo'jalik faoliyatini boshqarishning informatsion texnologiyalarga asoslanishini bir tomoni bo'lib, unda yangitdan yaratilayotgan iste'mol qiymatini tabiiy buyumlashgan jihatini ifodalaydi. Lekin, mazkur jarayon aniq mahsulot qiymatini shakllanishi bilan chambarchas bog'lanlangan va barcha sarflar xarajat ko'rinishida hisobga olinadi. Shuning uchun informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimining takomillashtirishning navbatdagi bosqichi TJITABT ni xo'jalik jarayonini iqtisodiy tarkibiy qismi deb qaralib butun boshqaruv obyektini muhim elementi tarzida faoliyati ta'minlanadi.

Boshqaruvning samaradorligiga ko'p jihatdan ijtimoiy masalalar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur obyektning ham informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimiga kiritish muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan korxonani ijtimoiy-iqtisodiy masalalari o'rganib boriladi.

TJITABT bilan iqtisodiy, ijtimoiy va boshqarish kichik tizimlarini birlashtirilishi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida xo'jalik faoliyatini rejalashtirish, hisob, tahlil, tartibga solish va ularning boshqaruv funksiyalari bilan birgalikda rivojlanishining istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimidagi "Kompleks iqtisodiy tahlil" tizimida "Moliyaviy tahlil" qismining ham alohida obyekt sifatida tashkil etish shart. Chunki moliyaviy tahlil ma'lumotlari istalgan paytda foydalanuvchiga etkazilishi yoki o'rganilishi zarur bo'lib qoladi. Bu bir tomondan tezkorlikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan tahlil ishlarini osonlashtiradi.

Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish ishlarida mutaxassislar roli ham juda kattadir. Shuning uchun korxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tashkil qila oladigan, uni samarali ishlashina ta'minlaydigan, ilg'or yangiliklarni joriy etadigan mutaxassislarni tayyorlash vazifalarini ham har doim bajarilishi lozim.

Hozirgi paytda, ayniqsa kelajakda, tahlilni kompyuterlarsiz tassavur qilish mumkin emas. Shu tufayli iqtisodiy tahlil mazkur belgi bo'yicha ham tasniflanadi va ular uch guruhga bo'linadi: odatdagidek, kompyuterlashtirilmagan tahlil, qisman kompyuterlashtirilgan tahlil va to'liq kompyuterlashtirilgan tahlil.

Odatdagidek, kompyuterlashtirilmagan tahlilga hozirgi an'anaviy tahlilni misol qilish mumkin. Bu tahlil buxgalteriya, statistik, tezkor hisob va hisobotlar ma'lumotlariga asosan, an'anaviy hisoblash mashinalari orqali amalga oshiriladi.

Qisman kompyuterlashtirilgan tahlilga yarim kompyuterlashtirilgan yoki ayrim qismlari kompyuterlarda, qolgan qismlari odatdagidek hisob-kitoblarda amalga oshiriladigan tahlil kiradi. Masalan, xo'jalik faoliyatining ayrim qismlari hisobi kompyuter-

larda amalga oshiriladigan bo'lsa, shu soha tahlili ham kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi paytlarda ko'pgina firmalarning ish haqini hisoblash kompyuterlashtirilgan. Qolgan qismi esa odatdagidek an'anaviy tarzda amalga oshiriladi.

Va nihoyat oxirgi bosqichdagidek, kompyuterlashtirilmagan tahlilga hozirgi an'anaviy tahlilni misol qilish mumkin. Bu tahlil buxgalteriya, statistik, tezkor hisob va hisobotlar ma'lumotlariga asosan, an'anaviy hisoblash mashinalari orqali amalga oshiriladi.

Ushbu guruh tahlili quyidagi chizmada o'z aksini topgan.




*8.1-chizma. Iqtisodiy tahlilning kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha tasnifi*

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

- tahlil jarayonida qo'llaniladigan kompyuter dasturlari;
- informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi;
- korxonalarni samarali boshqarishda tahlilga oid kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- respublikamizda iqtisodiy tahlilning dasturiy ta'minoti;
- tashkiliy ta'minot usullari;

- tashkiliy ta'minot vositalari;
- informatsion texnologiyalar asosida tahlilni rivojlantirish istiqbollari.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi to'g'risida tushuncha bering.
2. Respublikamizda xo'jalik subyektlari iqtisodiy tahlilga oid qanday dasturiy ta'minotlardan foydalanmoqda?
3. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni tashkil etish tamoyillarini ko'rsatib bering.
4. Boshqaruv tizimida analitik masalalar qanday tasniflanadi?
5. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning rivojlanish istiqbollarini ko'rsatib o'ting?
6. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida qo'llaniladigan kompyuter dasturlari va ularning afzalliklari nimalardan iborat?

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: «NORMA», 2012.

2. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni, 1991-yil 15-fevral.

3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, 1996-yil 30-avgust.

4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni, 2000-yil 26-may.

5. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni, 2003-yil 11-dekabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori (keyingi o'zgarishlar bilan birga): «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

7. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari. – T.: O'zR. BMA, 2011-y.

8. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 1996-y.

9. Karimov I.A. – Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. – T.: O'zbekiston, 2002-y.

10. Karimov I.A. «Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida». –T.: O'zbekiston, 2005.

11. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etish yo'llari va choralari». –T.: O'zbekiston, 2009-y.

12. Karimov I.A. «2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi». Xalq so'zi, 2012-yil 20-yanvar.

13. Abdullayev Yo, Ibrohimov A, Raximov M. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob – T.: «Mehnat», 2001-y.

14. Бердникова Т.Б. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Учеб. пособие. –М.: ИНФРА-М, 2010.

15. Баканов М.И., Шеремет А.Д., Теория экономического анализа: Учебник. –М.: Финансы и статистика, 1999.

16. Баканов М.И., Шермет А.Д. Экономический анализ. М.: «Финанс и статистика», 1999 г.

17. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». /Darslik. –T.: Sharq, 2005.

18. Vaxobov A., Ibroximov A., Xakimov B. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. TMI. Toshkent, 2003.

19. Вахрушина М.А. Управленческий анализ. /Учебно-практический курс - М.: “Омега-Л”, 2006. – 250 с.

20. Dehqonov S., Asrorov I. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Ma’ruza matnlari. Toshkent, 2000-y.

21. Qudratov T.K. – Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanidan muammoli leksiyalar kursi. Samarqand, 2004-y.

22. Калинина А.П. и др. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. /Учебник – М.: “Высшее образование”, 2005. – 382 ст.

23. Соколова Н.А., Каверина О.Д. Управленческий анализ. /Учебник –М.: “Бухгалтерский учет”, 2008. – 345 с.

24. Qudratov T.K., Ibragimov M.I. Iqtisodiy tahlil. /O‘quv qo‘llanma. (Kasb-hunar kollejlarining “Buxgalteriya hisobi” yo‘nalishi talabalari uchun) – Toshkent, 2005-y.

25. Ibroximov A., Ishonkulov N. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanidan masalalar to‘plami va ularni yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar». –T.: TMI bosmaxonasi, 2005.

26. Калинина А.П. и др. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. / Учебник – М.: “Высшее образование”, 2007.

27. Pardayev M. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. «Zarafshon» nashriyoti, Samarqand, 2001.

28. Савицкая Г.В. "Методика комплексного анализа хозяйственной деятельности": Краткий курс. – 3-е изд., испр. –М.: ИНФРА-М, 2008.

29. Савицкая Г.В. "Анализ хозяйственной деятельности предприятия" / Учебник. – 5-е изд., испр. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2009.

30. Xakimov B.J., Alimov B.B., Xolmirzayev U.A., Po'latov A.X. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. /O'quv qo'llanma. Toshkent. «Iqtisod-moliya», 2012-y.

31. Xakimov B., Choriyev I., Qalandarova N. Iqtisodiy tahlil nazariyasi fanidan masalalar to'plami. Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2010-y.

32. Чернышева Ю.Г. Чернышев Э.А. Анализ финансово-хозяйственной деятельности –Ростов. МарТ., Феникс, 2010.

33. Шагиясов Т.Ш. Теория экономического анализа. Учеб. пособие. ТФИ.Ташкент, 2005. – 192 с.

34. Шагиясов Т., Сагдиллаева З., Файзиев Б. Финансовый и управленческий анализ. / Учебник. –Т.: Иқтисод-Молия, 2008.

35. Shog'iyosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-Moliya, 2009. – 220 b.

36. Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 280 b.

37. Internet saytlari:

- www.mf.uz
- www.nalog.uz
- www.stat.uz
- www.tsue.uz
- www.reportcom.uz
- www.ziyonet.uz

**MUNDARIJA**

Kirish ..... 3

**I-BOB. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi**

1.1. Bilish nazariyasi va iqtisodiy tahlil ..... 6
1.2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ..... 14
1.3. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilni tashkil topishi va rivojlanishi ..... 20
1.4. Turli mulkchilik shaklida iqtisodiyot subyektlarini to'g'ri boshqarishda tahlilning roli ..... 35
1.5. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari (prinsiplari) ..... 45
Mavzu bo'yicha tayanch iboralar ..... 48
Takrorlash uchun savollar ..... 48
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 48
Test savollari ..... 49

**II-BOB. Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari**

2.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy tahlilning mazmuni ..... 51
2.2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti ..... 57
2.3. Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari ..... 62
2.4. Iqtisodiy tahlil fanining fanlar tizimida tutgan o'rni va ular bilan bog'liqligi ..... 66
2.5. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar, ularning turlari va tavsifi ..... 69
Mavzu bo'yicha tayanch iboralar ..... 77
Takrorlash uchun savollar ..... 78
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 78
Test savollari ..... 79

**III-BOB. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar**

3.1. Raqobatdosh iqtisodiyotda iqtisodiy tahlilning metodi va uning o'ziga xos muhim xususiyatlari ..... 81
3.2. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi haqida tushuncha va uning asosiy elementlari tavsifi ..... 86

3.3. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar va ularni guruhlarga ajratish ..... 97
3.4. Iqtisodiy tahlil jarayonida taqqoslash usulining qo'llanilishi ..... 102
3.5. Ko'rsatkichlarni taqqoslama ko'rinishga keltirish usullari . 111
3.6. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usuli ..... 117
3.7. Iqtisodiy tahlilda o'rtacha miqdorlardan foydalanish ..... 121
3.8. Guruhlashtirish usuli ..... 123
3.9. Iqtisodiy tahlilda balans usuli ..... 126
3.10. Zanjirli bog'lanish usuli ..... 128
3.11. Mutloq farqlar usuli ..... 132
3.12. Indeks usuli ..... 133
Mavzu bo'yicha tayanch iboralar ..... 135
Takrorlash uchun savollar ..... 135
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 136
Test savollari ..... 137

**IV-BOB. Iqtisodiy masalalarni hal qilishda tahlilning iqtisodiy-matematik usullarini qo'llanilishi**

4.1. Tahlil jarayonida iqtisodiy matematik usullarni qo'llashning zaruriyati ..... 140
4.2. Iqtisodiy matematik usullarning turlari ..... 145
4.3. Determinallashgan modellar va xo'jalik faoliyatidagi omillar tizimining tahlili ..... 147
4.4. Stoxastik modellar va xo'jalik faoliyatidagi omillar tizimining tahlili ..... 154
4.5. Chiziqli dasturlash usuli va uning tahlilda ko'llanilishi ..... 179
4.6. Nazariy o'yin usuli va tahlilda foydalanishning o'ziga xos tomonlari ..... 180
Mavzu bo'yicha tayanch iboralar ..... 183
Takrorlash uchun savollar ..... 183
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 184
Test savollari ..... 185

**V-BOB. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari hamda tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari**

5.1. Iqtisodiy tahlil va uni turlarga ajratish ..... 188
5.2. Moliyaviy tahlil ..... 197

5.3. Boshqaruv tahlili ..... 200
5.4. Tezkor (Operativ) tahlil ..... 202
5.5. Joriy tahlil ..... 204
5.6. Istiqbolli tahlil ..... 206
5.7. Kompleks tahlil ..... 212
5.8. Funksional qiymat tahlili ..... 214
5.9. Diagnostik tahlil ..... 225
5.10. Ichki xo'jalik va korxonalararo tahlil ..... 226
5.11. Hudud, tarmoq va vazirlik bo'yicha tahlil ..... 228
5.12. Tahlilning boshqa turlari ..... 230
5.13. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari va ularga qo'yiladigan talablar ..... 232
Mavzu bo'yicha tayanch iboralar ..... 242
Takrorlash uchun savollar ..... 242
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 243
Test savollari ..... 244

**VI-BOB. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish**
6.1. Korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy qoidalari ..... 247
6.2. Korxonada iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish shakllari va uning ijrochilari ..... 248
6.3. Iqtisodiy tahlil ishlarini rejalashtirish ..... 251
6.4. Tahlilning axborot (informatsiya) hamda uslubiy ta'minoti 251
6.5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etishning bosqichlari ..... 256
6.6. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish ..... 260
Mavzu bo'yicha tayanch iboralar ..... 262
Takrorlash uchun savollar ..... 262
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 263
Test savollari ..... 263

**VII-BOB. Kompleks iqtisodiy tahlil hamda ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari tahlilining uslubiy asoslari**
7.1. Kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish ..... 266
7.2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning muhim ko'rsatkichlari tahlili ..... 272

7.3. Mehnat resurslari va ular samaradorligi ko'rsatkichlarining tahlili ..... 275
7.4. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanishning tahlili ..... 279
7.5. Moddiy zaxiralar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili ..... 285
7.6. Xarajatlar va mahsulot ishlab chiqarish tannarxining tahlili 288
7.7. Moliyaviy natijalar hamda rentabellik ko'rsatkichlari tahlili ..... 291
7.8. Korxona moliyaviy holati tahlili ..... 298
Mavzu bo'yicha tayanch iboralar ..... 303
Takrorlash uchun savollar ..... 304
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 304
Test savollari ..... 307

**VIII-BOB. Iqtisodiy tahlilda informatsion texnologiyalardan foydalanish**
8.1. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning roli va o'rni ..... 311
8.2. Analitik ma'lumotni kompyuterda ko'rib chiqishni tashkillashtirish ..... 315
8.3. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tashkil etish tamoyillari va mazmuni ..... 317
8.4. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi analitik masalalar tasnifi ..... 323
8.5. Informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning rivojlantirish istiqbollari ..... 327
Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ..... 328
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ..... 329

**N.F.Ishonqulov, M.Q.Pardayev, A.T.Ibrohimov,**
**K.M.Misirov, U.A.Nurmanov**

# IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 5230900 – "Buxgalteriya hisobi va audit"(tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

*«Sano-standart» – Toshkent, 2014*

*Muharrir:* *A.Tilavov*
*Texnik muharrir:* *U.Saidov*
*Musahhih:* *S.Bozorova*
*Dizayner:* *U.Saidov*

Nash.lits. № AI 245. 02.10.2013.
Terishga 04.08.2014-yilda berildi. Bosishga 20.10.2014-yilda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 $^{1/16}$. Ofset bosma. «Times» garniturasi. Shartli b.t. 19,25.
Nashr b.t. 21,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma №31.
Bahosi shartnoma asosida.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.
Telefon: (371) 228-07-94, faks: (371) 228-07-95.

ISBN 978-9943-4365-9-6

«Sano-standart»
nashriyoti